

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

**“MADANIYATSHUNOSLIK” FANIDAN
MA‘RUZALAR MATNI**

QARSHI – 2015

Tuzuvchilar:

prof: Y.A. Ergasheva
dots: D.I. Vasiyeva
katta o'qituvchi: Z. S. Safarova
dots v.b.: Ch.H. Temirova
dots v.b.: F.E. Ochilov
katta o'qituvchi: S.B. Murtazova
assistent B.O'. Boqiyev

Taqrizchilar:

QarDU "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari"
kafedrası dotsenti G'. Soatov

QarMII "Falsafa" kafedrası
mudiri: dots. Yu. Manzarov

Kirish

Madaniyatshunoslik (Madaniyat nazariyasi va tarixi) fani Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tizimida o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi eng yosh fandır.

Mustaqillik sharofati bilan Madaniyatshunoslik fanini o'rganish va o'qitish Oliy o'quv yurtlari o'quv jarayoniga kiritildi.

Mazkur fan madaniyat nazariyasi va tarixiga oid masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflash bilan cheklanib qolmaydi, balki talabalarning madaniyatning mohiyatini aniqlab olishlari va to'g'ri ang'lay olishlariga, malaka va ko'nikma hosil qilishlariga hamda ijodkorlik mayillari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Undan tashqari xalqimizning ming yillar davomida yaratilgan milliy qadriyatlari, an'analari, diniy e'tiqodi, tili, dunyoqarashi va tafakkuridan iborat ma'naviy madaniyat va merosini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish asosida milliy istiqlol g'oyasining tamoyillarini yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilish, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish ma'naviyat vohasi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning shu jumladan «Madaniyatshunoslik» predmetining, asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

«Madaniyatshunoslik» fanidan ma'ruza soatlarining taqsimoti

Ma'ruza mavzulari		
1-mavzu	Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.	2 soat
2- mavzu	Jahon madaniyati bosqichlari.	2 soat
3- mavzu	Dunyoviy va diniy madaniyat. Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI-XXI asrlar)	2 soat
4- mavzu	Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davr madaniyati.	2 soat
5- mavzu	Markaziy Osiyo xalqlarining ilk o'rta asrlar (V-VIII asrlar) madaniyati.	2 soat
6- mavzu	Markaziy Osiyo xalqlarining IX-XIII asrlardagi ijtimoiy - madaniy hayoti.	2 soat
7- mavzu	Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr)	2 soat
8- mavzu	XVI –XIX asrning birinchi yarmida mintaq xalqlari madaniyati. Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida madaniyat.	2 soat
9- mavzu	Mustaqillik va madaniy taraqqiyot	2 soat

1- Mavzu: Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.

Reja:

1. Madaniyatshunoslik kursining maqsadi va vazifasi.
2. «Madaniyat» tushunchasi va uning mohiyati.
3. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.
4. Dunyo madaniyatshunosligida nazariy muammolarning echimi:
 - axborot sohasidagi globallashuvning dunyo xalqlarini madaniy boyliklarni o'zlash-tirishlariga imkoniyat yaratayotganligi;
 - sivilizasiya va hozirgi zamon.;
 - ochiq jamiyat va madaniyat tushunchalari;
 - dunyo madaniyati, madaniyat va siyosat.
5. Madaniy va ma'naviy meros. Musta-qillik sharoitida o'z-bek milliy mada-niyatini rivojlanti-rishning nazariy asoslari.

Adabiyotlar:

1;2;10;11; 12;13;14;15

Tayanch tushunchalar:

Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati. Moddiy va ma'naviy madaniyat, madaniyat tarixini o'rganishda xolislik, ilmiylik, tarixiylik, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalari, madaniyat tarixini davrlashtirish.

1. Ushbu mavzuni o'rganishda avvalo «Madaniyatshunoslik» fanining o'rganish predmeti va maqsadi, uning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar qatoridagi o'rni va ahamiyati, umuman madaniyat tushunchasini mohiyati kabi masalalarga alohida e'tibor berish lozim. Tabiiyki, savol tug'iladi: bu fanni o'rganishdan maqsad va foydasi nimadan iborat? Shuning uchun har bir fanning asoslari o'rganish, uning predmeti va ob'ektini aniqlashdan boshlanadi. «Madaniyatshunoslik» fani madaniy jarayonlarning nazariy asoslarini qadimiy davrdan hozirgi kunga qadar insoniyat tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyot davomida vujudga keltirgan va yaratilayotgan moddiy va ma'naviy ob'ektlar, madaniy jarayonlar va ularning natijalari, madaniy meros yodgorliklarini o'rganadi.

Yer yuzida 5 milliarddan ortiq axoli yashaydi. Qari-yu yosh, erkagu – ayol, har biri o'z davlatining fuqarosi. Uyidan tashqari har bir odam o'z xalqining vakilidir. Demak, har bir odam, o'z xalqining madaniyatini o'zining xalqiga xos bo'lgan turmush tarzi, tili, urf-odati ega va boshqalarni xam ular bilan tanishtiradi.

Butun insoniyat turli xalqlardan iboratdir. Ba'zilari – «xitoyliklarga» o'xshab millionlarni tashkil etadi; gohlari esa «taraka» xalqiga (Afrika –Kenya) o'xshab yuz kishini tashkil etadi. Olimlarimiz er yuzida qancha odam yashayotganini hisoblashgan bo'lsada, lekin hozirgacha qancha xalq, elat, urug'lar yashayotgani aniqlanmagan. Ular har hil tillarda so'zlashadilar va har biri o'zining boy tarixiga va madaniyatiga ega. Aniqlanishicha, ular mingdan ortiq. Har bir xalqning tarixi va madaniyati insoniyatning murakkab tarixi va madaniyati bilan chanbarchas bog'liq.

Hozirgi dunyo voqealarini va ularning taqdirini, oqibatini tushunish uchun, xalqlarning hozirgi hayoti o'tmishdan qolgan moddiy va ma'naviy merosi bilan bog'liqligini tushunish lozim. Odamzodning o'tmish va hozirgi kunlari madaniy va moddiy merosini o'rganayotgan fanlar juda ko'p. Ular ichida juda jiddiy fanlar: tarix va falsafa, arxeologiya va etnografiya, lingvistika, (tilshunoslik) va jo'g'rofiya. Lekin shu fanlar ichida, xozirgi kunda yangi fanlardan biri – bu «madaniyatshunoslik» fanidir.

«Madaniyatshunoslik» - bu tarixiy fan, boshqa predmetlar singari keng doiradagi fanlar ichiga kiradi. (tarix, sosiologiya, etnografiya) Lekin bu fanning o'ziga xos xususiyatlari bor.

«Madaniyat» tushunchasi juda keng tushuncha. Bu tushunchani har hil fanda olimlar turli ma'noda ishlatishadi: arxeologlar ashel, shell, mustyo yoki boshqa madaniyatlar haqida gapirganda, mikrobiologlar – bakteriyalar madaniyati haqida, qishloq xo'jalik xodimlari – paxtachilik, sholichilik madaniyati haqida

gapiradilar. Amerikalik madaniyatshunoslar hozirgi vaqtda «madaniyatning» 500 tushunchasini qayt ettirishadi. Tabiiyki, bu sharoitda har bir tushuncha bilan tanishishni imkoniyati yo'q.

«Madaniyatshunoslik» fanining vazifasi faqat shundan iborat emas. Zamonaviy madaniyatshunoslikda «madaniyat» tushunchasi 4 yirik ma'noni aks ettiradi: 1) shaxsiy madaniyat, yoki aloxida odam madaniyati (odamning yurish-turishi, kiyinishi; muomalasi – «madaniylik») 2) Bu gurux madaniyati – milliy, sinfiy, professional, oilaviy; 3) ma'lum bir jamiyatning ma'lum bir davrda mujassamlangan madaniyati; 4) insoniyat madaniyati.

Demak, madaniyat tushunchasi keng ma'noda jamiyatning, inson ijodiy kuch va qobiliyatlarining, tarixan muayyan taraqqiyot darajasini, kishilarning biror shakldagi hayoti va faoliyatida, hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarining yig'indisini aks ettiradi.

«Madaniyat» tushunchasi muayyan a) tarixiy davr (antik, o'rta asrlar madaniyati), b) konkret jamiyat, elat va millatni hamda v) inson faoliyati yoki hayotining o'ziga xos sohalari (turmush madaniyati, nutq madaniyati, mehnat madaniyati) tavsiflash uchun qo'llaniladi; tor ma'noda – kishilar ma'naviy hayoti sohasi.

Agar moddiy madaniyat ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilishi, uning texnika jihatdan qurollanganlik darajasi, moddiy boylik yaratuvchilarning ixtisoslashish darajasi bilan belgilansa (kishilar faoliyatining ashyoviy natijalari – mashinalar, inshootlar, bilish natijalari, san'at asarlari va boshqalar); ma'naviy madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklar yig'indisini o'z ichiga oladi. (bilim, mirishkorlik, fan, o'quv, ko'nikma, axloqiy va estetik kamolot, dunyoqarash, din, kishilarning muomala usullari va shakllari). Ammo ma'naviy madaniyat tushunchasini bunday ifodalash bilan uning keng imkoniyatlari doirasini chegaralab qo'yamiz. Shuning uchun ham, ma'naviy madaniyat deganda faqat ma'naviy boyliklarning o'zinigina emas, balki uning inson va jamiyat rivojida tutgan o'rnini va rolini ham nazarda tutamiz.

Moddiy madaniyat bilan ma'naviy madaniyat uzviy bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishi asosida moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti yotadi.

Xullas, madaniyatning hamma tomonlari va sohalari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Umuman madaniyatning mazmunini, uning turli tomonlari va sohalarining o'zaro aloqadorlik darajasini, oqibat natijada. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, iqtisodiy tarakkiiyotga ta'sir etadi. O'tmish madaniyatning barcha qimmatli tomonlari meros bo'lib o'tadi.

Inson qay darajada madaniyatni yaratsa, shu darajada madaniyat ham insonni shakllantiradi. Shu bois har bir xalq o'zining takrorlanmas madaniyatiga ega, har bir xalq dunyo madaniyatida o'z tutgan o'rniga ega, insoniyatning jahon madaniyati xazinasiga har biri o'lkan hissa qo'shadi. Undan tashqari xalqlarining madaniyati bir-biridan o'z xususiyatlari bilan ajralib tursalarda, lekin tarixiy jarayonlar oqibatida bir-birlarini to'ldirib kelgan.

Shu bois biz o'rganmoqchi bo'lgan «madaniyatshunoslik» fani bir nechta asosiy qismga bo'linadi: madaniyat nazariyasi, jahon madaniyati tarixi; O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi; san'atshunoslik, xaykaltaroshlik. Qayd etilganlar orasidan biz jahon madaniyati tarixi bilan O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi qismlarini o'rganamiz.

«Madaniyatshunoslik» fanining asosiy maqsadi: qadimiy davrdan hozirgi kunga qadar yaratilgan nihoyatda boy madaniy merosini o'rganishdir.

Bu fanning Asosiy vazifalaridan biri millatlararo do'stlik, insonparvarlik va madaniylikni shakllantirish. Har bir inson o'z ota-onasini, o'z ona tuprog'i, o'z millati va xalqi, o'z tarixi va madaniyatini qanday sevsa, «begonalarning» tarixi va madaniyatiga hurmat qilib mehr – muhabbat tuyg'usi bilan yondoshish hamda «o'zgalar» madaniyatining o'tmish madaniyatining qadriga etish, ongli ravishda insoniyat madaniy merosini saqlashga intilish tuyg'usini tarbiyalash vazifalari turadi.

Bundan tashqari, yana bir vazifa – insonda ijodkorlikni rivojlantirish. Madaniyat ijodkorlikni bir turi sifatida ham xizmat qilish kerak. Chunki har bir kishi madaniyat yodgorliklari va namoyondalari bilan faqatgina tanishib qolmasdan, balki ularni tushunishlari, ularga baho berishlari lozim.

Har bir fan singari «madaniyatshunoslik» ham o'zining o'rganish manbalariga ega. Bu esa juda ko'lamlidir. Birinchidan, saqlanib qolgan tarixiy obidalar yodgorliklar va ularning arxeologlar tomonidan izohlab berilishi. Arxeologiyada – madaniy qatlam degan tushuncha bor; bu inson faoliyatining izlari (qadimiy inshootlar, qurilish va xo'jalik chiqindilari va h.q) saqlangan er qatlami. Arxeologik qazilmalar g'oyat qimmatli bilim manbalaridir.

Ikkinchidan, u yoki bu tarixiy voqealarga yaqin vaqt ichida vujudga kelgan turli tillarda tuzilgan og'zaki manbalar; xalk ogzaki ijodi.

Uchinchidan, turli mamlakatlarda saqlanayotgan boy qo'lyozma asarlar, shoirlar, tarixchilar, yozuvchilar, olimu ulamolarning qoldirgan asarlari.

To'rtinchidan, me'morchilik, san'at, xaykaltaroshlik va musavvirchilik (rassomchilik) yodgorliklari.

Tarix fani singari madaniyat tarixi ham muayyan bosqichlar asosida o'rganiladi, ya'ni 1) ibtidoiy jamoa madaniyati, qadimgi (antik) madaniyat; 2) o'rta asrlar madaniyati; 3) uyg'onish davri madaniyati; 4) mutloq monarxiya davri madaniyati va «ma'rifatchilar» asri; 5) XIX-XX asrlar madaniyati. Har bir davr uchun «madaniyat» tushunchasidagi o'zgarishlar hamda madaniy rivojlanishdagi o'zgarishlar hosdir.

Masalan, Dastlab Madaniyat deyilganda insonni tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lat. Cultura – erni ishlash, parvarishlash; ruschadagi «kultura» so'zi ham shundan olingan). Qadimgi ellinlar «paydey», ya'ni «tarbiyalanganlik»lari bilan o'zlarini «madaniyatsiz» varvarlardan yuqori qo'yanlar. Qadimgi Rimning so'nggi davrlarida «Madaniyat» tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o'rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizasiya (ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va ma'naviy madaniyat darajasi, bosqichi) tushunchasiga yaqin turadi.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamiyatning etuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masaln, Farobiy ta'kidlashicha, «madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-baravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar haqiqiy ma'noda ozod yashaydilar». Masalan, 18 asr fransuz ma'rifatparvarlari (Volter, P.Tyurgo, J.A. Koidorse) madaniy tarixiy jarayonining mazmunini insoniyat «tafakkuri» ning taraqqiyotidan iborat deb bilganlar.

Xulosa qilib aytganda, har bir ijtimoiy-iqtisodiy davr o'z madaniyat tipiga ega. Ijtimoiy- iqtisodiy davrlarning almashinish bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, lekin bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganligini, yoki eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros va an'analardan voz kechilganligini anglatmaydi.

2.Madaniyatning rivojlanishi har bir mamlakatda mavjud tuzumga, milliy xususiyatlarga va davlat tomonidan olib boriladigan madaniy sohadagi siyosatga ko'p jihatdan bog'liqdir. Siyosat va jamiyatning siyosiy hayotida bo'ladigan o'zgarishlar madaniyatning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masalan, Oktabr tuntarilishidan sung kompartiya mafkurasining davlat siyosat darajasigacha ko'tarilishi sobiq Sovet Ittifoqining barcha jumhuriyatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham madaniy taraqqiyotga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatib keldi: o'zbeklar o'z boy madaniy meroslarining ajoyib durdonalaridan bahramand bo'la olmadilar. Albatta, o'tgan davr ichida ham madaniyatlarning o'zaro ta'sir ko'rsatish va boyish jarayonlari davom etdi. Ammo bu jarayon milliy madaniyatlarni bir qolipda rivojlantirishdan iborat bo'lgan yaroqsiz siyosat orqali amalga oshirildi. Bu siyosat natijasida milliy madaniyatlarning rivojlanishida bir tomonlama yo'l tutildi va milliy madaniyatlarni faqat rus madaniyati ta'sirida rivojlantirishga harakat qilindi. Bu siyosat milliy madaniyatdagi go'zallikka putur etkazdi.

Davlat siyosati madaniyatni rivojlanishida katta rol o'ynaydi, chunki u davlat tomonidan ishlab chiqiladigan ma'lum rejalar, ko'rsatiladigan turli shakllardagi yordamlar natijasida rivojlanib boradi. Ammo davlatning madaniyat sohasida amalga oshiradigan siyosati mafkuraviy manfaatlarni amalga oshirishga qaratilmasligi kerak.

Madaniyat ham o'z navbatida davlat faoliyatining rivojlanib borishga yordam beradi. Masalan, kishilar siyosiy ongining o'sib borishida

Maorif, o'rta va oliy ta'lim, adabiyot, fan, san'at, mafkura ma'naviy madaniyatning asosiy sohalari bo'lib, bu sohalarda amalga oshiriladigan har qanday o'zgarishda siyosatning ahamiyati benihoya kattadir. Ma'naviy madaniyatning muhim sohalaridan biri bu maorif.

Maorifning rivojlanishi aholini savodxonlik darajasini ko'rsatadi va kishilarning dunyoqarashini tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Ma'naviy madaniyat rivojlanishining yana bir ko'rsatkichi fandır. Jamiyat faqat ilmiy tafakkur yutuqlariga asoslangandagina rivojlanishi mumkin. Fan, bir tomondan, tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib, insoniyatning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, insonning o'zi ana shu qonuniyatlarni o'rganish va uni amalda qo'llash jarayonida ma'naviy kamolga erisha boradi. Fan va

texnika yutuqlari ishlab chiqarishga jalb qilinibgina qolmay, balki ana shu ishlab chiqarishning o'zi ilmiy bilimlarni mukammal egallab olish orqali amalga oshiriladi.

Fanning roli faqat ilmiy kashfiyotlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inson manfaatiga xizmat qildirishga qaratilmasdan, jamiyatning ma'naviy qiyofasini o'zgartirish orqali samarali natijalarga erishishni ham ko'zda tutadi. (ilmiy jihatdagi asoslangan yo'lni ishlab chiqish).

Fanlar ichida ijtimoiy fanlar alohida o'rnini tutadi. Hozir jahonda barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy fanlarni o'qitishga katta e'tibor berilmoqda va ular olib borilayotgan siyosatda muhim o'rnini egallamoqda. Bu mamlakatlarda ijtimoiy fanlar qaysidir sinf yoki siyosiy partiya manfaatlarigagina xizmat qilmaydi, balki ularda ijtimoiy fanlarni o'qitishdan kuzatilgan asosiy maqsad milliy siyosiy ongini rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, vatanparvarlik axloqini mustahkamlashdan iboratdir.

Ma'naviy madaniyatning muhim belgilaridan yana biri adabiyot bo'lib, u inson ruhiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy boylikdir. Adabiyotning barcha kishilar o'rtasidagi ommaviyligi hamda ta'sirchanligi bilan jamiyat ma'naviyatiga qo'shadigan hissasi beqiyosdir. U insoniyat tarixida yaratilgan barcha ma'naviy boyliklarni keyingi avlodlarga etkazishda, jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlarni o'zida ifoda etishda katta ahamiyatga egadir. Adabiyot har bir davrning ma'naviyatini ifoda etish bilan, birga, kishilarni hayotga tayyorlashda ularning siyosiy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy madaniyatning asosiy belgilaridan biri – san'at. Teatr, musiqa, rassomlik, kulolchilik, xalq hunarmandchiligi va boshqalar san'atining turli ko'rinishlari hisoblanadi. Ular bir-birlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, mamlakatda siyosiy ma'naviy va ijtimoiy jarayonlarining rivojlanishda katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy madaniyatning sohalaridan yana biri - din. Din – ijtimoiy ongning o'ziga hos shakllaridan biri, xudo yoki xudolarning «muqaddas» kuchining, ya'ni biror turdagi g'ayritabiiy kuchining mavjudligiga ishonishga asoslangan dunyoqarash va hissiyot, shuningdek, muayyan xulq va xatti – harakatlar majmui (sig'inish)

Ma'naviy madaniyatning muhim belgilaridan yana biri – bu mafkuradir. U muayyan manfaatlarni himoya qiluvchi siyosiy, huquqiy, falsafiy diniy va badiiy qarashlar tizimini ifoda qiladi. Uning asosiy faoliyati mamlakatda jamiyatni rivojlantirish g'oyalari atrofida birlashtirish va ularni g'oyaviy qurollantirishdan iborat.

Mafkura barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda, shu tuzumdagi turli sinflar va partiyalarning manfaati uchun xizmat qilib kelgan. U jamiyatda ijtimoiy fanlar, adabiyot, san'at, huquq va boshqa fanlar orqali targ'ib etib kelingan.

Xullas, madaniyatning barcha belgilari davlat siyosatida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi kunda davlat faoliyatini faollashtirish zaruriyati madaniyatning siyosiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhimligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Milliy madaniyatni rivojlantirish uchun o'tmishdagi madaniy merosdan keng foydalanish ham madaniy siyosatining asosiy yo'nalishidir. Ammo davlatning madaniyat sohasidagi siyosatida madaniyatning o'z milliy doirasi atrofida chegaralanib qolmasligi uchun zarur bo'lgan chora – tadbirlarni ko'rish va bu ishni izchillik bilan amalga oshirish muhim o'rin egallashi darkor. Buning uchun jahon madaniyatining ilg'or tomonlaridan milliy madaniyatlarining o'zaro boyishiga imkoniyatlar yaratish kerak.

Madaniyat, birinchi navbatda, milliy va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qilish zarur. Madaniyat siyosatining g'oyasi davlat, partiya yoki ayrim guruhlar tomonidan belgilab berilmasdan, balki xalqning umumiy maqsadlarini ifoda etuvchi g'oyalaridan kelib chiqishi shartdir.

Har qanday jamiyatda ham madaniyatning taraqqiyoti asosan moddiy hayot, iqtisodiy yuksalish darajasi bilan bog'liq bo'lsa-da, uning rivojiga, xarakteriga, darajasiga va mazmuniga boshqa qator ijtimoiy omillar ham shubhasiz ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy madaniy taraqqiyotida iqtisodiy bazis belgilovchi rol o'ynaydi. Madaniyat so'zsiz o'zi shakllangan va taraqqiy topgan tuzumni va davrni aks ettiradi. Mazkur tuzum madaniyat taraqqiyotida o'z ijtimoiy xarakterining muhrini qoldiradi. Shuning uchun ham, har bir xalqning madaniyati umumiy ijtimoiy qonuniyatlar asosida rivojlanishi bilan birga, ayni vaqtda, mazkur xalqning xususiyatlarini, psixologiyasini, xarakteri, urf-odatlarini, milliy an'analari va boshqa shu kabilarni ham o'zida aks ettiradi. U o'z xalqning iqtisodiy va siyosiy tuzumini, turmush tarzini aks ettirish orqali jahon madaniyati xazinasiga o'zining munosib hissasini qo'shadi. Bu turli xalqlarning tarixiy taqdiri, ularning iqtisodiy va ijtimoiy –

siyosiy munosabatlarning taraqqiyoti va xarakteri darajasiga, jo'g'rofik hamda boshqa ichki va tashqi sharoitlarning xususiyatiga bog'liqdir.

Madaniyat taraqqiyotining muhim umumsosiologik qonuniyatlaridan biri uning to'xtovsiz boyib borishi hisobiga ilgarilab boruvchi, progressiv xarakteridir.

Madaniyat tarixi insoniyatning asta-sekin taraqqiyotining, uning kuch va qobiliyatlari rivojlanishining, tabiat kuchlarini tobora ko'proq o'ziga bo'sundirishning, amaliy va ma'naviy tajribasining boyib borishi va takomillashtirishning yorqin dalilidir.

Madaniyat taraqqiyotidagi har bir qadam umuman butun insoniyat taraqqiyoti, jahon tarixiy taraqqiyotining bevosita ifodasidir.

Madaniyatning qo'lga kiritilgan yutuqlari insoniyat jamiyati taraqqiyotining har bir yangi bosqichida o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi, boyitiladi va yanada taraqqiy ettiriladi. Har bir yangi avlod o'zining faoliyatida ilgarigi avlodlar tomonidan to'plangan tafakkur materiallaridan, madaniy boyliklardan foydalanadi, avvalgi ijtimoiy taraqqiyot natijalarini meros qilib oladi va shu bilan birga ularni davom ettirib, tarixga o'zining hissasini qo'shadi, umuminsoniy madaniyat taraqqiyotida olg'a tomon qadam tashlaydi. Bu qonuniy aloqa tufayli butun taraqqiyotda pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga va doimo olg'a qarab boradigan harakatning yagona jarayoni maydonga chiqadi.

Jahon madaniyati har bir xalq madaniyatining eng etuk, eng yuksak namunalaridan tashkil topadi, u har bir milliy madaniyatdan umuminsoniy tomonlarni o'ziga mantiqan birlashtiradi. Shuning uchun Gomer, Aristotel, Shekspir, Ibn Sino, Gyugo, Bayron, Gegel, Tolstoy, Sa'diy, Navoiy, Tagor asaridan ularni yaratgan millat va xalqgina emas, butun insoniyat. Dunyodagi barcha xalqlar bahramand bo'ladilar, foydalanadilar.

Shunday qilib madaniy taraqqiyotning asosiy qonunlari bu 1) to'xtovsiz boyib borish; 2) progressiv xarakteri (pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga); 3) madaniy vorislik (meros); 4) har bir xalqning o'z madaniyatiga egaligi va jahon madaniyatiga o'z hissasini qo'shib umuminsoniy madaniyatni yaratilishi; 5) har bir davrni o'z madaniyati egaligi va madaniyatni avvalgi davrlar madaniyatidan kelib chiqishi, boyishi, yuksalib borishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Madaniyatshunoslik fani nimani o'rgatadi?
2. «Madaniyat» atamasining mazmuni nima va bu atama fandan qachon paydo bo'lgan?
3. Madaniyat deganda qanday ma'noni tushunasiz?
4. Inson va jamiyat hayotida madaniyat qanday o'rin tutadi?
5. Madaniyatning qanday tiplari mavjud?
6. Madaniyat qanday sohalarga bo'linadi?
7. Moddiy madaniyatning asosiy belgilari?
8. Ma'naviy madaniyatning ahamiyati nimada?
9. Madaniy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

2- Mavzu: JAHON MADANIYATI BOSQICHLARI

Reja:

1. Ibtidoiy madaniyatda olam haqidagi bilimlarning marosimlarda aks etishi. Diniy tasavvurlar va marosimlar.
2. Ibtidoiy san'at rivoji.
3. An'anaviy madaniyat. Qadimgi Sharq madaniyatining tarixiy va davriy chegaralari.
4. Qadimgi Messopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoy madaniyati.
5. Antik madaniyatning jahon madaniyatidagi o'rni. Qadimgi Yunon sivilizasiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.
6. Qadim Lotin madaniyati. Respublika va imperiya davri madaniyati. Ellinistik madaniyatning qadimgi Lotin madaniyatiga ta'siri. Sharqdagi ellinistik markazlar.

A D A B I Y O T L A R:

1;2; 10;11;12;13;14;15;18,19,20,21,22

Tayanch tushunchalar:

Ibtidoiy madaniyat, Shumer va akkad davrlari, diniy e'tiqodlar, Mixxat yozuvining paydo bo'lishi, adabiyot rivojining asosiy egalari va janrlari, afsonalar, tasviriy san'at va haykaltaroshlik, fan, me'morchilik, qadimgi yozuv, ierogliflar. Krit-miken madaniyati, yunon eposlari, olimpiada oyinlari, teatr, ellin madaniyati, doricha va yonicha order uslubi, etrusklar madaniyati, ritorika, oratorlik san'ati, satira, xristianlik, katolik cherkov, sxolastika, universitetlar.

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi – insoniyat tarixidagi birinchi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bo'lib, u ibtidoiy odamlarning paydo bo'lishidan to sinfiy jamiyat yuzaga kelguniga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda kishilar hayotining umumiy sharoiti va shu bilan birga, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi darajasining past bo'lishi va ularning xarakteri birgalikda, jamoa bo'lib mehnat qilish zaruriyatini tug'diradi, jamoa mehnati esa ishlab chiqarish vositalariga ham va mahsulotlarga ham jamoa bo'lib egalik qilishga olib keladi.

O'tmishda butun kishilik ibtidoiy davr yo'lini bosib o'tgan. Ayrim qabilalar va xalqlar bu davrni ma'lum darajada mustaqil bosib o'tib, o'z madaniyatini yaratgan va umuman madaniyat hazinasiga o'z hissasini qo'shgan. Biroq bunchalik uzoq o'tmishdan saqlanib qolgan ma'lumotlarning kamligi va g'oyat bo'lak-bo'lakligi tufayli, ayrim qabilalar va xalqlarning ibtidoiy tarixini har tomonlama va to'la tiklash uchun hozircha imkoniyat yo'q.

Ibtidoiy madaniyatning rivojlanishini to'liq va etarli darajada tasavvur etish uchun turli qabilalar va xalqlarga oid bo'lgan mavjud ma'lumotlar bilan chegaralanish yaramaydi, ularni dunyoning turli mamlakatlaridagi xalqlarga oid barcha ma'lumotlar bilan qo'shishi lozim. Shunday qilib, ibtidoiy tarix o'z materialini er sharining turli nuqtalaridan olgandagina u keng umumlashtiruvchilik xarakteriga ega bo'ladi. Shuningdek, u barcha ibtidoiy kishilikni birlashtirib, ibtidoiy madaniyatni barcha kishilikning umummadaniyati sifatida, barcha ibtidoiy qabila va xalqlarni uning yagona ijodchisi sifatida ifodalaydi.

Ibtidoiy tarixda nomlar yo'q. U shaxslarni ham, qahramonlarni ham bilmaydi, unda mashhur sanalar ham yo'q. Shunga qaramay, u ibtidoiy madaniyatni yaratuvchan ulug' ommaning behisob qahramonligi bilan to'ladir.

Tosh asriga doir bo'lgan arxeologik qazish ishlari eng oldin asosan Fransiyada olib borildi, So'ngra boshqa mamlakatlarda keng yo'lga qo'yildi. To'plangan materiallar madaniyat va texnikaning uzluksiz o'sib borganligidan guvohlik beradi va bir qancha bosqichlarni aniqlashga imkon beradi. Bu birin-ketin keladigan bosqichlar er sharining turli joylarida topilgan muayyan tipdagi odam faoliyatining qoldiqlariga aniqlanadi va fanda bu qoldiqlar «madaniyat» deb ataladi. Bu madaniyatlar dastlabki topilgan joylarning nomi bilan atalib, ular mana shu madaniyatning eng tipik yodgorliklaridan iborat bo'ladi.

Ibtidoiy moddiy madaniyat ibtidoiy odamning tabiat bilan juda og'ir kurashda mehnat qurollarini murakkablashishi va takomillashishini ko'rsatadi: bunda so'yiltayoqlar va qo'pol tarashlangan tosh parchalaridan kamon va o'qlar, silliqlangan tosh boltalar va suyak buyumlar, metallardan foydalanish, juda oddiy dastgohlar ixtiro qilish sari rivojlanish yo'li bosib o'tilgan.

Eng sodda mexanik moslamalar: er kovlaydigan tayoq va qo'l chopqich asosida yuzaga kelgan, richag-dastak va pona bo'lmay turib hozirgi texnika mavjud bo'la olmas edi. Odamlar tabiiy g'oyarlardan foydalanishdan turli-tuman sun'iy uy-joylar qurishga asta-sekin o'ta borishgan.

Uy-ro'zg'or buyumlari novdalardan, qayin po'stlog'idan, bambuk, kokos yong'og'i po'chog'i, qovoq, yog'och, loy va teridan yasalgan. Keyinchalik sopol ixtiro qilingandan so'ng chinakam ovqat pishirish mumkin bo'lgan.

Ibtidoiy kiyim-boshning turlari juda xil-xildir. – fartuk, kamar (belbog'), plash, yubka – eng qadimgi kiyim. Yengil kiyim va ishton keyinroq paydo bo'lgan. Tabiiy sharoitlarga qarab barglardan, teri, o'simlik tolasi va yungdan kiyimlar tikilgan.

Tafakkur va nutq taraqqiy qilmay turib madaniyatning vujudga kelish mumkin emas. Eng qadimgi odamlarning saviyasi o'z mehnatining rivojlanish darajasiga muvofiq kelgan.

Jamoadagi mehnat, kuzatish, tajriba, ong, fikr tushuncha, til, bilim – bularning hammasi o'zaro ajralmas aloqada va bir-birini taqozo qiladi, ular yagona bir zanjirning qator halqalaridan iborat bo'lib, odamning hayvondan ajratuvchi, uni tabiat ustidan g'olib qiluvchi belgilardir.

Mehnat jarayonida kuzatish va tajriba ortirish natijasida yangidan-yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo'ldi, tafakkur ham, til ham rivojlandi. Yangi so'zlar paydo bo'ldi, so'zlarning ma'naviy mazmuni boyidi, grammatik shakllari rivojlanib bordi.

Tafakkur va tilning kuzatish hamda tajriba bilan bevosita bog'liqligi eng sodda tillarning xarakterli xususiyatida – ularning konkretligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hol tilning konkret nom va aniqlovchilarga nisbatan boyligi va umumlashtiruvchi tushunchalarning nihoyatda kambag'alligi bilan ifodalanadi. (hayvonlarning aloxida nomi bor-u, lekin umumiy tushuncha – «hayvon» so'zi yuk, tut, o'rik va x.k. bo'lgan u, umumiy tushuncha – «daraxt» so'zi bo'lmagan.)

Fikrni anglatuvchi sodda usul – «signallar tili» - mavjud bo'lgan . Bu holat faqat urush e'lon qilishdagina emas, balki boshqa marosimlarda ham saqlangan. Masalan ibtidoiy davr marosimchiligidan bizgacha an'ana tariqasida «sovg'a» qilishlar saqlanib qolgan. Masalan Shimoliy Amerika hindilarida tomagauk (suyil) yuborish urush e'lon qilishning ramziy belgisi bo'lgan. Uni alohida elchi olib borib erga qo'ygan, agar qarshi tomon uni ko'tarsa urushga rozi ekanligini bildirgan.

Gerodotning hikoyasiga ko'ra, bir vaqtlar eroniylar skiflarga qarshi hujum qilganlarida ular eroniylarga qush, sichqon, qurbaqa va beshta o'q-yoy yuborganlar. Bu quydagi ma'noni anglatgan: «Agar siz, eroniylar, qush singari osmonga uchmasangiz, sichqon singari kavakka bekinmasangiz yoki qurbaqa singari ko'lga sakrab tushmasangiz, elingizga qayta olmaysiz va bizning o'q-yoylarimiz ostida qirilasiz». «Signallar tili» muhim madaniy – tarixiy rol o'ynagan. Imo – ishora tovush nutqida yordamchi element bo'lgan. Tafakkur bilan mahkam bog'langan til noaniq tovush tilidan boshlab to urug'larning, keyinchalik qabilalarning aniq tillariga qadar uzoq taraqqiyot yo'lini o'tdi. Qabilaviy tillar o'rnini xalqlarning tillari egalladi.

1) Neolit oxiri va metallar asrining boshlariga kelib asosiy qardosh tillar oilalari tarkib topgan: hind –evropa tillari oilasi (hind, eroniy, slavyan, olmon roman, kelt tillari); 2) turk – mo'g'ul oilasi (Markaziy Osiyo xalqlari tillari, turk va mo'g'ullar tili) ; 3) xitoy – tibet oilasi (Sharqiy Osiyo, Xitoy, Tibet, Vetnam, Birma xalqlarining tillari); 4) somiy – xalit oilasi (shimoliy va Markaziy Afrika); 5) fin – ugor oilasi (fin, eston, vengr, karell va boshqalarning tillari) Odam mehnat jarayonida atrofdagi tabiatni kuzatishlari natijasida bilimlarini orttirib borgan.

O'z joyini bilgan, qabila va hatto qo'shni qabila hududining relef kartalarini qumga, yog'ochga, po'stloqqa, teriga chiza olgan ibtidoiy odamlarning jo'g'rofik bilimlari yaxshi ayondir.

Ibtidoiy davrda o'ziga xos sodda tabobat keng rivojlangan edi. Unda, bir tomondan, folbinlik, sehrgerlik va jodugarlik usullari ishlatilgan bo'lsa –da, ikkinchi tomondan, juda qadim zamonlardayoq ba'zi o'simliklarning, hayvon va mineral moddalarning davolash xususiyatlari kashf etilgan. Ibtidoiy odamlar tabobatda maxsus tayyorlangan suyuqliklar, qaynatma dorilar, poroshok (kukun) lar, zaharlar, surtiladigan dorilarni ishlatganlar. Mezolit davridan boshlab shikastlangan qo'l va oyoqlarni jarrohlik yo'li bilan kesib tashlash (amputasiya) usuli qo'llanila boshlagan (ba'zi qabilalarda qattiq bosh og'rig'ini bosh suyakni kesib ochish yo'li bilan «davolaydilar») Davolashda massaj - silash uqalash, qon olish, sovuq va issiq kompress (bosish) qo'llanilgan. Oddiy tabobat faqat tajribaga asoslangan. Ibtidoiy odamlar kasalliklarning sabablarini, kishi vujudining tuzilish va faoliyatini bilmaganlar.

Ovchilik, hayvonlarning qo'lga o'rgatilish, yoyiladigan o'simliklarni, mevalarni yig'ib- terib olish botanika va zoologiya sohasidagi boshlang'ich bilimlardan darak beradi.

Bu bilimlar dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga yorqin misol bo'la oladi. Ibtidoiy odamlarda sanash eng boshlang'ich holatda bo'lgan. Odatda uchgacha, ba'zan beshgacha sanashgan: $2+2+1=5$; $2+2=4$ ko'pgina xalqlarda besh raqami «qo'l» ni bildiradi (ruscha «pyat» nomi «zapyaste» so'zi bilan hamohang, rimcha V qo'l panjasining soddalashtirilgan tasvirini eslatadi.) Beshdan ortig'i esa «ko'p» va «juda ko'p» so'zi bilan ifodalangan.

Ibtidoiy odamning to'plagan bilimi qanchalik bo'lishdan qat'iy nazar, u bilmagan juda ko'p narsalar ham bo'lgan. Kishilar sababini bilmaydigan bu hodisalar ularning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan va o'z navbatida, uni bilish talab qilingan. Shunday qilib, ibtidoiy odam o'z tabiati va tashqi tabiati hakida noaniq, mujmal tasavvuri, tabiat kuchlari oldida ojizligini yo'qotishga, uning ijobiy tajribalaridan chekkada qolgan hodisalarga javob topishga, bu erda ham qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga urina boshlaydi. Mana shu xayoliy tasavvurlar e'tiqod va dindand iboratdir.

Kishilik tarixining boshlang'ich davrida din bo'lmagani bizga ma'lum. Din ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat taraqqiyotida urug'chilik tuzumi paydo bo'lgan bosqichda vujudga keladi. Diniy tasavvurlarning paydo bo'lish vaqti haqida odamlarning ko'milishiga qarab fikr yuritiladi. Neandertallarda o'liklarni ko'mish odati bo'lgan: Ulgan odamlar noaniq shakldagi kichik-kichik chuqurlarga tizzalari sal bukilgan holda, yon tomoni bilan uxlab yotgan kishi holatida yotqizilgan.

Ibtidoiy din shakllaridan biri totemizm (alyunkinlarning totem – «uning urug'i») so'zidan olingan) Totemizm odamning ko'pincha qandaydir bir hayvon yoki o'simlik, baliq bilan yoki hatto tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqida ishonch – e'tiqoddir. Ehtimol, totemizmning boshlang'ich va ko'p tarqalgan shakli mazkur urug' guruhining barcha a'zolari ma'lum hayvon, o'simlik va boshqalardan –o'zlarining totemlaridan kelib chiqqan degan tasavvur bo'lgandir. Totemizm xo'jalik rivojlanishining ovchilik – terib-termachlab ovqat topish bosqichida vujudga kelgan. Ovchilik o'sha davrdagi odamlarning mashg'uloti bo'lgan, shu sababli urug'lar ko'pincha hayvonlarning nomlari bilan ataladi. Masalan, Avstraliyada mustamlakachilar totem hayvonini – kenguruni – o'ldirganlarida, ular: «Nega siz bu odamni o'ldirdingiz, u bizning birodarimiz deb aytganlar. Totemizm yana boshqa bir qator tasavvurlardan iborat: bola tug'ilishning sababi ayol tanasiga totemning kirishidan deb hisoblanadi, o'lim esa o'z urug' totemiga aylanish deb tushuniladi. Totem hurmat qilingan (qadrlangan). Totemizmning ilk bosqichida totemni o'ldirish va uning go'shtini eyish, nobud qilish man etilgan, fakat marosimlarda o'ldirilgan va yoyilgan. Shu tariqa taqiq vujudga kelib, diniy katag'onlar sistemasiga aylana borgan. (Xristianlarda ro'za kunlarda go'sht-sutli ovqat eyish mumkin emas, hindlarda mol go'shti).

Totem gruppalari totem- hayvonlarni ko'plab qirishni taqiqlab, ularning ko'payishi uchun g'amxo'rlik qilishgan, ularning sharafiga bayramlar o'tkazilgan.

Ibtidoiy jamiyatda totemizm bilan bir qatorda, ingliz olimi Eduard Teylor tomonidan fanga kiritilgan animizm (lat. Anilna, anima – «ruh», «jon») termini bilan atalgan boshqa din formasi bo'lgan Animizm- dunyoda ruhlar jonlar shaklidagi g'ayr tabiiy kuchlarning mavjudligiga ishonishdir. O'lim faqat odamning jismoniy yashashning to'xtalishi deb hisoblangan. Jon esa go'yo yashashini davom ettirgan. Jonlar tabiatni egallaydigan tanasiz ruhlarga aylanadi. (Uyqu – jonning tonali vaqtincha tashlab ketishi). Odam bu ruhlarni o'ziga yaqinlashtirish uchun ularga moddiy shakl, ya'ni joy yaratadi, mana shunday joylarga ruhlar kelib turadi, deb ishonadi. Butlar yoki fetishlar (portugalcha – fetiko – «yasalgan») shu zayilda kelib chiqqan Tabiiy holatdan narsalar ham fetishlar bo'lgan.

Ibtidoiy dinining shakli bo'lgan «fetishizm» tushunchasini fransuz olimi Sh. de Bross XVIII asrda ilmiy adabiyotga kiritgan . Fetishizm – jonsiz moddiy narsalarga sig'inish, ular g'ayri tabiiy mo"jizaviy xususiyatga ega deb bilingan.

Oxiratga (narigi dunyodagi hayotga) ishonish va ota-bobolarni ruhiga sig'inishi animizm bilan bog'liqdir. Mozorlarda topilayotgan, ibtidoiy odamlarning tasavvulariga ko'ra, narigi dunyoda marhumga zarur bo'ladigan mehnat qurollari, qurol-aslaha, zeb-ziynatlar, ovqat qoldiqlari ana shu bog'lanishdan dalolat beradi. Dastlab o'liklardan qo'rqib, tirik odamlarga zarar etkazmaslik uchun bog'lab qo'yilgan.

Dehqonchilik va chorvachilik rivojlana borishi bilan tabiatga sig'inish e'tiqodlari vujudga kelgan: quyoshga, erga, suvga, o'tga.

Ibtidoiy odamlarda sehrgarlik – odamning o'zini g'ayri tabiiy kuchlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ishonishga asoslangan ish – amallari bo'lgan. Sehrgarlik ibtidoiy odamlar hayotining hamma tomonlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Eng qadimgi sehrgarlik amallari kollektiv tusda bo'lgan va ishlab chiqarish jarayonini gavdalantirgan (ov oldidan nayzalar bilan ramziy ravishda «hayvon suratlariga» sanchish) Keyinchalik sehrgarlik amallari ustidan shomon, koinlar tomonidan yakka hokimlik o'rnatilgan va g'ayri tabiiy olamga ta'sir etishning nozikroq vositasiga aylana borgan, ularning ishlab chiqarish bilan aloqasi tobora tumanlashgan. Sehrgarlik amallari foyda topish uchun ham, zarar etkazish uchun ham qo'llanilgan.

Xudolarga bo'lgan e'tiqodlarni maxsus kishilar – koinlar ado etganlar. Koinlar ko'pincha katta yoshdagi kishilar bo'lib, turmush tajribasi va bilimi etarli, tabiatni juda yaxshi kuzatgan, turli alomat, belgilarni va hokazalarni biladigan kishilar bo'lgan.

Sehrgarlik hatto tasviriy san'atni xam o'ziga xizmat qildirgan (sunggu paleolit davriga oid nayzalar sanchib yaralangan hayvonlarning tasvirlari- ovning muvaffaqiyatli bo'lishga yordam berishiga ishonish).

Ibtidoiy san'at va uning barcha turlari o'z mohiyati va mazmuni bo'yicha odamning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sezgisi, kayfiyati va fikrlarini ifodalash shakllidir. U ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan va odamning ishlab chiqarish bilan aloqasini aks ettirgan.

Odam tasviriy faoliyatining dastlabki ko'rinishlari muste davriga oid deb hisoblanadi. Biz bu erda toshga, suyakka yoki shoxga o'yib yoki kesib ishlangan qora yoki qizil buyoq bilan tasvirlangan rasmlar, kontur suratlarini ko'ramiz: La Ferrasi manzilgohida (Fransiya) tosh taxta ustiga bir necha juft- Asuft qilib joylangan kosasimon chuqurchalar topilgan; Jruchula g'orida (gruziya) yondoy burama kertikli suyak

topilgan; boshqa manzilgohlarda miner buyoq (oxra) bo'laklari va yo'l-yo'l chiziq tushirilgan tosh parchasi topilgan.

Chinakam san'at yodgorliklari sunggi paleolitda paydo bo'lgan, shu bilan birga tasviriy san'at madalen davrida ravnaq topgan. Keyingi paleolit tasviriy san'ati asosan g'or rassomlik san'ati va haykaltaroshligi shaklida rivojlangan. Havaskorlar ko'p hollarda ayollarni tasvirlab, ularga xos belgilarni juda bo'rttirib ko'rsatishgan. Bu holatlardan ana urug'i hukmronligi mavjudligini anglash mumkin. Hayvonlar g'orlarning devorlariga, ko'p hollarda, tabiiy kattalikda mineral buyoq (qora, oq, sariq) bilan, suyakka o'yima naqsh bilan va onda-sonda haykalchalar shaklida tasvirlangan. For rassomlik san'ati yodgorliklari dastlab Farbiy YEropada: Ispaniyada (Altamir g'ori), Fransiya (Uch og'ayni, Fon; Lasko g'orlari), Uralda (Kapovo g'ori), topildi. Haykalchalar Pireneydan to Baykalgacha bo'lgan erlarda, masalan Fransiyada (Brassempun sun'iy g'ori), Avstriyada (Villendorf Manzilgohi), Italiyada (Grimaldi g'ori), Voronej yonida (Kostenki). Kostenki I YEropada birinchi o'rinni egallaydi (50 ta haykalcha topilgan).

Tasviriy rasmlarda sehrgarlik marosimlari aks ettirilgan.

Neolitda ilgarigi san'at shakllari bilan birga yangi, dekorativ – manzarali tasvir yo'li yo'nalishi rivojlangan. (Onega qo'li yonida, oq dengizda) Haykaltaroshlik bilan birga relefli tasvirlar manzarali ishlangan. Odamlar keramikali, qurol- yaroqni naqshlar bilan bezashgan, loydan haykalchalar yasay boshlashgan.

Endi san'atning boshqa keng tarqalgan sohasiga- musiqaga o'taylik. Qo'shiqlar va raqslar ibtidoiy san'atning muhim turi bo'lgan. Qo'shiq dastlab ritmga solingan nutqdan iborat bo'lgan. So'zlab kuylash (rechitativ) qo'shiqning birinchi shaklidir, kuy keyinroq yuzaga kelgan.

Ibtidoiy davrda cholg'u asboblari uncha rivojlanmagan. Biroq, ibtidoiy darda musiqa asboblarining barcha asosiy turlari: urib chalinadigan (treshchotka, baraban – do'mbiralari), puflab chalinadigan (teshikli suyaklar), simlik (kamonchali va chertib cholinadigan) asboblari paydo bo'lgan. O'q-yoyning ipi dastlabki chertib cholinadigan asbob bo'lgan degan faraz bor. Lekin o'q-yoy kashf etilgunga qadar yog'ochga tortilgan pay yoki biror chiyratma ip shu maqsadda ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Ibtidoiy raqslar, ko'pincha taqlidiy raqs-o'yinlar mehnat faoliyati maromi ifodalangan. Odatda ovga jo'nash va harbiy yurish boshlash oldidan ijro etiladigan ovchilikka oid va harbiy raqslarda din bilan bog'lanish ko'rinadi. Raqs mehnat jarayonlari maromidan paydo bo'lgan qo'shiq musiqasi va asboblari musiqa bilan bevosita bog'langan. Ushbu ibtidoiy san'at ikki turining chambarchas bog'langanligi shu bilan isbotlanadiki, ko'pincha qabilalar qo'shiq bilan raqsni bir so'z bilan ifodalaydilar.

Bezaklar ham yuqori paleolitda paydo bo'lib badanni bezashdan iborat – tatuirovka (tatu – belgi), badanni bo'yash, botoki (tayoqcha o'tkazish – burun, labni teshib) – Bu ham estetik, ham diniy afsungarlik va totemizm, ham ijtimoiy mavqeini aks ettirgan Keltirilgan fikrlarga tayanib shuni alohida ta'kidlash mumkinki, ibtidoiy madaniyatni rivojlanishi natijasida ibtidoiy odam ongining rivojlana borganligi shubhasizdir.

Ibtidoiy kishilar tabiiy kuchlarini necha-necha ming yillar davomida, ko'pdan-ko'p avlodlar almashuvida, haddan tashqari ko'p kuch sarf qilish natijasida og'ir mehnatda, ko'p adashuv va xatolarni tugatib, hisobsiz qurbonlarni berib, asta-sekin, lekin astoydil o'rgandi, ularni bo'ysundirdi va kishilikning dastlabki madaniyatini yaratdi. Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan mavjud madaniy boyliklarga tayanadi. Tarixiy vorislik kishilik jamiyati, jumladan, madaniyatni progressiv taraqqiyotining zaruriy shartidir. Madaniyat boyliklari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga kelib va mazkur jamiyat hayotini aks ettirib, shu jamiyat bilan birga yo'q bo'lib ketmaydi, balki o'z davrini yashab, keyingi avlodlar uchun madaniy meros bo'lib qoladi. Biroq, har bir jamiyat, undagi ijtimoiy tabaqalar o'tmish madaniy merosini qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki o'z dunyoqarashi nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'z manfaatlariga mos keladigan tomonlarini o'zlashtiradi.

Ular tomonidan yaratilgan qadimgi madaniyat qanchalik sodda bo'lmasin, u texnika, xo'jalik, ijtimoiy asos va mafkuraning turli xil elementlarining o'ziga xos juda boy yig'indisini tashkil etadi. Oddiydan asta-sekin yuqori va murakkab shakllarga o'ta borib, bu madaniyat muntazam ravishda o'sib boradi. Bu ibtidoiy madaniyat kishilikning yanada rivojlanib borishning zaruriy sharti bo'lib, o'zining oliy shaklida navbatdagi o'sishning asosi bo'lib qoldi. Ibtidoiy kishilar erishgan yutuqlarning ko'pchiligi hozirgi zamon madaniyati xazinasida o'z ahamiyatini saqlab keladi.

2. Qadimgi zamonda grek-rimliklar dunyosidan sharqda va janubiy sharqda joylashgan mamlakatlarning jamini qadimgi Sharq deb ataymiz. Bunga Ikki daryo oralig'i, Misr, Hindiston, Xitoy mamlakatlari kiradi. Bu davlatlar yirik daryolar vodiylarida sinfiy munosabatlar rivojlanish natijasida paydo bo'lgan.

Ikki daryo oralig'i madaniyatini yaratishda undagi bir qancha xalqlarni ijodiy faoliyati katta rol o'ynagan, ular adabiyot, fan qurilish ishi va san'at sohalaridagi yutuqlari bilan o'zaro bir-birlarini boyita borganlar. Bu madaniyatni yaratishda shumerliklar, akkadlar (semit halqlari), assurlar (shimolda), amoriylar katta hissa qo'shganlar.

Ikki daryo oralig'idagi eng qadimgi yozuv, hamma joyda bo'lgani kabi, surat yozuvidir. Shu bilan birga ayni bir xil surat ko'pincha bir qancha turli-tuman ma'nolarga ega bo'lgan.

Masalan, ko'z rasmi faqat shu organni emas, balki hosila tushunchasini ham bildirgan – «yuz», «old», «ilgarigi». Ikki daryo oralig'ida papirus bo'lmaganligidan sopol taxtachalarga yozishga to'g'ri kelgan edi. Yozib to'ldirilgan taxtacha qattiq bo'lishi uchun uni quyoshda quritganlar yoki olovda kuydirganlar. Lekin sopolga rasm solish qiyin edi. Unga uchi o'tkir panacha bilan bosib, iz qoldirganlar. Har bir belgi bir nechta ponachalardan iborat edi. Bu belgi yo butun so'zni, yoki ayrim bir bo'g'inni ifodalardi. Bunday belgilardan mingtaga yaqin ishlab chiqilgan. Bu yozuv mixxat deb ataladi. (mixlarni eslatgan).

Janubiy Osiyo oralig'ida paydo bo'lgan bu yozuv Old Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan.

Bunday ko'p ma'nolilik g'oyat katta qiyinchiliklarga tug'dirgan Matnni o'qish ba'zi vaqtda bamisoli tilsimlarni - grebussni rostakam echishga aylanib ketgan, shu sababdan faqat tajribali va o'quvli odam ko'p yillik o'rganishdan keyin hatosiz o'qiy va yoza olgan. Shuning uchun faqat mansabli kishilarning – qohinlar, boshqaruvchilar, amaldorlar va boshqalarning bolalari o'qishgan. Maktablar ibodatxona va saroylar qoshida bo'lgan. O'qish uchun haq to'lanardi.

Mixxat yozuvi keyinchalik akkad, elam, xett, urartu va boshqa tillarga moslashtirilgan.

Savdo –sotiq chog'ida yozuvlarni tez olib borish zarur edi; buning uchun unga oz-moz soddalashtirishga to'g'ri kelgan Masalan, finikiyaliklar (O'rta dengiz sharqiy sohillarida yashashgan) 22 harfdan iborat alfavit ishlab chiqqan edilar. Harflar buyumlarning tasvirini eslatardi.

Yuz minglarcha mixxat yozuvlari, asosan sopol taxtalarga yozilgan. Qisman sopol taxtalarga va metall buyumlarga o'yib yozilgan matnlar bizning zamongacha etib kelgan. Boshqa qadimgi mamlakatlarda bo'lgani singari, yozuvlardan diniy- mifologik tafakkurning ta'siri haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ibtidoiy jamoa zamonlaridan boshlab har bir urug', qabila bir hayvon, qush, baliq, hashorat bilan bog'langan. Eng qadimgi podsholarning Qo'zichoq, Chayon va shu kabi o'ziga xos nomlarda yurganliklari bejiz emasdir. Quldorlik davrida xudolarning ko'pchiligi antropomorfik (odamsimon) qiyofaga kirgan. Dastlab, matriarxat davrida, xudolar asosan ayol qiyofasida bo'lgan – suv ofati ma'buda Tiamat (shumer – Nammu). Keyinchalik xudolar erkaklar qiyofasida bo'lganlar.

Ikkidaryo oralig'ida qadrlangan xudolar soni juda ko'p bo'lgan. Har bir shahar, har bir mahalla, har bir qishloq o'zining ilohiy homiysiga ega bo'lgan. Ayrim xudolar butun mamlakatda izzat qilingan: Osmon xudosi –An (akkadcha –Anu); er ma'budasi – Ki, ularning bolasi havo xudosi – Enlil ; Oy xudosi – Nannar (askadcha - Sin), uning o'g'li – Quyosh – Utu xudosi (akkadcha – Shamash) va qizi ma'buda Ianna (akkadcha – Ishtar) – Venera planetasining ma'budasi – hosildorlik va muhabbat ma'budasi.

Shumerliklar va akkadliklar tabiat bilan kurashda erishilgan barcha yutuqlarni, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni qo'lga o'rgatish, hunarning paydo bo'lishi va shu kabi juda katta xo'jalik o'zgarishlarni osmonning irodasiga bog'laganlar, odamlar esa osmonning oldindan belgilab qo'yilgan buyruqlarini ko'r-ko'rona ijro etuvchilari deb hisoblaganlar.

Tabiiy ofatlarni odamlarning itoatsizligi uchun xudolar tomonidan yuborilgan jazo deb tushuntirilgan, shuning uchun odamlar yuvosh, mo'min bo'lishi kerak deb xisoblangan.

Xudolar sharafiga qurbonliklar (ayniqsa bayram kunlarida – ko'p) berilgan. Dindorlarning qurbonliklari ibodatxona hovlisi ichida bo'lgan qurbongohga qo'yilgan, undan keyin qurbonlik go'sht, nonlar va boshqa mahsulotlarning bir qismini qoxinlar va qavmlar eganlar. Eramizdan avvalgi III ming yillikda endi odamlarni qurbon qilinadigan bo'lgan. Duolar o'qilganda musiqa chalingan. Xudolar haqida juda ko'p afsonalar yaratilgan. Lekin shu bilan birga epik asarlar ham yaratilgan, ularda qahramonlarning ishlari va botirliklari ko'rsatilgan. Ikkidaryo oralig'ining buyuk qahramoni – Gilgamesh. U haqida akkadliklar 12 qismdan iborat yaxlit doston yaratganlar Dostonlarning ikkinchi qahramoni – Etana.

Dostonlarning asosiy fikri: hatto eng buyuk qahramon ham abadiy hayotga erisha olmaydi va xudolarga itoat qilish kerak. Qadimiy ikkidaryo oralig'ining – lirik asarlari; dialog shaklida yozilgan asarlari hayotning mazmuni haqida (Ho'jayinining qul bilan suhbatiga), masallar (hayvonlar hayotiga doir hikoyalar – burgut bilan ilon, qo'rqqoq va maqtanchoq tulki va h.k) zamonamizgacha etib kelgan.

Matematika va astronomiya sohasida ancha katta muvaffaqiyatlarga erishilgan. Binolar qurilishi va sug'orish inshootlarida arifmetika va geometriyani bilish talab etilgan Olti o'nlik (oltmishlik) sistemasini (6-omadli raqam xisoblangan) sehrlil tasavvurlarning qoldig'i bo'lgan.

Bir kecha –kunduzni 24 soatga, soatli 60 minutga, doirani 360darajaga bo'lish va h.k. ana shu sistemadan kelib chiqqan. Yana algebra kurtaklarini (kvadrat tenglamalar echilgan) va geometriya kurtaklarini (aylana, doira yuzi uzunligini hisoblash va h.k.) ko'rsatib o'tish lozim.

Ikki daryo oralig'ida quyosh – oy kalendari ishlab chiqilgan va butun Old Osiyoga tarqalgan. Quyosh va oy tutulishi, Oyining YERga eng yaqin kelish vaqti oldindan aytib beriladigan bo'lgan.

Tabobatda ham yutuqlar bo'lgan – Bobil hakimlari Xammurapi zamondayoq (er.av. XVIII asr) ish unmay qolgan taqdirda qattiq jazoga tortilishi (qo'l panjasining kesib tashlashi) xavfi ostida bo'lishlariga qaramay, murakkab ko'z operatsiyalari qilishga (kataraktani) ko'z gavhalarining xira tortishini bronza pichoq bilan olib tashlashga jur'at etganlar.

Arxitektura formalari sharq despotiyalariga xos bo'lgan soddalik, hashamatlilik va geometrikligi bilan xarakterlanadi.

Inshootlar asosan g'ishtdan qurilgan, tosh va yog'och kam ishlatilgan. Ibodatxonalar besh yoki etti qavat balandligida ko'p zinapoyali minora (zikkurat) bo'lgan (erni osmon bilan, erdagi hokimlarni osmon hokimlari bilan bog'laydigan zinapoya) Keyinchalik ular rasadxona (observatoriya) bo'lib xizmat qilgan.

Haykaltaroshlik, buyurtma rassom va rassomlik san'ati rivojlangan.

Ommaviy ko'rinishlarda surat-shakllar (figuralar) katorlar bo'yicha joylashtirilgan: xudolar va podshohlar kattalashtirilgan bu bilan ularning oddiy odamlardan ustunligi ko'rsatish nazarda tutilgan.

Stel Noramsinning ajoyib haykalida odatdagicha, figuralarni katorlar bo'yicha gorizontall joylashtirish bilan birga, yagona kompozitsiya yaratishga harakat qilinadi. Tog' landshafti fonida qoyalarning chiziq joylari bo'ylab bir maromda qadam tashlab chiqayotgan askarlar tasvirlangan. Yuqorida podshohning o'zi nayzani siltab, dushman jangchisini engmoqda, boshqa jangchi esa qochib ketmoqda va bu jang manzarasi kuchli taassurot qoldiradi.

Shumer –Bobil madaniyati yaqin Sharq va Yevropa xalqlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

2. Shimoliy – Sharqiy Afrikada dunyodagi eng katta daryolardan biri- Nil oqadi. Nil vodiysi va deltasi ostonalardan tortib to Urta dengizgacha Qadimgi Misr joylashgan. Misr iqlimining nihoyatda quruqligi tufayli bunda hatto juda murt materiallaridan ishlangan qadimiy yodgorliklar ham g'oyat yaxshi saqlangan.

Diniy an'analar Nil vodiysida ayniqsa mustahkam va turg'un bo'lgan.

Qadimgi misrliklar tabiatni va odamlar hayotini xudolar boshqaradi deb ishonganlar. Ular xudolarni odatda odam qiyofasida, lekin ularning boshi hayvonlarning boshi ko'rinishida bo'ladi deb tasavvur qilishgan. Bu narsa misrliklarning ota-bobolari asosan ovchilik bilan shug'ullangan zamonlardan saqlanib qolgan edi.

Misr kohinlari xalq an'analarini qolipga solib, qaytadan ishlab xudolar to'g'risida afsonaviy qissalar to'qiganlar. Ko'pincha quyosh xudosi Rani bosh xudo hisoblaganlar (qarchig'oy boshli). U nilufar gulidan chiqib kelib, butun mavjudotni yaratgan (Raning og'zidan -xudolar, ko'zidan - odamzod kelib chiqqan) Tot- donishmandlik xudosi, yozuvni ixtiro qilgan deb xisoblangan.

Yovuz xudo – Set (sariq sochli, qizil kuzli, bo'riboshli) – cho'llar, garmsel va sho'r suvlar hokimi. U tabiat xudosi Osirisni o'ldirgan. Lekin Osiris tirilib, narigi dunyodagi podshohlikda shoh va hakam bo'lib olgan. Uning o'g'li Gor esa – erda.

Sher boshli quturgan urush ma'budasi vabo yuborgan.

Misr dinining yana bir o'ziga xos xususiyati narigi dunyoga juda katta ahamiyat berilganligidir. Shumer bilan Bobilda narigi dunyoni ko'ngilsiz va mudhish deb, o'lganlarni baxtsiz banda deb tasavvur qilgan bo'lsalar, bu haqda Misrdan ta'limotboshqacha bo'lgan Masalan, bu dunyodagi uy-joy musofirxona bo'lib, uning mustahkam qurishni hojati yo'q, lekin «abadiy yotoqjoy» ni, maqbarani oldindan tayyorlab qo'yish kerak. (piramida – maqbaralarda fir'avnlarni dafn etilar edi. Eng katta piramida er.avval. 2600 yil burun Memfis yaqinida fir'avn Xeops uchun qurilgan – 150 m. balandligi, aylanasiga 1 km, 2300 mingta xarsang tosh ketgan - kichigi 2,5 tonna keladi.)

Qadimgi misrliklar agar o'lgan kishining jasadi saqlanib qo'yilsa, uning ruhi vaqt –vaqti bilan jasadga qaytib keladi deb o'ylaganlar. Quritilgan jasadni mo'miyolashning qimmat va arzon usullari bo'lgan. Fir'avn va katta mansabdorlarning mo'miyolari ayniqsa yaxshi saqlangan. Ichak – chavoqlari olinib alohida ishdishlarda (kanoplarda) saqlangan, ichak-chavoqdan tozalangan gavda 70 kuncha namakobda turgan, keyin xushbo'y qatron (smola) quyulib oq matoga qo'yganlar.

Misr kohinlarining ta'limotiga ko'ra oxirotning huzur-halovatiga erishmoq uchun ko'pgina sehriy duolarni bilish kerak bo'lgan. (birinchi navbatda ular fir'avnlarni uchun yozilgan – yashil rang bilan maqbara devorlariga – «piramida matnlari»).

Fir'avnlarga taqlid qilib imtiyozli va boy tabaqalarga ham shunday matnlarni («sag'ana matnlari») ishlata boshlaganlar.

Nihoyat yangi podsholik davriga kelib (er. avv. XVI asr) «Murdalar kitobi» paydo bo'lgan, unda oxiratda bo'ladigan sarguzashtlar va oxirat sudi – mahshar bayon qilingan. Uning 125 bobida o'zini oqlash nutqini to'la matni bor. O'likning ruhi bunday deyishi kerak: «Men biron kishini o'ldirmadim, talamadim, buziqlik yo'lga yurmadim, go'dakning og'zidan sutini tortib olmadim, birovning erida oqib turgan suvini to'sib o'z dalamga qo'ymadim» va h.q. Chunki o'lgan kishilarning ruhini Osiris degan xudo sud qilardi. U xudolar irodasini buzuvchilarga juda shafqatsiz bo'lib, ularning ruhini dahshatli maxluqlar er ekan. «Xudolar itoatgo'y kishilarni yoqtiradi, itoatsiz kishilarni qahr-g'azabiga oladi» degan nasihatda, din fir'avnga so'zsiz itoat qilishni talab etgan. Kimki fir'avnning buyruqlarini bajarmasa, xudoning amri bilan qurg'oqchilik bo'ladi, vabo tarqaladi, dushmanlar bosib keladi, deb qo'rqitilgan. Fir'avnlarni «xudoning o'g'li», «Quyosh farzandi», «Buyuk xudo» deb atashardi. Faqat oddiy kishilargina emas, balki a'yonlar ham fir'avn qarshisida erga tiz cho'kib uning oyoq izini o'pganlar. Bu bilan Fir'avnlarni ilohiylashtirilgan. Qadimgi Misr madaniyati din bilan chambarchas bog'liq edi.

Qadimgi misrliklar dastlab o'zlari aytmoqchi bo'lgan narsalarini oddiygina rasmlar chizib aks ettirishgan. Belgi yozuvlar ierogliflar deb ataladi. Misr yozuvida 750 ga yaqin ierogliflar ishlatilardi. Odatda, ierogliflarni toshga va yog'ochga o'yib, papirusga yozishgan (papirus daraxti)

Olimlar bizning davrimizgacha etib kelgan papiruslarni o'qib chiqib (Fransuz olimi - Shampolon grek va misr yozuvlarini taqqoslab ierogliflarni ma'nosini ochgan), qadimgi Misrda ko'pdan-ko'p xilma-xil adabiy asarlar bo'lganligini aniqlaganlar. Afsonalar – xudolar haqida rivoyatlar (Osiris to'g'risida ayniqsa ko'p), ertaklar, sayohatlar va sarguzashtlar to'g'risidagi hikoyalar (Sinuxet haqida qissa mashhur bo'lgan, – «Gapga chechan qishloqi qissasi», «To'g'ri bilan egri haqida ertak») - va boshkalar kuplab yaratilgan.

Qo'shiq, nasihatlar («Boshlig'ing oldida qaddingni buk») maqollar, she'rlar (muhabbat, podsholarni qahramonliklari to'g'risida) saqlanib qolgan.

Badiiy adabiyotdan tashqari bizga ilmiy mazmundagi asarlar ham etib kelgan.

Misrda ayniqsa matematika ravnaq topgan. Chiziq doim bir raqamini bildirgan, yarim doira – 10 raqamini; o'ralgan arqon – yuz 100 raqamini; nilufar guli – 1000 raqamini, qush –100000 raqamini va x.k. Ular hisoblashini o'nliklar bo'yicha olib borishardi. Millionni ifodalash uchun qo'llarini baland ko'targan odam rasmini chizishgan.

Misrda astronomiya ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Misrliklar toshqin boshlanish oldida osmondagi yulduzlar har yili bir xil joyga kelib qolishini payqaganlar. Xatto yulduzli osmon xaritasini ham tuzib chiqqanlar. Misrliklar o'zlarining astronomiyaga doir bilimlari asosida kalendar tuzishgan. (quyosh kalendar). Yil 12 oyga bo'lingan, bir yilda 365 kun bo'lgan, kunni 12 soatga, tunni ham shuncha vaqtga bo'lganlar. Har oy 30 kundan iborat bo'lib, 3 ta o'n kunlikka bo'lingan, Oshiq bo'lib qolgan besh kun bayram hisoblanib, hech qaysi oyga kiritilmagan. Misrliklar quyosh va suv soatlarini ixtiro qilganlar.

Misrliklarni tabobat sohasida ham bilimlari keng bo'lgan. Ular ko'pgina o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini bilishgan, odamni kasaligini tomir urushidan eshitib ko'rishgan, jarroxlikda ko'z tabiblari ayniqsa mashho'r bo'lgan. Ular operatsiya qilishda bronzadan ishlangan asboblardan foydalanganlar.

San'at asarlarida qadimgi misrliklar o'z turmushlarini tasvirlabgina qolmay, o'z e'tiqodlari va qarashlarini ham ifodalangan.

Qadimgi Misrning saroylari, qasrlari, uy-joylari kam saqlangan (odatda ular pishiq materiallardan qurilmagan). Ammo piramida va mastablar (amaldorlar maqbaralari) hamda qoyalardagi maqbaralar yaxshi saqlangan. («Abadiyat uylari») Er. avv. II ming yillikda qoya –toشلarni chopib, bir necha honalardan iborat maqbaralar qurganlar (100 metrgacha kirib borgan qoyatoshning ichkarisiga).

Maqbaraga uning egasini toshdan o'yib yoki yog'ochdan qirqib ishlangan haykalchalari qo'yilgan. (Ularning tasavvurida ruh haykalchaga ham joylashar ekan). Biroq barcha haykalchalarning yuz qiyofalari

har xil bo'lgan; misrlik haykaltaroshlar insonning yuz qiyofasini tasvirlashga katta mahoratga erishganlar. Haykallarning hayotiyeligini oshirish uchun ularni buyoqlar bilan bo'yaganlar, billur va rangli toshlardan ko'zlar ham yasaganlar. Narigi dunyoda quldorlar bo'lib qolishi uchun maqbaralarga oshpazlar, qullar, xizmatkorlar, nazoratchilarning ham yog'och va sopoldan ishlangan haykalchalari ham qo'yilgan, biroq ular bir-biriga o'xshar edi.

Maqbaralar devorlarida xo'jalik hayotini aks ettiruvchi rasmlar chizilgan edi. Jumladan dehqonlar, podachilar, hunarmandlar, sozandalar, raqqosalar, mollar, parrandalar tasvirlari. Bu tasvirlar ibodatxonalarda xam chizilgan. Eng muxtasham ibodatxonalar yangi podsholik davrida kurila boshlangan Luksar va Karnok ibodatxonalari Fivadagi ajoyib inshootlardir. Ibodatxonalar xudolar va fir'avnlarning qudratiga ishonch tug'dirar edi.

Ibodatxonalarga kiraverishda mustahkam minor (pilon) lar tiklangan, u minorlar ro'parasiga sfinkslar (odam boshli arslonlar) alleyasi solingan. Minoralar o'rtasidagi tor yo'lakdan ibodatxona hovlisiga kirilardi. Xovlining oxirida qorong'i g'oyat katta zal bo'lgan (shipda oltin tasvirlangan yulduzlar. Undan keyin ibodat qilinadigan xona bo'lgan (unga faqat bosh qohinlar va fir'avn kira olgan) Ibodatxonalarning devorlari rangdor suratlar va ieroglif yozuvlar bilan qoplangan.

Tekislik yuzasiga solingan rasmlarda ko'pincha kishining yuzini yon tomondan, ko'zini, to'g'riga qaratib, ikki elkasini to'la ko'rsatib, qornining to'rtidan uch qismini, oyoqlarini yana yon tomondan va albatta bosh barmoqlarini oldinga chiqarib chizganlar.

Ammo hayvonlar va qushlarning suratlarini nihoyat darajada aniq, o'xshatib chizganlar. Fir'avn va mansabdorlarni ulug'vor, vazmin, salomatli, biron bir nuqsonini ko'rsatmay chizilgan.

Amenxotep IV (Exnaton) podsholik qilgan zamonda san'at sohasidagi an'analar oz-moz o'zgargan: uning o'zi, xotini va qizlari naturalistik tarzda, hatto ulardagi nuqsonlar ham aniq qilib chizilgan.

Misrda musiqa va raqs juda taraqqiy topgan. Puflab chalinadigan musiqa asboblari (nay), urib chalinadigan (sistra, qayroq), torli asboblari (arfa, ud va boshqalar) bo'lgan.

Ibodatxonalarda diniy dramalar (misteriya) qo'yilgan, dastlabki teatr paydo bo'lgan.

Misrda quldorlik tuzumining o'rnatilishi, u erda madaniyatning rivojlanishiga yordam berdi. Misrning madaniyat sohasida erishgan muvaffaqiyatlari tashqi dunyoga ta'sir ko'rsatgan. Gerodot misrliklarni geometriya ustozlari deb atagan. Sfinks obrazi YEropa san'atida klassik obraz bo'lib qolgan. Misrning obelisklarning haqiqiy nusxasi (haykallari) Rim va Parijda qad ko'tarib turibdi. Sankt Peterburgda Neva qirg'og'ida Misrdan keltirilgan qizil granitdan yasalgan sfinkslar (er.avv. XV a.) o'rnatilgan.

3. Osiyoning janubida juda katta mamlakat- qadimgi Hindiston joylashgan (Hindiston yarim oroli). Din hindlar o'rtasida vujudga kelgan tengsizlikni mustahkamlagan. Hind qohinlari go'yo asosiy xudo Braxma tomonidan joriy qilingan qoidalar to'plamini tuzib chiqqanlar. Braxma odamlarni toifalarga bo'lgan, ularning mashg'ulotlari, xuquq va burchlarini belgilab bergan. Har bir toifaning mavqei uning kelib chiqishi bilan belgilangan. Faqat braxman (qohin) xudo nomidan gapira olish mumkin edi. Ularni Braxma o'z og'zidan yaratgan; qo'llaridan – jangchilarni (bosh jangchi – podsho), sonlaridan – dehqonlar va hunarmandlarni; loyga belangan oyoqlaridan – shudralar yoki xizmatkorlarni yaratgan.

Odam qaysi toifada tug'ilgan bo'lsa, umr bo'yi o'sha toifada bo'ladi deb xisoblangan.

Braxmanizmda oliy uchta xudosi bor – Braxma (4 qiyofada, 4 qo'lli, oqqush ustida o'ttirgan); Vishnu va Shiva. Braxmanlar bajaradigan murakkab marosimlar, kundalik turmushning qoidalar ishlab chiqqanlar, bu qoidalarni buzganlarni o'limdan keyin qattiq jazo kutar. Marhumning ruhi yangi tug'ilgan go'dakka o'tar, biroq agar odam tirik vaqtida qoidalarni bajarmagan bo'lsa, u holda ruh hazar qilinadigan odamning yoki hayvonning (qurt) tanasida qayta paydo bo'larmish. Qoidalarni bajarganlar esa – oliy toifa odamga qayta paydo bo'larmish.

Lekin bu dinga qarshi yangi din buddizm paydo bo'ladi. Bu din e'tiqodchilar jamoasiga kiradigan kishining nasl-nasabi bilan mutlaqo qiziqmagan. Buddha diniy – falsafiy ta'limini er.avv. VII-VI asrlarda yashagan shahzoda Sidxartxa Gautama yaratgan deyiladi. Bu ta'limot unga berilgan Buddha («ma'rifatparvar») laqabi bilan atalgan. U o'zining oliy martabasidan kechib elma-el kezgani jo'nagan, so'ngra va'zguvchi bo'lib ketgan. Yangi din hamma odamlarni tenglashtirgan. Buddha – yaratuvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, lekin u yakka emas, mingdan ortiq buddalar bo'lgan deb hisoblangan. Hamma xudolar – yovuz va yaxshilarga bo'lingan.

Buddizm markazida «4 olijanob haqiqat» haqidagi ta'limot: azob-o'qubat, uning sababi, azob-o'qubattan xalos bo'lish holati va bu holatga erishish yo'li yotadi. Hayot, tug'ilishi, kasallik, muhabbat,

o'lim – bu azob – uqubat. Yashashni istash - azob- uqubat sabablari, Azob –ukubatdan halos bo'lish uchun odam o'z hohishlarini tiyishi lozim.

Azob – o'qubatdan halos bo'lish (nirvana) shaxsning tashqi dunyo bilan bog'lanmaslik holati. Unga birdan erishilmaydi, buning uchun yaxshilar jannatdan, yomonlar do'zaxdan o'tadilar. O'zining azob-uqubatlariga har bir odam o'zi aybdor.

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham astronomiya va matematika ravnaq topgan. Bunda o'ziga hos quyosh kalendari barpo qilingan: yil –360 kundan iborat bo'lib, har besh yilda bir marta kabisa oy qo'shilgan Eramizning V-VI asrlarida Hindistonda YErning sharsimon ekanligi va erning o'ziga tortish qonuni, o'z o'qi atrofida aylanishini juda yaxshi bilganlar.

Hind fodiysida hisobning o'nli sistemasi tarkib topgan. Keyinchalik Hindlar nolni bildiradigan alomatni ishlatganlar. Arabcha raqamlar deganimizni aslida qadimgi hindlar ixtiro qilgan va keyin bu raqamlar arablarga o'tgan. (evropaliklar ularni arablardan bilib olganlar) Hozir deyarli butun dunyo hindlar hisobidan foydalanmoqda.

Qadimgi hind kimyogarlari sulfat, xlorit va azot kislota ishlashni bilganlar. Tabiblar kasalliklarni muayyan sistemaga solishga uringanlar va organizmdagi asosiy shiralar nazariyasini yaratganlar.

Hindistonda juda ko'p til va shevalar bo'lishi filologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini talab qilgan. Masalan, braxman olim Panini (er.av. V-IVasr) «tozalangan» tilning, ya'ni adabiy (sanskrit) tilining gramatikasining tuzgan Qadimgi hindlar adabiyoti haqida «Maxabxarata», «Ramayana» dostonlaridan tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Qadimgi afsonalar to'planib, unda xalq insonning eng yaxshi fazilatlarini to'g'risida o'z tasavvurlarini ifodalagan.

«Qo'shinning to'rt turi» deb atalgan hindlarni mashhur o'yini – shaxmatda hind armiyasining tarkibi va jangavor tuzilishi o'z ifodasini topgan edi. (Taxta ustiga – birinchi qator- suyakdan yasalgan piyodalar, ikkinchi qator – markazda shoh va uning maslahatchisi- farzin, ularning yonida fillar, otliq askarlar, chetda aravachalar (ruhlar) turadi.

Gumbazli binolar va o'ziga xos g'orlar ibodatxonalarini qadimgi hindlarning ajoyib arxitektura yodgorliklaridir. (Ajanta g'or – ibodatxonasi – freskalar bilan bezalgan - er. Avv. III- Sh asr).

Hind madaniyati Markaziy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga (asosan buddizmning yoyilishi bilan) katta ta'sir ko'rsatgan.

4. Xitoy O'rta Dengiz mamlakatlaridan cho'llar va g'or tizmalari bilan ajralib turadi, buning oqibatida aloqalar juda sekinlik bilan rivojlana bordi. Natijada Xitoy madaniyati ko'p jixatdan o'zining alohidaligini saqlab qolgan edi.

Xitoy yozuvining ieroglif sistemasi er. avv. II. ming yillikda tarkib topgan. Xitoylarning yozuv an'anasida uzilish bo'lmagan. Asrlar o'tib bu yozuv murakkablashib borgan. Har bir ieroglif butun bir so'zni anglatgan. Xitoy yozuvida bir necha ming ieroglif bor. Savod o'rgatish ko'p yillar davom etar, faqat amaldor va boylarning farzandlarigina xat-savod chiqarish imkoniga ega edilar. Dastlab bambuk poyasidan qilingan taxtachalarga, keyin shoyi matoga, keyinchalik (eramiz boshlarida) qog'ozga yozishgan.

Qog'oz latta, daraxt po'stlog'i va bambukdan qilingan (Say Lun ixtiro qilgan) Matnlar o'ngdan chapga, yuqoridan pastga qarab ustunlar tariqida yozilgan.

Xitoy adabiyotida diniy an'analar juda keng o'rin olgan. Er. avv. I ming yillikda har xil falsafiy oqimlar paydo bo'lgan. Ularning eng e'tiborlisi konfusiychilikdir, unga mil. avv. 6 asrda Konfusiy (Kun-szi 551-479 yy) asos solgan. Okim aristokratiyaning vorislik manfaatini ifodalagan. (xo'jayin – xo'jayin bo'lish kerak). Kichiklarning kattalarga, xalqning xukmdorlarga bo'ysinishi abadiy va buzilmas qonundir deb xisoblangan. Konfusiylilik hukmdor hokimiyatini muqaddas, osmon (xudo) tomonidan hadya etilgan deb, insonlarni oliy («olijanob kishilar») va qo'yi tabaqalar («mayda odamchalar») ga bo'lishni esa adolatning umumiy qonuni deb e'lon qiladi.

Konfusiy oqimiga boshqa oqim- daosizm raqobat qilgan. Unga Konfusiy zamondoshi Lao- szi asos solgan. Daoschilar fikricha, jami mavjudot materiya zarralaridan paydo bo'lib, birovning ongli irodasidan qat'iy nazar ma'lum bir qonun asosida («dao» - yo'l) rivojlanadi. Jahondagi o'zgarishlar narsa va jonli mavjudotlarning azalgi o'z ziddiga aylanish qonuniga bo'ysunadigan muayyan xususiyatlari tufayli sodir bo'ladi. Har bir torayadigan narsa kengayadi va xar bir bo'shashadigan narsa mahkamlashadi. Daoschilar hukmdorlar zo'ravonligini tanqid qilganlar, lekin kurashga chaqirmaganlar, harakatsizlikni ilgari surganlar – tabiiy belgilab qo'yilgan taraqqiyot yo'li, taqdirga ishonish bilan bog'liq.

Er.I asrda Xitoyda buddizm ham tarqalgan.

Xitoyda astronomiya va matematika yaxshi rivojlangan. Ular aniq kalendar ishlab chiqishgan (365,25 kun - 1 yil) Qadimgi Xitoy astronomlari olamni ulkan bir tuxum shaklida tasavvur qilganlar. YER-tuxum sarig'i, osmon-tuxum po'chog'i. Osmonga yulduzlar osib quyilgan va u er atrofida aylanadi, deb tushuntirganlar.

Farmakologiya, agronomiya va boshqalarga oid ilmiy asarlar yozilgan. Masalan ipak qurtlarini boqish va sholi etishtirish; choy barglarini parvarish qilish va bemorlarga dori sifatida berish haqida ma'lumotlar berilgan.

«Tog'lar va dengizlar to'g'risida» kitobida Xitoy va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlar haqida ko'pgina to'g'ri va foydali ma'lumotlar berilgan. Xitoyliklar kompasni mustaqil ravishda ixtiro qilganlar.

Xitoyda o'z tarixchilari ham bo'lgan Masalan, Sima Syan degan kishi (er.av. II-I asrlar) butun Xitoyni aylanib chiqib, yozma manbalar to'plab, uzoq o'tmishdan boshlangan Xitoy tarixini yozgan.

Qadimgi Xitoy tasviriy san'atining bir qancha original xislatlari bo'lgan. Qadimiy Xitoydagi binolar yog'ochdan ishlangan bo'lib, ular bizning davrimizgacha saqlanib qolmagan. Lekin sopoldan ishlangan modellar boyning hashomatli ko'p qavatli inshootlarini, kambag'alning nochor kulbasini ko'rsatadi.

Toshga o'yib ishlangan bo'rtma rasmlar aholini sinflarga bo'linishini yanada yaqqolroq ko'rsatib beradi (tuz konlarida ishlaydigan qullar ozg'in ko'rsatilgan; «saroyda ziyofat» rasmda esa semiz xo'jayinlar, xizmatkorlarni xushomadgo'ylik bilan xizmat qilishi).

Bo'rtma rasmlar qabr toshlarida ham ishlangan va ko'proq ishlab chiqarish mavzuida yasalgan. Turli davrlarga oid xitoy badiiy hunar buyumlari (metaldan, terrakota- sopol va boshqalardan yasalgan buyumlar) ning juda ko'pi saqlangan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qadimgi Xitoy madaniyatining muvaffaqiyatlari g'arbiy dunyoga oz ta'sir ko'rsatgan – xitoy ipagi va qog'oz ancha kechikib kelgan (o'rta asrdayoq Misr papirusini xitoy qog'ozi siqib chiqargan). Boshqa ixtirolar (kompas, o'q-dori. Seysmograf) g'arbda yangidan mustaqil ravishda ixtiro qilingan, ammo Sharqiy Osiyoda yoyilgan.

Sharq mamlakatlari ko'p jihatdan bir-birlaridan farq qilsalarda, lekin ularning taraqqiyotida ko'pincha umumiy xislatlar ham bor. Sharq mamlakatlari quldorlik jamiyatiga uzoq va asta sur'atlar bilan o'tganlar, antik dunyo bu jamiyatga keyinroq va tez sur'atlar bilan o'tgan. Sharq madaniyatining g'arbiy dunyoga ko'rsatgan ta'siri katta tarixiy rol o'ynagan, ammo keyinchalik antik dunyo madaniyati ko'p jihatdan undan o'tib ketgan va o'z navbatida sharqqa ta'sir ko'rsatgan.

1. Qadimgi Gresiya madaniyati gullab yashnagan davrdan bizni 2,5 ming yildan ortiq vaqt ajratadi. Dunyoda ko'p narsa o'zgardi. Lekin antik madaniyatning kuchi va shuhrati so'nmadi. Antiq madaniyat haykaltaroshlar, rassomlar, me'morlar uchun abadiy maktab bo'lib kelayapti.

Agar kartaga nazar tashlasak, bu Yevropa madaniyatini o'chog'i bo'lgan Qadimgi Gresiya qanchalik kichik bo'lganligini ko'ramiz – Bolqon yarim orolini janubiy qismi, Egey dengizining orollari, Kichik Osiyo g'arbiy sohilining bir qismi. Mana shu kichik territoriyada buyuk ma'naviy madaniyat tug'ilib gulladi va hozirgacha qarigani yo'q. Ayrim olimlar buni «grek mo''jizasi» deb ataganlari bejiz emas. lekin bu «mo''jiza» o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Uning tarixi uzoq davrlardan boshlanadi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida arxeologlar Gresiya va Krit orolida arxeologik qazilmalar o'tkazib, qadimgi grek afsonalarining ertak qatlamlari zamiridan haqiqiy tarixining tobora ko'proq donalarini topib oldilar va topib olmoqdalar. Eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda Krit, keyinchalik Mikena shahri Egey madaniyatining markazi bo'lgan. Shuning uchun bu dastlabki antik madaniyatni Krit-miken yoki egey madaniyati deb ataladi. **Bu madaniyatni izlarini dastlab XIX asrning 80 yillarida havaskor arxeolog Genrix Shliman topgan. Uning vafotidan so'ng ingliz olimi Artur Evans uning ishini davom etdi. U Knossda (Kritni qadimiy shahri) o'tkazilgan qazuvlari vaqtida Knoss saroyini qoldiqlari topdi. Bu yorda loydan yasalgan va ustida noma'lum yozuvlar yozilgan lavhalar topildi. Keyinchalik bu yozuvlar Mikena, Tirinf va boshqa joylarda ham topilgan. Taxtachalarda dehqonlarning ruyxati bo'lib, ularda dehqonlardan olinadigan soliqlar, cho'rilarining (u zamonda erkak qullar oz edi), chorva mollarining ruyxati va boshqa yozuvlar bor edi. Ho'kizlar va otlar ruyhatlarda nomlari bilan atalgan, cho'rilarining esa, bolalari bilan birgalikda soni ko'rsatilgan. Eng qadimgi grek tilini odatda axaye tili deb ataydilar. Pilos shahri yonida (Gresiyaning janubiy qismining g'arbida) olib borilgan qazilmalar natijasida saroy qoldiqlari topilgan va «chiziqli» xat bilan yozilgan miken yozuvlarining katta arxivi topilgan.**

Er. Avv. III ming yillikda rivojlangan bronza asriga o'tish yuz bergan. Xuddi shu vaqtda oltin va emaldan yasalgan mashhur krit zargarlik buyumlari paydo bo'ladi. Kamaros g'oridan topilgan idishlar ayniqsa ko'rkam, Krit Kulol – haykaltaroshlari yupqa hasham idishlardan tashqari, pishiq loydan ma'bud va ma'budalarning, odamlar va hayvonlarning haykalchalarini yasaganlar. Toshidan va Afrikadan keltirilgan fil suyagidan o'yma muhrlar yasalgan. Badiiy hunarmandlik buyumlari bilan bir qatorda ko'p miqdorda sopol idishlar va boshqa xo'jalik buyumlari ham yasaladi.

Tahminan er. avv. 2000 yilda Knossda o'lgan saroy qurilgan (to er. av. XVI asrgacha avjud bo'lgan). Bu saroy binolari butun bir kompleksidan iborat bo'lib, ikki qavatli, ba'zilarining taxminicha, uch va hatto to'rt qavatli qilib solingan. Pastki qavatlar binosi yorug' o'tkaziladigan quduqlar bilan yoritilgan. Markaziy to'g'ri burchakli zal-megaron ommaviy yig'inlar o'tkaziladigan joy bo'lgan. Saroyni devorlari turli rasmlar bilan bezatilib, ularga o'simliklarning, fantastik hayvonlarning, saroyda yashovchilarning hayotini tasvirlovchi manzaralar chizilgan.

Minos hukmronlik qilgan davr- Krit davlatini eng qudratli davri bo'lgan. Shu bois Minos haqida grek afsonalari yaratilib, ba'zilari bizgacha etib kelgan. Rasmlarda chizilgan odamlarning sochlariga minchoqlar taqilib, murakkab jimjimador prichyoska qilingan, serhasham zangori ko'ylaklar kiygan, marjonlar toqqan hokimlar tasvirlangan. Akrobachi ayollarning buqa bilan tasvirlangan rasmi biror bir diniy marosimga oid muqaddas harakat degan taxmin bor.

«Odissey» dostonida saqlanib qolgan xotiralarga ko'ra Krit hukmdori Minos faqat podsho bo'lib qolmasdan, shu bilan birga Qohin va umuman xudo nazar qilgan shahs hisoblangan. Har 10 yilda u bosh ma'buda bilan diniy muloqotda bo'lgan va undan yana 10 yil podsholik qilishga fотиha olgan. Kritning hokimlariga boshqa mahalliy hokimlarining xiroj to'lab turganliklari va qaram bo'lganliklari Minotavr haqida qadimgi afsonadan etib kelgan. Minotavr – yarim –odam, yarimi- buqa Minosni xotini Pasifayaning Poseydon tomonidan yuborilgan buqadan tuqqan o'g'li. Minotavr tanasi odamga va boshi buqaga o'xshagan Knoss saroyini labirintida (chalkash –chulkash qilib qurilgan bino yullagi turgan va har yili unga em bo'lish uchun 7 yigit va 7 qiz yuborilgan. Bu afsona eng qadimgi diniy e'tiqodni aks ettiradi (totemizm elementlari aralash). Xalqini bu mahluqdan Afin qahramoni Tesey, Minosning qizi Ariadna yordamida ozod qilgan.

Kritliklar katta ibodatxonalar qurmaganlar, balki kichkina- kichkina sajdagohlar va mehroblar qurish bilan cheklanganlar.

Rasm va haykalchalarga qaraganda, kritliklarda eng katta xudo ayol (Buyuk ma'buda, Ona) bo'lib, u hayot baxsh etgan. Bu ma'buda ko'pincha o'g'il-xudo bilan birga, yoki qo'lida ilon ushlab turgan shaklda ham tasvirlangan. Kritda erkak xudo ham juda mashhur bo'lib, u ikki yoqlama bolta (labris) shakldagi (ya'ni uning osmonda ham, erda xam hokimligini bildiruvchi) xudo tarzida tasvirlangan. Erkak xudo ham buqa qiyofasida tasavvur qilingan. Kritda diniy marosimlarni asosan ayollar ado etganlar. Grek afsonalari krit dinining greklarning keyinroq yuzaga kelgan diniga ta'siri borligidan dalolat beradi. Er. avv. 16 asrda Krit madaniyati halok bo'ladi. Sababi, taxminlar bo'yicha birinchidan kuchli zilzila, ikkinchidan Fera vulkani uyg'onishi, uchinchidan orolda Krit yaqinida 15 asrda axey qabilalarining hujumi.

Krit madaniyatiga yaqin materikda Miken madaniyati rivojlandi. Bu madaniyatlar yaqin bo'lsa-da, lekin ularni o'ziga hos xususiyatlari bor. Miken va Tirinf saroylari mustahkam qal'a sifatida qurilgan. Ular katta tepaliklarda baland devorlar bilan aylantirib qurilgan. Devorlar katta-katta toshlarda qurilgan (eni-8 m) qal'alar qurishni sabablari – qiyin hayot, urushlar (troyan urushi). Shuning uchun saroylarda topilgan rasmlarda (freskalar) jang manzaralari tasvirlangan: Tirinfda – ikki qizning jang arafasida uchib ketayotganligi, yovvoyi cho'chqani ovlash tasvirlari ko'rsatilgan.

Sopoldan yasalgan lavhalarda antik davrda greklar topingan Poseydon, Germes, Dionis, Zevs, Gera va boshqa xudolar tilga olib o'tilgan.

Greklar Zevs va boshqa asosiy xudolar Gresiyaning eng baland Olimp tog'ida yashaydilar deb bilganlar ularni Olimp xudolari deb ataganlar. Greklar Olimp tog'idagi xudolar hayotini zodagonlar

hayotiga o'xshash deb tasavvur qilganlar Zevs boshliq. «Olimp xudolari» odamlar va tabiatni boshqarishgan. Xudolar bir xil kishilarni badavlat, boshqalarni kambag'al, yana boshqalarni qul qilib yaratgan emishlar. Kim xudolar tomonidan o'rnatilgan tartibga qarshi bosh ko'tarib chiqsa, u xudolarning g'azab- nafratiga va qattiq jazosiga giriftor bo'lar emish. Qudratli Zevs, momaqaldiroq va chaqmoq xudosi, xudolar va odamlar otasi, o'zining oltin nayzalarini – chaqmoqlar bilan halok qiladi, deb o'ylanganlar. Poseydon- dengiz xudosi (erni tebratadi, kemalarni cho'ktiradi); Gelios – quyosh xudosi (oppoq otlar qo'shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanida kunduz boshlanar emish), Apollon – yorug'lik va san'at xudosi, Demetra – hosildorlik ma'budasi Aid – er osti hukmdori (uning oyoqlari oldida 3 boshli it o'tirib er osti saltanatiga hammani kiritib, chiqqarib yubormas ekan); Dionis – vinochilik xudosi; Gefest – temirchilar homiysi hisoblangan xudo, Germes – savdo-sotiq homiysi. Osmon ma'budasi va nikoh xomiysi Gestiya - uy-ruzugor Zevsni xotini bo'lgan. Gestiya uy-ruzug'or ma'budasi; donishmandlik va urush ma'budasi – Afina; oy va ov ma'budasi – Artemida; go'zallik va sevgi ma'budasi – Afrodita (dengiz ko'pigidan paydo bo'lgan).

Greklarni nazaricha, chakalakzorlarda driadalar, nimflar, echkiyoq satirlar yashagan, dengizda nayadalar va sirenalarni – ayol boshli qushlar yashagan.

Gresiyada yarim xudo- qahramonlar e'zozlangan, ular odamlar va xudolar nikohidan kelib chiqqan –12 marta jasorat ko'rsatgan yarim xudo-kaxramon Geraklni greklar alohida hurmatlangan. (sher terisida tayoq bilan tasvirlangan, yovuzlikka qarshi kurashgan).

Boshqa qadimgi halqlarning dinida bo'lgan kabi qadimgi greklarning dinida ham ularni qurshab turgan tabiat, ularning mashg'ulotlari, quldorlik tuzumiga o'tishlari aks ettirilgan edi.

Qadimiy Gresiya hayoti va afsonalari sifatida Gomer yaratgan «Iliada» va «Odissey» dostonlari yorqin bayon etilgan. Taxmin qilishlaricha ular er. av. VIII asrda yaratilgan.

Grek arxaik madaniyatida (Er. avv. 8-6 asrlar) Krit –miken madaniyati bilan qo'shni sharq mamlakatlarini madaniyatini ta'siri bor. Undan tashqari alohida shahar – davlatlarni –polisni – vujudga kelishi ham madaniyatga ta'sir ko'rsatgan.

Er. avv. VII-VI asrlarda din tamomila rivoj topgan. U Qadimgi Gresiyani turli shaharlarini birlashtirgan. Gresiyada xudolarga atalgan maxsus bayramlar mavjud bo'lgan. Lekin ular faqat diniy xarakterga ega bo'lmagan, chunki jismoniy tarbiya musobaqalari hamda muzika, qo'shiq va shu kabilar bayramlarning eng muhim ishlari hisoblangan.

- Argosda (Peloponnesdagi shahar) Gera Argosiy sharafiga bayram; Afinada – ma'buda Afina sharafiga bayramlar mashhur bo'lgan.

Bayramlardan tashqari, greklarni umum-grek musobaqalari birlashtirgan.

Peloponnesda Olimpiyada o'tgan olimp o'yinlari ayniqsa mashhur bo'lgan. Bu o'yin Zevs sharafiga o'tkazilgan. (Olimpiyada – Zevs ibodatxonasida kattakon Zevs haykali turgan).

Olimp o'yinlari 4 yilda bir marta o'tkazilgan (birinchisi 776 yilda o'tkazilgan) O'yinlar vaqtida urushlar to'xtatilgan, chunki grek dunyosining turli shaharlaridan ko'p xaloyiq yig'ilib kelgan. Musobaqalarda yugurish, sakrash, disk irg'itish, aravachalarda ot choptirish va b. gimnastika mashqlari o'tkazilgan. Bunga faqat erkaklar qatnashgan (spartalik qizlar ham) Mukofot oddiy –muqaddas zaytun daraxti barglaridan gulchambar berilgan va o'zi, oilasi, shahri hurmat qilingan, haykallari yasalgan. Bu o'yinlarda dramaturglar, shoirlar, ashulachilar va sozandalar ham musobaqalashganlar. Foliblarga dafna gulchambarlari bilan mukofotlanganlar.

Undan tashqari Gresiyada VII-VI asrlarda materialistik falsafasi paydo bo'ladi. (stixiyalik yoki ibtidoiy materializm deb ataydilar).

Masalan, Miletta yashagan Fales (faylasuf, fizik, matematik) butun olamning asosi – suvdir, deb ta'lim bergan – mavjudotning negizi – suv.

Anaksimend – uning shogirdi, birlamchi materiya- «apeyron» butun mavjudotning ibtidosidir deb hisoblagan.

Anaksimend – olamni asosi – havo, «efir» dir deb hisoblagan.

Geraklit olam olovdan kelib chiqqan deb hisoblangan: «Olam- abadiy alanglanib va abadiy so'nib turadigan olovdir». Geraklit (dialektik) – erda narsalar yo'qdir, balki yuz berib turadigan proesslar bordir: « Xamma narsa oqib turadi, hamma narsa o'zgarib turadi», «Ayni bir daryoga ikki

marta tushib bo'lmaydi, chunki birinchi tushganligingizda suvning bir zarralari oqadi, ikkinchi marta tushganligingizda esa suvning boshqa zarralari oqib turadi».

Bu falsafa katta qimmatga ega edi: olamni asosi – xudolarning yaratuvchanlik kuchi emas, balki birlamchi materiyaning rivoji.

Bu materialistik falsafaga idealistik falsafa qarshi turardi. Sisiyalik Pifagor (grek matematikasini asoschilaridan biri) VI asrda yashagan –olamni ibtidosini tabiat va uning xodisalari emas, balki ideyalarda deb bilardi.

Bu davrda greklar o'z soddalashgan 24 harfdan iborat yangi alifbosini tuzganlar – keyinchalik u slavyan alifbosiga asos solgan. Alifbe grek adabiyotining rivojida juda muhim qadam bo'lgan edi.

Er.avv. VII-VI asrlarda grek lirikasi paydo bo'lgan (lira- musika asbobidan olingan) va yuksak darajada rivojlangan. Shoirlar ozgina so'zlarda kuchli his – tuyg'ularni, qayg'u va shodlikni tasvirlab ko'rsatganlar. Grek lirikasining asoschisi Arxilox (Paros orolidan), Lesbos orolida er.av. VI asrda shoir Alkey va shoira Safo mashhur bo'lishgan. Tirtey – Spartalik shoir – vatanparvarlikni, urf –odatlarni va jasoratlarni kuylagan.

Greklarning masali ham mashhurdir. Birinchi masalnavis Ezop bo'lgan. Afsonalarga qaraganda u qul bo'lgan va og'ir hayot kechirgan. (Kichik Osiyoda yashagan). Ezop qisqa va o'tkir masallarida kambag'allar bilan boylarning kurashini ko'rsatgan.

Ana shu davrda grek tasviriy san'ati ham rivojlanadi.

Dastlabki paytlarda grek arxitekturasi mukammal bo'lmagan. Er.av. VIII-VII asrlarda grek ibodatxonasi 3 tomoni devor bilan to'silgan va to'rtinchi tomoni ochiq yog'och imoratdan iborat edi. Er.avv. VII asrda bi'zi ibodatxonalar ham g'ishtdan, keyinchalik toshdan qurilgan. Er. Avv. VII asr oxirlarida hamma tomondan ustunlar bilan o'ralgan yangi shakldagi ibodatxona vujudga keladi. (doriycha order yoki uslubda – oddiy, bezaksiz – ko'rilgan). Doriycha orderda -ustunlar kaltaroq va tepasiga qarab torlashadi, ioniycha orderda -ustunlar to'g'ri, korinfcha orderda -ustunlarni tepasida barglar shakli.

Doriycha uslubda Gera ibodatxonasi (Olimpiyada – 7 asr), Apollon ibodatxonasi (Korinfda – 6 asr), Artemida ibodatxonasi (Efesda) qurilgan.

Er.av. VIII asrda haykaltaroshlikda yog'ochdan yasalgan xudolar haykallari paydo bo'ladi. Dastlabkilari yog'och haykallariga o'xshagan (Samoslik Geraning haykali) Er.av. VII asrning oxirlarida paydo bo'lgan haykallar odamning qadri- qomatiga o'xshab ko'rinadi. Erkaklar kiyimsiz, qizlar esa boy qiyimlarda salgan.

Ayrim vaqtda doriycha uslubda – qurilgan kolonnalarni – o'stunlar bo'lib – erkaklar haykali; ioniycha uslubda – qizlar haykali ustun qilib ishlatilgan.

Goy haykallar harakatda tasvirlangan – Qahramon Persey Meduzaning boshini qilich bilan chopayotganligi haqida haykal. Ikkalasi ham jilmayib turibdi. Jilmayish o'sha vaqtdan shartga ko'ra qotib qolgan.

Xudolar bilan bir qatorda, kuros deb ataluvchi yigitchalarni tasvirlash ham bo'lgan (Teneylik Apollon, Attikali Kroisos)

Ayollar haykallari – kora –kuroslar kabi jilmaygan holda jingalak sochlari mahorat bilan ishlangan, lekin kiyimlarining jimjimalari juda diqqat bilan tasvirlangan. Mramordan yasalib, hattoki bo'yalgan ham (Kora «675» - Afin Akropolidan). Ularning qulida olma yoki gul bo'lgan.

Arxaik haykaltaroshlik figuralarning harakatsiz bo'lishiga qaramay, o'zining so'nmas go'zalligiga ega bo'lib, yuksak san'ati bilan kishini hayratda qoldiradi.

Greklarning rassomligi bizgacha binolarning devorlarida, idishlarga solingan rasmlardan etib kelgan. Rassomchilar matematik proporsiyalar qidira boshlaganlar, bu krit-miken rassomchiligidan ajratib turadi. Masalan, Dipilon nekropolidan (Afina) olingan tasvirda –relief «Kurashuvchi yigitlar»ni ko'rsak, bu erda 2 kurashuvchi yigitni oyoqlarini yozib boshlarini birlashtirish – uch burchakni eslatadi. Lekin shunga qaramasdan ularni gavdalar tabiiy ishlangan.

Idishlarda chizilgan rasmlar ko'p saqlanib qolgan. Sopol idish formasi turli bo'lgan, lekin eng ishlatiladigani – amfora (tuxumga o'xshash tor og'zi bilan). Unga vino solishgan.

Idishlarda ko'pincha har-xil epizodlar tasvirlangan.

Er.av. VI asrda qora figurali vazalar yasalgan, ya'ni tabiiy qizg'ish tusdagi vazalar ustiga qora lak bilan har xil rasmlar solingan. Ba'zan rasmlar boshdan oyoq «timdalab» chiqilgan va qizil, oq buyoqlar bilan bo'yalgan. Faqat arxaik davrdagi rasmlar shunday usul bilan ishlanardi («vaza Fransua» - 200 figura bir necha poyasda chizilgan; protoatik lutrofor; dipilon amforasi; eksekiy amforasi; YEvfroniy vazasi).

Er. avv. VI asrda Attikada ishlab chiqarilgan lak garchi er.av. V asr davridagi lakka tenglasha olmasa –da, har holda bizning davrimizgacha o'chmasdan saqlanib qolgan.

Arxaik madaniyatida antik sinfiy jamiyatning qaror topishining, urug'doshlik tuzumini dunyoqarashi qoldiqlari tugashining, aristokratiya bilan demos o'rtasidagi kurashning, antik quldorlik polisi qaror topishining alg'ov-dalg'ovli davri aks ettirilgan Arxaik davrining madaniyati qurgan poydevor ustida qadimgi grek klassikasi er.av. V-IV asrlarda o'zining porloq rivojiga etdi.

Klassik davrda falsafa yanada rivoj topgan.

Masalan, Anaksagor – materiya mayda zarralardan iborat – havo – eng mayda havo zarralaridan, daraxt – eng mayda yog'och zarralaridan va h.k. deb ta'lim bergan. Lekin materiyaning kelib chiqishiga sabab «olamiy aql» deb hisoblardi (materializm +idealizm)

Afinada yashagan ulug' mutaffakir Demokrit (460-370 yy) esa butun olam mayda zarrachalar – atomlar («bo'linmas») dan tashkil topgan, ular o'z harakati vaqtida to'knashib, koinotdan narsalarni hosil qiladilar deya dohiyona fikrni ilgari surdi. Harakat – materiyaning azaliy xususiyatidir, hech qanday ruh yo'q degan. Xudolarga va odam ruhini abadiy yashashiga ishonchni chippakka chiqargan. (mexanistik materializm)

Er. avv. V asrning II yarmida yangi tipdagi falsafiy oqim – sofizmni vujudga keldi.

Atoqli faylasuf Sokrat yoki Suqrot (475-399 yy) sofistlar orasidan chiqqan, lekin ulardan ajralib ketgan edi. Sofistlar haqiqatni bilish mumkin emas deganlar, Sokrat haqiqat bahs- munozarada bilinadi deb hisoblardi. («sokratcha dialog»). U odamlarni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratardi. Platon yoki Aflotun (427-347 yy) ob'ektiv idealist edi, ya'ni ob'ektiv olamning mavjudligini tan olardi lekin narigi dunyoda unga qarshi real ideyalar olamning mahsuli deb hisoblardi. (masalan, stol, ot va h.k ideyasi mavjuddir narigi dunyoda, lekin ularning realligi faqat in'ikosi, gavdalanishidir). Hayotda otlar tug'iladi, yashaydi, o'ladi, lekin narigi dunyoda ot ideyasi abadiy.

Mashhur Aristotel yoki Arastu (er.av. 384-322yy) g'oyat keng ko'lamda bilimlarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. U yer –shar shaklida bo'lib, butun olamning markazidir, quyosh va yulduzlar esa YErning atrofida aylanadi, deb hisoblar edi. U fanlarga nomlar berdi: botanika – «o'simlik», fizika – «tabiat», siyosat – «davlat», «polis», ilmiy bilimlarni ayrim sohalarga bo'lib chiqdi. Er. avv. V asrda tarix faniga asos solingan «Tarix otasi» deb Geradotni atashadi, u « Gresiya – Eron urushlari tarixini» yozgan. U Gresiyani qadimgi tarixi hamda Old Osiyo, Misr va boshqa halqlar haqida ma'lumotlar qoldirgan.

O'sha davrda Gippokrat yashagan. Gippokrat ta'limotiga ko'ra, vrach kasalni engishda organizmga yordam berishi lozim. U to'g'ri ovqatlanish, dori-darmon va operasiyalar haqida asarlar qoldirgan.

Qadimgi grek madaniyatining eng ajoyib hodisalardan biri teatrdir. Teatr Dionis bayrami vaqtida ijro etiladigan xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida paydo bo'lgan.

Teatr – grekcha so'z bo'lib «tomoshalar joyi» demakdir. Er. av. V-IV asrlarda Gresiyaning hamma shaharlarida ochiq havoda tomoshalar ko'rsatiladigan teatrlar qurilgan edi (birinchi yog'ochdan, keyinchalik toshdan) grek teatrlari 20-25 minggaacha tomoshabinni sig'dirgan (ajoyib akustikaga ega). Artistlar o'ynaydigan joy sahna - «skena» deb atalagan (chodir). Teatr tomoshalari yilda 2-3 marta qo'yilgan va 3 kun davomida ertalabdan kechgacha davom etganga (3 tragediya va 3 komediya)

Dionis sharafiga aytiladigan marosim qo'shiqlarining – difiramblarning ijrochilari echki terisiga yopinganlar. «Tragediya» so'zi «takalar qo'shig'i» ana shunday kelib chiqqan («tragos» - taka, «ode» - qo'shiq) Tragediyalarda asarda ishtirok etuvchilar urtasida keskin kurash, qahramonliklari, azob-uqubatlari va halokati tasvirlangan.

Kulgili manzaralar zaminida komediyalar – quvnoq pesalar yuzaga kelgan «Komediya» so'zining ma'nosi «xushchaqchaq dehqonlarning qo'shiqlari» demakdir.

Teatr – tomoshalar ko'ngil ochish emas, balki muqaddas burchni ado etish hisoblangan. Teatr tarbiya maktabi bo'lib, unda qo'yiladigan pesalardan axloq, siyosat va tafakkurning eng muhim masalalari tahlil qilganlar.

Pesalar avtorlari Gresiyadan nihoyatda izzat – hurmat qilingan. Esxil va Sofoklga Afina teatrida haykal o'rnatilgan. Ular faqat grek klassiklari emas, balki jahon adabiyotining klassiklaridir.

Esxilni (525-456 yy) – tragediya otasi deb atashadi. Uning - asarlarida «Zanjirband Prometey», «Forslar» ulug'vor kuch va ozodlik g'oyalarini ilgari so'riladi.

Sofokl (er. Av. 496-406 yy) ko'p tragediyalar yozgan, lekin ulardan faqat 7 bizga etib kelgan: «Antigona», «Shox Edip», «Elektra» va b.

Yana bir tragedik shoir Yevripiddir (480-406 yy) u yozgan tragediyalar xis-tuyg'ularni analiz qilishga bag'ishlangan : «Medeya», «Ifegeniya Avlidada» (Trol urushi), «Ippolit» (ugay ona xakida).

Grek komediyasining klassigi – Aristofan (450-338 yy) : «Tinchlik», «Ayollar xalq yig'inida», «Suvoriylar», «Bulutlar», «Qurbaqalar». Uning komediyalari keskin siyosiy mazmunga ega bo'lgan.

Klassik davrda Gresiyada ibodatxonalar, teatrlar, majlis binolari etakchi arxitektura inshootlari edi. Er.avv. V asrda shaharlarni rejalashtirish paydo bo'ladi.

Oldinda aytganimizdek, ular 3 uslubda – doriy, ioniya va korinfcha uslublarda qurilgan. Ibodatxonani boshqa binolardan ajratib ko'rsatish uchun uni baland poydevor ustiga va baland tepaliklarda ko'rganlar. (Afina akropoli (tepalik) Ibodatxonaning ichkari va tashqarisi haykallar bilan bezatilgan (ulara davlat xazinasi saqlanar edi).

Bizning zamonamizgacha Afina akropolida saqlanib qolgan Parfenon va Erexteyon ibodatxonalari grek arxitekturasi uchun mashhur namunalaridir.

Parfenon ibodatxonasi ma'buda Afinaga bag'ishlangan. (447-438 yy Iktin va Kalliktat tomonidan qurilgan) u mramordan bo'lib, 46 doriycha ustunlar bilan aylantirilgan.

Uning qarshisida Erexteyon ibodatxonasi (420-415 yy) joylashgan bo'lib. Bu bino sof ioniycha uslubda qurilgan. Uning ustunlari kelishgan va nafis va kariatidalar deb atalmish qiz haykallari bilan ustunlar o'rniga bezalgan.

Haykaltaroshlik haqida gapirganda, Plutarx aytgan so'zlarni eslash lozim. U Afinada tirik odamlardan ko'ra, haykallar ko'p degan. Balki bu oz bo'lsada ko'pirtirishdir, lekin, darhaqiqat haykallar juda ko'p edi.

Er .avv. V asrda Miron, («Disk uloqtiruvchi», «Afina bilan Marsiy» haykallari) xarakterni jonli tasvirlagan; Poliklet («Nayzabardor», «Diodumen») go'zal yosh o'smirlarni, grajdanlarni tasvirlagan.

Eng yirik grek haykaltaroshi Fidoiy edi. Uning Parfenonda turgan oltin, yog'och va fil suyagidan yasalgan ma'buda Afina haykali eng mashhurdir. (balandligi 12,5 m). Fidiy Olimpiyada Zevs Olimpiyning taxtda o'tirgan haykalini yasagan. Fidiy asarlari bilan Parfenon bezatilgan.

Er. avv. IV asrning ulug' haykaltaroshi Praksitel bo'lib, u asosan ma'budalarni, chiroyli, latofatli yigitlar va yosh juvonlarni tasvirlagan: «Germes», «Knidlik Afrodita». U birinchi bo'lib ma'buda Afroditaning yalang'och holda aks ettirdi.

Skopas odamlarning jismoniy va ruxiy azoblarini tasvirlagan: «Menada», «Yaralangan jangchi boshi», Tegeydagi fronton gruppasida yarador jangchilar boshlari).

Klassik davr bilan ellinistik davr chegarasida Lisipp ijod qilgan (e.av. IV asr oxirida) u jismoniy va irodasi kuchli kishilarni tasvirlagan va yaxshi portretist bo'lgan: «Gerakl», «Apoksiomen», «Aleksandr Makedonskiyning boshi».

Klassik rassomlik keng tarqalgan, lekin afsuski, bizning zamonamizgacha uning namunalari deyarli saqlanib qolmagan. Grek rassomlarining (Polignat, Apollodor, Apelles, Zevksis va b.) freska va mozankalari uchun odatda mifologiyani ayrim manzaralari syujet bo'lgan, zamon voqealarini va greklarning turmushini aks ettirganlar. Vazalarga naqsh va rasm solish davom etgan (qora gulli, qizil gulli ko'zalar).

Ellinistik dunyo madaniyati (III-I asrlar) murakkab va hilma-hil edi. U grek madaniyatining hamda yaqin Sharq va qisman O'rta Sharq mamlakatlari madaniyatining sintezi va turlicha qo'shilib ketishidan iborat edi.

Uzoq harbiy yurishlar, savdo-sotiq aloqalari, greklarni yaqin Sharq mamlakatlariga ko'chib borishi, greklarni sharq madaniyati bilan yaqindan tanishishga imkon berdi va Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan mamlakatlarga mahalliy aholi grek madaniyati bilan tanishdi.

Ellinistik madaniyat uchun xarakterli narsa shuki, u grekcha tus olgan edi. Greklar, makedonlardan, ellinlashgan mahalliy er va savdo aristokratiyasidan, chinovniklar va qohinlardan tarkib topgan hukmron sinf orasida umumgrek tili koyni keng tarqaldi. Undan tashqari eski grek dialektlari, maxalliy tillar: misr (demotik) tili, salavkiylar davlatida oromiy, akkad va turli tillar rivojlandi.

Ellinistik madaniyatning muhim belgisi texnikani yanada rivojlanishi: Arximed sug'orish uchun qo'llanilib kelingan charxpalak (chig'ir) mexanizmini yaxshilagan; gorizontol ramali to'quvchilik dastgohini takomillashgani; otuv to'plarini rivojlanishi (toshotar), taranlar (qamal qilish uchun), besh qatorli kemalar, mayoqlar (Faros orolida) paydo bo'ldi.

Vaziyat ellinistik hukumatlardan fan va texnikani rivojlantirishga e'tibor berishni talab qilardi. Misrdagi Iskandariya, Orontdagi Pergam, Antioxiya ellinistik dunyoning ilmiy va madaniy markazlari edilar. Afina ham madaniy markaz sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan edi.

Iskandariyada Ptolemeylar homiyligida o'sha vaqt uchun g'oyat katta kutubxona bo'lib, unda ellinistik davrning oxiriga borib 700 mingga yaqin papirus va pergamentga yozilgan qo'l yozma bor edi. Pergament – buzoq va qo'zilarining yaxshi ishlangan terisidir. (Kichik Osiyoda Pergam shahri pergament ishlab chiqarish markazi edi.) Iskandariyada undan tashqari tosh terilgan to'g'ri ko'chalar, teatr, muxtasham podsho saroylari, gimnasiylar va mashhur Museyon, ya'ni «muza (fan va san'at xomiysi) larning muqaddas makoni bo'lgan. Musiyonda kutubxona, observatoriya va olimlar uchun yotoqxon ham bor edi. Bunda olimlar podsho hisobiga yashab, fan, falsafa va adabiyot bilan shug'ullanardilar.

Ellinistik davrni mashhur olimi Teofrast (370-285 yy) – «botanikaning otasi» degan nom chiqargan.

Straton (er.av. III asr) – «fizik» degan laqab olgan edi, chunki fizika hodisalarini tadqiq qilishda eksperiment tadbiriq etishga intilgan edi.

Aristarx (310-230 yy, Samos orolidan) – buyuk astronom, u YEr va boshqa planetalar quyosh atrofida aylanadi degan gipotezani ilgari surgan. Lekin isbot qilolmagan.

YEuklid (er. av. III asr) – buyuk Iskandariya matematiki «Ibtido» asari – boshlang'ich geometriya darsligiga asos soldi. Erastofen (Kurenalik, 275-208yy) – er shari aylanasining uzunligini ko'p daraja aniqlik bilan hisoblab chiqdi, «Geografiya» terminini birinchi bo'lib ishlatgan edi.

Arximed (Sirakuzadan, 285-212 yy) nazariy mexanikaning, gidrostatikaning. Sferek geometriya va trigonometriyaning asoslarini yaratdi, katta sonlarni hisoblab chiqishning arifmetik metodlarini takomillastirdi.

Gerofil (er. av. 4-3 asr) – Iskandariya medisina maktabining asoschisi – odamning tasviriy anatomiyasini yaratgan, diaqnoz metodlarini aniqlagan, dori – darmonga katta ahamiyat bergan.

Gipparx (er. avv. II asr) – astronom va geograf – 900 ga yaqin yoritgich yulduzlarni xatoligini tuzgan, YErda Oygacha bo'lgan masofani, YEr va Quyosh massasi haqida bilimlarni aniqlagan, ekvatorni 360 ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qilgan.

Zenon (Kiprdan 336-264 yy) – stoiklar falsafasining asoschisi. Stoicism eng ko'p tarqalgan va uzoq yashagan ellinistik falsafiy maktab edi. Stoiklar hamma narsani – fikr, so'z, olov va shu kabilarni jizm deb atardilar. Butun olamni uzluksiz rivojlanib turadigan olov deb hisoblardilar. Koinot olovdan tug'ilgan va kelgusida uni olov yutadi. So'ngra esa yana bunyod bo'ladi, lekin ilgarigi narsalarni aynan takrorlaydi. Olamda yuz bergan narsalarning hammasi qonuniy va zaruriydir. – taqdir, qismat, etika (odamning xatti-harakati to'g'risida ta'limot) stoiklar falsafasining bir qismi bo'lgan.

Epikurchilar ellinistik falsafiy maktabining asoschisi Epikur (Samos orolidan, 341-272) – materialist: materiya atomlardan iborat, ruh ham atomlardan iborat, hudolarni mavjudligini tan olardi. (ular ham atomlardan iborat). U kamtarin hayot kechirishga chaqirgan.

Ellinizm davridagi tasviriy san'at ajoyib yutuqlarga erishgan edi. Bu ellinistik san'at qarama-qarshi hususiyatlar ega bo'lgan: hashamatli va shahfonaviy, ulug'vor va kichik; dabdabali va oddiy, allegorik va naturalistik ellinistik haykallari shaxsni individualligini yaqqol ko'rsatadigan portretlarni oldinga surdi. Yakka va gramma tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, g'alaba, o'lim va shu kabilarni tasvirlab ko'rsatilgan. Peyzajni fon sifatida tasvirlab, unda yoki uning o'rtasida asosiy syujetni aks ettirish haykaltaroshlikda yangilik edi va bu narsa klassikaga ma'lum emas edi.

Antik plastikasining buyuk namoyondalari – Miloslik, Afrodita, Samofrakillik, Nika, Diadax, Pergam mehrobi va b.

Rodos haykaltaroshlik maktabiga mansub g'alabani qanotli ma'budasi Nika (er. avv. II asr) ellinistik davrni go'zal haykali. Ma'buda kema tumshug'iga qo'ngan xolda tasvirlangan. Haykaltarosh Nikaning shamol sari intilishini ko'rsatgan (hozir Luvrda saqlanadi). Uni ko'rib dunyoni kengligini, tabiat bilan birlikni tasavvur qilsa bo'ladi.

Ellinizm davrining ikkinchi yarmida haykaltaroshlikda klassikaning ideallashtirilgan formalariga qaytishga intiluvchi yo'nalish kuchaygan. Bunga Miloslik Afroditaning haykali isbot bo'ladi (u 1820 yilda topilgan) Yarim yalang'och Afrodita go'zal va hotirjam – «mramordan yasalgan topishmoq» uning qulsizligiga qaramasdan go'zal va ulug'vor ayol idealini aks ettiradi.

Bu davrni yana bir ajoyib yodgorligi – Pergam mehrobining frizi (bo'rtma rasm) Dramatizmga to'la Pergam maktabi Skopasga borib taqaladi. Unda xudolarning gigantlar bilan olishuvi tasvirlangan. Bu –

Pergamning va boshqa ellinistik davlatlarning jangovor galat qabilalari bilan olib borgan og'ir kurashning ramzi edi. (fizni uzunligi 120 m, mehrobni pastki qismida joylashgan, balandligi 2 metr dan ortiq). Tasvir juda ta'sirli ifodalangan: zabardast tanalarning muskullari tarang tortilgan, engilganlarning chehralari azob – o'qubatdan tirishgan.

Ellinistik davr bizga buyuk faylasuflar – Sokrat, Aristotel, YEvipid, Demosfen, Gomerlarni portretlarini qoldirgan.

Ellinistik davrning oxiriga borib haykaltaroshlikda dahshatli syujetlarga va yasamalikka mahliyo bo'lish ko'rinishi boshlaydi: «Farnez buqasi», «Laokoon» gruppasi haykallar. «Laokoon» avtorlari keksa qohin Laokoon va uning o'g'illarining azob – uqubatli o'limini keskin tasvirlaganlar: u Trol urushi syujeti asosida yasalgan, ya'ni – qahramonlarni ilonlar bilan kurashi befoydaligi va o'lim yaqinligi yaqqol tasvirlangan. Hattoki Laokoon qichqiradigan emas, balki og'riqdan ingrayotgan holda tasvirlangan.

Ellinizm davrida hajm jihatdan kichik- kichik haykaltaroshlik san'ati paydo bo'ldi, quyiluvchi terrakota haykallari.

Undan tashqari bu davr haykaltaroshligini xarakterli hususiyatlaridan biri: bolalar, qariyalar, xizmatkorlar tasviri tarkalishi hattoki xudolar xam bolalar shaklida ishlangan – Kupidon (Erot sevgi, xudosi), Apollino (Apollon sn'at – xudosi).

Tosh o'ymakorligi san'ati katta muvoffaqiyatlarga erishdi «Kameya Gonzago» deb atalgan asar uning ajoyib namunasi. Unda misrlik podsho Ptolomey va malika Arsinoyaning boshlari yon tomonidan tasvirlab ko'rsatilgan (hozir Ermitajda saklanadi). Uch qatlamli sardoniks toshda har –xil tabiiy rangda: osti – qoramtir, keyin – oqishtob- zangori, usti – tillo – malla, po'shti aralash rangda. Bu ko'p qatlamli bezak – go'zal tasvirlardan biri.

Mo'm buyoqlar bilan chizilgan kartinalardan va freskalardan deyarli hech nima saqlanib qolmagan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, qadimgi Grek madaniyati jahon madaniyatining umumiy madaniy merosining muhim qismini tashkil etadi.

Grek madaniyatini, uning tozaligi, sofliqi, go'zalligi, odamning yuksak darajaga ko'targanligi uchun sevmasdan bo'lmaydi. «Har bir odam grek bo'lishi kerak» degan buyuk Gete, bu bilan u har bir inson abadiy garmoniya idealiga, guzallikka intilishi lozimligini nazarda tutgan.

Qadimgi Rim madaniyati antik va qadimgi davr madaniyatini yakunlaydi. Grek tarixini keng ma'noda siyosatchilar bilan birga me'morchilar, haykaltaroshlar, rassomchilar, shoirlar va faylasuflar yaratganlar. Ular uchun sana't xayot bilan bog'liq edi. Rimda esa tarix yaratuvchilari – siyosatchilar bo'lgan: oratorlar, yuristlar, sarkardalar, shaharlar va provinsiyalar hokimlari. Shuning uchun rim san'atkorlarining Rimda o'rni boshqacha, kundalik hayotga moslashgan edi.

Lekin, qadimgi Rim madaniyatida o'z «mu'jizasi» bor edi. Rimliklar ikkita yuksak madaniyatli xalqlar bilan qo'shni bo'lib yashaganlar: greklar va etrusklar. Greklar Italiyada («Etiliya» - olovli er (vulkanlar uchun) yoki «buzoqlar mamlakati») er. avv. 8 asrdan janubga va Sisiliyaga ko'chib kelishgan. Etrusklar Kichik Osiyodan Sardiniya oroliga keyinchalik Appenin yarim orolida yashaganlar. Er. avv. 753 y. Rim shahriga asos solingan. Shahar aholisi lotin qabilalar Palatin tepaligida, sabin qabilalar Seliy tepaligida yashaganlar. Kapitoliy deb atalishi o'pirma jarligi bor tepalik shahar markazi bo'lgan. Bu erda eng izzatli ma'budalar sharafiga ibodatxonalar solingan. Qadim zamonda Rim ko'chalari binolari bir-biriga yopishib turgan egri-bugri labirintdan iborat bo'lgan. Ko'pchilik ko'chalarda tosh yotqizilmagan, shu bois goh chang, goh tuzon, goh yurib bo'lmaydigan botqoqlikka aylangan. Axlat va iflos suvlarni oqizib yuborish uchun Rimda, rivoyatlarga ko'ra er. avv. VI asr oxirlarida – er tagidan katta quvur – kloaka o'tkazilgan. Er. avv. III asrda qurilgan osma tarnovlardan tog' suvlari oqib tushib katta favvoralar qo'yilgan, shahar xalqi shu tariqa suv bilan ta'minlangan.

Rim madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan etrusklar guruhi edi. Er. avv. VII-VI asrlarda etrusk hunarmandlari Rim hunarmandlariga metalsozlik texnikasini o'rgatganlar, arxitektura uslubining muhim xususiyatlarini ham etrusklardan o'rganganlar. Etrusk madaniyatini tarixi maqbaralar bilan boshlanib, maqbaralar bilan tamom bo'ladi. (nekropol), buning sababi asli vatani Kichik Osiyo va Sharkni ta'siri bo'lsa kerak. Bu erlarda biz rasm solingan devorlar, qimmatbaho buyumlar bilan sovg'alar qo'yilgan maqbaralarni uchratamiz. Ular ichidan mashhur maqbara Regolini – Galassi maqbarasi (7-6 asrlar) u uzun tor piramida shaklida yopilgan koridordan iborat bo'lib, u erda Lartiya ismli ayol dafn etilgan ekan (yonida turgan ko'zada ismi yozilgan) – bu erda taxt, aravacha, suv va oziq-ovqat uchun ko'zalar, to'shak bor edi, ya'ni sharoitlar narigi dunyoda yaxshi turmush kechirish

uchun ta'minlangan. Undan tashqari maqbaralar doira (osmon ramzi), kvadrat (er ramzi) shaklida qurilgan – Kazal Marittimo maqbarasi (er.avv. 6 asr), Flabelli maqbarasi (er.avv. 7-6 asrlar). Etrusklardan qolgan yodgorlik – bu kanoplar – o'lganlar kulini saqlash uchun yasalgan ko'zalar. Ularni qopqog'i shlem; odam shaklida ishlangan, hattoki portret shaklida ishlangan (Cheton, Kyuzi, Siven kanoplari). Maqbara devorlarida chizilgan rasmlar narigi dunyodagi ajoyib hayotni tasvirlar edi: balig' ovi, ov, sport bilan shug'ullanish, ishrat qilish, kurash tasvirlari. Bu erda xudolar tasvirini uchratish mumkin (Fufluns – Dionis). Juda ko'p tasvirlar Tarkviniyada Sherlar maqbarasida, Avgurlar maqbarasida uchraydi. Bular hammasi etrusklarni diniy – mifologik qarashlarini ifodalaydi. Go'rlar ustiga qo'yiladigan sarkofaglar – haykallar tarzida ishlangan, ular xuddi hayot bo'lganidek quchog'lashib, jilmayib turishibdi (er. avv. 6 asr er – xotin tasvirlangan Chervertidagi sarkofag) Shu tariqa xudolarni ham xushchaqchaq tasvirlashgan (Apollon va Germes (Veydan)).

Afsuski, bizgacha bironta ham etrusk ibodatxonasi etib kelmagan, lekin aniq bo'lishicha ular to'rtburchak silliq ustunlar bilan uch tomondan aylantirilgan. Ularni ichini terrakotali maskalar bezab turgan. (Meduza Gorgona maskasi – Veyyadagi Apollon ibodatxonasidan topilgan). Shunisi qiziqki rimliklarni birinchi ibodatxonasini – Kapitoliydagi – Yupiter, Yunona va Minerva ibodatxonasini – etrusklar ko'rishgan (er. av. 6 asrdan to eramizning I asrigacha saqlangan), Rimning emblemasini – Ona – bo'ri haykalini yasashgan (Kapitoliy ona –bo'risi – er. av. 5 asr). Rivoyatlarga ko'ra bu ona –bo'ri Rimni asoschilari egizaklar Romul va Remni emizib o'stirgan. Bronzadan yasalgan bu haykal tishlarini ko'rsatgan bo'ri va odam bolalarini mehribon onasi sifatida tasvirlangan. Etrusklar san'atini yana bir ajoyib namoyondasi – bronzali oynalar, orqa tomonida gravyurali rasmlar ishlangan (Kalxas tasvirlangan oyna – er. av. 4 asr). Oynalarni go'rlarga qo'yishar edi, odamni ruhini egzaki sifatida adabiyotni aks ettirgan.

Diniy marosimlarni, xususan qurbon qilingan hayvonlarning ichak- chavog'i va qushlarni uchishiga qarab istiqbolni aytib berishni rimliklar etrusklardan o'zlashtirganlar. Eng qadimgi va ko'proq afsonaviy Rim tarixining eng muhim paytlariga oid doston va qissalar ham etrusklar bilan bog'liq. Lotin alfaviti ham etrusklar ta'sirida tarkib topgan. Er. av. III asrda etrusklar erini va janubiy Italiyada greklar yashayotgan erlarni rimliklar egallab olishdi. Rim madaniyatida grek madaniyatini ta'siri kuchaydi. Etrusk madaniyati rimliklar madaniyati bilan singib ketdi. Rimliklarni diniy tasavvurlari larlar va penatlar deb atalmish, oila va ro'zg'or homiylari deb hisoblanmish ajdodlar ruhi va ma'budalariga sig'inishdan iborat bo'lgan. Er. av. II-I asrlarda ham ajdodlarni suratlari o'ylarda, mehmonxonalarda, o'choq yonida, kichikroq qurbongoh o'rnatilgan muqaddas joyda saqlangan. Umum Rim ro'zg'ori homiysi – ma'buda Vesta bo'lgan. Unga atab solingan ibodatxona Rim forumida (maydon) bo'lgan (eng zodagon urug'larni qizlari o'sha erda erga tegmasdan, muqaddas olovni o'chirmay saqlab turishgan).

Rimda osmon xudolariga sig'inishgan. Ularning eng muhimlari: bosh xudo Yupiter. Ma'buda Yunona, donishmandlik ma'budasi Minerva va Rim homiysi hisoblangan urush xudosi Marsdir. Rimda Appollonga va boshqa grek xudolariga sig'inish keng ko'lam olgan, ular bu xudolarni o'zlarining burungi xudolariga (Yupiterni Zevsga, Yunonani Geraga, Venerani Afroditaga, Dianani Artemidaga, Minervani Afinaga, Vulkanni Gefestga va h.k.) o'xshatishgan. Er. av. II asrdan e'tiboran Rimda sharq xudolariga sig'inish yoyila boshlangan – ulug' ona xudo Kibela (Kichik Osiyo ta'siri, Dionis (Vaqx – vinochilik xudosi) sharafiga bayramlar – vaqxanalillar o'tkazilgan. Er. av. I asrda eronliklar xudosi Mitraga sig'inish paydo bo'lgan. Rimda yozuv shohlar zamonining oxirida paydo bo'lgan: etrusklar alfaviti lotin tiliga moslab ishlab chiqilgan. Dastlab yozuvlar faqat qabr toshlariga o'yilgan va rasmiy hujjatlarga ishlatilgan. Er. av. III asrda adabiy asarlar, keyinchalik tarixiy proza va ilmiy traktatlar paydo bo'la boshlagan. Rimliklar greklarga o'xshab nazariy tadqiqot olib bormasdan, balki ilmiy yutuqlarini amalga tatbiq qilishga harakat qilishgan. Kalendarni rimliklar aniqroq qilib ishlab chiqishgan, quyosh keyin esa suv soatlarini ishlatishgan.

Neviy I, Kvint Enniy, Fabiy Piktora (grek tilida), Gay Sallyustriy Krisp (86-35 yillar), Gay Yuliy Sezar (101-44 yillar) she'r va proza janrida tarixiy asarlar yozib qoldirganlar. Mark Tulliy Siseron (106-43 yillar) Rim publisistikasining eng yorqin namoyandasi. U sudlarda, senatda, xalq majlislarida so'zlagan nutqlar, traktatlar («Davlat to'g'risida», «Vazifalar to'g'risida») va xatlardan iborat boy adabiy meros qoldirgan. Lukresiy Kar (er. Av. 98-54 yillar) – mashhur materialist – faylasuf. «Narsalar tabiati to'g'risida» degan doston yozgan. U olamda mavjud hamma narsaning asosi materiya, u

atomlardan iborat degan. Mark Liviy Andronik (asil grek, keyin rim grajdanligini olgan – er. av. 240 yil) «Odissey» va boshqa grek tragediyalarini lotin tiliga tarjima qilgan. Plavt (253-184 yillar) va Teresiy komediyalar yozganlar. Lusiliy (180-100 yy) birinchi bo'lib satira («aralash ovqat») janrini qo'llagan. Katull (87-53) ijodida respublika Rimning lirik poeziyasi o'z taraqqiysining cho'qqisiga chiqqan.

Bu davrda mimik tomoshalar (mim) o'tkazilar edi. Me'morchilikda amaliy zarur binolar qurish sohasida rimliklar greklardan ko'ra ancha ilgarilab ketganlar. Butun Italiyada juda obod yo'llar, ko'priklar qurilgan. Yo'llarning yoqalarida ariklar qazilgan, har joyda (milyada – ming qadam) ko'rsatuvchi belgilar- yozilgan toshlar o'rnatilgan. (rim yonida Appiev yo'li, Fabrisiy ko'prigi va Sespivy ko'prigi Tibr daryosida o'tish uchun qurilgan). Italiya shaharlarini Respublika davriga oid kurilishini Pompey shahri misolida ko'rsa buladi (u 79 yil Vezvivy vulqon toshqinidan barobat bo'lgan). Uning markazi - shahar maydoni, Forum, atrofi to'g'ri planlashtirilgan kvartallar bilan o'ralgan. Bu erda hamma shaharlardagi kabi jamoat hammomlari (termlar), teatr va sirk (pesalar, tomoshalar o'tkazilgan), amfiteatr (yirtqich hayvonlar va gladiatorlar kurashi o'tkazilgan). Rim shahrida ham shunga o'xshash binolari bor edi. Lekin bu erda jamoat binolaridan (ba'ziliklar – sudlar majlis, magistrantlar o'z ishlarini olib borganlar, yig'inlar va suhbatlar o'tkazilgan) tashqari Tabulariy – davlat arxivi bor edi. (Bu tarixga bo'lgan hurmatdan dalolat beradi). Rimda hamma narsa birlashgan edi, bu forumdan yaqqol ko'rinib turibdi: ham oddiy turmush, ham din, ham davlat ishlari bir joyda hal etiladi.

Rassomchilik san'ati rivoji haqida gapirar ekanmiz bu sohada etrusk va grek ta'sirini aytishimiz lozim. Masalan, Pompey freskalarida bu yaqqol namoyon bo'ladi. («Aleksandr Makedonskiy va Doro jangi», «Dionis misteriyalari») Lekin shuni aytish kerakki ikkinchi freska etrusklar afsonalariga asoslangan. Bu davr bo'rtma rasmlar (relef) va haykaltaroshlik ham rivoj topdi va ular ham grek madaniyatini ozmunchada ta'sirini o'tkazdi. («Neptun va Amfitrita» relefi) Lekin Rim san'atini grek san'atini aksi deb bo'lmaydi. Chunki rim san'atkorlarining vazifasi – o'z hayotini tarixda qoldirish edi. Masalan, «Yuliy Sezar portreti» - bu haykal ham hujjat, ham fakt, xam san'at asaridir.

Rim va Italiyada muzika, ashula va raqs Gresiyadagiga nisbatan juda sust rivojlangan. Chunki rimliklar bu erkin kishilarning ishi emas, qullar mashg'uloti deb nafrat bilan qaraganlar. Er. av. I-III asrlarda Rim o'rta dengiz imperiyasining ijtimoiy-siyosiy hayot markazi ham bo'lgan. Bu shaharni aholisi 1-1,5 millionga etgan. U faqat Italiya poytaxti emas, balki buyuk imperiyaning poytaxti edi. Bu imperiya o'z ichiga Appelin yarim orolini, Gresiya, Kichik Osiyo, Shimoliy Afrika (Karfagen), Old Osiyo, Misr, hozirgi Ispaniya va Fransiya xududlarini olgan. Imperiya poytaxti bilan bir qatorda boshqa shaharlar ham ko'pgina ajoyib binolar – ibodatxonalar, viloyat noiblari o'zlarining ma'muriy va sud vazifalarini o'taydigan saroylar, sayrgohlar, teatr, amfiteatr va sirkalar bilan bezatilgan. Rimliklar ellinlar arxitekturasi usullarini keng qo'lladilar. Lekin rimliklar bundan tashkari yunib silliqlangan va bir-biriga yoygan o'xshatib joylangan toshdan ark (yoy so'zlardan kelib chiqqan) va gumbas (katta kosaning to'ng'ri qo'yilgan holdagi ko'rinishiga o'xshash ship) qurilishni o'rganib oldilar. Ular qotgandan keyin toshga o'xshash mustahkam va uzoq muddat saqlanadigan betonni kashf etdilar. Bu rimliklarga ulug'vor va nihoyatda mustahkam binolar yaratishga imkon bergan.

Eramizning 80 yillarida solingan g'oyat katta Rim amfiteatri Kollozey (Kolizey) dan tashqari, Veronda, Kapsiyada, Pompey, Pul, Parij, Arlda, Afrikada ham amfiteatr qoldiqlari saqlangan. Bu amfiteatrlar temir to'sin va kurgoshin biriktirgichlar bilan ulangan katta- katta xarsang toshlardan qurilgan. Ular ajoyib san'at asarlari – burtma suratlar va haykallar bilan bezatilgan. Kolizeyda 50 ming tomoshabin joylashgan. Pastki joylarda – imperatorni joyi ham bo'lgan, u er osti yo'li orqali Palatin tepaligidagi saroy bilan bog'langan.

Tosh to'shalgan ko'chalar, osma suv quvurlari (akveduklar), iflos suvlarni oqizib yuboruvchi er osti tosh quvurlari (kloak) eramizning I-III asrlarda shaharlarga xos xususiyatlardir. II-V asrlarda Rimda 11 vodoprovod ishlab turgan. Rimda hozirgi kunda ham qadimgi ikki osma quvur suv berib turibdi. Katta –katta vodoprovodlarning qoldiqlari Istambulda (Konstantinopolda). Fransiyaning janubida (Arl shahri yonida) va Kichik Osiyo bilan Afrikaning turli joylarida saqlangan. Shaharlarning sharqda agora, g'arbda forum deb atalgan markaziy maydonlari ibodatxonalar, chilustun binolar va peshayvonlar bilan bezatilgan bo'lgan. Maydonlarda zafar darvozalari qad ko'targan, otliq va boshqa haykallar o'rnatilgan.

Rimning markaziy qismidagi forum ayniqsa go'zal bo'lgan Imperiya davrida imperatorlar forumga yangiliklar kushib turishgan yoki yangi forumlar qurishgan Ayniqsa Troyan (imperator) ning forumi o'zining hashamati bilan ajralib turgan (forumlarni Yuliy Sezar, Avgust, Vespasianlar ham qurishgan) Troyan forumi mashhur me'morchi siriyalik Apollodor Dimishkiy proekti bo'yicha qurilgan. Forum ustunlar bilan aylantirilgan, markazida esa balandligi 38 m bo'lgan Troyan ustini ko'tarilgan, unda burama qilib Troyanning daklarga qarshi urushini tasvirlaydigan bo'rtma suratlar (uning ichida Troyan 90 marta tasvirlangan) solingan. Ustunning tepasida imperatorning haykali o'rnatilgan - u o'zini xudo deb (ibodatxona yo'q edi), xalqdan yuqori turishi va engilmas ekanligi ko'rsatmoqchi edi. Bu ustun maqbara ham edi – pastda oltin idishda uning kulini qo'yishgan edi. Maydonni kutubxonasi binosi o'rab turgan, bu binoning ayvonidan bo'rtma suratlarini tomosha qilish mumkin bo'lgan.

Avgust bino qildirgan «Tinchlik mehrobi», Avgust maqbarasi (bu maqbaraga boshqa imperatorlar: Tiberiy, Nerva, Oton, Vespasian va Tit Flaviy ham dafn qilingan) ajoyib imoratlaridir. Rimdagi Panteon ya'ni «barcha xudolar ibodatxonasi» gumbazli binolar qurilishining nodir bir namunasi bo'lib, u hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan (gumbazning diametri 43,2 m) Uni Avgustni kuyovi va lashkarboshchisi Agripp boshlagandi qurishni, lekin Adrian qaytadan qurdirgan Ibodatxonaning yuqorisida katta yumaloq derazasi bo'lib, undan tushadigan yorug'lik Panteon ichkarisining balandligi va hajmining kengligini yanada ravshan ko'rsatib turadi. Palatin tepaligidagi imperator saroylari ham hashamatli arxitektura ansamblidan bulgan. Xattoki xammomlar iborat saroylar tarzida qurilgan: Karakalla termi (Rimda).

II asrda Rim imperiyasi jami 80 ming km cho'zilgan tosh yotqizilgan 372 ta yo'l bo'lgan. Rimda forumni tepasida oltin bilan qoplangan ustun bo'lgan – u yo'llarni boshi hisoblangan: Hamma yo'llar Rimga olib boradi» degan ibora. Shu bois paydo bulgan. Imperiya davridagi haykaltaroshligida portret uslubi keng tarqalgan. Ular bilan maydonlarni, ko'chalarni, binolarni, qabrlarni bezatganlar. O'lgan odam yuzini mumdan qo'yib, maska yasaganlar. Rimda ishlangan portretlar odam qiyofasining tashqi ko'rinishini aniq ifodalabgina qolmay, balki uning xarakterini, aqlini, irodasini, johilligini, qizg'anchiqligi va h.k. ochib bergan («Neron», «Kaligula», «Vespasion», «Rim ayoli», «Trayan», «Sabina», «Adrian», «Mark Avreliy» (filosof imperator), «Karakalla», «Filipp Arab», «Maksin Frakmes», «Trebonian Gall» - qo'pol, johil, «soldat» (tusdagi imperatorlar) Imperatorlarni xudolar bilan taqoslash keng tus olgan edi – «Avgust» xaykali.

Maorif rivoji haqida gapirar ekanmiz, shuni aytish lozimki bu sohada greklar tasarrufida bo'lgan . 1 bosqich – boshlang'ich maktab 7 – 12 yoshlarda o'qilgan – so'zlar takrorlab yod qilingan, harflarni ko'chirib yod olishgan. O'qish pulli bo'lgan. 2 bosqich – «grammatika» maktabi – 4 yil asarlarni o'qib – izohlash, yozuv mashqlari bilan shugullangan. 3 bosqich – 16 yoshda etgan talabalar « ritorika» («notiqlik») maktabiga kirganlar. (OUYuga o'xshash) Notiqlik juda katta baholangan. Er. av. I asr – eramizning I asri – Rim poeziyasining «oltin asri» deb ataladi. Vergiliy (70-19) – mashhur shoir «Eneida» dostonini yozgan, grek va rim afsonalariga asoslanib, Troya shahri ximoyasi haqida, jasurlikni, sadoqatni va yoshi kattalarga hurmat bilan qarashni madh etadi.

Rim imperatori Avgust eng mashhur yozuvchilardan o'z obro'sini mustahkamlash uchun foydalanishga urina boshlagan. Shoirlar Gay Silniy Mesenat (74-8 yy.) Gorasiy Flakk (65-8 yy), Sekst Propersiy (50-15 yy) shu tariqa yozganlar. Gorasiy she'r bilan tantanali gimn yozgan. Ovidiy Nazon (43 y er. av. – eramizning 17 y) – «Qahramon ayollar», «Ishq san'ati», «Dard –alamlar» dostonlarini yozgan. Shoirlar Marsial (er. 42-102 yy), Yuniy Yuvenaldir (55-132 yy) o'z zamonidagi rim jamiyatini hayotini tanqid qilib yozganlar. Apuley (II asr) afsonaviy «Metamorfozalar yoki oltin eshak» nomli asar yozgan, unda yosh yigit Lusiyning eshakka aylanganligi va sarguzashtlari tasvirlangan.

Tarix fani ham o'z rivojini topgan. Doinisiy Galikarnasskiy (er.av. I asr) «Rim arxeologiyasi»ni, Katta Pliniy (I asr); Yusuf Falaviy (I asr) «Yaxudiylar urushi to'g'risida», «Yahudiylarning qadimgi yodgorliklari» ni; Korneliy Tasit (54 – 120 yy) Rim imperiyasi tarixini, Plutarx (46-126) «Ahloq to'g'risida mulohazalar», «Muzika haqida traktat», «Qiyosli hatnomalar» ni; Appian (170 y vafot etgan) «Rim tarixi» ni, Don Kassiy (155 –235) «Rim tarixi» ni yozganlar.

So'nggi Rim imperiyasi madaniyati (4-5 asr) antik tradisiyalarni qayta jonlantirish yo'lidagi harakatlarga qaratilgan.

Rimning binokorlik texnikasi avvalgidek g'oyat yuksak bo'lgan. Konstantin ravoqining bo'rtma suratlarida badiiy san'atkorlikning tushgunligi sezilsa-da va kishilar tanasidagi a'zolar tanosibi noto'g'ri bo'lsa-da, har holda bu ravoq Rim arxitekturasida erishilgan eng yaxshi muvaffaqiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ammo hashamatli bezaklar va dekor qo'pol ko'rinadi. Shunga qaramasdan torevtika (qimmatli metallar va bronzadan yasalgan buyumlar san'ati) juda taraqqiy etgan. Arxeologlar nozik va nafis bo'rtma suratlar bilan ishlangan katta-katta kumush tovoqlar, niqobsimon spiralli dubulg'alar, sovutlar, otlarga kiygiziladigan ko'krakchalar topishgan.

So'nggi Rim davrida afsonaviy syujetlardan tashqari, hayvonlar, ov, rimliklarning varvarlar bilan janglari, qishloq manzaralari, villalar tasviri va b. tasviriy san'at asarlarida aks ettirish odat tusiga kirgan.

3. Mafkuraviy kurash er. V asrida ayniqsa keskin tus olgan. Madaniyatda bu xristianlar va majusiylar g'oyalarini tarqalishiga olib keldi.

Xristianlik I asrda paydo bo'lgan (Rim imperiyasining sharqiy provinsiyalarida) Bu davrda Rim quldorlik tuzumi tanazulga uchragan edi. Quldorlar bu tanazulni qullarni eksplutatsiyasini kuchaytirish bilan engmoqchi bo'ldilar. Bu qullarni ommaviy qo'zg'olonlariga olib keldi. Lekin bu xalq qo'zg'olonlari shafqatsiz bostirilgan. Rim imperiyasi hali ham metindek mustahkam edi. Mazlumlar zolimlarga qarshi kurashish yo'li bilan ozodlikka erishish mumkinligiga ishonmay qo'yganlar. Mazlumlarda ularning azob –uqubatlarini engillashtirmagan eski xudolarga ham ishonch yo'qola boshlagandi. Ular endi faqat mu'jiza – «marhamatli xudo» yordam beradi deb uni sabrsizlik bilan kutganlar.

Mana shu kutishlar faylasuflar qarashlarida ham ifoda topgan. Masalan, faylasuf – idealist Filon (er. Av. 25- er. 50 yy) hayotini yomonligini odamni gunoh tabiatida deb, har bir odam itoatkor, sabr-toqatli bo'lishi va gunohlarini yuvishi kerak degan. Xudo bilan odamlar o'rtasida vositachi Logos (keyinchalik - logika) – xudo so'zi degan. Rim faylasufi (stoik) Seneka erdagi hayotda odamlar azob – uqubatlardan o'tsa, narigi dunyoda baxt va birodarlik olqishiga tushadilar deb hisoblaganlar. Shuning uchun Filonni – «xristianlikni otasi», Senekani – «amakisi» deb atashadi.

Keyinchalik har hil afsonalar bilan qo'shilgan holda bu qarashlar Iisus Xristos – Iso payg'ambar to'g'risida qissalar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Dastlab Ioanning «Apokalipsisida» Iso «Xudo Qo'zisi» deb atalgan – 7 ta ko'zli, shohlari va qo'llarida 7 ta yulduz bo'lgan maxluq sifatida tasvirlangan.

I asr oxiri- II asrni boshlarida «Injil» deb nom olgan qissalarda Iso «xudo o'g'li» deb atalgan.

I asrda YErda odam qiyofasida xudo yashagan, u Falastinda tug'ilgan degan afsona paydo bo'lgan. Uni Iso deb atashgan. U bir qishloqdan ikkinchisiga o'tib, xudo yaqin orada adolat o'rnatadi, deb ta'kidlagan. Isoni – odam – xudo deb tan olisha boshlashgan. Go'yo u Mariya va xudo ruhi nikohidan to'g'rilgan va 30 yil hunarmand Iosif (Mariyani eri) uyida yashagan. Iso go'yo suvni vinoga aylantirar, murdalarni tiriltirar va boshqa mo"jizalar yaratar emish. Rimliklar uni butga (krest) tortib, parchinlab tashlaganlar, garchi u xudo bo'lsa ham, u barcha azob-uqubatga itoatkorona bardosh bergan va o'lgan. Uchinchi kuni u tirilib, arsh-a'loga chiqib ketgan, lekin tiriklarni ham, o'liklarni ham so'roq qilish uchun qaytib kelishni va'da bergan.

Iso barcha odamlarning – imperatorlar, boylar, kambag'allar, qullarning jonlari qiyomatda uning oldida javob berishni ta'kidlagan emish – qilmishlar va hatto fikrlar tarozida tortiladi. Isoni xudo deb tan olganlar va azob –uqubatlarga sabr-toqat bilan bardosh berganlar narigi dunyoda ajrin oladilar, jonlari millatiga qaramasdan abadiy jannatga tushar emish. Qolgan odamlar, ayniqsa, johil va qattiqqo'l, boshqa xudolarga sig'ingan odamlarning jonlari do'zaxda tushar emish.

I asr oxirlari – II asrda Iso haqida afsonalar xatga tushirildi. Va ularni «hush xabarlar» grekcha «evangelie» deb atashgan. Turli evangilielarda Isoning hayoti to'g'risida turlicha hikoya qilinadi, hatto ko'pgina qarama-qarshi va aql bovar qilmaydigan ma'lumotlar bor.

II asrni oxirida «Apokalipsis», «Injil», «Yevangelie» va «Appostollarni ishlari» birlashtirib «Yangi Vasiyat» degan nom olgan, u «Eski Zavet» bilan qo'shib Xristian dinini muqaddas kitobi, «Bibliya» (grekcha –kitob) yaratilgan.

Dastlabki paytlarda xristianlar kambag'allar va qullardan iborat bo'lgan. Ular o'z azoblarining munosib taqdirlanishi va zolimlarining jazolanishi haqidagi afsonalarga ishonganlar. Isoga ishongan odamlar o'zlarini xristianlar, o'z dinlarini xristianlik deb ataganlar. Xristian targ'ibotchilari o'z nomlarini butun Rim imperiyasiga tarqatganlar.

Ular ichida yahudiylar, greklar, rimliklar, misrliklar, gallar va boshqa millatli kishilar bo'lgan. Hristianlar jamoalarga birlashib, birga ibodat qilib, evangelielarni o'qishgan, o'z bayramlarini nishonlaganlar. Masalan, Isoni tug'ilishi 25 dekabrda nishonlangan, qayta tug'ilishi bahorda - tabiatni uyg'onishida nishonlangan (qadimgi xalqlarda ham bo'lgan) Xristianlar xudo dunyoni olti kunda yaratgan, birinchi odamni loydan yasagan va unga jon bag'ishlagan, degan qadimgi afsonani ham qabul qildilar.

Xristianlar faqat yakka-yagona xudoni tan olganlari va imperatorlarga sajda qilmaganlari uchun ularni yig'ilishlari taqiqlangan. Bu din dastlab qullar va kambag'allar dini deb hisoblanib boylar unga nafrat bilan qaraganlar.

Biroq III asrda xavf-xatarli hayot, urushlar, quzg'olonlar, isyonlar boylarni ham bu dinga tasalli berishga sabab bo'ldi. Undan tashqari bu dinni avzalli tomoni ham bor edi: xristianlik sabr-qanoatli, itoatgo'y bo'lishni talab qilardi.

Xristian ruxoniylari –klirik, episkop, diakonlar, xristian jamoalarini boshliqlari bo'lgan. Ular bir-birlari bilan aloqa qilib ko'p jamoalarni birlashtirib, xristian cherkovi tarkib topgan (Birinchidan Cherkov tashkilotni, ikkinchidan ibodatxonani anglatadi).

Imperator Diokletian xristianlarni qamagan, surgun qilgan bo'lsa, imperator Konstantin bu dinni foydali tomonini ko'rib uni qabul qildi va 313 yilda xristianlarga oshkora to'planishga ruhsat berdi. Bu bilan u odamlarni faqat kishan va qamchi bilan emas balki din bilan so'zsiz itoat etishga majbur qilmoqchi bo'ldi. Imperator episkoplarga soborga (yig'in) to'planib, yagona qoidalarni ishlab chiqish va ularni bajarilinishni qat'iy kuzatib borishni buyurdi.

Xristian cherkoviga er, pul va qimmatbaho narsalarni hadya qilinishi uni imperatorga bo'ysungan juda badavlat va kuchli tashkilotga aylanishga sabab bo'ldi.

Imperatorlarni xristian cherkoviga homiyligi keyinchalik Isoning mo'jizalariga qarama-qarshi bo'lgan fanga qarshi kurashga, Aleksandriya kutubxonasi juda ko'p qo'lyozmalarni yo'q qilinishiga, boshqa din ibodatxonalarini o'z dini cherkoviga aylantirishga (Parfenon (Afinada), Panteon (Rimda), ba'zilarini esa vayron qilishga (Misrdagi Osiris ibodatxonasi) olib keldi. (Olimpiya o'yinlari (Zevsga atalgani uchun- yo'q qilingan).

IV asr oxirida Rim imperiyasida xristianlikdan boshqa barcha dinlar taqiqlangan edi.

4. O'rta asrlar madaniyati diniy tafakkur bilan chambarchas bog'liq edi. Din madaniyatni hamma sohalariga o'z ta'sirini ko'chaytirdi: fanda, adabiyotda, ma'orifda, san'atda, shuning uchun ham antik dunyodan o'rta asrlarga o'tish davrida G'arviy YEvropa madaniyatini pasayshiga olib keldi.

O'rta asrlarda cherkovni ahamiyati juda katta edi. Har bir YEvropa mamlakatida cherkov yirik er egasi bo'lib qolgan edi. Undan tashqari cherkov yirik siyosiy kuchga aylandi. Dindorlar uz ichlaridan qirol maslahatchilarini kanslerlarni, davlat kotiblarini va boshqaruv sistemasini ta'minlab turar edilar.

O'rta asrlar dunyoqarashning hususiyatlardan biri diniy zohidlik (tarkidunyo qilish). Zohidlik erdagi hayotni va odamni gunoh va yomonlikdan iborat deb ko'rsatar edi. Har bir odam o'z gunohlarini yuvish uchun sig'inishi, ro'za tutishi, tavba-qilish kerak, lekin eng katta qahramonlik – dunyoni tark etib - monastirga ketish. Lekin zohidlik rasmona ta'limot bo'lishiga qaramasdan, ko'p feodallar va hattoki ruhoniylar amalda uni tez-tez bo'zib turishar edi. Shuning uchun o'rta asrlar jamiyatini katta bir monastir, odamlarni esa faqat tavba qilib o'z ruhlarini asrash bilan shug'illanganlar deb tasavvur qilish notug'ri bo'lar edi.

O'rta asrlar dunyokarashiga dinni kuchi har doim bir xil ta'sir ko'rsatmagan. Ilk o'rta asrlarda – V-XI asrlar rim katolik cherkovini ta'siri juda kuchli edi; XII-XIII asrlarga kelib cherkov rasmona tafakkur ovij boshchilikni o'z ko'lida saqlagan bo'lsa-da (universitetlarni rivojlanishi, din aqidalariga suyangan idealistik falsafani- sxolastikani paydo bo'lishi) asta sekin madaniyat cherkovsiz va ba'zida unga qarshi

rivojlana boshladi. XIV- XVI asrlarni esa YEvropada yangi madaniyat -Oyg'onish madaniyati, gumanizm madaniyati rivojlanib dindan uzoqlashgan edi. O'rta asrlar boshida savodli kishilar dehqonlar orasidagina emas, feodallar orasida ham kam edi (ayrimlari hattoki imzo urniga krest qoyardi)

O'rta asrlarda uch turdagi maktablar mavjud bo'lgan. Boshlang'ich maktablarda asosan elementar savodni chiqarishgan. Ular monastirlar va cherkovlar qoshida ochilar edi, va ruhoniylarni – kliriklarni tayyorlar edi. O'qish hech bir xalq gapirmaydigan lotin tilida olib borilar edi; o'quvchilar diniy duolar va qonunlarni yodlashar edilar. O'quvchilarning ko'pi maktabdan chalasavod bo'lib chiqardi.

O'rta maktablarda (episkop kafedralar qoshida to'zilgan) etti "ozod san'at" o'rgatilgan. Bu erda o'quvchilar grammatika, ritorika, dialektika yoki logika (trivium), arifmetika, geometriya, geografiya, astronomiya va musiqa (kvadrivium) kabi fanlar o'rganilar edi.

Keyinchalik "ozod san'at" fanlar oliy maktablarda o'rgatila boshlandi. Boshida ularni Studia generalia ("umumiy fanlar") keyinchalik esa universitetlar (korporasiya) deb atashgan.

Dastlabki universitetlar XII asrlarda paydo bo'ldi. Shaharlarning kengayishi, savdo-sotiqni rivojlanishi, qirol hokimiyatining ehtiyoji bilimli kishilar ko'proq bo'lishini talab kildi. Shuning uchun shaharlarda xususiy kishilar yoki shahar kengashlari tomonidan ochiladigan, cherkovga qarashli bo'lmagan maktablar vujudga kela boshladi. Universitetlarda ham darslar lotin tilida olib borilar edi. Bu erda turli mamlakalardan kelgan yoshlar-studentlar ("studere" (lat) –"qunt bilan o'qish") ittifoqqa birlashganlar, shundan universitet so'zi kelib chiqqan. Universitetlar shahar ma'murlariga qarshi uzoq vaqt kurash olib borib, o'zini o'zi boshqarish huquqini olganlar. Turli fan o'qituvchilari o'zlarini birlashmalarini-fakultetlarini tashkil etib, ularga dekanlar boshchilik qilardi. O'qituvchilar bilan studenlarga saylangan rektor boshchilik qilgan. YEvropada qadimgi universitetlardan Parij universiteti hisoblanadi. Uning ustavi boshqa YEvropa universitetlarga asos solgan. U 4 fakultetdan iborat bo'lgan: artistik, tibbiyot, yuridik va ilohiyot (din haqqidagi "fan")

1500 yilda YEvropada 65 ta universitet bor edi. Ularning eng mashhurlari Oksford va Kembridj (Angliya)- 13 asrda asoslangan, Bolonya, Neapolitan va Salamank (Italiya) – 13 asrda asoslangan; Praga, Krakov (14 asrda), Erfurt va Keln (Germaniya) (14 asr) – universitetlari edi.

Universitetlarda o'qitishni asosiy usuli leksiyalar edi (uqish): studentlar o'qituvchilarning leksiyalarini tinglab, yozib oladilar. Undan tashqari disput (bahs munozara)lar utkazilar edi. O'rta asrlar universitetlardagi fan sxolastika degan nom olgan (shola-maktab so'zi) Ko'chma ma'noda-hayotdan ajralib qolgan, behuda, mavhum fikr yuritishni anglatadi. Chunki u ilohiyotga asoslangan edi. Uning asosiy hususiyatlaridan - biron- bir yangilikni ochmasdan, balki xristian dinini mazmunini ifodalash va sistemalashtirishdan iborat edi. Sxolastlar hamma savoblarga Bibliya va boshqa diniy kitoblardan tayyor javob qidirar edilar. "Xudoni tanishni o'z oldiga maqsad qilib quymagan har qanday bilim gunohdir" degan edi bir mashhur ilohiyotchi. Bu so'zlar o'sha davrni fani qay darajada dinga tayyanganini yorqin ifodasi.

Lekin sxolastika uzining ilk rivojida antik merosini ham qaytadan o'rganishga o'ndadi (masalan, Aristotel fikrlaridan foydalanish). O'rta asrlar sxolastika-olimlardan eng mashhurlari: Parij professorlari Per Abelyar (1079-1142)-Parij universitetini asoschisi; Albert Buyuk (1193-1280)- ilohiyot va tabiyat fanlari boyicha ko'pgina tuplamlarni mualifi; Foma Akvinskiy (1225-1274) o'zini "Ilohiyot summasi" degan kitobi bilan mashhur, uni o'rta asrlar dunyoqarashining ensiklopediyasi desa ham bo'ladi, undan tashqari u o'zining zamonidagi iqtisodiy masalalarga ham ahamiyat bergan, shaharliklar va feodallar manfaatlarini birlashtirmoqchi bo'lgan.

Shaharlarda cherkov ta'limotiga zid fikrdagi olimlar paydo bo'ldi. Masalan, Angliyada mashhur olim- ruhoniyy Rodjer Bekon (1214 - 1292)bilimni kuzatishlar va tajribalar yo'li bilangina hosil qilish mumkin, fanning maqsadi tabiatni o'rganib, uni odamlarga xizmat qildirishdan iborat degan edi. Sunggi sxolast-olimlardan biri Duns Skott (1260-1309) boshqa sxolastlarga nisbatan din bilan fan o'rtasidagi, e'tiqod bilan bilim o'rtasidagi katta farqni ochishga urindi; u matematika va tabiiy fanlarga katta ahamiyat berdi. XIV asrdan boshlab, ayniqsa XV-XVI asrlarda sxolastika inqirozga uchray boshladi.

O'rta asrlarda astrologiya va alximiya kabi o'ziga xos fanlar taraqqiy qildi. Astrologlar kelajakda nimalar bo'lishini goyo yulduzlarga qarab bilish mumkin, deyar edilar. Shuning uchun ko'pgina kishilar

bir ishni boshlashdan avval ulardan maslahat surar edilar. Bu astronomiyani rivojiga olib keldi. Alximiklar har qanday metallni oltinga aylantirishga yordam beradigan “Sehrli tosh” qidirish bilan ovora edilar. Bu ximiyaga oid bilimlarni to’planishiga, ximiya priborlarni yaratishga, boyoqlar, metallar qotishmalari, dorivor moddalar tayyorlash usullarini kashf etishga yordam berdi.

O’rta asrlarda har bir feodal sinf cherkovni hukmronligiga qaramasdan o’z ma’faatlarini va ideallarini ifodalovchi madaniyatni yaratishga harakat qildi. Bu ayniqsa o’rta asrlar adabiyotida o’z ifodasini topdi. Risarlar o’z qahramonliklari haqida xarbiy qushiqlar va dostonlar yaratishga harakat qildilar. Risarlarning eng mashhur epik poemasi Fransiya XI asr ohiri – XII asr boshlarida yaratilgan. “Roland haqida qo’shiq”dir. Unda Buyuk Karlning Ispaniyadagi harbiy yurishlari idealashtirib ko’rsatilgan. Rolandni qahramonligi (xristianlarni musulmonlarga qarshi urushida) o’z senoriga sodiqligi tasvirlangan. Shunga o’xshash “Mening Sidim haqida qo’shiq” degan poemada ham (XII asr) ispanlarni arablarga qarshi kurashi tasvirlangan. XII asrlarda risar romanlari paydo bo’ldi. Ulardan eng mashhurlari qadimgi britan qiroli Artur haqida, Amandas Gallskiy haqidagi romanlar edi.

Shaharlarda esa XII- XIII asrlarda she’r bilan yozilgan kichik hajviy ximoyalar mashhur edi: fransuzlarda- fablio, nemislarda-shvanklar, italiyaliklarda-novellalar.

Butun YEvropada o’sha davrda masal va ertaklardan satirik poema “Tulki haqida roman” mashhur edi. Unda Ayiq niqobida-feodal, eshak niqobida-ahmoq ruhoni, bo’ri niqobida- o’lja qidirivchi risar, tulki niqobida-aqlli, topqir shaharlik ko’rsatilgan. Yana bir mashhur asarlardan “Atir gul haqida roman”dir. Uni XIII asrda Gilom de Loris bilan Jan de Men (2 bo’lim) yozganlar. Bu she’riy asarda ruhoniylarga qarshi, maxtanchoq feodallarga qarshi urinishlar bor.

Shaharlarda o’rta asrlar teatrlari ham rivojlana boshladi. Dastlab ular misteriya yoki diniy syujetlar asosidagi dramatik sahnalar, keyinchalik esa unga dinsiz syujetlar ham komik-satirik xarakterga ega bo’lgan farslar qoyila boshlandi.

O’sha davrda karnavallar ham paydo bo’lib, ular risar va shaharliklar orasida mashhur va sevimli mashg’ulotlaridan edi. Ular maskalar kiyib, musiqa bilan ko’chalarda yurishlar qilar edilar.

Xalq og’zaki ijodi (folklor): qo’shiq, ertak, balladalarda dehqonlarning hayot haqidagi tasavvurlari aks etardi. Poetik (she’riy) ijodga xalq o’zining yaxshi hayot haqidagi orzu-armonlarini, feodallarning jabr-zulmiga, adolatsizlikka qarshi norozligini ifodalardi. Masalan, nemis balladalaridan birida nasl-nasabi bilan maqtangan risarga dehqon: “Agar men dalaga bo’g’doy ekmasam, kun boyi kuymalanib poliz chopmasam, sening nasl-nasabting qirilib ketardi” deb javob beradi.

Qishloqlarda va qasrlarda, yo’llarda va karvonsaroylarda darbadar artistlar-huqqavoz (jonglyor)lar va shpilmanlar tomosha kursatar edi. Ular musiqa chalib, ayiq va maymunlarni olib yurib, qushiqlar va dostonlar aytishar, fokuslar ko’rsatib, akrobatika mashqlar qilishar, kichik pesalarni oynashar edilar. Ularni ijodini ahamiyati haqida bu tomoshalarga tomoshabinlarni ko’pligi guvohdir. Huqqavozlar ruhoniylarni va feodallarni qattiq masxara qilar edilar.

O’rta asrlar bizga boy me’morchilik san’ati yodgorliklarini qoldirganlar. V-X asrlarda ko’pincha mustahkam bo’lmagan yog’ochli imoratlar qurilgan. XI asrda YEvropada katta qurilishlar, gumbazli g’ishtin binolar paydo bo’ldi. IX-XIII asrlarda Yyevropada ikkita arxitektura uslubi almashdi- roman va gotik. Ko’pincha roman va gotik arxitektura yodgorliklari ibodatxonalarda ifodasini topdi. Bu o’sha davrni taqozosi bilan bo’lgan: cherkovni hukmronligini ta’siri.

U zamondagi binokorlar qurilish ishlarida qadimgi Rim me’morchiligi namunalariidan ko’p foydalanar edilar, shuning uchun IX-XII asrlarda paydo bo’lgan uslubni roman uslubi (“Rim”-”Roma”-lotincha so’zidan) deb atashadi. Amalda, roman arxitektura uslubi antik-rim uslubidan o’zini qupolli, og’irligi bilan farq qilar edi. Roman uslubidagi binolarning devorlari silliq, juda qalin va katta gumbazlarning og’irligiga bardosh berishi uchun qilib qurilardi. Ularni derazalari esa kichik, minoralari pastroq va keng edi. Yarim doiraviy arkning shakli hamma joyda-gumbazlarda, derazalarda ibodatxonaga kirishdagi eshiklarda ham ko’zga tashlanadi. Roman uslubida qurilgan ibodatxonalar o’sha davrni notinchligini aks ettirardi: katolik cherkovning kuch-kudratini ko’rsatish uchun feodallar urtasidagi urushlar ibodat xonalarni kal’aga o’xshatib, salobatli va haybatli qilib qurishni taqozo ettardi.

Roman uslubida ko'rilgan mashhur yodgorliklar Frasiyada – Puate va Arledagi soborlar, Germaniyada-Shpeyer, Vorms, Mayni, Aaxendagi soborlar.

Texnik jihatdan ustinroq va qiziqroq ikkinchi uslub – gotik uslub edi. U XII-XIII asrlarda dastlab Shimoliy Frasiyada paydo bo'lib, keyinchalik butun YEvropaga tarqaldi. (“gotcha”-”varvaria”)

Binokorlardagi mahoratning o'sib borishi yarim doira shakldagi qo'pol gumbazlarni ancha engil va o'tkir uchli baland qubbalar bilan almashtirishga imkon berdi. Gotik uslubida qo'rilgan binolarga qalin devorlar kerak bo'lmay qoldi. Roman uslubida derazalar kichik bo'lib, soborlar ichi yarim qorong'u bo'lsa, gotik uslubida qurilgan soborlar katta derazalar va rangli oynalar natijasida yorug edi.

Gotik uslubida qurilgan soborlarni asosiy hususiyati binoni osmonga tobora yuqori ko'tarilayotganday qilib ko'rsatish edi. Buni tik qiya tomlar, o'tkir uchli arklar, eng tepasida ingichka nayza o'rnatilgan baland minoralar orqali erishilgan. (Ularni balandligi katta soborlarda 150 metrgacha etardi).

Bunday hashamatli ulkan va guzal soborlar ibodat qilish uchun kelgan dindorlar qoyil qolib, xudoning kuch-qudrati oldida o'zlarini zaif va notavon banda deb his qilishga majbur edilar. Soborlar ko'p vaqtlargacha shaharning birdan-bir katta binosi bo'lib, unda ibodatlardan tashqari shahar aholisini yig'ilishlari, diniy mazmundagi teatr tomoshalari, universitet professorlarini leksiyalari, hattoki tuzilgan shartnomalarni imzolash kabi marosimlar o'tkazilgan.

Gotik san'atini mashhur arxitektura yodgorliklari: Frasiyada-Parijdagi Bibi Maryam; Ruan; Reyms, Shartr soborlari; Angiliyada – London Vestminster abbatligi va Linkoln shahridagi sobor; Italiyada – Milan sobori, Chexiyada – Praga sobori, Polshada – Krakov soborlari hisoblanadi. Undan tashqari ma'muriy binolardan – Bryusseldagi shahar ratushasi, Frasiyadagi Ambuaz joyidagi qirol saroyi; shahsiy binolardan – fransuz feodali Jak Kerni oyi (Burj shahri) ham mashhur yodgorliklar hisoblanadi.

Roman va gotik uslublaridan tashqari o'rta asrlar arxitekturasida yana ikkita uslub mavjud edi: Italiyada – vizantiya uslubi (Avliyo Mark sobori Venesiyada, Dojlar saroyi) va Ispaniyada – arab (yoki mavritan) uslubi (Sevile sobori, Granadagi Algambra saroyi, Sevileda Alkasar qal'asi).

Haykaltaroshlik va tasviriy san'ati arxitektura bilan mahkam bog'langan edi. Soborlar xudo, avliyolar, episkoplar va qirollarning yuzlarcha va hatto minglarcha relief va haykallari bilan bezatilgan, devorlariga esa juda ko'p suratlar solingan.

Haykallar, releflar va rasmlar o'sha davrda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan: ular «savodsiz kishilar uchun diniy kitob» bo'lib xizmat qilgan, odamlarning dinga e'tiqotini mustaxkamlanishiga ham xizmat qilgan.

Agar antik san'atkorlar ko'pincha inson gavdasining go'zalligini ulug'lagan bo'lsalar, o'rta asrlar san'atkorlari odamlarning fikr boyligi, tuyg'u va kayfiyatlarini ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Ayniqsa onaning bolaga bo'lgan mehr muhabbatini ulug'lashi (Bibi Mariyam, «Xonim», «Madonna») yoki Iisus Xristosning qayg'u-alamli, qaxr-g'azabi tasvirlari yaratilishi (ikonografiya) kuchli ta'sirotdir.

Roman haykaltaroshlari odamlarni ko'pincha nimjon, xunuk va ozg'in qilib tasvirlar edilar. Ular odamlarning qayg'u alamlarini yoki xursandliklarini kuchliroq aks ettirish niyatida haykallarning turishini va harakatlarini ko'pincha g'ayri tabiiy ko'rinishda aks ettirar edilar. (Xristos xaykali (XIa)-Ispaniya; Apostol Pyotr reliefi (XIIa)- Fransiya va boshqalar)

Gotik uslubidan haykallarda odamlarning qiyofasi roman uslubida yasalgan haykallardagiga qaraganda to'g'riroq tasvirlangan, qaddi-qomatlari qandayligi kiyimlarining burmalaridan bilinib turibdi, ularning turishlarida harakat ko'proq ifodalangan. (Toledodagi Madonna haykali-Ispaniya; Mariya va Yelizavetta haykallari (Reyms sobori)-Fransiya; Ekkexard va Uta haykallari (Naumburg sobori)-Germaniya va boshqalar) Undan tashqari gotik uslubida qurilgan binolarni tashqi devorlarida, ko'pincha soborlarda haybatli yarim qo'sh-yarim hayvonlar va boshqa afsonaviy mahluqlarning haykallarini-ximeralari uchratish mumkin (Parijning Bibi Mariam sobori). Bu xaykallarda asr odamlarining duzaxdagi «yovuz kunlar» xaqidagi tasavvurlari aks ettirilgan.

Roman uslubidagi rassomchilik haqida gapirganda, bu erda ham haykaltaroshlikka o'xshab suratlar xunukroq solingan. Ular ko'pincha ibodatxonalarni devorlarida solingan. Bu suratlarda «aziz-avliyolar» va xudoning o'zi qaxr –g'azab bilan xo'mrayib qarab turgani tasvirlangan edi. (Madonna. Avliyo Kliment Cherkovi –XII asr –Ispaniya; Ikona-av.Sergiy va Vakx-VI asr-Vizantiya).

Gotik uslubdagi soborlarning devorlarida suratlar uchun joy kam qolgandi. Egik qo'rg'oshin chambar bilan bir-biriga ulangan rangdor tiniq rangli oyna parchalaridan ishlangan vitrajlar surat yoki manzaralar g'oyat katta derazalarni qoyidan yuqorisigacha qoplab olgandi. (Shartdagi, Parijdagi, Reymsdagi soborlar vitrajleri.) Yorug'lik vitrajlar orqali ibodatxona binosiga kirib: ustunkallonalarda, ravoqlarda va polda jilvalanar va unga chiroyli, tantanali tus berardi.

Rassomlik san'atining katta yutug'laridan kitob miniatyurasi edi. Bu miniatyuralarda o'rta asr kishilarining hayotini har tomonlama aks ettirar edi. Lekin miniatyuralardagi suratlar yalpoq, tekis bo'lib ko'rinadi, chunki yaqindagi va uzoqdagi narsalarni bir xil kattalikda tasvirlangan.

O'rta asrlarni madaniyatini yanada yuksalishi uni sunggi davriga tug'ri keladi, tarixga u oyg'onish davri madaniyati deb kirgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qadimgi Sharq madaniyati vujudga kelishining shart-sharoitlari.
2. Mixxat yozuvining paydo bo'lishini tushuntirib bering.
3. Shumer va Akkad davlatlaridagi diniy e'tiqodlar to'g'risida so'zlab bering.
4. Qadimgi Mesopotamiyaning asosiy madaniy yodgorliklarini aytib bering.
5. Qadimgi Misr madaniyati qachon vujudga kelgan?
6. Qadimgi Misrda yozuv qanday shaklda bo'lgan?
7. Qadimgi Misr dinining xususiyatlari to'g'risida so'zlab bering.
8. Qadimgi Hindiston madaniyatini tavsiflang.
9. Qadimgi Xitoy yozuvi qanday shaklda bo'lgan.
10. Xitoyning boshqa mamlakatlar bilan madaniy aloqalari to'g'risida so'zlab bering.
 1. «Antik» so'zining ma'nosini tushuntirib bering.
 2. Qadimgi yunon madaniyatining shakllanishida tabiiy – geografik muhit va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning ta'siri xususida so'zlab bering.
 3. Qadimgi yunon diniy e'tiqodlari qanday bo'lgan.
 4. Dastlabki olimpiada oyinlari qachon va qaerda tashkil topgan?
 5. «Ellin» va «ellinizm» so'zining paydo bo'lishi.
 6. Qadimgi yunon madaniyati qanday ko'rinishida, shakllarda rivojlandi?
 7. Qadimgi Yunonistonda badiiy adabiyotning, teatr tomoshalarining rivojlanishi to'g'risida so'zlab bering.
 8. Qadimgi Rimda madaniyat va san'atning barcha turlarini o'ziga xos tarzda rivojlanib borishini tushuntirib bering.
 9. Xristianlikning paydo bo'lishi va uning Rimda hukmron dinga aylanishi to'g'risida so'zlab bering.

3 Mavzu: Madaniyatshunoslik va diniy madaniyat. Texnogen madaniyat: uning mohiyati.

Reja:

1. O'rta asrlardagi «Dunyo qiyofasi». Yevropa va Sharq madaniyatining xristian va islom dini aqidalarida namoyon bo'lishi.
2. Islomiy madaniyatning shakllanishi va uning asosiy yo'nalishlari.
3. O'rta asarlarda Yevropa xalqlari madaniyati-ning shakllanishi.Yevropa va Sharq madaniyati munosabatlari.
4. Uyg'onish davri Yevropa madaniyatining shakllanishi. Gumanizm. Adabiyot va san'at rivoji.
5. XVIII asr – Yevropa ma'rifatparvarligi asri. Adabiyot va teatr, musiqa san'atining yuksalishi. XIX asr

6. Yevropasida madaniyat soʻkasida yuz bergan oʻzgarishlar.
7. Sanoat inqilobi va ilmiy texnika yutuqlari.
8. XX asrda madaniyat rivojidadagi yangi yoʻnalishlar. Sanʼatning yangi turlari. Ilmiy texnologiya inqilobi va XX asr sivilizasiyasining agrar industrial hamda zamonaviy axborot- kompyuter bosqichlari.

ADABIYOTLAR.

13;14;15;18;19;20;21;22

Tayanch tushunchalar:

Renessans, gumanizm, individuallik, kitob bosish, marifatchilik gʻoyalari, «Boʻron va tayziq» adabiy harakat, ilmiy texnika inqilobi, realizm, modernizm, avangardizm, abstraksionizm, syurealizm, ommaviy madaniyat, kino sanʼati.

1. Uygʻonish davri (Renessans) – Farbiy va Markaziy YEvropa mamlakatlarining madaniy va gʻoyaviy rivojlanishidagi davr, oʻrta asrlar madaniyatidan yangi davr madaniyatiga oʻtish davri. U Italiyada XIV-XVI asrlarda, boshqa mamlakatlarda XV asrni oxiri – XVI asrlarda rivojlangan.

Yangi madaniyatni beshigi guzal Florensiya shahri hisoblanadi. XIV-XV asrlarda Italiyada boshqa mamlakatlarga nisbatan shaharlar yuksala boshladi. Uning boy shaharlarida sanoat yaxshi rivojlana boshladi, dastlabki manufakturalar paydo boʻldi; bu shaharlar yirik savdo markazlarga aylanib boshqa YEvropa mamlakatlari va yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Bu shaharlardagi yirik banklar halqaro ahamiyatga ega boʻlgan operasiyalar oʻtkazishar edi. Burjuaziya sinfi tugʻila boshlanadi. Bu sinf dunyoga yangicha qarardi. Burjuaziya savdo-sotiq va sanoatda yollanma ishchilarni ekspluatasiya qilish yoʻli bilan boylik orttirishga intilardi. Shuning uchun uning boyligi ortib borardi va burjuaziya bu boylikni bir qismini madaniyatni rivojlanishga sarf qilishga imkoniyat berardi. Ayniqsa fan va texnikaning rivojlanishdan burjuaziya sinfi manfaatdor edi. Oʻsha davrni murakkab xoʻjalik hayoti shuni taqozo ettardi. Manufaktura texnikasini rivojlantirish, navigasiya ishlari, murakkab komersiya va bank hisoblari tabiiy fanlar va matematikani rivojlanishini talab qilardi.

Undan tashqari burjuaziya, cherkov va zodagon feodallar, shahar boylari «narigi dunyoda» emas, balki shu dunyoda yaxshi hayot kechirish uchun oʻzlariga sharoitlar yarata boshladilar. Ular bir-birlarinikidan hashamatliroq saroylar qurdirishga, uylarini zeb-ziyatlar bilan toʻldirishga va chiroyliroq kiyinishga harakat qilardilar. Oʻsayotgan shaharlarda yangi paydo boʻlgan sinf burjuaziya bilan birga aqliy mehnat bilan shugʻullanuvchi alohida kishilar gruppasi yaʼni intelligentlar paydo boʻla boshladi: adabiyotchilar, shoirlar, publisistlar, vrachlar, oʻqituvchilar, injenerlar, texniklar, buxgalterlar va yuristlar, mussavirlar, haykaltaroshlar va meʼmorchilar. Intelligentlar yangi madaniyatni – Uygʻonish davri madaniyatini asosiy yaratuvchilari edi.

Uygʻonish davri (Renessans) madaniyati antik davr madaniy merosiga murojat qildi, bamisoli uning «qayta uygʻonishi» ga sabab boʻldi (nomi ham shundan) Cherkov tomonidan qoralangan va avvalgi asrlarda unitilib ketgan qadimgi madaniyat guyo yangidan uygʻonayotgandek edi.

Qadimgi madaniyatni qadrllovchilar qadimgi Grek va Rim qoʻlyozmalarini qidirib, topib, antik tasviriy sanʼatini, haykaltaroshlikni va meʼmorchilikni har xil yodgorliklarini oʻrganishar va kolleksiya qilishar edi. Italiya jamiyatida qadimgi klassik tillarga (grek va lotin tillari), qadimgi falsafa, tarix va adabiyotga chuqur qiziqish paydo boʻldi. Qadimgi madaniyat asarlari quvnoqligi, insonning goʻzalligini kuylovchi asarlar boʻlganligi bilan oʻrta asrlar cherkov sanʼatidan farq qilardi. Qadimgi madaniyat sinchiklab oʻrganilib toʻla ravishda taqlid qilinmagan, balki yangicha ishlanib yangicha dunyoqarashni vujudga kelishiga yordam berdi.

Uygʻonish davrini asosiy tafakkuri –gumanizm edi – rivojlanayotgan burjuaziya sinfining dunyoqarashi. Gumanizm – insonparvarlik (homo-odam; humanus - insoniy). Gumanistik dunyoqarash insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasi va aql-idrokiga ishonch bilan qarab katolik sxolastikani va zohidlikni inkor qilar edi. Insonni jinsi, uning hissiyotlari va ixtiyohlari gumanistlar tomonidan bostiriladigan gunohiy narsa emas balki hayotni asosini yoki oliy maqsad deb bilishgan. Agar qadimgi yozuvchilar insonni xudoning oʻjiz, itoatkor bandasi deb tasvirlagan boʻlsalar,

gumanistlarning asarlarida esa inson o'z taqdirini o'zi hal qiladigan, ko'zlagan maqsadiga erisha olishi yoki erisha olmasligi o'zining qobiliyatlari va g'ayrat-shijoatiga bog'liq bo'lgan bir siymo deb tasvirlaganlar.

Yetuk, ozod ijodkor shaxs idealini, voqelikdagi go'zallik va uyg'unlikni qaror toptirish pafosi, borliqning asosi bo'lgan insonga murojaat qilish, olamning yaxlitligi va uning izchil qonuniyatlarini his qilish Uyg'onish davri madaniyatiga o'lgan g'oyaviy mazmun, ulug'vorlik, qahramonona ko'lam bag'ishladi. XV asrni ikkinchi yarmida gumanizm boshqa YEvropa mamlakatlariga ham keng tarqaldi. Ayniqsa qo'shni Germaniyada gumanistik g'oyalar antifeodal, katolik cherkovga qarshi kurashni ifodalovchi yo'nalishda edi. XVI asrga kelib gumanizm butunlay umumevropa madaniy harakatiga aylanib o'rta asrlar sxolastikasiga katta zarba etkazgan edi.

Bu yangi buyuk aqliy harakatda ulug' shoirlar va yozuvchilar, olimlar va san'atni turli sohalarida ijod qilgan arboblal o'z hissalarini qo'shdilar. O'rta asrlardan yangi davrga o'tish vaqtida mashhur shoirlardan florensiyalik Dante Aligeri (1265-1321) edi. Uning «Diniy komediyasi» o'rta asrlar ideologiyasini yaqqol namoyon ettiruvchi asarlardandir. Bu asar 3 qismdan iborat bo'lib – «Duzax», «Tozalov », «Jannat», olam tuzilishi to'g'risida o'rta asrlar tushunchasini ifodalagan.

Uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyondalaridan florensiyalik Franchesko Petrarka (1304-1374) va Djovanni Bokkachcho (1313-1375) edilar. Petrarka o'zining ishqiy sonetlari (Lauraga atalgan), ikkinchisi o'zining 100 novelladan iborat mashhur kitobi «Dekameron» bilan gumanistik adabiyotiga asos solishgan edi va Italiya adabiy tiliga asos soldilar.

Florensiyalik Leonardo Bruni (1369-1444) gumanistik ruhda yangi pedagogik sistemaga asos soldi. U birinchilardan xotin-qizlar o'qishini tarafdori edi. O'zining «Florensiya tarixi» (12 kitob) asarida XIII-XIV asrlar ijtimoiy harakatlariga katta ahamiyat bergan edi.

Fransuz satirik yozuvchisi Fransua Rable (1494-1553) o'zining «Gargantuya va Pantagryuel» romanida feodal tartiblarni mashara qilib, urushlarni qoralagan. Bu romanda katoliklar va protestantlar o'rtasidagi kurash tasvirlangan (Papemaniya mamlakatiga kelganlarida katoliklar «qiltanoqday ingichka, ozg'in edilar, bu erda esa laur birdaniga cho'chqaday semirib ketdilar», chunki «dunyoning hamma tomonidan» ularga daromad kelib turadi).

Ingliz yozuvchisi Tomas Mor (1487-1535) o'zining «Davlatni eng yaxshi tartibda tuzish haqida va yangi Utopiya oroli to'g'risida qimmatli kitob» asarida xalqning azoblarini sababchisi xususiy mulk deb hisoblab adolatli va baxtiyor mamlakat – Utopiya orolini («aslida yo'q joy») chiroyli tasvirlagan. (xamma mehnat qiladi, bo'sh vaqtida fan, san'at bilan shug'ullanadi, ekspluatasiya yo'q, hamma baxtli va guzal hayot kechiradi) Lekin bu maqsadga erishish yo'lini ko'rsatmagan, shuning uchun amalga oshirib bo'lmaydigan orzu-utopiya deb atala boshlandi.

Boshqa yirik ingliz yozuvchisi Vilyam Shekspir edi (1564-1616). U butun hayotini teatr bilan bog'lab, 37 ta pesa (komediya, tragediya, drama) va ko'pgina sonetlar yozib qoldirgan. Ularning ichida mashhurlari «Qaysar qizning quyulishi», «Yuliy Sezar», «Makbet», «Xamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Romeo va Juletta». Boshqa gumanist- yozuvchilarga o'xshab Shekspir o'z asarlarida insonni ulug'ligini va feodal tuzumni razilligini tasvirlagan. – «Kurganlarim – razolat bari!». Uning qahramonlari pok vijdonli, kuchli, jasur va dovyurak kishilar, ular jafo chekadilar va kurashadilar, lekin dunyoni o'zgartira olmaydilar.

Ispan gumanist yozuvchisi Migel Servantes (1547-1616) ning asosiy asari «Don Kixot» va «Galateya» romani, «Numansiya» tragediyasi jahon madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Risarlik romanlariga parodiya shaklida yozilgan «Don Kixot» asarida Ispaniyadagi xo'jalik hayotining keng realistik tasviri yaratilgan.

Uyg'onish davrida gumanistik adabiyot singari xo'jalikning rivojlanishi va o'qimishli kishilarning ko'payib borishi bilan fan ancha ilgari siljidi. Odamlar qo'lida birinchi marta termometr va barometr, teleskop va mikroskop paydo bo'ldi. Mikroskopning paydo bo'lishi eng mayda tirik organizmlarning (mikroorganizmlar) hayotini, hayvon va o'simliklarning tuzilishini tadqiq qilish imkonini yaratdi. Olimlar yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroblarni va ularga qarshi kurash yo'llarini o'rgana boshladilar. Bu medisina – tibbiyotni va biologiya fannini ilgari siljishga sabab bo'ldi.

Geografiya fani sohasida nihoyatda katta yutuqlarga erishildi. Kolomb, Vasko da Gama, Magellanning sayohatlaridan so'ng Amerika va Avstraliya qit'alari kashf qilindi. Dovyurak sayohatchilar quruqlik, dengiz va okeanlarning ancha qismini tekshirdilar. Dengiz sayohatining rivojlanish astronomiyaga doir aniq bilimlarga ega bo'lishni talab qilardi. Olamning tuzilishi haqidagi diniy ta'limotga zarba berildi. Polyak olimi Nikolay Kopernik (1473-1543) osmon jismlarini 30 yildan ortiqroq kuzatib, YEr Quyosh atrofida va o'z o'qi atrofida aylanishi, undan tashqari YEr planetalarning biri bo'lib, boshqa planetalar ham Quyosh atrofida aylanishini kashf qildi. 1543 yilda Kopernik o'zini ta'limotini «Osmon jismlarining aylanish haqida» kitobida e'lon qildi.

Boshqa italyan olimi Jordano Bruno (1548-1600) – ruhoniy (monastirdan qochgan) Kopernik ta'limotini rivojlantirib «Olamning cheki yo'q. Olam beqiyos katta va cheksizdir» degan edi. U juda ko'p olamlar mavjudligi to'g'risida dohiyona tahmini ilgari suradi. Hozir fan tomonidan bu dadil fikr to'la tasdiqlangan. Lekin o'sha davrda bu dinga qarshi katta zarba edi, shuning uchun Bruno inkvizisiya sudi bilan tiriglay o'tda kuydirildi. Yana bir italyan olimi Galileo Galiley (1564-1642) 32 marta katta qilib ko'rsatadigan teleskop yasab, uning yordamida osmonni kuzatib oyda tog'lar borligini, Quyoshda dog'lar borlig'ini, Yupiter planetasi atrofida 4 ta yo'ldosh borligini kashf etdi. Olamning geliosentrik sistemasini faol yoqlab chiqib, buning uchun inkvizisiya sudiga tortilgan va Kopernik ta'limotidan voz kechishga majbur qilingan. U umrining oxirini surgunda o'tkazdi.

Yangi, burjua madaniyatini rivojlanishida kitob bosishning ixtiro qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIV asrda YEvropada qog'oz tayyorlash yoyiladi. XV asrni boshlarida g'arbiy YEvropada diniy adabiyotni ko'paytirish uchun ksilografik usul qo'lanilar edi. Yog'och yoki mis taxtachada harflar o'yilgan nusxalar tayyorlanib keyin qog'ozga bosilgan. Lekin bu usul mukammal bo'lmay katta mehnat talaba qilar edi. 1445 yil nemis olimi Iogann Gutenberg (1400-1468) kitob bosishni ixtiro qildi. U dastlab yog'ochdan, so'ng metaldan ayrim harflar qo'yish usulini kashf etdi. Yig'ib, tarqaluvchi shriftlar yordamida istalgan sahifa tuzish mumkin edi. Undan tashqari Gutenberg kitob bosadigan matbaa dastgohini (press-stanok) ham kashf etdi (qog'ozni ikki tomonidan bosilishi). Dastlab, bu ixtiro o'ta mahfiy holatda saqlandi. Lekin 15 yildan so'ng bu kashfiyot Germaniyadan boshqa mamlakatlarga tarqaldi.

XV asr ohirida venesiyalik noshir-gumanist Ald Manusiy (1448-1515) 1490 yil o'zining birinchi bosmahonasini ochdi: fransiyalik Anri Eten (1460-1520) esa o'zining nashriy firmasini ochib, u erda 120 tadan ortiqroq matematika, falsafa, astronomiyaga oid to'plamlar bosib chiqardi. XVI asrgacha YEvropa shaharlarida 1100 bosmahona ishga tushgan edi. Kitoblar ko'paydi va arzonlashdi. Kitob bosishning ixtiro qilinishi – insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlardan biridir. Chunki u maorif, fan va adabiyotni ilgari siljitti.

Uyg'onish davri san'at sohasida ham g'oyat buyuk burilish davri edi. Rassomlar voqelikning jamiki boyligini badiiy aks ettirishni – xajm, kenglik, nurni ifodalash san'atini, inson qaddi-qomatini va real muhit-interer, manzarani tasvirlashni izchil egallab bordilar. Uyg'onish davri darakchilari buyuk rassomlar Djotto (1266-1337) va Mazachcho (1401-1428) edilar. Ular asosan diniy syujetlarda (freskali sur'atlar – ibodatxonalarni devorlarida) ijod qilgan bo'lsalarda, lekin ularni asarlarida realistik xislatlar paydo bo'ladi. Djottoning mashhur freskalaridan «Iuda bo'sasi» xoinlik harakatini ifodalagan: go'zal va tik qaragan Xristosni lablarini bo'sa uchun chuzib ko'zlarida sotqinlik va yovuzlik aks ettirilgan Iuda.

Uyg'onish davri mashhur rassomlaridan Leonardo da Vinchi (1452-1519) hisoblanadi. U faqatgina buyuk rassom bo'lib qolmasdan, balki iste'dodli injener, fizik, anatom, matematik, astronom, geolog, arxitektor va haykaltarosh edi. U «baxt, mehnat qilgan kishigagina keladi» deb hisoblar edi. Rassomchilikni Leonardo da Vinchi san'atni asosiy turi deb hisoblar edi. Shuning uchun ham rassomchilikka ijodiy yondashib, kishining his-tuyg'ularigacha tasvirlashga harakat qiladi. Uning buyuk asarlari «Maxfiy kecha», «Madonna Litta», «Djokonda» butun jahonda mashhurdir.

Uyg'onish davri buyuk Italiya rassomlaridan Rafael Santi («Sikstin madonnasi») (1483-1520), Vechelo Tisian (1477-1576) («Ippolito Riminaldi portreti», «Flora»), Sandro Bottichelli (1444-1510) («Venera tugilishi», «Gudaklik madonna») Veroneze (1528-1588) («Yoshlik va krilik»). Tintoretto va Perudjinolar butun dunyoga mashhur bo'lgan asarlar yaratishgan.

Uyg'onish davrining buyuk haykaltaroshlari Donatello (1386-1466) va Mikelandjelo Buonarroti (1475-1504) edilar. Donatello bir vaqtda ham haykaltarosh, ham yirik musavvir- portretchi edi. U o'zining haykallariga antik davriga taqlid qilib go'zal va nihoyatda real xususiyatlarga ega qilib tasvirlashga harakat qiladi («Avliyo Georgiy», «Davud», «Nikkolo da Ussano byusti»)

Mikelandjelo ham buyuk haykaltarosh va rassom edi, uning ko'pgina asarlari bibliya va antik syujetlariga bag'ishlangan. Uning yasagan haykallari va chizgan suratlarida kurashchi insonlar haqidagi, qahramonlar va zabardast, irodali, jasur va kuchli, go'zal insonlar haqidagi orzulari aks etar edi. («Dovud», «Arqonlarni uzayotgan qo'l», «Pieta»)

Arxitekturada dunyoviy inshootlar – jamoat binolari, saroylar, shahar uylari etakchi rol o'ynay boshladi. Arxitektorlar orderlar, ark galereyalari, kolonnalar, gumbazlar, qubbalardan foydalanib, o'zlari bunyod etgan imoratlariga ulug'vor aniqlik, insoniy borliqqa xos uyg'unlik va mutanosiblik baxsh etdilar. Italiyada buyuk arxitektorlar: Filippo Brunelleski (1377-1446) birinchi bo'lib katta gumbazli inshootlar qurish muammosini echgan edi. Uning imoratlari o'zining proporsional qurinishi bilan ajralib turadi. (Florensiyadagi «tarbiyalash uyi», «Kapella Passi») Boshqa buyuk arxitektorlar D.Bramante (1444-1514 – «Tempietto») A. Palladio (Palasso porto», «Villa Rotonda», «San Djordjio Cherkovi»). Me'morchilik san'atining buyuk yodgorliklaridan Rimdagi Avliyo Petr ibodatxonasini hisoblasa bo'ladi. U tanaffuslar bilan 100 yil davomida (1506-1590) qurilgan. Uning gumbazining qurilishini Mikelandjelo boshlab, Djakomo dela Porta tamomlagan. Uning balandligi 132 m, maydoni 15 ming kv. m. tashkil etadi. Uzoq vaqt qurilish ibodatxonada Uyg'onish davri arxitektura uslubi bilan bir qatorda barokko uslubi ham ulanib ketgan. Barokko me'morchilik uslubi XVI asrni oxirida – XVII asrlarda butun YEvropada tarqalib, unda gotik uslubi hamda ko'pgina naqshlangan va boshqa bezaklar ishlatilar edi. Fransiyada buyuk arxitektor Lesko uyg'onish davrida qirollar saroyi – Luvrni (Parijda) qurgan edi. Bu saroy italiya arxitektura stilida qurilgan.

Italiyadagi Uyg'onish davrining san'ati YEvropadagi boshqa mamlakatlar san'atining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, Ispaniya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya va Angliya buyuk rassomlari, Italiya san'at ustalarining yutuqlarini o'zlashtirish bilan birga, jahon san'atiga ko'p yangiliklar kiritdilar.

XVI asr boshlarida Germaniyada Uyg'onish davri san'atining gullab-yashnashi reformasiya va feodallar zulmiga qarshi kurash bilan bog'langan edi. Germaniyaning buyuk rassomlari va gravyurachilaridan biri Albrext Dyurer edi (1471-1528). U asli Nyurnberglik bo'lib, shu shaharni gumanistlari bilan chambarchas bog'liq edi. Dyurer yoshligidan gravyuralar yasab (misga chizilib kislota bilan keyin bo'yab ustiga qog'oz qo'yib ko'chirma qilinar edi), ular bilan kitoblarni bezar edi. U buyuk portret ustasi edi. Uning portretlari katta realistik kuchga ega, insonni ruhiy olamining boyligi ko'rsatilgan. Undan tashqari uning yorqin, manoli va o'tkir peyzaj rasmlari va natyurmortlari ham mashhurdir. Faqatgina katta gravyuralardan 100 ortiq Dyurezni asarlari qolgan. («Qariya portreti», «Avtoportret», «Avliyo Cheronim»).

XVI asr nemis mussavirlik san'atining boshqa yirik namoyondalari – Lukas Kranax (1472-1553) va Gans Golbeyn (1497-1543) Kranax reformasiyaning qizg'in tarafdori edi va bu uning asarlarida aksini topdi. U reformasiyaning arboblarni portretlarini chizgan – Lyuter, Melanxton va b. Bir qator suratlarida u katolik ruxoniylarni fosh qilgan

Gans Golbeyn (Augsburglik) o'zining suratlarida Ulug' dehqonlar urishidan sahnalarni tasvirlagan Lekin u ko'pincha portretist sifatida nom chiqardi. Uning Erazm Rotterdamskiy, Tomas Mor, ingliz qirollari Genrix VIII va Eduard VI, gersog Norfolklarni portretlari chuqur psixiologikligi, haqoniyligi, to'la realligi, ko'rkamligi bilan ajralib turadi. XVI asr ohiridan Ispaniyada san'ati gullab – yashnay boshladi va bu jarayon qariyb yuz yil davom etdi. Bu davr ispan madaniyatining «oltin asri» deb ataladi.

Ispaniyaning jahonda mashhur rassomlari Bartolomeo Estebano Murilo (1617-1682) va Diego Rodrigues Velaskes (1599-1660) hisoblanadi. Muriloning chizgan Madonnalari Rafaelni madonnalari bilan o'zining san'atkorligi jihatdan tenglashadi. Bolalarni suratini chizishda Murilo mohir usta edi. («Qo'zichoq bilan bola».) Atoqli rassom Velaskes saroy rassomi edi (40 yil ispan qirollari saroyida xizmat qildi). Shuning uchun uning ko'pgina asarlari qirol, uning oila- a'zolari va oliy martabali

zodagonlarning va saroyda yashaydigan masqarabozlarni portretlarini aks etadi. Lekin bu portretlarni buyurtmachilarga aslo xushomadgo'ylik qilmasdan, ularni o'zlari qanday bo'lsa o'shanday qilib tasvirlagan edi. («Papa Inokentiy X portreti», «Infanta», «Karlik Morr portreti» va b.) – xarakterlar haqqoniy ravishda, ravshan ko'rsatib berilgan). Undan tashqari Velaskesning mo'yqalamga mehnat mavzusiga, jang mavzusiga oid suratlar mansub «Kuznisa Dulkana», «Ip yigiruvchi ayollar», «Bred shahrini olinishi» degan asarlari mashhur). Velaskesning asarlarida ispan rassomlik san'atining eng yaxshi hususiyatlari ayniqsa to'la aks etilgan. Uning qabr toshida: «Haqiqat rassomiga» degan so'zlar yozilgan.

Gollandiyada san'at burjua revolyusiyasining g'alabasidan keyin (XVI asrni oxiri) gullab-yashnadi.

Farbiy YEvropaning biror bir mamlakatida Gollandiyadagidek rassomchilik shunchalik tez yuksalib, keng tarqalgani yo'q. Gollandiyada rassomlarga suratlarni saroy va cherkov buyurtma qilmasdi (protestant ibodatxonalarida ikonalar yo'q edi). Bu erda faqat boylargina emas, balki byurgerlar, Hunarmandlar va yaxshi yashayotgan dehqonlar ham suratlar sotib olib o'z uylarini bezatar edilar. Shuning uchun rassomlar o'z tevarak –atroflaridagi tabiat manzaralari, turmush hodisalari haqidagi suratlarni ko'proq chizdilar. Gollandiyada rassomlik san'atining portret, peyzaj, natyurmort kabi janrlari rivojlanadi.

Niderland rassomchiligi o'zining Yan Van Eyk (1366-1441), Piter Breygel (1525-1569), Piter Paul Rubens (1577-1640), Rembrant van Reyn (1606-1669) kabi rassomlari bilan mashhurdir. Piter Breygel mashhur «Dehqonlar raqsi», «Gudaklar savalanishi», «Ko'rlar» kabi suratlari mashhurdir. Ayniqsa «Ko'rlar asarida musavvir odamzod tragediyasini yaratishga harakat qiladi – ko'r odam ko'rlarni etaklab ketmoqda. Rubens ham portret ham peyzaj ustosi edi. Uning chizgan odamlari kuchliligi, to'laqonligi va xushchaqchaqligi bilan ajralib turadi. («Dianani ovdan qaytishi», «Xotini Izabella Brandt bilan avtoportreti», «Negrlar boshlari», «Bug'ular ovidagi sahna»).

Gollandiya rassomlik san'atining buyuk ustasi Rembrandt van Reyn edi. O'zining rasmlarida inson, uning xarakteri, aqli va ruhiy kechinmalariga Rembrandt asosiy e'tibor berardi. Faqatgina o'zining 100 yaqin portretini chizdi. Uning bizgacha 1,5 mingta asarlari saqlanib qolgan. Rembrandtni «yorug'lik va soya sehgari» deb atashadi, chunki u soya va yorug'lik tushayotgan tomonni munosib rang berib ko'rsatishda katta yutug'larga ega bo'ldi. Uning «Saskiya portreti», «Oqpadar o'g'ilning qaytishi», «Kampirning portreti» va boshqa suratlari bilan butun YEvropa fahrlanadi. Lekin u kambag'allashib muhtojlikda umr kechirdi va hato kambag'allar qabristonida dafn etilgan.

Uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari kishilarni hozir ham qoyil qoldirayotgan nodir asarlar yaratdilar.

2. Feodalizmning cheksiz hukmronlik qilgan davri bilan Farbiy YEvropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlarning shakllanish davri qariyb uch asrni o'z ichiga oladi. Bu davrda ko'pchilik mamlakatlarda feodalizm hali tamomila o'zining mavqeini yo'qotgan yo'q edi, lekin uning zaminida kapitalistik munosabatlar rivojlana borib, feodal munosabatlarni barcha sohalarda siqib chiqarayotgan edi. Bu jarayon, tabiiyki, madaniy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida progressiv g'oyaviy oqim – ma'rifatparvarlik paydo bo'ldi. Ilk kapitalizm davridagi feodal tartiblari, ilohiyot va diniy axloqqa qarshi chiqqan ilg'or mutafakkirlarning falsafiy ta'limotlarida, shuningdek sosial –utopistlarning chuqur mazmunli fikrlari bayon qilingan edi. Ma'rifatparvarlik namoyandalari «tabiiy tenglik» ka asoslangan «aql –idrok» hukmronligini o'rnatish uchun, siyosiy erkinlik va grajdanlararo tenglik uchun kurashdilar. Yangi ijtimoiy tartibga erishish yo'lida bilim, ma'rifatni tarqatishga alohida ahamiyat berdilar. Ko'pgina ma'rifatparvarlar diniy jaholatni tanqid qilishda katta rol o'ynaydilar, ayrimlari materialist edi.

Ma'rifatparvarlikning yirik vakillari: Angliyada: Jon Lokk (1632-1704) insonning barcha bilimlari tajribalaridan kelib chiqadi deb ta'kidlagan, empirik bilish nazariyasini ishlab chiqqan. Robert Ouen (1771-1858) utopik sosialisti edi, uning ta'limotiga ko'ra, odamlarning hamma illatlari va kamchiliklarida odamning o'zi emas, balki ular yashayotgan ijtimoiy tuzum ayblidir. Fransiyada: Monteske (1689-1755) atoqli ma'rifatparvarlardan biri edi, u absolyut monarxiya illatlarini qoralab cheklangan konstitusion monarxiyani tarafdori edi. Volter (1694-1778) garchi absolyut monarxiya va

cherkovni tanqid qilsada, lekin revolyusiyani xoxlamasdi va xalqni itoatgo'ylikda ushlab turish uchun dinni saqlab qolish kerak, deb hisoblardi: «Agar xudo bo'lmaganida, uni o'ylab chiqarish kerak bo'lur edi». Jan Jak Russo (1712-1778) boylar ham, kambag'allar ham bo'lmaydigan xamma bir-birining manfaatiga zarar etkazmay mehnat qiladigan teng huquqli mayda mulkdorlar jamiyatini oliy maqsad qilib qo'ygan edi.

Deni Didro (1713-1784) yirik yozuvchi va faylasuf edi. «Ensiklopediya (bilimlar o'rgatish), ya'ni fan, san'at va kasb-hunar izohli lug'ati»ning asoschisi va muharriri edi. Didro, Klod – Andrian Golvesiy va Pol Anri Ditrax Golbaxlar XVIII asr fransuz falsafasining mashhur namoyondalari edilar. Ular odamning butun fikrlari, fazilati uning o'rab turuvchi muhitning ta'sirida sodir bo'ladi, muhit o'zgartirilsa, odam ham o'zgaradi, degan fikrlarni olg'a surdilar. XIX asrning boshida, kapitalistik jamiyatda qarama-qarshiliklarining o'sishi, buning natijasida xalq ommasini qashshoqligining o'sishi zaminida, utopik socialistlar Sen-Simon, (Sharl Fure (Fransiyada) va Robert Ouen (Angliyada) «idroq hukmronligi» va «mangu adolat» o'rnatilishni istadilar. Ma'rifatparvarlarni «idroq hukmronligi» deb atalgan burjua tuzumi ham feodalizm kabi, yangi adolatli tuzum bilan almashtirilishi kerak deb hisoblashgan.

Sen – Simon (1760-1825) hamma odam mehnat bilan yashashi kerak va «odamga shunday sharoit yaratish kerakki, uning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan doimo muvofiqlikda bo'lsin» deydi. Lekin uning utopiyasi diniy- axloqiy qobiqqa o'ralgan edi. U o'zining ta'limotini «Yangi xristianlik» deb atagani be'jiz emas. Nemis klassik falsafasini va ma'rifatparvarligining dastlabki namoyondalari Gottfrid Vilgelm Leybnis (1646-1716), Georg Vilyam Fridrix Gegel (1770-1831) va Lyudvig Feyerbax (1804-1874) lardir. Leybnis faylasuf – idealist edi. U dunyoning negizini ruhiy substansiyalar – monadalar tashkil qiladi va ularga oliy monada – xudo boshchilik qiladi, deydi. Kant esa idealizm va materializm orasida o'rtacha yo'lni topishga intildi. U makon, zamon va tabiat qonunlarining ob'ektiv mavjudligini inkor etar, bular esa, kishining bilish qobiliyatiga xos xususiyatlar deb hisoblagan. Gegel ob'ektiv idealizmni asosida dialektikaning sistematik nazariyasini yaratdi. U «olamiy ruh» (absolyut) tan olib, uning rivojlanish, ya'ni faoliyati uning xarakteristikasidir deb hisoblagan.

Feyerbarx materialist edi. U Gegelni falsafasini tanqid qilib, ruh manbai tabiat va jamiyatning tasodifiy stixiyali kuchlariga insonning qaramlik tuyg'usidir va tengsizlikni ma'rifatchilik va yangi din (insoniy birlashuv, Men va sening o'zaro bog'liqligi) orqali bartaraf qilish mumkin, deb hisoblagan. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi texnikani rivojlanishini, turli materiallarning puxtaligi va boshqa xossalarni o'rganishning vaqtni, predmetlarning xajmini, masofani, harakat tezligini, haroratni, bosim va shu singarilarni aniqroq o'lchashni taqozo qilar edi. Bu esa ilm-fanning ahamiyatini oshirdi.

Bu davr fanni hamma sohalarida jo'shqin rivojlanish yuz beradi: ya'ni jonsiz tabiatni ya'ni moddalarni tuzilishini, Olam tuzilishini; jonli tabiatni ya'ni tabiat qonunlarini, jamiyatni, odamning tafakkurini, aql-idrokni rivojlanishi urganilishi.

Hozirgi zamon fani o'zining tez sur'at bilan yuksalib borgan taraqqiyotini xuddi XVII asrdan boshladi, deyish mumkin. XVI asrda ilmiy fikr ba'zi bir cheklangan sohalarida, masalan astronomiya, medisinadagina namoyon bo'ldi. XVII asrning I yarmida ilmiy bilimlar asosiy prinsiplari va metodlarining Bekon (Angliyada), Galiley (Italiyada), Dekart (Fransiyada) singari ulug' jarchilari paydo bo'lishi bilan fan asri boshlandi. Ilmiy bilimlarning g'olibona rivojlanishi XVII asrning II yarmidan boshlandi. Bu rivojlanish YEvropaning barcha mamlakatlariga yoyiladi va xalqaro tus oldi. Olimlar bir-birlari bilan xat yozishib turar, o'z kuzatishlari, ixtirolari, kashfiyotlari, nazariyalari haqida bir-biriga xabar yuborar edilar. Shuning uchun birin-ketin ilmiy markazlar –akademiyalar vujudga keldi, ularda tajribalar o'tkazilar edi va olimlar bu erga ilmiy ma'lumotlar yuborib turishardi. Dastlabki ilmiy markazlar fransiyadagi «Tajriba akademiyasi» va Angliyadagi «Kirol jamiyati» edilar (1642). «Kirol jamiyatiga» yirik olimlar Nyuton, Boyl, Guk, Levenguklar a'zo bo'lishgan. 1652 yilda Germaniyada imperator Leopold akademiyasi, 1666 yilda Parijda tabiiyot fanlar akademiyasi, 1700 yilda Berlinda Fanlar akademiyasi, 1724-1725 yillarda Peterburgda, 1739 yilda Stokgolmda, 1759 yilda Myunxenda Fanlar akademiyalari tashkil qilindi.

Yangi fanning bayrog'i aniqlik va ishonchlik bo'ldi. Yangi fanning XVII-XVIII asrlardan taraqqiyoti, bir tomondan, eng muhim ilmiy asbob-uskunalar – termometr, simobli va suvli barometr, havo nasosi, mayatnikli soat, elektr mashina, teleskop, mikroskop va boshqa narsalarning – ixtiro qilinishi va takomillashtirilishi asosida, ikkinchi tomonidan, matematikaning tez rivojlanishi asosida bordi.

Mashhur ingliz olimi Isaak Nyuton (1643-1727) va nemis olimi Leybnis (1646-1716) XVII-XVIII asrlarda hozirgi zamon oliy matematikasiga asos soldilar. Ular diffensial va integral hisoblash qoidasini yaratdilar. Nyutonning eng asosiy xizmatlaridan biri butun dunyo tortishish qonunini kashf qilganligidir. Matematika va fizika sohasida ko'p ishlar qilgan Paskal (1623-1662) gidrostatikaga asos solganlardan biri edi. Boyl (1626-1691) va Mariott (1620-1684) aerostatikaga asos soldilar.

Nemis fiziki Gers va rus olimi P. Lebedev tomonidan elektrmagnit to'lqinlarni ochilishi va uning xususiyatlarini o'rganishi katta ahamiyatga ega edi. 1895 yil nemis olimi Vilgem Rentgen tomonidan kalta elektromagnit to'lqinlarni noravshan narsalarni ko'rsatish xususiyati texnika va medicina sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Radioaktivlik xodisalarni ochishda va aniqlashda fiziklar Antuan Bekkerel, Djozef Tompson (elektronni ochgan), Per va Mariya Kyurilar, Ernest Rezerfordlar katta hissa qo'shganlar. Ular atomning ichki dunyosini o'rganishga yordam beradilar. Fizika fanini rivojlanishida Albert Eynshteyn katta rol o'ynadi. (1879-1955). U o'zining xususiy va umumiy nisbiylik nazariyasi yorug'likning kvant nazariyasi bilan hozirgi zamon fizikasiga asos soldi.

Sanoat to'ntarishi munosabati bilan turli materiallarning ximiyaviy xossalarini chuqurroq o'rganish, bo'yoqlar, gazlamalarni oxorlash uchun vositalar va hokazolarni tayyorlash usullarini topish kerak bo'lib qoldi. Ximiya va fizika sohasida buyuk kashfiyotlaridan 1869 yilda D.I. Mendeleev tomonidan elementlarning davriy sistemasini tuzilishi. YEr osti foydali qazilmalarini ishlash munosabati bilan er qobig'i xossalarini o'rganish zarurati vujudga keldi. Ko'pgina tog' jinslarining vujudga kelish jarayoni aniqlanadi. Bu geologiya fanini rivojlanishiga turtki berdi

Medicina sohasida muhim kashfiyotlar qilindi. Golland olimi A.Levenjuk (1707-1778) 300 marta katta qilib ko'rsatadigan mikroskop yaratdi. Bu o'simlik va hayvonlar dunyosi, inson tanasi tuzilishini, juda mayda organizmlar –bakteriyalarni aniqlash imkoni berdi. 18 asrda ingliz vrachi E.Jenner chechak kasalligiga qarshi emlash usulini ishlab chiqdi. Nemis olimi R. Virxoz (1821-1902) hozirgi zamon patologik anotomiya asoslarini yaratdi. Yuqumli kasalliklar tug'diruvchi mikroblarning kashf etilishi – medicina mikrobiologiyasining yaratilishi bu davr medisinasi taraqiy etishi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mikrobiologiyani yanada rivojlanishi natijasida XX asrda viruslar to'g'risida fan – virusologiya vujudga keldi. Bu fanga 1892 yilda Rossiyada D.I. Ivanovskiyning. 1898 yilda Germaniyada F. Lyofler, P.Froshning va 1917 yilda Fransiyada F.D. Erelning ishlari asos bo'ldi.

XIX asrda biologiya fani ham katta yutug'larga erishdi. Ayniqsa ingliz olimi Charlz Darvin ta'limoti biologiya sohasidagi tadqiqotlar yo'nalishini tubdan o'zgartirib yubordi. U uzoq vaqt davomida o'simlik va hayvonot dunyosining o'rganib, ularni mavjud turlari hozir qanday bo'lsa shunday holda darhol vujudga kelmagan, balki uzoq yillar davomida rivojlanish jarayonida shakllangan va odamni xudo yaratmagan, balki tabiatning tabiiy rivojlanishi natijasida odam bir vaqtlar yashagan maymunsimon mavjudotlardan kelib chiqqan, deb xulosa qilgan. Darvin ta'limoti, I.Kant bilan P.Laplasning Quyosh sistemasi gaz tumanligidan rivojlanganligi haqidagi gipotezasi, YEr qobig'ining o'zgarishlari haqidagi geologiya ma'lumotlari tabiatning o'zgarmasligi haqidagi tasavvurni rad etdi, uning rivojlanib borishini isbotladi.

Bu davr muvaffaqiyatlari ta'siri ostida Gollandiyada va Angliyada, so'ngra esa boshqa mamlakatlarda xam XVII asrda va ayniqsa XVIII asrda badiiy adabiyotda asta-sekin burjuaziya g'oyalari va didlari ustun bo'la bordi. Daniel Defo («Robinzon Kruzo») va Jonaton Svift («Gulliverning sayohatlari») – Ingliz yozuvchilari, o'zlarining asarlarida insonparvarlikning kuylab, ochkuzlik, ikkiyuzlamachilik, zulm va adolatsizlikni qoralab chiqqanlar. Buyuk fransuz dramaturgi Jan Batist Moler (Poklen) uzining komediyalarida xalq orasidan chiqqan topqir, olijanob, gapga chechan kishilar obrazlarini dvoryanlar muhitidan bekorchilar, xasis va shuxratparast burjua obrazlariga qarama-qarshi qilib bergan. Uning pesalari hamon dunyo teatrlarida qo'yiladi («Don Juan», «Tartyuf», «Hasis», «Dvoryanlikdagi meshchan»).

Yana bir 18 asr buyuk dramaturgi P'er Bomarshe ham o'zining «Sevilya sartaroshi» va «Figaronning uylanishi» komediyalarida aristokratiyaning tantiq va bekorchiligini, pastkashligini ko'rsatadi. XIX asr boshlarida ijod qilgan buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo o'zining asarlarida feodal zulmini, ruxoniylarning riyokorligi va yolg'onchiligini ko'rsatadi («Parijdagi Bibi Maryam sobori», «Kuluvchi kishi», «Xo'rlanganlar», «To'qson uchinchi yil»)

Ma'rifatparvarlik ideologiyasi nemis adabiyotining klassik davri uchun asosiy zamin bo'ldi. XVIII asrning 70-80 yillarida «Bo'ron va tazyiq» adabiy harakati keng yoyildi. Bu oqimning yirik yozuvchilari Iogann Fridrix Shiller (1759-1805) va Iogani Volfgang Gyote (1749-1832) Shiller ko'pgina pesalar yozgan - «Qaroqchilar», «Orlean qizi» (Janna Darkka bag'ishlangan), «Vilgelm Tell», «Mariya Styuart». Gyote insonning ijodiy kuchlarini tarannum qildi, ayniqsa o'zining she'riy tragediyasi «Faust» da. Mashhur nemis shoiri Genrix Geyne XIX asrning 30 – yillaridan Yevropa adabiyotida tanqidiy realizm yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Bu yo'nalishga mansub yozuvchilar o'z asarlarida jamiyatning ko'pgina ziddiyatlarini haqqoniy aks ettirib, oddiy kishilar hayotini achinib, hayrihohlik bilan tasvirlaganlar.

Bu tendensiyalar Onore de Balzak («Gorio ota», «Yevgeniya Grande»), Gi de Mopassan («Aziz do'stim», «Hayot»), Anatol Frans («Pingvinlar oroli»), Romen Rollan («Jan Kristov») - Fransiyada; Charlz Dikkens («Devid Kopperfild», «Pikvik klubi hotiralari»), Tomas Gardi («Bilinmas Djud»), Djon Golsuorsi («Forsaytlar to'g'risida saga»), Bernard Shou (ko'pgina pesalari), Gerbert Uells («Vaqt mashinasi») Angliyada; Tomas Mann («Buddenbroki») va Genrix Mann («Sodiq fuqaro») - Germaniyada; Mark Tven («Tom Soyer»), Teodor Drayzer («Finansist», «Titan»), Djek London («Martin Iden»)- AQShda kabi yozuvchilarning asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin XIX asrni ohirida va ayniqsa XX asrni boshlarida ayrim qatlamlar o'zlarining g'oyaviy ta'sirini kuchaytirish uchun madaniyatni hamma sohalaridan foydalana boshladilar. Shu maqsadga Fridrix Nisshe falsafasi hizmat qildi. Nisshe odamlar o'rtasida tenglikni rad etar edi, ayrim jamiyat a'zolarini («oliy») qullar sinfi ustidan hukmronlik qilishga huquqi bor deb hisoblagan. Adabiyotda bu falsafa shovinistik asarlar paydo bo'lishga sabab bo'ldi. Fan bilan dinni va idealizm falsafasini birlashtirish uchun urinishlar; kuchga, shovinizmga va rasizmga topinish madaniyatda tanazzul alomatlarini haqida dalolat beradi.

Madaniyatda, ayniqsa adabiyotda XIX asr ohirlarida yangi yo'nalish «dekadentlik» vujudga keladi (fransuz so'zi decadence - tushkunlik, inqiroz, tanazzul). Dekadentlar odam yovuzlik kuchlari oldida kuchsiz va shuning uchun real dunyodan o'zining «men» dunyosiga ketishi lozim, deb hisoblar edilar. Shuning uchun ular umidsizlik, hayotdan yuz o'girish kayfiyatlarini ifodalaganlar va o'zlarini asarlarida ko'pincha fantastik dunyoni yaratishar edilar: shoir Pol Verlen va yozuvchi Artyur Rembo (Fransiyada), R.Rilke (Avstriya), M. Meterlink (Belgiya), yozuvchi Oskar Uayld (Angliyada – «Baxtli shaxzoda», «Yulduzli bola» ertaklari). Dekadentlar san'at «toza» bo'lishi kerak, yoki siyosat va ijtimoiy manfaatlardan uzoq bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar. Lekin baribir ko'pgina dekadentlar ijodlarida ommani qashoqligi va istiroblarini cheklab o'tolmasdilar.

Ma'rifatparvarlik g'oyalari (XVII-XVIII asrlarda), revolyusiya va milliy ozodlik harakati (XIX –XX asrlar) ayniqsa muzikada ham o'z aksini topdi. Germaniya va Avstriya Iogann Fridrix Gendel, Iogann Sebastyan Bax Volfgan Amadey Mosart, Lyudvig van Betxoven, Iozef Gaydn, Frans Shubert va Robert Shuman; Polsha – Friderik Shopen, Vengriya – Ferens List; Italiya – Joakino Rossini va Juzeppe Verdi kabi buyuk kompozitorlarni etkazib berdi.

XVII asrni ohiri – XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa tasviriy san'atida o'sha davr jamiyatini har hil sinflarni manfaati aks ettirilgan. Absolyut monarxiyalarning saroylarida dabdabali (mifologiya syujetlar va manzaralar o'rniga) saroy san'ati ravnaq topdi. Lekin burjuaziya qarashlariga mos keladigan rasmlar ham chizilgan. Undan tashqari rassomchilikda real odamlarning obrazlari va ularni hayoti aks ettirishdan suratlar paydo bo'ldi.

Absolyut monarxiya didiga to'g'ri keladigan nafislik bilan ajralib turadigan suratlarni fransuz Fransua Bushe (1703-70) chizgan. U rokoko uslubida ya'ni hayotni real aks ettirishdagi uzoqlashib, erotika lavhalariga ahamiyat bergan. «Hissiy rohat» - Bushe idealidir, uning tasviriy san'atini ruhi. Lekin shunga qaramasdan nafislik, jozibadorlikda bu san'at yuksak cho'qqisiga ko'tarildi («Etyud», «Atir gulli qiz», «Diananing cho'milishi») u ko'pincha xotin-qizlarni tasvirlar edi, lekin bu uning kamchiligi emas, balki kuchli tomoni edi. Aristokratlarga chiroyli, go'zal xotin-qizlar tasviri yoqsa

ham, lekin bu yo'nalishini dushmanlari ham ko'p edi. Shuning uchun ruxoniylarga yoqqadigan ahloqiy, ma'naviy jihatdan mos keladigan suratlar paydo bo'ladi. San'atni «axloqiy» qilishda fransuz musavviri Jan Batist Gryoz (1725-1805) katta hissa qo'shdi («Singan ko'za», «Ayol boshining etyudi», «Yosh yigitni portreti»).

Davr talabiga javob beradigan yana bir fransuz musavvir Sharden (1699-1779) edi. Uni Didro buyuk kolorist deb atagan. Natyurmort, portret yoki mayishiy sahnalar uning asarlarida o'zining tabiiyligi va ranglarni ustakorlik bilan berilishi bilan ajralib turadi («Natyurmort», «Kir yuvuvchi», «Guvernant ayol»). Jiddiy ijtimoiy-siyosiy mavzularga oid rasmlarni yaratishda fransuz rassomi Jak Lui David (1748-1825) hissa qo'shgan. U o'zining asarlarida oddiy kishilar va revolyusiya mavzusini olib kirdi. («Gorasiylar qasami», «Kukat sotuvchi», «Maratning o'limi», «Sabiyankalar»). Fransuz musavvir Engr (1780-1867) o'zining portret sohasidagi asarlari bilan mashhur. Undan tashqari u kompozisiya ustosi edi. Uning asarlari haqqoniyligi, o'tkir xarakterligi bilan ajratilib turadi («Gomer Apofeozi», «Stamati oilasi»). Fransuz rassomi Ejen Delakgua (1749-1863) tasviriy san'atda romantizmning taniqli vakili edi. Uning asarlarida erksevarlik, faol kurash ruhi seziladi. («Xios orolidagi qirg'in», «Xalqni etakluvchi Ozodlik», Dante va Vergiliy», «Gamlet»).

Realizm tomon burilishi, milliy ozodlik kurashi qahramonligini tasvirlash buyuk ispan rassomi Fransisko Goyya (1746-1828) ijodi uchun xarakterlidir. Uning asarlarida oddiy kishilarning jismoniy va ma'naviy go'zalligi aks ettirilgan («Qo'zg'olonchilarni otish», «Urish asoratlari», «Ular yovvoyi hayvonlarga aylandilar», «Isabelya de Porsel portreti») Onome Dole (1808-1879), Gyustav Kurbe (1819-1877), Fransua Mille (1814-1875) kabi fransuz rassomlari demokratik, realistik san'at bayrog'ini ko'tardilar. 19 asrning so'nggi 30-40 yillari bilan 20 asr boshida san'atda yangi oqim – impressionizm – (bir lahzali taassurot) paydo bo'ldi. Bu oqim namoyondalari real borliqni juda tabiiy, to'gridan-to'g'ri, jonli va o'zgaruvchan qilib ifodalashga, o'zlarining bir lahzalik taassurotlarini berishga intildilar. 1870-1880 yillarda impressionistlar, ayniqsa fransuzlar – Eduard Mane (1832-1883), Klod Mone (1840-1926), Ogyust Renuar (1841-1919), E.Dega (1834-1917), K.Pissaro (1830-1903) ko'pgina portretlar, natyurmortlar, peyzajlarida turli-tuman ranglar, soya ifodasi yordamida hayotni chaplamay, oniy va tasodifiydek tuyuluvchi xarakteratlar va holatlarni tasvirladilar. Ular san'atiga uzuq – yuluq, muvozanatsiz ko'rinuvchi kompozitsiyalar, g'alati nuqtai nazarlar, rakurslar, figuralar xos. Ularni davomchilari postimpressionistlar edi: Pal Sezann (1839-1906), Vinsent Van Gog (1853-1890), Gogen. Haykaltaroshlikda impressionizm fransiyalik O.Roden (1840-1917), italiyalik M.Rosso (1858-1928) ijodida o'z ifodasini topdi. Musiqada ham impressionizm nozik kayfiyatlar, hissiyotlar, psixik holatlar, manzaralar tavsifiga qiziqish kuchaydi. Bu sohada yirik namoyondalar Klod Debyussi (1862-1918), qisman Moris Ravel(1875-1917), Pol Dyuka (1865-1935) edilar.

Sanoat o'zgarishining natijalari san'atning barcha turlariga, shu jumladan me'morchilikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Me'morchilik uslublari haqida gapirganda, ularga avvaliga dvoryan monarxiyalar hukmronligi, so'ngra esa burjuaziyaning kuchayib borayotgan ta'siri va uning didi ta'siri ko'rsatdi. XVII asr – XVIII asrning birinchi yarmida me'morchilikda dvoryanlar klassisizmi va barokko uslubi hukmronlik qildi.

Klassisizm – antik merosga norma va ideal namuna deb qarashdan iborat uslub va yo'nalish. Arxitekturada shakllarning aniqligi va geometrizmi, planlashtirishning mantiqiyligi; devorlarning orderlari bilan uyg'unlashtirilganligi bilan, bino bezaklarining sipoligida namoyon bo'ldi. Bu uslubda Versaldagi kichik Trianon saroyi (me'mor J.A. Gabriel), Katta saroy (me'mor Arduen – Mansar), Parijda invalidlar ibodatxonasi (Ar duen Mansar), Londondagi Avliyo Pavel sobori (K.Ren). Barokko (it. – g'alati) «hashamatli uslub» ga intilgan va arxitekturada ko'p egri-bugri gumbazlari va karnizlari, ortiqcha hashamlari, tokcha va bo'rtmalari, haykal bezaklari bilan ajralib turadi. Bu uslubda Rimdagi Avliyo Pyotr sobori, San – Karlo alle Kuarto Fontane cherkovi (me'mor Borromini) qurilgan, Rossiyada – Qishki saroy – Peterburgda. Undan tashqari yangi tipdagi inshootlar – vokzallar, temir ko'priklar, birjalar, banklar, magazinlar, teatrlar, uy-joy binolari paydo bo'ldi.

3. Eng yangi davr madaniyati (XX asr) rivojlanishiga fan-texnika revolyusiyasi, katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davr madaniyatining o'ziga hos xususiyatlari: demokratik, milliy –ozodlik, urishga qarshi, insoniy qadr-qimmatni saqlash, insonning ma'naviy rivojlanishi, YEr kurrasida ekologik muvozanatni saqlash yo'nalishlarni kuchayishi. Eng yangi davr fani rivoji haqida quyidagi faktlar dalil buloladi:

odamzodning hozirgi kunda 90% bilimi ohirgi 50 yil ichida egallangan; dunyoda yashagan barcha olimlar sonidan 80-90 % hozirgi kunda yashaydi.

Hozirgi fanni asosiy hususiyati, uning ishlab chiqarish kuchiga aylanishi va ishlab chiqarish bilan bevosita qo'shilishi. Fan va texnikada tub o'zgarishlar XX asr o'rtalariga kelib fan-texnika revolyusiyasiga asos bo'ldi. Bu ixtiro va kashfiyotlarning, yangi texnologiyaning tobora jadallashayotgan oqimi. Fan texnika revolyusiyasining shart-sharoitlari XIX-XX asrlarda chegarasidagi buyuk kashfiyotlar ortida yaratilgan. Bu elektromagnit to'lqinlari fizikasining amalda ishlab chiqilishi 20 yillarda televideniyaning, atom yadrosini parchalash imkoniyatining, 30-yillarda radiolokasiyaning, 40-yillarida radiolokasiyaning, yadro energiyasini olish imkoniyatining, elektron hsoblash mashinalarning yaratilishi (EHM), 50 –yillarda kvant elektronikasining va lazerni ishlatishning kashf qilinishi. Bu faqatgina fizika sohasida bo'lgan kashfiyotlar. Boshqa fanlarda ham katta yutuqlarga erishilgan edi.

Fan texnika revolyusiyasining rivojlanishi ishlab chiqarishda avtomatlashtirish, kompleks mexanizasiyalashtirish, qishloq xo'jalikni industriyalashtirish, kosmik tekshirish ishlarini olib borishni, fanlarni o'zaro aloqasini yaqinlashtirish kabi vazifalarni echishni taqozo etadi. Lekin Fan texnika revolyusiyasi oliy maqsadi odamga, insoniyat manfaatlariga hizmat qilish va shu bilan birga u tabiiy muhitni buzish emas, balki uni saqlash, tiklash va butun insoniyatni yo'qqa chiqaradigan qurolni yo'q qilishga qaratilishi kerak.

Hozirgi kunda fan xalqlararo siyosatni bir omili bo'lib qoldi. Shuning uchun uning ko'chini tinchlik va xavsizlik o'rnatishga qaratish kerak. XX asr tafakkurida demokratik, progressiv yo'nalishlar ko'chayish yuz berdi. Bu yo'nalishda yozuvchilar, boshqa san'at arboblari katta hissa kushayaptilar. Rassomlar va yozuvchilarning eng yaxshi asarlari tinchlik va demokratiyaning yuksak ideallarini tarbiyalashga yordam bermoqda, burch va ma'suliyat hissini tarbiyalamoqda, shaxsni qayg'udosh bo'lishga, insoniyat taqdiri uchun tashvishlanishiga o'rgatmoqda. Progressiv kayfiyatlar g'arb mamlakatlaridagi ijodiy ziyolilarning keng qatlamlarini qamrab oldi.

Adabiyotda ikkita katta yo'nalish: realizm va modernizm (eng yangi, zamonaviy – fr . moderne) yaqqol rivojlandi. Realizm yozuvchilari: Fransiyada Anri Barbyus, A.Frans, Lui Aragon, Pol Elyuar, Jak Prever, Elza Triole, Rober Merl, Moris Dryuan, Erve Bazen, Jan Anua; Italiyada – Elio Vittorini, Vasko Pratolini, Karlo Kassolo, Alberto Moravia; Germaniyada – Genrix Mann, Genrix Byoll, Remark; Angliyada – Gerbert Uells, R.Oldington, Djeyms Oldridj, Grem Grin, Charlz Snou, Ayris Merdok; Shvesiyada – Astrid Lindgren; AQSh da – Ernest Xeminguey, Djon Steynbek, Uilyam Folkner, Eduard Olbi, Artur Miller.

Detektiv janri ham adabiyotda keng tarqaldi. Bu janrda G.Chersterton, A. Kristi, J. Simenon, D.Xemmet kabi yozuvchilarning asarlari mashhurdir. Modernizm yo'nalishi adabiyotda va san'atda o'zining g'oyat to'la-to'kis ifodasini topdi. Uning oqimlari hilma-hil. Biri – ekzistensializm (lot-existencia -mavjudlik): insonni erkinlikka erishishi va adolatsizlikka qarshi chiqib o'zini individual mohiyatiga erishishi lozim, lekin erkinlik sub'ektiv talqin qilinadi va shahsni jamiyatga qarama-qarshi qilib qo'yiladi.

Ikkinchisi – syurrealizmdir: (fr. – surrtalime - o'ta realizm, realizmdan ustun) Bu oqim tarafdorlari haqiqiy yoki «oliy» reallik bizni o'rab turgan real dunyo bilan mos kelmaydi deyishadi. Fayrishuuriylik sohasi (instinktlar, tush ko'rish, gallyusinasiya) ni san'at manbai deb qaraydilar, mantiqiy vositalardan voz kechib, sub'ektiv assosiasiyalarga tayanish kerak deb hisoblaydilar. XX asr san'atida ya'ni bir yo'nalish – abstraksionizm. U real narsalar va hodisalarni aks ettirilishni rad qiladi. Betartiblik, aql- idrok tomonidan kontrol qilib turilmaydigan «g'ayrishuuriy», ba'zilar rangli dog'larning uyg'unlashuvi bilan, boshqalarda geometrik figuralar bilan, uchinchi birlarida esa betartib rang-barang buyoqlar bilan ifodalanadi. (ispan rassomi S.Dali, V Kandinskiy).

Hozirgi eng moda bo'lgan oqim – pop-art (popular art (ing) – ommabop san'at) bu oqim adabiyot, teatr, kino, muzika, turmushda, fikr yuritishda o'z ta'sirini ko'rsatib, o'rtachilikni, ko'ngil ochish uchun oddiylikni qo'llagan edi. Masalan rassomlar gazeta parchalaridan, belkuraklar, avtomobil g'ildiraklari va hokazalardan montajlar yaratishadi. Pop – art oqimi komikslarni, fotoromanlarni, «antiteatrn» ya'ni «bema'nilik teatri» vujudga keltiradi. Masalan teatr va muzikada uning bir turi –

«Xeppeninglar» (inglischa to hepptn kelib chiqmoq); bunda akterlar sahnaga ssenariysiz chiqib improvizatsiya (tayyorgarliksiz bajarish) qiladilar, ba'zida ulardan tashqari bu tomoshalarda tomoshabinlar ham ishtirok etadilar. Lekin bu «ommaviy madaniyatda» shafqatsizlikni, axloqsizlikni, meshchanlikni, siyosatga aralashmaslikni, boylikka va muvaffaqiyatga sig'inishni ko'klarga ko'tarish yo'nalishi bor.

Shu bilan birga tinchlik va sosial taraqqiyot, oddiy kishilar hayotini kuylashga qaratilgan. Realistik adabiyot va san'at yaratilmoqda. Shu tariqa rassomlar ichida Fransiyalik – Pablo Pikasso (1881-1973) («Gernika»; «Koreyadagi yovuzlik», «Urush»), Anri Matiss (1869-1954) («Qizil baliqlar», «Ayol portreti» - surat masteri), Fernan Leje (1881-1955) («Qush bilan ikki ayol», «Quruvchilar» - mehnat shodligi ifodalaydi), Jan Effel («Dunyoni yaratilishi» seriyasi; yaxshi karikaturachi); Italiyalik – Renato Guttuzo (1912-1986, «Oltin gugurt konining yaralangan shaxtyori», «Ulik qahramon»), Daniyalik – karikaturachi Xerluf Bidstrup. Dunyo progressiv san'atida meksikalik rassomlar X.K. Orosko, D.A. Sikeyros va Diego Rivero (1886-1965 «Qishloq maktabi») ko'zga ko'rinarli o'rin oladilar.

XX asr madaniyatining yirik yutuqlari kino va televideniyaning rivojlanishi. Ularsiz hozirgi hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Kinoda ham har xil yo'nalishlar bor. Insonparvarlik va demokratik mazmunda Italiyada kinorejissor F.Fellini, V. De Sika, D. Damiani, M. Antonioni, Fransiyada R.Kler, J.L. Godar, AQSh da – Ch.Chaplin, S.Kramer, S.Pollak, A. Penn, F.Koppolla ko'pgina filmlar yaratishgan. Lekin ommaviy kommersiya kinomahsulotlar – detektiv, jangari, dahshat filmlar, trillerlar, superqahramonlar haqida, seriallar, melodramalar, pornografiya kabi mahsulotlar bema'ni ko'ngil ochishga tayyorlangan, tamoshobinxonligi bilan ajralib turadi.

Muzikada ham XX asr ko'pgina yo'nalishlarga olib keldi. Jiddiy muzikadan tashqari (B.Bartok, O.Onegger, F. Pulenk, B.Britten, I.Stravinskiy)yoshlar ichida Hard rock va Heavy metal, stillari mavjud. Rok, djaz ko'pgina bir-biriga o'xshamagan ansambllarni vujudga keltirdi: «Bitlz», «Rolling stounz», «Karz», «Led Zepelin», «Abba», K. Santana orkestri, «Rikki poveri», «Modern toking» va boshqalar. Ko'pgina estrada muzikachilar va ijrochilar san'atda katta iz qoldirdilar: D. Lennon, E.Piaf, Sh.Aznavur, D.Dassen, E.Presli, E.Fitudjerald, D.Russos, A.Chelentano va boshqalar. XX asr ohirlari XXI asr boshlarida madaniyatning insoniyat hayotidagi salm og'i beqiyos darajada o'sib bormoqda va yangicha siyosiy fiklashni shakllantirishda katta o'rin tutmoqda. Shuning uchun madaniyatni saqlash va insonparvarlik ruhida rivojlantirish – umuminsoniy vazifalardan biri.

Takrorlash uchun savollar:

1. Uyg'onish davri taraqqiyotining ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlari?
2. Gumanizm va uning ijtimoiy ildizlari?
3. Kitob bosishni kashf etilishi to'g'risida gapirib bering.
4. Uyg'onish davri adabiyoti namoyondalari xaqida gapirib bering
5. Uyg'onish davri tasviriy san'ati xaqida gapirib bering.
6. YEropada ma'rifatchilik g'oyalarining mohiyati nimada?
7. Germaniya va Fransuz ma'rifatchilik harakatlari.
8. Tasviriy san'atda yangi yo'nalishlar haqida gapirib bering.
9. Ommaviy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
10. XX asr yirik kashfiyotlari haqida gapirib bering.

4 -Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davr va ilk o'rta asrlar (V-VIII asrlar) madaniyati.

Reja:

1. Markaziy Osiyo madaniyati shakllanishining tabiiy-iqlimiy va etnik shart-sharoitlari. Mil. avv. II yillikda madaniy jarayonlarni o'z davriga xos rivojlanishi.
2. Ilk shahar madaniyatining vujudga kelishi. Oltintepa, Sopollitepa, Yerqo'rg'on.
3. «Avesto» - Zardushtiylikning muqaddas kitobi.
4. Qadimgi Xorazm madaniyati. Me'morchilik va tasviriy san'at, xalq og'zaki ijodi va yozuvning paydo bo'lishi.

5. Turk hoqonligi davri madaniyati: yodnomalar, bitiktoshlar, tasviriy san'at, qo'shiqchilik-musiqa san'ati, motam marosimlari, yozuv madaniyati.
6. Arab istilosi davrida madaniy kayot. Islom, «Qur'on», «Hadislar» va madaniyat.

Adabiyotlar:

1,13,14,15,23,24

Tayanch tushunchalar:

Zardushtiylik, «Avesto», tosh qoyadagi rasmlar, Navruz bayrami, xalq og'zaki ijodi, kushon davri madaniyati, Turk, Enasoy urxun, xorazm va sug'd yozuvlari, islom, Quroni Karim, islomlashtirish va arablashtirish siyosati, me'morchilik.

1. Har bir xalq u kattami –kichikmi o'z tarixiga, demak, o'z milliy madaniyatiga ega. Jahon madaniyati har bir xalq madaniyatining eng etuk, eng yuksak namunalaridan tashkil topadi, u har bir milliy madaniyatdagi umuminsoniy tomonlarni o'zida mantiqan birlashtiradi. Markaziy Osiyo xalqlari boshqa jahon xalqlari singari boy madaniyatga ega bo'lib, bu madaniyat asrlar davomida shakllanib rivojlanib keliyapti.

Xududiy jihatdan O'rta Osiyo hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iziston davlatlarini hamda Qozog'istonning janubiy qismini o'z ichiga qamrab oldi.

O'zbekiston xalqlarining madaniyati boy va rang-barang bo'lib, uning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bu madaniyatning bizgacha etib kelgan qoldiqlari orqali uning mazmuni va jamiyat rivoji uchun ahamiyati haqida hulosa qilish mumkin. Arxeologik tadqiqodlarning guvohlik berishicha O'rta Osiyoda qadimda juda ko'p xilma-xil madaniyat o'choqlari tarkib topib, rivojlangan. Bu hududda qadimdan So'g'd, Xorazm, Marg'iyona, Parfiya, Baqtriya singari davlatlar mavjud bo'lgan. Ular o'zaro hamda, Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Kavkaz, Sharqiy YEvropa davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalarni olib borganlar. Bu aloqalarga qulay savdo yo'li – «Buyuk ipak yo'li» - da joylashganliklari imkon bergan. «Buyuk Ipak yo'li» madaniy aloqalarni rivojlanishga ham imkon bergan. Bizgacha etib kelgan tasviriy san'at, naqqoshlik, haykaltaroshlik, me'morchilik yodgorliklari, qadimiy yozma manba «Avesto» Markaziy Osiyo xalqlari qadimiy davrda ham madaniy ijodda ma'lum yutuqlarga erishganliklaridan dalolat beradi.

Qadimiy madaniyatlarning tarkib topishi va rivojlanishi tabiiy muhit va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonunlari bilan bevosita bog'liq edi.

Ma'lumki, inson qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Lekin mehnat qurollarini takomillashiga va yashash tarziga iqlimning ta'siri katta bo'lgan. Ilk poleolit davrida (400-100 ming yil avval) issiq iqlim inson tabiat in'on-ehsonlari hisobiga kun kechirgan. Shu tariqa uning mehnat qurollari ham primitiv bo'lgan: qo'pol ishlangan toshlar, bir tomoni qallin dastalar. (Sel – Ungur, Qoratov 1, O'narcha, Lohutiy 1 manzillari). O'rta paleolit davri boshlarida (100-40 ming yil avval) iqlimning sovuqlashi mehnat qurollarini takomillashtirishni taqozo qildi. Formasiz tosh qurollar o'rniga o'tkir qiralli toshlar, tishli qurollar, qirg'ichlar, keskichlar, begizlar paydo bo'ladi. (Teshik Tosh, Qutur Buloq, Og'zi kichik, Qapchig'oy, Obirahmat Qutur buloq). Bu davrda qurollarga dastalar ham qilingan. Undan tashqari Teshik – Tosh g'orida topilgan neandertal bolani skeleti va uning ko'milishi o'sha davrda ibtidoiy odamlarda ibtidoiy e'tiqodlarni shakllanishi haqida dalolat beradi. (yon qilib yotqizilishi, ko'pgina buyumlarni mavjudligi-umumiy soni 3000). So'nggi paleolit davrida (40-14 ming yil avval- matriarxat) qurollarning ishlanishi nafislashgan edi, hattoki ingichka plastinalar qilingan. Odam olovni topishni o'rgandi. O'ylar ham uzoq muddatga chidaydigan qilib qo'rilgan: ertulalar, yarim ertulalar, er usti uylar. (Samarqand manzilgohi, Xojago'r, Shug'nov, Qo'l buloq yuqori qatlamlari, Qorakamar).

So'nggi paleolit davridan boshlab, odamlar atrofidagi hodisalarni anglashga intiladilar, lekin ularning tabiat sirlari oldida aqliy jihatdan ojizligi natijasida turli diniyay e'tiqodlar vujudga keladi. Jumladan, totemistik, ya'ni ayrim hayvonlarning ilohiy kuchiga ishonish; animistik ya'ni jon va va ruh

obrazidagi ilohiy kuchlarga ishonish; politeistik, ya'ni quyosh, er, suv, olov va hokazolarga sig'inish; sehrgarlik, ya'ni insonning so'z va harakat orqali g'ayritabiiy qobiliyatlarga ega bo'lib tabiat kuchlariga ta'sir ko'rsata olish qudratiga ishonish.

Mezolit va ilk neolit davrida tasviriy san'at paydo bo'ladi. Shubhasiz, tasviriy san'atning qadimgi yodgorliklari ibtidoiy odamning tevarak atrof haqidagi tasavvurini aniqlash imkonini beruvchi qimmatli tarihiy manbalar hisoblanadi. Markaziy Osiyoda qoyalarga o'yib yozilgan va ranglar bilan chizilgan suratlar topilgan. Yaxshi saqlangan suratlardan biri Zarao'tkamar g'oridagi qizil oxra bilan ishlangan tasvir. Unda ov manzarasi aks ettirilgan: yovvoyi ho'kizlar yugurib ketayapti, ularga itlar hujum qilmoqdalar, o'q-yoy tutgan ovchilar va qo'ng'iroqsimon liboslarda allaqanday sirli mavjudot ular tomon yugurib ketmoqdalar. Bu tasvir balki ibtidoiy odamlarning ov oldi hayvonlarning ruhlariga shafkat uyg'otish va ov muvaffaqiyatli o'tish uchun tasavvurlari bo'lsa kerak. Miloddan avval III ming yillikda O'rta Osiyoda misni ishlata boshlangan. Undan qurol-aslahalar, bezak buyumlari (sirg'a, munchoq, bilaguzuk) yasashgan.

Bronza asriga (Er. Av. III-I ming yillik) oid Sopollitepa madaniyati uchun g'ishtli muhtasham imoratsozlik hos bo'lib, ularning atrofi o'ziga hos mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, xonadonlar to'rtburchak shaklida rejalashtirilgan bo'lgan. Buni ibtidoiy shahar madaniyati deb hisoblasa ham bo'ladi. Bu erda kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, temirchilik, tosh va yog'ochdan ishlov berilgan buyumlar topilgan.

Ayniqsa, naqshsiz va bir xil rangda geometrik naqsh berilgan sopol idishlar ko'p. So'nggi bronza davriga Saymali (Farg'ona vodiysi) tosh darasidagi qoyatosh suratlari to'g'ri keladi. Ularning aksarida ulovli hayvonlar; ho'kiz bilan qo'shilgan echki, hukiz bilan qo'shilgan ot, bir juft qo'shilgan hayvon tortib ketayotgan arava, chana; aravada kelin-kuyov ketayotgani tasvirlangan. Qoratov qoyatosh suratlari ham yovvoyi ho'kizlarga, tog' echkilarga, yovvoi cho'chqa, barslarga qilingan ovni aks ettiradi. Bu erda hattoki odam bilan hayvon o'rtasidagi kurash sahnasi bor. Ular cho'qish uslubida ishlangan.

Miloddan ilgari I ming yilliklar boshida Markaziy Osiyoda temir tarqalishi, o'troq dehqonchilikning rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat emirila borib, quldorlik tuzumining vujudga kelishi, So'g'd, Xorazm, Baktriya kabi davlatlarning paydo bo'la boshlashi, shuningdek shu davlatlar doirasida baqtriya, sug'diy va xorazm xalqlari yuzaga kelishi, yangi qarashlarning shakllana borishi munosabati bilan yangi davrga xos turmush tarzini ifodalovchi madaniyat ham yuzaga keldi.

So'nggi bronza va ilk temir asri davrlarida o'tga topinish keng tarqalgan. Bu haqda o'sha davrga oid arxeologik yodgorliklarni qazish vaqtida topilgan ibodatxona va ulardagi mehrob qoldiqlari dalolat beradi (Surxandaryodan Jarqo'ton otashparastlik ibodatxonasi, Tog'alak 21 va Sarazm topilmalari).

Quldorlikning vujudga kelishi bilan Maroqand (Samarqand), Kiropol (O'ratepa) kabi yirik shaharlar, qal'alar, qo'rg'on va istehkomlar qad ko'targan. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan ajdodlarimizning muqaddas kitobi «Avesto» da ularni «Var» deb atalgan.

O'rta Osiyo xalqlari qadimda ajoyib me'morchilik obidalarini bunyod etdilar. Qadimdan qolgan katta yodgorliklar – Qo'ykirilgan qal'a, Tuproqqal'a, Ayritom, Yonbosh qal'a, Dalvarzintepa, Varaxsha va boshqa tarixiy joylardan topilgan ajoyib saroylar, qadimiy san'at namunalari: me'morchilik, tasviriy san'at, o'yma naqshlar va haykaltaroshlik asarlari madaniyatni yuksak darajasi haqida dalolat beradi.

Milodiydan avval 6 asrda Eron ahmoniylari Markaziy Osiyoning ko'pchilik erlarida o'z hokimiyatini o'rnatib (522-329) yirik imperiya tashkil qildi. Shu Bois Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi «Avesto» Eron va Shimoliy Hindistonda keng tarqaldi.

«Avesto» faqatgina muqaddas kitob bo'lib qolmasdan, balki Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniy merosining asl durdonasi hisoblanadi, chunki u nafaqat diniy ta'limotga oid, balki O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarixi, tili, yozuvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyatiga oid buyuk manba hisoblanadi.

Zardushtiylik vujudga kelishi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, olimlar orasida uning paydo bo'lish joyi to'g'risida ikki nazariya borligini takidlash lozim: 1- «g'arb» nazariyasi tarafdorlari

zardushtiylik Midiyadan tarqala boshlagan; 2- «sharqiy» nazariya tarafdorlari esa bu dinning paydo bo'lishi O'rta Osiyo ya'ni xorazm, Baktriya, Sug'diyona va Parkana deb hisoblashadi.

Zardushtiylik ta'limoti bo'yicha, dunyo asosini ikki qarama-qarshi narsa – yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ilik, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurash tashkil qilgan. Shuning uchun dunyodagi barcha ijobiy hodisalarni yaxshilik xudosi – Axuramazda va hamma salbiy narsalarni yomonlik xudosi – Axriman irodasiga bog'liq deb hisoblangan. Zardushtiylar yaxshilik xudosi yaxshilik qilishni, yomonlik xudosi yomonlik qilmasligini iltimos qilib sig'inishgan. «Avesto» asarida aka-ukalar, ya'ni Axuramazda va Axriman o'zaro muttasil ko'rashib to'radilar, shuning uchun goh yaxshi, goh yomon kuchlar g'olib kelib o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Hattoki Navruzning kelib chiqishi to'g'risida zardushtiylar davridagi ba'zi bir tushunchalarga qaraganda, yaxshilik xudosi Axuramazda – bahor – yozda, yomonlik xudosi Axriman – kuzda va qishda hukmronlik qilar emish. Bahorning birinchi kunini yaxshilik xudosi yomonlik xudosi ustidan g'olib chiqqan muqaddas sana deb uni bayram qilishgan. Bu sana ayni «Navruz» kuniga to'g'ri keladi.

Yunon tarixchi olimi Strabon massagetlar haqida «ularning xudosi quyosh bo'lib, otlarni so'yib qurbonlik qilar edilar», deb yozadi. Bu bejiz emas, chunki shaklar va massaget qabilalari orasida o'z marosimlarida koinotning 4 unsuri – quyosh (olov), suv, er, havoni eng muqaddas narsalari deb tan olishgan. Massagetlar mamlakati tarkibiga kirgan xorazmliliklar yurti nomi aslida Xvayrezm – «xvar» - quyosh va «zm» - zamin, er ma'nolarini ifoda etgan.

Shuningdek, zardushtiylar yaxshilik xudosi Axuramazdaning yordamchilari – Mitra (yigit qiyofasida quyosh va yorug'lik tangrisi), Ardivisura – Anaxita (go'zal qiz siymosidagi unumdorlik, xosildorlik, farovonlik tangrisi), Xumo (go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va boylik tangrisi, u oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan emish, lekin o'zi ko'rinmaydi, ammo soyasi kimga tushsa baxtli hayot kechiradi), Xubbi (mard yigit qiyofasidagi suv tangrisi), Mirrix (yosh jangchi qiyofasidagi urush va g'alaba tangrisi) kabilarga ham itoat qilishgan.

Olov quyoshning erdagi shaklli sifatida muqaddas hisoblangan va har bir shahar va qishloqda muqaddas olov saqlanadigan alohida xilvat joy bo'lgan (Xorazmdagi Jonbosqal'a). Xorazmda topilgan otashxona va boshqa ibodatxonalar, Abu Rayxon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ta'riflagan otashg'ohlar bu to'g'risida tasavvur beradi. Jonbos qal'a yodgorliklariga qaraganda o'sha davrda inshootlar to'g'ri qirrali qilib qurilgan. Ya'ni dunyoning to'rt tarafiga qarab turgan hamda ustidagi gumbazi quyoshni aks ettirgan.

O'lik narsa harom hisoblangan, chunki Axuramazda faqat tirik mavjudotni yaratgan. Otashparastlik marosimlari ichida dafn marosimi ayniqsa diqqatga sazovordir. Marhumning jasadi biron bir tepalik ustida tiklangan maxsus chordevor ichiga qush va hayvonlar eb ketishi uchun tashlab qo'yilgan, keyin uning suyaklari ossuariy ostadonlar deb ataluvchi mahsus idishlarga solinib, saqlab qo'yilgan. Buning ma'nosi hayot- yaxshilik tufayli bandalarga in'om etilgan oliy mukofot, o'lim-yomonlik manbai. Shuning uchun ham murdani olovga kuydirish, erga dafn etish yoki suvga cho'ktirish mumkin emas edi. «Avesto» kitobi tarkibida yashtlar ya'ni Axuramazda, YEr, Quyosh, Oy, Mitra ilohiga atalgan gimnlar, qurbonlik marosimi qo'shiqlari va diniy marosimlarga xos rasm- rusumlar bayoni bor. «Avesto» ning yaratilishi va shakllanishi, uning afsonalari, gimnlari uzoq yillar mobaynida O'rta Osiyo va Eron xalqlari tomonidan og'zaki aytib yuritilgan va qayta-qayta ishlangan ijod mahsuli. «Avesto» so'g'd va baqtriya tiliga yaqin, yunon yozuvi bilan Parfiya yozuvining isloh qilingan shaklida yozilgan va u tarixga «Avesto» yozuvi deb ataladi. Bu yozuv mil. av. V asrda vujuduga kelgan degan taxmin bor.

O'ndan tashqari Rodoslik YEvtidemning (mil. av. IV asr) qayd etishicha, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ervoniylik ta'limoti ham tarqalgan. Ervon ayrim manbalarga ko'ra vaqt xudosi va Axuramazda bilan Axrimanni otasi hisoblangan. O'rta Osiyoda yanada qadimiy aqidalar ham mavjud bo'lgan, ularning bir formasi shamanlik. Gerodot massagetlar to'g'risida, ular ayrim daraxtlarning mevalarini terib, gulxan atrofida davra qurib o'tirib, olovga mevalarni tashlab, tutayotgan giyohning hidiga sarg'ush bo'lib, so'ngra esa raqsga to'shib, qo'shiq ayganlari haqida ma'lumot qoldirgan.

Xorazm va Sug'diyona xududida, shuningdek, avval o'lib, keyin qayta tirilgan qaxramon Siyovush siymosiga sajda qilish ham ko'chli bo'lgan. O'sha davrda O'rta Osiyo xalqlarining qiyofasi,

tili va yozuvi haqida ma'lumotlar kam. Ahmoniylar davrining yodgorligi Naqsh Rostam dasidan topilgan shoh Doro tobutidagi bezakli tasvirlar, Doro va Kserks tomonidan Behishtun tog'ida toshga o'ydirilgan suratlar va yozuvlar orqali biz ahmoniylarga qaram bo'lgan turli xalq vakillarining qiyofasini tasavvur eta olamiz.

Sug'diylar va baktiryaliklarning kiyishi deyarli bir hil – kamarli uzun ko'ylak, boshlarida do'ppini eslatadigan qalpoqcha; sug'diylarda uzun va tor ishton, baktiryaliklarda chalvor, oyoqlarida uchi qayrilgan uzun qo'njli etik, xorazmliklar va saklar kiyimi esa: yoqasiz uzun chakmon (etagi yoysimon qilinib mo'yna bilan bezatilgan) bilan tor ishtondan, boshlarida goh quloqchiga o'xshash bog'ishli qalpoq, goh chuqqili qalpoqlardan iborat. Barchalarini soqolli bor.

Xorazm, So'g'd va Baqtriyada turkiy tillar bir necha lahjalardan iborat bo'lib ular zaminida turkiy xalqlar tillari vujudga kelgan. Undan tashqari bu erda eron tillarining bir necha lahjalari ham keyinchalik fors-tojik tilini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Eron va turk tillarida so'zlashuvchi xalqlarning bir-biri bilan bog'liqligi, ularning tillari ham bir-biriga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yozuviga kelganda O'rta Osiyoda o'sha davrda oromiy yozuvi keng tarqalgan. Oromiy mixxat yozuvi o'z navbatida finikiy alifbosi asosida yaratilgan bo'lib, u 22 ta harfdan iborat edi. Bu yozuvda ma'muriy hujjatlarda qo'llanilib kelgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi negizida «Avesto», Xorazm, So'g'd, Kushon, O'rxun – enisey, uyg'ur kabi bir qator mahalliy yozuvlar vujudga keldi. Xorazm yozuvi oromiy alifbosi asosida tashkil topgan. Xorazm yozuvining izlari qolgan qadim yodgorliklari: tangalar, muhrlar, hujjatlar, san'at asarlari va x., uning mil. av. III asrga taaluqligini isbotlandi. (Xorazm – Qo'yqirilgan qal'a). So'g'd yozuvi turkiy tillarga mansub bo'lib (ko'pgina hujjatlar, tangalar, so'g'd yilnomasi) mil. avv. II asrda keng tarqalgan (Mug' qal'a).

Miloddan oldingi VI-I asrlarga oid boshqa madaniy yodgorliklar: o'sha davr turmush lavhalarini aks ettiruvchi ossuariylardagi o'yma naqshlar; er va unumdorlik ma'budasi Anaxit tasviri; baland poshna etik, cho'qqi qalpoq, chakmon kiygan, bo'yniga qimmatbaho ma'danlardan bezaklar osib olgan haykalchalar (Afrosiyob topilmalari), pichoq, xanjar, sopol buyumlari, tangalar, qurol – aslaxalar. Lekin ular sanoqli. Masallan Farg'ona kanali qurilishida uch oyoqli, to'rt quloqli bronza qozon yonlariga to'rtta tog' echkisining rasmini, Yettisuv vodiysidan to'rt oyoqli va chetlarida qanotli sher tasviri tushirilgan to'rt quloqli katta qozon va oyoqlari baland qilib ishlangan kichik qozon topilgan.

Ayritomdan topilgan yodgorlikda hozirgi rubob, do'mbra, arfa kabi musiqa asboblari monand cholg'u chalib o'tirgan uch ayol rasmi, Tuproqqal'adagi arfa chalib turgan qiz surati qadimda O'rta Osiyoda musiqa san'ati taraqqiy etilganligiga guvohlik beradi. Binokorlikda, asosan, yog'och, loy (paxsa, guvala, xom g'isht) dan foydalanilgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a, Buxoro yaqinidagi Bolalik tepa, Farg'ona vodiysidagi Quva qal'a binolari monumental san'at asarlari (devoriy rasm, yirik haykal va releflar) bilan serhasham qilingan. Soqchilar to'radigan minoralar baland (30 m ga yaqin), saroylar ikki qavatli, zallar baland (masalan, Varaxshada 6 m gacha) bo'lgan.

Iskandar Zulqarnayn Osiyoning bir qismini zabt etganidan keyin bu erlarda yunon madaniyati ta'sirida antik badiiy madaniyat vujudga keldi (mil. av. 3-1 asrlar. Lekin Iskandar Zulqarnayn yurishlari, xuddi O'rta Osiyoda bo'lganidek, Yunonistonning o'zida ham madaniy hayotga katta ahamiyat kasb etgan. Bu davlatlar tarixida birinchi marta ikki olam – yunon va sharq olami bir-biriga yanada yaqinroq bog'lanib, shu tariqa «Sharq ellinizmi» degan aralash madaniyat vujudga keldi. Keyinroq yunonliklarning o'zlari mahalliy xalqlarga qo'shib ketib, ularning madaniyati ham singdirishgan. Iskandar bosib olgan erlarda mustahkam joylashish uchun va keyinchalik boshqa erlarni zabt etish uchun So'g'd va Baqtriyada qullar quli bilan 12 shahar qo'rgan. Ulardan biri Aleksandriya Esxata ya'ni Chekka Aleksandriya deb atalgan. (Xadjent yonida). Bu shaharlar aholini ellinlashtirish siyosatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Iskandar mahalliy zodagonlarning 30 mingta bolalarini tortib olib, ularni bu erda grek yozuviga va makedoniyaliklarning harbiy san'atiga shaharda qolgan yaradorlardan o'qituvchilar tayinlab o'qitishni buyurdi. Iskandar barpo etgan asosiy shaharlar joylashgan Baqtriyaga yunon madaniyatining ta'siri ayniqsa kuchli bo'lgan. Qadimgi rum muarrixii Kursiy Rufning yozishicha, Iskandarning o'zi shunday degan ekan: «Ko'pgina Osiyo xalqlaridan hech ikkilanmay ibrat qilsa arzigulik fazilatlar bor edi: o'zingdan birovga bermasang birovdan o'zingga olmasang, davlatni boshqarish aslo mumkin emas».

Iskandar o'z saroyida muayyan mahalliy an'analarni joriy qiladi, mahalliy aholi vakillarini o'z lashkarlari safiga kiritadi. Plutarx ta'kidlaganidek, Iskandar mahalliy xalqning turmush tarziga tobora ko'nikishga hamda ularni makedoniyaliklarning urf-odatlarini bilan tanishtirishga harakat qilardi. Ayrim Ovrupo tarixchilari yunon-makedon zobitlarining madaniy ta'siriga katta baho beradilar. Lekin yunon madaniyati O'rta Osiyoga Iskandardan avvalroq, tinch yo'l bilan kirib borgan, ayniqsa buyuk ipak yo'lini ahamiyati bu jarayonda katta. Yunon madaniyatining ta'siri qanchalik darajada bo'lmasin o'sha davrda san'atning yangi turlari vujudga keldi, ayniqsa medal yasash san'ati yuksak darajaga ko'tarildi, kumush, sopol idishlarga yunon va mahalliy syujetlar aks ettirilgan bezaklar (relef) ishlandi. Savdogarlar. Hunarmandlar, musavvirlar, jangchilar va boshqa kasb-hunar sohiblari biri-birlari bilan yaqindan tanishib, hamkorlik jarayonida bir-birlariga ta'sirlarini o'tkazdilar.

2. Qushonlar davri O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari madaniyatlarining tarixida alohida o'rin egallaydi. Geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan va har xil an'analarga hamda tasavvurlarga ega bo'lgan qabilalarni birlashtirgan Kushon podsholigi davrida yaratilgan bu madaniyat hamma viloyatlar uchun yagona bo'lmagan. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi va rivojlandi. Bu madaniyat oldingi qadimgi davr madaniyatiga yakun yasab, keyingi asrlar madaniy taraqqiyotiga ham zamin bo'ldi. Kushon madaniyatiga oid Ayritom, Bozorqal'a, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Vos, Termiz, Xayrobotepa, Xalchayon, (O'zbekiston), Kayqubodshoh, Ko'hnaqal'a, Shahrinav, Munchoqtepa (Tojikiston), Bagram, Balx, Began, Surx-Kutal (Afg'oniston), Kosambi (Pokiston)da va boshqa o'nlab joylarga arxeologik qazishlar olib borildi. Bu madaniyat sharq, Ellin, hind va ko'chmanchi qabilalar an'analarni yig'indisi asosida vujudga kelgan edi. Balki shuning uchun ham qadimiy O'rta Osiyo madaniyatining gullab-yashnashi Kushon davriga to'g'ri keladi.

Har xil diniy e'tiqodlarning mavjudligi to'g'risida bizga kushon podsholarining tangalari dalolat beradi. Ularning orqa tomonida turli xudolar ta'svirlangan. Masalan, Kanishka va Xuvishka davrining tangalarida Mitra (Quyosh ma'budi) Mox (Oy ma'budi), Otash (Olov xudosi), Farr (Omad xudosi), va boshqalarni ta'svirlangani buni yaqqol isbotlaydi. Bu davrda aholining asosiy qismi otashparastlik diniga mansub bo'lgan. Lekin undan tashqari yunon ma'budlari (Zevs, Gelios, Selena va boshqalar), mahalliy qahramonlar (Siyovush), buddaviylik va moniylikka talpinish keng tarqalgan.

Kushonlar imperiyasi davrida O'rta Osiyoga Hindistondan buddaviylik dini kirib keldi. Kanishka davrida Buddha ta'svirlangan tangalar paydo bo'ldi. Bu din Hindistonda miloddan avvalgi 6-5 asrlarda vujudga kelgan: rivoyatlarga ko'ra, Siddhartha Gautama (Budda) asos solgan. Bu dinning asosida: barcha kishilar teng huquqli, barobar degan ta'limot yotadi. Buddaviylik dunyoqarashi «4 olijanob haqiqat» da qisqacha ifodalangan. Unda: 1) turmush azob uqibatlaridan iborat; 2) azob uqubatlarning sababi – kishilarning istaklari va nafslari; 3) azob uqubatdan qutilish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyish kerak; 4) azob uqubatlardan xalos bo'lish uchun Buddha kashf etgan aqidalarga amal qilish kerak deyiladi. Azob uqubatlardan xalos bulishning eng maqul yo'li rohiblik (monaxlik) jamiyatiga o'tish. Bu dunyoda ruhni (nirvana) uning moddiy qobig'idan ozod qilish uchun doimo kurash borar emish. Shuning uchun guyo ruh doimo qayta tug'ilar, odam, hayvon, parranda va boshqa narsalar shakliga kirib olar emish. Buddizm Kushonlar podsholigining mafkurasiga aylantirilgan bo'lsa-da, asosan bu din O'zbekistonning janubida kengroq tarqalgan.

Shunga qaramasdan O'zbekiston xududida o'tkazilgan bir qator arxeologik qazishmalar bu erda Kushon davrida buddaviylik madaniyatini izlarini ko'rsatadi. Millodimizning dastlabki asrlarida O'zbekiston xududining janubida buddaviylik tarqalishi bilan Buddha ibodatxonalari qurilgan. Buddha ibodatxonalari haykallar va devoriy rasmlar bilan bezatilgan. («Buyuk mo'jiza» gorelefi, tosh, 1-2 asrlar; «O'tirgan Buddha», haykali, 2-3 asrlar- ikkalasi ham Termiz muzeyida) 1936-38 yillarda eski Termizda o'tkazilgan arxeologik ekspedisiya natijasida shahardagi Qoratepa va Chingiztepalarda qadimgi g'ormonastirlar (vixara) kompleksning qoldig'i topildi. Bu vixaraning pastki yo'lagi devorlarida sodda naqshin bezaklar va devoriy rasmlar (yalang oyoq Buddha monaxining ta'sviri) saqlangan. Eski Termiz harobalarida Zurmala minorasi deb ataluvchi Buddha stupasining qoldig'i ham bor. Eski Termiz Kushon davrida yangi dinning – buddaviylikning – O'rta Osiyoda tarqalishining markazi bo'lgan deb hisoblanadi. Qoratepa va Fayoz tepa monastirlari, Ayrtom ibodatxonasi, Dalvarzintepa va Zartepada topilgan Buddha haykalining qoldiqlari bo'nga dalolat beradi. Masalan, 1933 yilda Termiz yaqinidagi Ayrtomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga sarg'ish-oq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Yaxshi kiyingan va

marjonlar taqqan ayollar dumbira, rubob, chang, nay kabi cholg'u asboblari chalmoqda. Bino ichida g'ishtdan ishlangan Buddha haykalining siniqlari topilgan. Arxeologlar qazib ochgan bir qator budda ibodatxonalari, aholining bir qismi buddaviylik diniga ishongani to'g'risida guvohlik beradi.

Kushon podsholigida moniylik degan yana bir din mavjud bo'lgan. Bu dinga Moniy ibn Fatak asos solgan. Bu din III asrga yaqin Sharqda paydo bo'lib, uning asosini ham qadimgi O'rta Osiyo va Eron xalqlari e'tiqod qo'yg'an zardushtiylik tashkil etardi. Bu dinda buddaviylik va xristianlik unsurlar bor edi. Moniy ta'limotiga ko'ra hali er va osmon bino bo'lmagan vaqtlarda eng oldin ikki narsa: Ziyo (yaxshilik) va Zulmat (yomonlik) mavjud bo'lgan. Moniylik borliqning muhim va o'zaro teng prinsiplari – yaxshilik bilan yomonlik, yorug'lik bilan qorong'ulik, ruhiy asos bilan moddiy asos va boshqalar o'rtasida kurash sodir bo'lib turadi degan dualistik ta'limotga asoslanadi. Inson yomonlik bilan kurashish bilan cheklanib qolmasdan, balki bu kurash natijasida barkamollikka etishishga harakat qilish lozim, deb hisoblanardi. Moniylikning g'oyalaridan biri: «Kim boy ekan, oqibatda qashshoq bo'ladi, sadaqa-xayr tilab, abadiy azob – uqubatlarga giriftor bo'ladi» va moniylik odamlar «yorug' dunyoning jannatiga albatta etishlarini va'da qilinadi. Moniy dini Eronda ommalashgan holda, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Hindistonda keng tarqaldi. Bu dinning o'ziga hos xususiyatlaridan biri shuki, u ta'sviriy san'atni diniy marosimlarga olib kiradi. Turli rivoyatlarda Moniyning o'z davrida iste'dodli naqqosh, rassom sifatida tanilgani hikoya qilinadi. Moniy dinning ta'siri Tuproq qal'a, Varaxsha, Panjikentdan topilgan yodgorliklarda seziladi.

Kushon davrida diniy e'tiqodlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, O'rta Osiyoda o'sha davrda tillar va yozuvlar ham xilma-xil bo'lgan. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik, shaharsozlik va iqtisodiy aloqalar savodxonlik va yozuvning tarqalishiga imkon yaratdi. Grek tarixchisi Strabon Baqtriya, Sug'diyona, Eron va Midiya aholisining tili bir-biriga o'xshagani qayd qilgani kabi, xitoy sayyohi Shiszi «g'arbda Dovon (Farg'ona) dan boshlab, to Anosi (Parfiya) gacha har xil tillarda so'zlashalarda, lekin odatda bir-birlarini tushunishadi» deb taqiqlaydi. O'rta Osiyoda o'sha davrda eron va turkiy tillar gruppalarining hilma – xil dialekt va shevalari mavjud edi. Undan tashqari oromiy va yunon (grek) tili ham tarqalgan edi.

O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari haqida gapirar ekanmiz, ularning tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalarida, O'rta Osiyoda–oromiy yozuvi; Iskandar Zulqarnayn istilosidan keyin esa-yunon yozuvi tarqaldi. Oromiy yozuvi, yunon yozuvi va forsiy mixxtat yozuvi ma'lum davrlar mobaynida asosan ma'muriy hujjatlarda qo'llanilgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida asta–sekin oromiy yozuvi negizida bir qator mahalliy yozuvlar vujudga kela boshlaydi. Avesto, Xorazm, Sug'd, Kushan, Run (O'rxun YENisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar shular jumlasidandir. Ular ayrim tanga, muhr, kumush buyumlar va hujjatlarda saqlangan. «Sug'd yozuvi» III asrga oid bo'lib, uning eng qadimgi namunasi Tali-Barzuda (Samarqand yaqinida) topilgan. Bu yozuvning turli asrlarga doir yodgorliklaridan Sug'd kalendari va «Mug' qal'a» da topilgan 80 hujjat va tangalar o'sha davrda o'rta osiyoliklarning yuqori madaniy saviyasi va savodxonligi haqida tasavvur beradi. Sug'd yozuvi bilan oldinma-keyin Kushan yozuvining ham ayrim namunalari bizgacha etib kelgan.

Kushon kursiv (qiya) xatida ko'pchilik harflar o'tkir burchakli, chorsi (kvadrat) va jingalak shakllarni kasb etgan. Uning o'qish qiyin bo'lmoqda. Bulardan tashqari, Hindistonda keng qo'llanilgan brahma va kharoshhi degan hind alifbolari bilan bitilgan yozuvlar ham Kushonlar davrida (I-IV asrlar) O'rta Osiyoda bir muncha tatbiq qilingani ma'lum. Kharoshhi yozuvi ilk bor Termizdan topilgan tosh idishda qayd etilgan.

Xorazm yozuvi oromiy yozuvining eng qadimgi an'alarini saqlab qolgan yozuvdir. Tuproqqal'a (Xorazm) saroyi xarobalari orasidan Kushon davriga oid Xorazmiylar yozuvida teri va taxtaga bitilgan hujjatlarni topishga muvaffaq bo'lindi. Xorazmdan o'tkir uchli ikkita suyak tayoqcha topilgan. Olimlar taxminicha, ular sopol yoki mum taxtachalarga yozadigan o'ziga xos «qalam» lar. Qayd qilingan yozuvlarning soni. Kushon davlatining yuksak madaniyatga ega bo'lgani va hilma-hil xalqlardan tashkil topganini kursatadi.

O'sha davr O'rta Osiyoda ilm fanning taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi yodgorliklar nihoyatda kam saqlanib qolgan. Lekin, shunga qaramay, bizga qadar saqlanib qolgan sug'd kalendari va boshqa yodgorliklar, sug'orish inshootlari, mustahkam imoratlar, shisha qoldiqlari ma'lum ilmiy bilimlar ya'ni astronomiya, geometriya, geodeziya, fizika, ximiya va boshqa fanlar sohasida bir muncha mufaqiyatlashga erishganligi to'g'risida dalolat beradi.

Kushon davri arxitekturasi haqida gap yuritar ekanmiz, bu davrda mustahkam istehkomli shahar qurilishi keng rivojlanganligini taqidlash lozim. Shaharlar burjli qalin devorlar bilan o'rab olingan. Ularning ichida arklari bo'lib, atrofi har hil binolar kompleksi bilan o'ralgan. Saroylar hashamatli va murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan: markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli xonalar bilan o'ralgan, bino fasadlariga ko'p ustunli ayvonlar tutash qurilgan. Pahsa, xom g'isht, yog'och, ganch va boshqalar binokorlikning asosiy materiali bo'lgan. Asosan xom g'ishdan qurilgan binolar usti tosh relief yoki gipssimon marmar bilan qoplangan. Kushon davri me'morchilik tug'risida konkret tasavvurga ega bulish uchun Tuproqqal'a shahri misolida ko'ramiz. Bu qadimiy shahar III asrga mansub bo'lib, qadimgi Xorazm shohlarning poytaxti bo'lgan degan taxmin bor. Tuproqqal'a to'rt burchak (500x350) shaklida bo'lib, atrofi minorali g'isht devori bilan o'rab olingan. Shaharning shimoli-g'arbiy burchagida balandligi 20m dan ziyodroq uchta katta minorali qasr bo'lgan. Shahar binolari qat'iy bir reja asosida qurilgan. Unda saroy, ibodathona, boshqa hilma-hil binolar qad kutargan. Saroy devorlari turli xil tasviriy suratlar, haykallar, hoshiyador karnizlar va oymakor panjaralar bilan bezatilgan.

Xonalar biridagi «Meva terayotgan qiz» kompozitsiyasi ayniqsa diqqatga sazovor. To'q qizil rang yuritilgan bu rasmda etagiga uzum va shaftoli terayotgan go'zal ayol, uning tepasida uzum boshlari, atrofida esa ariq boyidagi supacha tasvirlangan. Boshqa xonalarda ot rasmlarining qismlari to'la saqlangan qushlar, zangor tulqinlarda suzib yuruvchi baliqlar, odamlarning bir qancha rasmlari bor. Odamlar tasvirlari ichida tik turgan oq kiyimli ayol va qora chakmonli erkak rasmi yaxshi saqlangan. Qadimgi Xorazmda (Qoyqirilgan qal'a) terrakota haykaltaroshligi rivoj topdi. Loydan tayyorlab, qizdirib pishirilgan haykallar, shuningdek, devoriy rasmlar xorazmlik san'atkorlarning yuksak mahoratidan dalolat beradi, ular ellinistik Sharq madaniyati yutuqlaridan xabardor bo'lganliklarini ko'rsatadi. Xolchayon, Bolalik tepa, Dalvarzin tepa, Fayoztepa haykallari, Ayritomdan topilgan bino frizlari va Budda haykallarining qoldiqlari me'morlik bilan bir qatorda tasviriy san'at ham rivoj topganini isbotlaydi.

Kushon davrida sopol idishlar nozik va jarangdorligi hamda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bezatilgan sopollar va urf-odatlarini bajarishga oid ko'plab idishlar, kumish tovoqlar topilgan. Zeb-ziynat boyimlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish rivojlangan. Kamon, nayza, xanjar, tosh otish qurollaridan foydalanilgan. Kushon davri maqbaralarida haykalchalar bilan bezatilgan ostodonlar topilgan. Bu zardushtiylik diniga oid ko'mish marosimlari keng tarqalganidan dalolat beradi. Kushon podsholari turli o'lka va xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni o'rnatganlar. O'rta Osiyo qadimdan (eramizdan avvalgi II asr boshlab) Sharq bilan G'arb o'lkalarining savdo-sotiq va madaniy aloqalarning bir markaziy chorsusi sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Bu aloqalarni o'rnatishda «Buyuk ipak yo'li» katta rol oynagan. Kushonlar podsholigi sharqda-Sharqiy Turkiston shaharlarining qo'shib olingan vohalari orqali Xitoy bilan, Janubda - buysundirilgan Afg'oniston va Hindistonning shimoliy qismi bilan, g'arbda - Eron, Suriya, Messopotamiya va Misr, shuningdek O'rta er dengizi mamlakatlari bilan, Shimolda - Xorazm, Uralboyi, Volgaboyi va ular orqali Sharqiy Ovrupa mamlakatlari bilan muntazam iqtisodiy-madaniy aloqalari olib borgan. Bu aloqalar O'rta Osiyo aholisiga ham u bilan aloqa bog'lagan o'zga xalqlarga ham katta foyda keltirgan. Ipak yo'li faqatgina iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki buyuk madaniy arteriya sifatida xizmat qilgan. Bu yo'l orqali madaniy boyliklar, g'oyalar almashuvi olib borilgan. Bu yul orqali nafaqat savdogarlar, balki olimlar, me'morlar, rassomlar ham muntazam aloqa qilganlar. O'rta Osiyo bu yo'lni chorsusida joylashganligi, uning madaniy va iqtisodiy hayotida katta ta'sir kursatdi. O'rta Osiyo orqali xitoyliklar Hindistondan keltirgan buddaviylik dini bilan tanishganlar. Xitoy xalqi paxtachilik, tokchilik, vinochilik va shisha qoyish ishlarini O'rta Osiyodan o'rgandi. Masalan, Xitoy yilnomalarda 424 yil voqealari munosabati bilan O'rta Osiyoning shisha qoyishdagi shuhrati haqida qoydagi ma'lumot beriladi: «Yue-chji viloyatlarining poytaxtida savdo qilgan (O'rta Osiyo) aholisi, biz toshni eritib, undan har xil rangli shisha yasashni bilamiz deb aytdilar. Ularning shishasi shu qadar yaltiroq ediki, bu jihatdan u hatto g'arbiy mamlakatlarnikidan (Rim yoki Suriya shishasi ko'zda tutilsa kerak) ustun chiqdi. Shishalar yaltiroq rangda bo'lib, juda tiniq edi; ularga qarab hamma taajubga tushar va bu shishalarni ilohiy deb hisoblar edi.» Ayni zamonda O'rta Osiyo xalqlari ham Xitoydan ko'p narsani, ya'ni ipakchilik, qog'oz ishlash va boshqalarni o'rganib oladilar. Kushon davrida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar yanada rivojlandi. Bu aloqalar shunchaki chuqur edi-ki, Hindistonning shimoliy qismi Gandhara (hozir Pokiston) nomiga atab kushon madaniyatini ko'pincha gandhara madaniyati deb atashadi. O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari o'rtasida ham madaniy

aloqalar o'rtasida keng bo'lib, ular bir-biriga katta ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar ularning madaniyatida ayrim mushtarak jihatlarni mavjud bo'lishiga sabab bo'ldi.

3. V-VI asrlarda O'rta Osiyoda ilk feodal munosabatlar yuzaga keladi. Feodal munosabatlarning qaror topib, mustahkamlanishi eftalitlar davlati, turk hoqonligi va arablar istilosi bilan bog'liq. Tabiyiki, madaniyatning yanada gullab-yashnashi va yuksalishi shu tarixiy voqealar bilan bog'liq.

Eftalitlar davri madaniyati to'g'risida bizgacha juda kam manbalar etib kelgan. Hatto eftalitlar yozuvi deb nom olgan yozuv yodgorliklari haligacha o'qilgan emas. Lekin shunga qaramasdan, rimlik tarixchi Ammian Marsellin (IV asr), vizantiyalik Prisk Paniyskiy (V asr), Prokopiy Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr), suriyalik Zenob Glak (VII-VIII asrlar), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favsto Buzanda (IV asr), YEchish (V asr) asarlarida, «Avesto» da, xitoy solnomalari «Vey-shu» va «Tan-shu» da, Firdavsiy «Shohnoma» sida eftalitlar haqida ma'lumotlar bor. Shu ma'lumotlarga ko'ra, eftalitlar botir, jangovor va qahrli bo'lishgan va janglarda ko'pincha cho'qmor, gurzi (palisa) ishlatishgan, forslar esa o'sha davrda o'q-yoy qo'llashgan, arablar- nayzani.

Eftalitlarning ma'naviy madaniyati kushon madaniyatini an'alarini ayrimlarini saqlab qolgan edi, chunki ularning davlati ham Kaspiy dengizidan Qoshg'argacha va Orol dengizidan Hindistongacha cho'zilib ketgandi. Shuning uchun ham ularning tili aralash edi, unda eron va turkiy tillar unsurlari bo'lgan. Bu davrda xorazmiy, eftalit, sug'd va mashhur o'rxun-enisey yozuvlari qo'llanilgan. Eron bilan chegaradosh viloyatlarda pahlaviy (ya'ni o'rta asrlar forsiy yozuvi) yozuv qo'llanilgan. Eftalitlar davri xalq qo'shiqlari va eposlari Firdavsiy «Shohnomasi» da tasvirlangan. Ular ichida Zopir to'g'risida rivoyat bor. (shakllarning Shiroq to'g'risidagi rivoyatiga o'xshash). Unda Zopir o'z vatani ozodligi uchun halok bo'ladi. Undan tashqari eftalitlarning sasoniy podshoh Peroz bilan kurashi chegara minorasining 50 fillar yordamida ko'chirilishi to'g'risida va Perozning bo'ri uyasida halok bo'lishi ham «Shohnoma» da tasvirlangan.

Eftalitlarning turmush-tarzi, kiyinishi to'g'risida VI asrda eftalitlar makoniga kelgan budda ziyoratchisini qiziqarli hikoyasi saqlanib qolgan. U ayollar kiyimidan taajubda qolib, ular qimmatbaho matolardan uzun etakli (shleyfli) qilib tikilgan yozadi. Bolaliktepada topilgan tasvirlarda qadah ko'tarib o'tirgan erkaklar va ayollar o'sha davr kiyimlar haqida real tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Xitoy xronikalarida xabar qilinishicha, eftalitlarda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo'lgan va uning boshidagi qalpog'ining burchaklari soniga qarab aka-ukalar nechtaligini bilish mumkin edi va shuningdek, ko'pxotinlik ham mavjud bo'lgani ta'kidlanadi. Eftalitlar davri ko'mish marosimlari to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlar bor. Prokopiy yozishicha eng boy kishilar doimiy hamroh sifatida 20 tadan ortiq do'stlarga ega bo'lishgan va boy vafotidan so'ng qonun-qoida bo'yicha u bilan birga uning do'stlari ham tirikligicha qabrga qo'yilgan emish. Rostdan ham bu dahshatli marosim bo'lganmi ma'lum emas. Ammian Marsellining (IV asr) yozishicha xionit shahzodasi xalok bo'lganida, uni murdasini kuydirishgan va atrofida yasama «do'stlari» (haykalchalar) o'tkazib qo'yilgan va narigi dunyoga shahzodaga hamroh bo'lishgan. Oddiy eftalitlar murdasi tuproqqa qo'yilgan, boylarni esa maxsus tosh daxmalarga ko'mishgan.

Tabiyiki, bunday marosimlarning mavjudligi eftalitlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq. Eftalitlar siyosiy jihatdan turli xalqlarni birlashtirganlari uchun, ularning diniy e'tiqodlari ham xilma-xil bo'lgan. Zardushtiylik Erondagidan farqli ravishda o'zgargan ko'rinishda davom etgan va mahalliy kultlar Siyovush, Mitra va boshqalar bilan qo'shilib ketgan. Mustaqil holda Vaxsh, Mitra, Anaxit, Siyovushga topinish xamon mavjud edi. Masalan, IV asrda Navruz kuni zardushtiylar erta tongda Buxorodagi Siyovush qabriga ho'roz keltirib qurbonlik qilishgan. Eftalitlar kushonlarning buddaviylik an'alarini ham davom etdilar. Bu davrda ko'pgina budda ibodatxonalar qurilgan. Undan tashqari O'rta Osiyoda Manixeizm, Mazdak ta'limoti (Erondan) ham yoyilishi davom etdi. Shaharlarda xristian – nestorian va yahudiylarning diniy tashkilotlari bo'lgan. V-VI asrlar me'morchilik yodgorliklaridan Surxandaryodagi Bolaliktepa, Samarqanddagi Afrosiyob, Farg'onadagi Quva, Qashqadaryodagi Aultepa, Buxorodagi Varaxsha, Xorazmdagi Fil-qiyot kabilarni ta'kidlash mumkin.

Bu davrning eng ajoyib yodgorliklaridan biri eftalit shohlarining saroyi hisoblanadi. U Buxorodan 40 chaqirim narida, aniqrog'i Qizilqumda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan va aniqlangan Varaxsha shahri xarobalari. Bu kurg'on o'lkan kvadrat shakldagi mustahkam tepa ustida qurilgan. Topilgan bir necha katta va kichik zallardan iborat qasr devorlari va shiftlariga

naqshli suratlar, dekorativ tasvirlar yuksak mahorat bilan ishlangan. Varaxsha saroyi binolaridan birining devorlariga elimlik rang bilan oq fil mingan, nayza, qilich va kamand bilan qurollangan askarlarning hayvonlar va qanotli ajdaholar bilan yangi tasvirlangan. Fillar va beligacha yarim yalang'och askarlar oltin hamda qimmatbaho toshlardan yasalgan turli xil zeb-ziynatlar bilan bezatilgan. Ikkinchi suratda podsho saroy ahllarini tantanali bir vaziyatda qabul qilmoqda. U qanotli ikki tuyaning surati solingan taxtda o'tiribdi. Taxtning ikki tomonida juda qimmat baho kiyimlar kiygan, qilich va xanjar taqqan, qo'llariga qadah ko'targan kishilar va hakozi. Varaxsha jahon madaniyatining durdonasi hisoblanadi. O'rta Osiyo me'morligida V-VI asrlardan aylana yoki kvadrat asosga o'rnatilgan gumbazlar konstruksiyasi takomillashtirildi.

Eftalitlar davrining ya'na bir ajoyib yodgorligi Surxandaryodagi Bolaliktepa joyidan 1953-1954 yilda topilgan qadimgi budda ibodatxonasi qoldiqlari hamda tasviriy san'atning nodir suratlari. Devorlarga o'yib ishlangan ganch o'ymakorligi namunalari. 1948-1951 yillarda Samarqanddan uncha uzoq bo'lmagan Panjikent (Tojikiston) xarobalarida qazish ishlari olib borilib, ikkita ibodatxona va istiqomat uylari kovlandi. Ularning devorlariga chizilgan rasmlarda sozandalar mashqi ostida o'yinlar, ruhoniylar ishtirokida qurbonlik qilish, o'lganga aza tutish marosimlari mahorat bilan tasvirlangan. Eftalitlar davrida rangli shisha ishlab chiqarish keng rivojlandi. Undan tashqari loydan ayollar haykalchasini yoki koroplastika san'ati rivoj topdi. Bu yodgorliklar O'rta Osiyo xalqlarining qo'shni xalqlar – Eron, Hindiston, Xitoy va boshqa sharq mamlakatlarining aholisi – bilan savdo-sotiq olib borganligini, madaniy aloqada bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, Kama daryosi yonidagi hududda eftalit kumush kosalari topilgan va undagi yozuvlar Tolstov S.P. ta'kidlashicha xorazmdagi qadimiy tanga yozuvlariga yaqin. Afsuski, bu kosodagi yozuvlar hali o'qib olinmagan.

VI asr o'rtalarida Oltoy, YEttisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabila va xalqlar birlashib, turk xoqonligi deb atalgan davlat vujudga keldi. Turk hoqonligiga birlashgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichida yashagani o'sha davrni madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyoning turk hoqonligi tarkibiga kirishi o'z ijobiy tomonlari bor edi. Chunki turk xoqonlari o'lkani himoyasini o'z zimmalari olgan bo'lsalarda, lekin bo'ysindirilgan xalqlarning ichki hayotiga ko'p aralashmas edilar. Sug'diyona, Choch, Xorazm va boshqa hokimliklar hokimlari ma'lum darajada o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan edilar. O'sha davrda tillar va yozuvlar xilma-xil edi. Lekin Xitoy tarixchisi Syuan – Szyan yozishicha Chu daryosidan to Amudaryogacha har xil qabilalar yashasa-da biroq ularning madaniyatida umumiylik, ayniqsa urf-odatlarida, kiyinishda, yozuvda, mavjud bo'lgan. Masalan, Zarafshon vodiysidagi Kan hokimligida erkaklar sochlarini qirdirib egniga chakmon tashlab yurar edi, ayollar sochlarini turmaklab boshlariga zar gulli qora yoping'ich o'rab yurar edi, kan hokimi esa sochini o'rab qimmatbaho 7 toshlar bilan bezatilgan toj kiygan. Aholi asosan charm, paxta iplik va jun matodan, hokimlar esa ipakdan bo'lgan kiyimlar kiyishgan. Xitoy tarixchilari saroylardagi oltin taxtlar haqida eslatib o'tadilar: Buxoro hokimining taxti tuya ko'rinishida, kushon hokimining taxti qo'y shaklida bo'lgan ekan.

Turk hoqonligi aholisi til jihatidan eftalitlarga yaqin bo'lib, «j» lovchi shevada gapirishgan va VI asrda u «y» lovchi lahjani siqib chiqarib davlat tiliga aylandi. Turkiy lahjadan tashqari eron lahjalari ham mavjud edi. Yozuvlarning xilma-xilligi ham saqlanib qolgan edi. Xorazm yozuvi bitilgan xujjatlar, tanga, muhr va metall buyumlar Tuproqqal'adan topildi. Suriya yozuvi ham tarqalgan edi, u O'rta Osiyoga manixeyizm dini tarafdorlari tomonidan olib kelingan edi. Ayrim doiralarda hind alfaviti bilan bitilgan yozuv ishlatilar edi. Lekin VI-VII asrlarda keng tarqalgan yozuv bu sug'd yozuvi edi. Xitoy tarixchisi Syuan Szyan sug'd yozuvi to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni qoldirgan. Bu yozuv 25 harfdan iborat bo'lib, u chapdan o'ngga qarab yozilgan. Beruniy ma'lumotiga ko'ra sug'd kalendari bo'lgan. Bu kalendar Tojikistonda Mug' tog'ida topilgan. Xitoyda sug'd tilida yozilgan diniy adabiyotlar topilgani ham ma'lum. VII asr sug'd matnlari ichida «Rustami doston» dan parchalar saqlanib qolgan. Turk tiliga mansub VI-VII asrlarda keng tarqalgan o'rxo'n- enisey yoki turkiy run deb ataluvchi yozuvni ham aytib o'tish joyiz.

Xitoy yilnomasi «Tan-shu» da turklarning ko'mish marosimi bunday ta'riflanadi: murda boyliklari, jangda mingan oti bilan birga kuydiriladi, xoki dafn qilinib, marhum qancha dushmani o'ldirgan bo'lsa, uning qabriga shuncha tosh qo'yiladi va marhumning surati ishlanadi, uning qilgan ishlari o'yib yoziladi. O'rxo'n –enisey yozuvida bitilgan yodgorliklar ko'pi mana shunday qabr toshlarda topilgan VII asrda O'rta Osiyoda savodxonlik Eronga nisbatan kuchli edi. Eronda ko'pincha qoxinlar va

mirzolar edi. O'rta Osiyoda yozuvlarning xilma-xilligi va keng tarqalishi savodxonlikning yuksak daraja olib keldi. Xitoy tarixchi Vay Sze ta'kidlashicha 5 yoshga to'lgan bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilib, 20 yoshga savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan va foyda topish aholi orasida yuqori baholangan.

Afsuski, qadimgi O'zbekiston xalqlarining eski yozma yodgorliklari feodal urushlar, islom dinining tazyiqi, qadimgi madaniyatga qarshi olib borilgan muttasil kurashlari tufayli deyarli saqlanib qolmagan. Beruniy ta'qidlashicha, VIII asrda Eron, Sug'diyona, Xorazmda arablar tomonidan madaniyat tashuvchi koinlar va kitoblar yo'q qilingan.

Turk xoqonligi xududida yagona hokim din bo'lmay, osmon kulti, zardushtiylik, shamanizm va boshqa dinlar hamda ularning sinkretik formasi tarqalgan edi. Eftalitlar davridan so'ng buddizm va u bilan bog'liq bo'lgan diniy o'rf-odatlar yo'qola boradi, lekin O'rta Osiyoning janubiy qismida hamon saqlanib qolgan edi. Turkiylar osmon kultiga topinishar edi, uni tangri deb atab, unga ot, ho'kiz va qo'ylarni qurbon qilganlar. Keyinchalik maxalliy aholining otashparastlik dini turkiylar diniy e'tiqodlari bilan qo'shib ketgan. Masalan, bu ko'mish marosimda yaqqol ko'rinib turadi. Xitoy manbalarida o'sha davr ko'mish marosimi quyidagicha ifodalangan. Tashlandiq joyda itlarni saqlab ularga marhumlarning jasatini tashlab keyin suyaklarini terib olib kulishadi. Zardushtiylikda esa, Strabon va Yustian tariflashlaricha, suyaklar ko'milmasdan balki alohida sopol idishlarga - ossuariylarga (ostodon) solib qo'yilgan.

O'zbekiston xududida, ayniqsa Xorazmda, VI-VII asrlarga oid ko'pgina ossuariylar topilgan. Qizig'i shundaki, bu ossuariylarning tuzilishi o'y-joylarning me'moriy formasini eslatadi. Masalan, ulardan bir guruhi turtburchak bo'lib ba'zan oyoqchali qilingan, ikkinchilari – yumaloq bo'lib o'tovni eslatadi va qapqog'i odam boshi shaklida haykalcha tarzida ishlangan. Zardushtiylikning keng tarqalganligiga quyidagi misollar guvohlik bo'la oladi. Buxoro, Samarqand singari shaharlarda «Olov uylari» bo'lib, ularda doimo mangu muqaddas olov saqlangan. Odamlar xonadonlarida sig'inadigan katta-katta haykalchalar qo'yib, ular baxt keltirib, balo-qazolardan qutqaradi, deb ishonganlar. Shuningdek, Xorazmda suv xudosi «Xubbi» ga, Farg'ona vodiysida – «Er xubbi» ga sig'inishgan. Keshda urush xudosi kulti tarqalgan, unga atab harbiy yurishlar oldi 1000 qo'y qurbonlik qilinar edi. Turk xoqonligi davrining me'morchiligi haqida Afrosiyob, Teshikqal'a, Berkutqal'a yodgorliklaridan real tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Qo'rg'on, qal'alar bu davrga mos inshootlar bo'lib, ular Ovrupada faqat XII-XIII asrlarda paydo bo'ldi.

Xorazmdagi Teshikqal'a qo'rg'oni arxeolog S.T. Tolstov VII-VIII asrlarga oid deb ta'kidlaydi. U bir gektar maydonni o'z ichiga olib, atrofi paxsa devorlar bilan o'ralgan, burchaklarida minoralar qad ko'targan. Ichkarida yana ikkinchi qator devor bor. Uning janubi-g'arbiy tomonida 6,5-8 metr balandlikda ko'shk qurilgan. Ko'shkka faqat to'g'risidagi minoradan tashlanadigan osma ko'prik orqali kirish mumkin bo'lgan. Xonalarda yotish uchun maxsus joy tayyorlangan, hattoki ulardan gilam qoldiqlari topilgan. Hovlida qalin g'ishtdan qurilgan uy ham bo'lgan, tahmin bo'yicha olov ibodatxonasi. Bu davrda haykaltaroshlik, kulolchilik, tasviriy san'at ham keng rivojlangan. Xitoy manbalariga ko'ra, o'sha davrda Sug'diyona ibodatxonalarida oltindan yasalgan haykallar bo'lgan. Toshidan yasalgan haykalchalar ham keng tarqalgan, ularni qo'rg'onga yoki marhum kabriga qo'yishar edi. Haykalchalar qo'lida kosa, qurol-yarog' ushlab turgan kishi shaklida tasvirlangan. Afrosiyob harobalaridan loydan yasalgan yig'lab betlari yuladigan haykalchalar topilgan. Menandr ta'kidlashicha bu ko'mish marosimi bilan bog'liq: turk hoqoni Istemi vafot qilganida, aza tutuvchilar betlarini kesganlar va bu marhumga hurmat belgisi edi.

Sopol idishlarni slyuda shaffof mineral orqali turli rangda sirlashgan va ular yaltirab turgan. Undan tashqari idishlar naqsh, hayvon, meva-cheva, baliq, qush, gul, odamlar tasviri bilan bezatilgan. Oltin va kumush idishlarni hukmdorlar ishlatishgan. Afrosiyob shaharchasida ochilgan tasviriy san'at namunalari VII asrga oid bo'lib, go'zalligi jihatidan ilgari ma'lum bo'lgan yodgorliklardan ancha ustun turadi. Saqlanib qolgan bu naqshlarga qarab, o'sha zamondagi mohir rassomlar san'atini yorqin tasavvur qilish mumkin. Ayniqsa katta xonadagi suratlar e'tiborga sazovor. Zalning janubiy devoriga katta rasm solingan, unda fil, tuya va otlar mingan, yasangan kishilar tasvirlangan. Podsho katta hashamdor saroyi xonalari, ularning devorlariga o'yib solingan bezaklar, lavhalar, bitilgan sug'd

yozuvlari O'rta Osiyo xalqlari badiiy tafakkurining yuksak taraqqiyotidan darak beradi. O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti arablar bosib olishi oldida shunday bo'lgan.

4. 7-8 asrlarda O'rta Osiyo xududida arablar tomonidan bosib olindi. Arablar istilosi O'rta Osiyo madaniyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Bu savolga javob berish uchun arablarning O'rta Osiyoning bosib olishlarini sabablari va maqsadlarini aniq tasavvur etish lozim.

VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida Arab xalifaligi degan o'lgan davlat vujudga keldi. Arablarni birlashtirib, yaxlit bir holga keltirgan rishta yangi din – islom bo'ldi. Yangi din targ'ibotchisi – Muhammad ibn Abdulloh (570-571, Makka – 632, Madina) hisoblanadi. Muhammadni musulmonlar payg'ambar, Ollo taolloning rasuli (erdagi elchisi) deb e'tirof etadilar. Muhammad ko'p xudolikni tanqid qilib, unga yagona xudo to'g'risidagi ta'limotni qarshi qo'ygan.

Islom- itoat qilish, bo'ysunish demakdir. Bu dinga sig'inuvchi kishilar muslim-musulmon (itoatkor) deyiladi. Islom ta'limoti muqaddas kitob Qur'onda (o'quv) bayon etilgan. U, musulmonlar rivoyatiga ko'ra, Olloh tomonidan farishta Jabroil orqali Muhammadga o'qdirilgan deb tasavvur etiladi. Lekin Muhammad tirik davrida uning targ'ibotlari omma orasida og'zaki tarqalgan va vafotidan so'ng halifa Abu Bakr davrida yozib olingan Islom ta'limoti etti aqida: yagona xudo – Ollohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, Ollohning elchisiga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga, o'lgandan keyin tirilishiga ishonish talablariga asoslanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, dunyodagi barcha mavjudotlar Olloh tomonidan yaratilgan va olamda yuz beradigan barcha voqea va hodislara Olloh tomonidan oldindan belgilangan. Musulmonchilikning 5 sharti bo'lib, ular: kalima keltirish, ya'ni «Ollohdan boshqa xudo yo'q, Muhammad uning elchisidir» kalimasini aytish; har kuni 5 mahal namoz o'qish; ramazon oyida ro'za tutish, zakot berish va imkoniyat bo'lsa, Makkaga ziyoratga borish (haj). Qur'onda xudo yagona, rahmdil va qudratli, o'z karomatidan hammani bahramand etadi, shu sababli unga e'tiqod qiluvchilardan itoatkor bo'lishni talab qilishga haqqi bor, deb ta'kidlanadi. Xar qanday hokimiyat xudo tomonidan yuborilgan tuxfa bo'lib, barcha musulmonlar unga so'zsiz itoat qilishlari shart edi. Qur'onda Olloh oldida hammaning tengligi, bandaligi g'oyasi ilgari suriladi. Unga ko'ra, insonlar etnik bo'linishi, ijtimoiy- iqtisodiy tabaqalanishidan qat'iy nazar faqat 2 guruhga : islom diniga e'tiqod qiluvchilar – musulmonlar va g'ayridinlar – kofirlarga ajraladi. Islom dinining g'oyalari dastlab oddiy ommani, keyin xalifalikning oliy tabaqasi manfaatlariga mos tushdi. Boy o'lkalardan manfaatdor bo'lgan xalifalar «kofirlar bilan kurash» g'oyasini ilgari surib, qo'shni o'lkalarning bosib olishga qo'shinlarni safarbar etadilar. Arablar Shom (Suriya), Falastin va Eronni zabt etdilar. 651 yilda ular O'rta Osiyo bilan chegaradosh bo'lgan Balx, Hirot va Marvni egallab, ularni O'rta Osiyoni bosib olish uchun o'z tayanchlariga aylantirishdi Arablar o'zlarining talon-tarojlik harakatlarini «kofir» larga qarshi muqaddas urush – «jihod» olib borayotganlari bilan oqladilar.

Arablar istilosi arafasida O'rta Osiyoda 15 ga yaqin katta-kichik davlatlarga bo'linib ketgan edi. Shu sababli, arablarning g'alabalari ularning ko'chida emas, balki ular tomonidan bosib olingan mamlakatlardagi ichki zaiflik va tarqoqlik ham edi. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar Amudaryo bo'ylaridagi yorlarga hujumlar qiladilar. Bu o'lkani ular Movarounnaxr ya'ni daryoning naryog'idagi erlar deb ataydilar va uni bosib olishni Hazrat Muhammadning o'zlari aytib, ketganlar, deb tarqatganlar. VIII asr boshlarida Movarounnahr erlarini arablar o'zlariga bo'ysundirdilar lekin ularni osonliycha zabt etganlari yo'q. Arablar mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch keldilar. Arab bosqinchiligining sabablaridan biri talon-tarojlik bo'lsa, ikkinchisi – majburiy islomlashtirishdan iborat edi. «O'lja haqidagi suralar», o'ljani taqsimlashni qonunlashtirdi (sura-al g'animat). Arablar vayronagarchilik va boyliklarning talontaroj ishlarini islom bayrog'i ostida olib bordilar. Ular O'rta Osiyoda o'zlariga qaraganda ancha yuqori darajada turgan moddiy va ma'naviy madaniyatga, yuqori turmush darajasiga duch keldilar. Shuning uchun ular mahalliy xalqlarning ilg'or madaniyati, urf-odatlarini, an'alarini yo'q qilishga intildilar. O'rta Osiyoni bo'ysundirmoq va islom dinini majburan singdirish uchun arablar bu erdagi o'tmish madaniyat va boshqa dinlar bilan bog'liq olimlar, kitoblar, ibodatxonalar, san'at asarlarini nobud qila boshladilar. Marv, Buxoro, Samarqand va Xorazm kutubxonalarida saqlanayotgan minglab noyob asarlar yo'q qilindi. XI asrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur «O'tmish avlodlar yodgorliklari» nomli asarida yozganidek, Qutayba va boshqa arab hokimlari mahalliy din, san'at, adabiyot vakillarini, olimlarni o'ldirib, ular yaratgan asarlarni olovda yondirdilar. Arablar mahalliy yozuv va hujjatlarni tag-tugi bilan yo'q qilganlar, oltin va kumush buyumlarni qayta eritib, qimmatbaho ma'danga aylantirganlar. Arablar sug'd va xorazmiy

yo'zuvlarini deyarli butunlay yo'q qildilar. Mahalliy xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini ta'qib qilgan holda arablar bosib olingan erlarda zurovonlik va kuch yordamida o'zlariga qulay tartibni o'rnatdilar. Ular islomni o'zlarini bo'ysindirilgan xalqlar bilan birlashtiruvchi kuch deb bildilar. Islomni tarqatish uchun iqtisodiy tadbir qo'llanilgan edi. Arablar kimki islom dinini qabul qilsa «juzya» (jon boshiga solinadigan soliq) dan ozod qilishni va'da berdilar. Bu aholining katta qismining o'zini xo'jako'rsinga musulmon hisoblashiga olib keldi. Narshaxiyning (X asr) yozishicha, hatto aholini juma nomoziga jalb etish uchun ikki dirhamdan pul tarqatishgan. Lekin bu hol islom dini mahalliy xalq orasida tarqala boshlagan dastlabki vaqtlardagina qo'llanilgan, chunki arablar manfaatiga javob bermasdi (hazina bo'shab qolishi mumkin edi).

Islom dinining tarqalishi katta qiyinchilik bilan kechdi. Islom dini targ'ibotchilari qaerga bormasin, atrofida soqchilar, harbiy otryadlar bilan bo'lardi. Ba'zi bir shaharlarda yangi dinga qaytadan jalb etishga to'g'ri kelgan. Narshoxiyning yozishicha, Buxoro aholisini necha bor islomni qabul qilsalarda, arablar ketishi bilanoq bu dindan voz kechadilar. Qutayba ularni uch marta musulmon qilgan bo'lsa ham ammo ular bu dindan voz kechar edilar. To'rtinchi martaga Qutayba islomni butunlay kiritishga muvassar bo'ldi: har bir buxorolik arabga o'z uyining yarmini bo'shatib berishi shart edi va arab buxorolikning islom qoidalarini bajarishini nazorat qilar, islom rasm-rusmlarini o'rgatar, kerak bo'lganda boshliqlarga qoydalarga rioya qilmagan ustidan ma'lumot yuborishi mumkin edi. Biroq mahalliy e'tiqodlar uzoq yashovchi bo'lib chiqdi. Buxoroda Masjidi – Mochak – otashparastlarning ibodatxonasi machiti bo'lib, sig'inishlar tunda o'tkazilgan, bu er osti binosi 1820 yilgacha mavjud bo'lgan.

Islom dinini targ'ib etish bilan birga arab tilining tarqalishi va aholini arablashtirish jarayoni ham kechdi. Arab tili davlat, fan va adabiyot tili bo'lgan sababli avvalo hukmron doiralar orasida arablashtirish keng tus oldi. Yuqorida qayd etilganidek, arxitektura yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari yo'q qilinib tashlangani, shaharlar vayron qilingani sababli madaniy hayotda sal kam bir asrgacha tushkunlik hukm suradi. Lekin, ajnabiy bosqinchilar hokimiyati ostida o'zining uzoq davrli madaniyatiga ega bo'lgan Movarounnahr xalqlarining mahalliy madaniyati rivojlanishdan to'xtab qolmadi. Bosib olingan shaharlarda masjidlar qurishga katta ahamiyat burildi. Ko'p hollarda masjidlar uchun yangi binolar qurilmay, qadimiy zardushtiy va boshqa ibodatxonalarni masjidlarga aylantirildi. Masalan, Buxoroda arablargacha cherkov bo'lgan, hozirda Bonu Xayzol masjidi.

Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni qat'iy man etgani tasviriy san'at rivojiga imkon bermadi, faqat naqqoshlik rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madarasalar naqsh bilan bezatila boshlandi. Masjid va maqbaralar ko'pincha gumbazli qilib bunyod etila boshladi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, Arab xalifaligi avvaliga mahalliy madaniyatga ancha zarar etkazsa-da, keyinchalik u turli xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirishga imkoniyat to'g'dirdi va natijada O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining keyingi rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Islom dinining yoyilishiga kelsak u bilan bog'liq bo'lgan diniy rasm-rusmlar, shariat va tariqat qonun-qoidalari, aqidalarining tarkib topib borishi mahalliy xalq namoyandalari uchun, ularning istiqboli uchun muayyan ijobiy rol o'ynadi. Chunki odamlar har xil xudolar, muqaddas hisoblangan narsalarga topinmay, yakkayu yagona Olloh taolo timsoliga, uning payg'ambari Muhammad ko'rsatmalariga e'tiqod va amal qiladigan bo'ldilar.

Islomning muqaddas kitobi «Qur'on» da va Hadisda berilgan odamlarni tenglik, xurlik, ozodlik, yaxshilik, sahiylik, birodarlik, qardoshlikka da'vat etuvchi va ahloq-odob normalarini belgilovchi g'oyalar O'rta Osiyo xalqlari ongiga asta-sekinlik bilan singib bordi va ularning turmush-tarzidan, hattiharakatlaridan, umuman ma'naviy hayotlaridan munosib o'rin olib bordi.

Hulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining ilk feodalizm davrida madaniy hayoti ham o'sib, ravnaq topgan, qiyinchilik va tushkunlikka qaramasdan yanada gullab-yashnab bizga boy moddiy-ma'naviy meros qoldirdi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Markaziy Osiyo xududida qanday qadimgi xalqlar yashagan?
2. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk diniy e'tiqodlari to'g'risida so'zlab bering.
3. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So'g'd davlatlari madaniyatini tavsiflang.

4. Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rnini tushuntiring.
5. O'zbekiston xududida qadimgi davrga oid qanday yodgorliklar topilgan.
6. Qadimgi davrda yozuv ilm-fanni rivojlanganligini ko'rsatuvchi qanday ma'lumotlar mavjud.
7. Arabistonda islom dinining kelib chiqishi va hozirgi kunda davlatimizda islom diniga bo'lgan munosabat to'g'risida so'zlab bering.
9. Jahon madaniyati rivojlanishida Markaziy Osiyo madaniyatining tutgan o'rni.

5-mavzu: Sharq Uyg'onish davri madaniyati

REJA:

1. Markaziy Osiyo Renessansi. IX-XII asrlarda madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlar
2. Tabiiy, falsafiy-axloqiy va diniy-tasavvufiy fanlarning rivojlanishi (Markaziy Osiyolik buyuk fan arboblari va mutaffakirlarining qarashlari va ularning jahon ilm-fanida tutgan o'rni).
3. Ma'mun akademiyasi.
4. Me'morchilik va monumental tasviriy san'atning rivojlanishi .
5. IX-XII asrlar me'moriy yodgorliklari.
6. Amaliy san'at: kulolchilik, to'quvchilik.

ADABIYOTLAR:

1,2,3,4,13,26,27,28

Tayanch tushunchalar.

Renessans, Markaziy Osiyoda markazlashgan mustakil davlatlarining paydo bulishi, samoniylar davlati, «Baytul-ul xikma», mashxur allomalar, mugil boskini davri madaniyati.

1. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida sharq Uyg'onish deb nom olgan davr umummadaniy taraqqiyotda eng yorqin va muhim bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichda Markaziy Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining eng yirik va markaziy uchoqlaridan biriga aylandi, hamda Sharq va G'arb madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davr qadimgi Sharq, Yunon va Rim madaniyati bilan YEropadagi Uyg'onish va yangi davr madaniyatini bir-biriga bog'lovchi, o'rtadagi uzviylik, vorislikni saqlab, belgilab beruvchi davr bo'lib xizmat qildi. Shu bois, Uyg'onish madaniyati o'rta asrlarda Sharqda boshlangan va G'arbgga katta ta'sir ko'rsatib, so'ng Yevropaga kuchdi. Markaziy Osiyo Uyg'onish madaniyatini ikki bosqichga bo'lish mumkin: 1) IX-XII asrlar va 2) XIV-XV asrlar madaniyati. Bu davrda madaniy yuksalish siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniy yuksalishni ta'minlagan asosiy omillar nimalardan iborat?

Ma'lumki, USh asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tomonidan istilo etildi. Qadimgi madaniyat an'analarini nixoyatda boy bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari, arablar tomonidan egallagan boshqa xududlar xalqlari kabi, nafaqat madaniy jixatdan balki iqtisodiy ham yuksak rivoj topgan edilar. Shu bois arablar istilosining dastlabki davrlarida bosqinchilar bu o'lkada bilimli kishilarni, minglab madaniyat durdonalarini yo'q qildilar. Biroq, bosqinchilar Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy an'alarini butunlay yo'q qilolmadilar. Vaqt o'tishi bilan arablar bosib olingan erdagi xalqlarni o'z tasarruflarida faqat zo'ravonlik bilan ushlab turish mumkin emasligini tushundilar va ularning moddiy- madaniy yutuqlarining o'z g'oyalari, zamon talabiga moslashtirishga harakat qildilar. Shu bois, dastavval qattiq qullik bilan islom dinini majburan qabul qilinishi, bir asr davomida musulmonchilikning mahalliy odat, udumlar bilan uyg'unlashuviga olib keldi. O'lkada arab tili va imlosi ham joriy etildi. Arab tili-davlat tili va fan tili darajasiga ko'tarildi va shu bois, mahalliy aholi, ayniqsa zodagonlar orasida uni o'rganishga intilishlar kuchaydi. Islomning o'zlashtirilish natijasida mahalliy axoli o'rtasida arab tilini, islom nazariyasi va shariat axkomlarini, islomning huquqiy asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqish misli kurilmagan darajada kuchayib ketdi. Natijada, Markaziy Osiyoda o'z ona tilidan arab tilini yaxshiroq bilgan, islom dinining nazariy asoslarini, madaniyatini, Qur'on suralari va oyatlarining tafsirini arablarning o'zidan ham mukammalroq biladigan buyuk allomalar etishib chiqdilar. O'z navbatida, chegaralari tobora kengayib, o'lkanlashib borayotgan xalifalik uchun ham fanlarni rivoji va ilmli kishilarning ko'payishi suv va havodek zarur edi. Ayniqsa, abbosiyalar ma'murlari davlatni boshqarishda bu sohaga e'tiborlarini

kuchaytirdilar va ma'rifatli, bilimli kishilarni xalifalikning markaziy shaxarlari- Damashq, Qoxira, Bag'dod, Kufa va Basrga to'plashga intila boshladilar. Xususan, xalifa Xorun ar-Rashid Bag'dodda "Bayt-ul-hikma"- Donishmandlar uyi" deb atalgan Sharqning fanlar akademiyasini tashkil ettirdi va Hindiston, Markaziy Osiyo, Suriya, Eron va boshqa o'lkalardan bilimli odamlarni taklif etdi. Qisqa vaqt ichida bu erda 300 dan ortiq olimlar ilm-fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatdilar. Xalifa Ma'mun davrida "Bayt ul-Hikma" koshidagi kutubxonada 200 ming jilddan ortiq turli o'lkalardan keltirilgan qo'lyozmalar to'plangan edi. Tez orada ko'plab tarix, falsafa, mantiq, geografiya, matematika, astronomiya, tabobatga oid kitoblar arab tiliga ag'darildi va izohlar yozildi. Fanning turli sohaları boyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. «Donishmandlar uyi» qoshida ikkita rasadxona ham ochilgan edi (biri- Bag'dodda, ikkinchisi- Damashqda). X asr oxirlarida Xorazmda ham podsho Ma'mun ibn- Ma'mun davrida «Bayt -ul- hikma» tashkil etilgan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, ming yil o'tgach, ya'ni 1997 yil noyabr oyida Prezident I.A.Karimov Farmoni bilan Ma'mun Akademiyasi- O'zR FA bo'limi sifatida tiklandi. Bag'dod va Urganchdagi "Donishmandlar uyi"da Markaziy Osiyolik olimu-fuzolalar ilm-fan, madaniyat rivojida etakchilik qildilar. Buxoriy, Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Marvaziy, Marg'inoniy, Termiziy kabilar shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoda IX-XII va XII-XIII asrlarda yuz bergan madaniy yuksalishning asosiy omili va sabablaridan biri ulkamizda markazlashgan mustakil davlatlarning vujudga kelganligidir. Arab xalifaligiga qaramlikdan qutilish, mustaqillikni qo'lga kiritish va yirik markazlashgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va keyinchalik, Amir Temur davlatlarining vujudga kelishi, birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Mustaqil feodal davlatlarning rivoji bilan bog'liq yangi ehtiyojlar asosida bu davrda feodal ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Jamiyat rivojlangan feodalizm bosqichiga o'tdi, bu xo'jalik hayotining asosini tashkil etgan dexqonchilikda, shu yo'l bilan birga, feodal shaharlarida Hunarmandchilik hamda ichki va tashqi savdoning o'sishida ham namoyon bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Marv, Farg'ona kabi shaharlar butun musulmon sharqida dongi ketgan savdo markazlaridan, madaniyat uchoqlaridan bo'lib, xalqaro iqtisodiy-madaniy munosabatlarda muhim rol uynaganlar.

Ikkinchi tomondan, mahalliy davlat hukmdorlari fan va madaniyat ahllarini qo'llab-quvvatlab, ularga homiylik qilganlar. O'z saroylari qoshida ma'lum bir ilmiy-madaniy markazlar tashkil etib, ilm ahliga fanning turli sohalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun imkoniyat yaratib berganlar. Bu davr madaniyatining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ilm-fan, san'at, adabiyot, ijtimoiy-fikr asarlari uch tilda- arab, fors-tojik va turkiy tillarda ijod etildi. Bu uch tilning Markaziy Osiyoda keng tarqalishi va qo'llanilishi, shubxasiz, madaniy rivojlanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arab tili asosan, ilohiyot, dinshunoslik ilmlari va fan tili sifatida, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlar tili sifatida keng qo'llanilgan bo'lsa, fors-tojik tili ko'proq adabiyot, san'at, badiiy madaniyat tili sifatida keng rivoj topdi. Turkiy til Markaziy Osiyo xalqlari orasida so'zlashuv tili, keyinchalik esa, adabiyot, jamiyatshunoslik ilmlari, davlat tili sifatida rivoj topdi. Shunday qilib, islom bilan birga arab tilining kirib kelishi, ziyolilar tomonidan o'zlashtirilishi va keng foydalanilishi Markaziy Osiyo xalqlarining arab tilidagi boy madaniy boyliklari bilan tanishishi hamda o'z madaniy yutuqlarini keng musulmon olamiga olib chiqishiga olib keldi.

2. IX-XII asrlarda ilm-fan sohasida juda yuksak yutuqlarga erishilgan edi. Markaziy Osiyo xalqlarining oldingi asrlar davomida erishgan madaniy yutuqlari va bilimlari IX-XII asrlarda yashagan va ijod qilgan olimlarga katta ilmiy poydevor vazifasini o'tadi. Arab yoki islom sivilizasiyasi ta'siri ham katta turtki bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo olimlari yunonlar, hindlar, arablar va boshqa xalqlarning ilmiy tajribasidan ijodiy foydalanib, turli mamlakat olimlari bilan hamkorlik qildilar. Yunon ilmiy-falsafiy maktabi, arab jug'rofiya maktabi, fors tarix maktabi va O'rta Osiyo matematika va tibbiyot maktablarining birlashuvi Markaziy Osiyo fanini rivojlanishida yuksak va ajoyib natijalarga olib keldi.

Sharqning buyuk olimi, dunyo matematika ilmiga behisob hissa qo'shgan buyuk olim - Muxammad ibn Muso al -Xorazmiy (783-859)dir. U Marv madrasasida o'qidi va keyinchalik Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" ga boshliq etib tayinlandi. Al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya, tarix kabi fan sohalarida ijod qildi Bu fanlarning rivojlanishiga o'zining hissasini qo'di va sharq qomuschilari maktabiga asos soldi. U o'zining "Al-jabr va mukobala" asarida yangi algebraik usul yaratdi va keyinchalik bu asarda birinchi marta ishlatilgan "aljabr" termini matematikani yangi sohasi

bulib koldi. Al-Xorazmiy nomining o'zi ham matematikada XII asrdan boshlab "algoritm" terminida ifodalandi.

Al-Xorazmiyning "Zij" asari astronomiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda birinchi marta sinuslar jadvali va tangenslar kiritilgan. Uning mashhur asari "Kitob suratil ard" ("Yer yuzining kartasi") musulmon Sharqida geografiya ilmini boshlab bergan. Al-Xorazmiy o'rta asr Sharqida birinchi bo'lib tarix sohasida asar yozganlardan biridir.

Al-Xorazmiyning zamondoshlaridan biri mashhur astranom va matematik Ahmad Farg'oniydur (797-865). U xalifalik markazi Bog'dodda xizmat qildi. musulmon Sharqida falakiyot ilmiga asos soldi. Bag'dod va Damashq rasadxonlar qurilishiga boshchilik qildi.

Ahmad Farg'oni o'zining "Astronomiya asosi" asari orqali butun Yevropaga Alfraganus nomi bilan mashhur bo'lib ketadi. Uning bu asari YEvropadagi universitetlarda astronomiyadan asosiy qo'llanma vazifasini o'taydi. YEvropaning buyuk yozuvchilari Dante va Shiller o'z asarlarida al-Farg'oni nomini eslatib o'tdilar. Markaziy Osiyoning yirik qomusiy olimlaridan biri, Sharq Uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan arbobi, Sharq falsafasini otasi Abu Nasr Farobiydur (873-951). U Farobda ta'lim olib, Buxoro va Samarqandda, Bag'dod va Damashq shaharlarida yashab, ijod qilgan. Farobiy arab, grek vayana bir necha tillarni mukammal o'rgandi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 70 dan ortiq tilni bilgan. Falsafa logika, astronomiya, matematika va musiqa bilan shug'ullangan. Farobiy fanning turli sohalariga bag'ishlangan 160 dan ortiq asarlar yozgan. Ular orasida "Aristotel (Arastu)ning "Metafizika" asari maqsadlari haqida, "Musiqqa kitobi", "Qonunlar haqida kitob", "Fozil odamlar shahri", "Siyosat al-madaniya" va boshqalar.

Al-Farobiy Arastu, Platon, Suqrot, Yevklid, Ptolemey, Epikur, Zenon Porfiriy va boshqa olimlarning asarlarini chuqur tahlil qilgan, ularga sharxlar yozgan. Farobiyning zamondoshlari tirikligidayoq uni Sharq Arastusi va Arastudan keyingi "Ikkinchi muallim"- " Muallim as-soniy " deb atashgan. Farobiy musiqashunoslik nazariyasi rivojiga o'lgan hissa qo'shdi. U musiqani nazariy jihatdan tahlil qilish bilan birga, Sharqda birinchi bo'lib musiqani notaga tushirdi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Farobiy o'zi mohir sozanda va bastakor bo'lgan, yangi musiqa asbobini yaratgan.

Sharqning buyuk allomalaridan, qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Ibn Sinodir.(980-1037). U Buxoroda tug'ilib o'sdi, so'ng Osiyo, Eronning juda ko'p shaharlarida bo'ldi va Hamadon shaxrida vafot etadi. O'zining o'lgan ilmiy muvaffaqiyatlari orqali u Sharq va G'arbda keng tanilib, YEvropada "Avisenna", Sharqda "Shayx ul-ra'is", "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshosi" degan nomlarga sazovor bo'lgan Ibn Sino yoshligidanoq o'z davri fanlarini, diniy manbalarni, bir necha tillarni chuqur egallab oladi, 16-17 yoshidayoq mashhur tabib bo'lib taniladi. Bir necha vaqt u Xorazmda Ma'mun tashkil qilgan, o'sha davrdagi eng yirik fan markazlaridan biri, o'z zamonasining akademiyasida faoliyat ko'rsatadi. Ibn Sino 40 dan ziyod tibbiyot, 30 ta astronomiya va tabiiy fanlarga, 185 ta falsafa, mantiq va dinga oid va boshqa asarlar yozgan. Ibn Sino ilmiy dahosining cho'qqisi uning medisinaga doir asarlari va ixtirolaridir. Bu asarlarning markazida medisinaning ming yillik tarixiga yakun yasagan va uni yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan, XVII asrga qadar Yevropa mamlakatlarida medisinaning asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan 5 kitobdan iborat "Kitob al-qonun fittib"- medisina qonunlari- asari turadi. Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari, ularni davolash usullari, odam anatomiyasi, dorilarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol qilish yo'llari va boshqalarga oid qimmatli ma'lumotlar bergan. Undan tashqari Ibn Sino Pasterdan bir necha asr oldin suv va havo orqali tarqaladigan "isitma" li (yuqumli) kasalliklarni qo'zg'atuvchi mikroblar haqida fikr yuritib, buyuk kashfiyot qildi.

IX-XI asr fani va madaniyatining ilg'or an'alariga yakun yasagan hamda uni yanada yuksak pog'onaga ko'targan buyuk olim- ensiklopedist Abu Rayhon Beruniydur U madaniyatimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Beruniyning riyoziyot, jug'rofiya, falakiyot, fizika, tibbiyot, she'r ilmi, mineralogiya, kimyo va tarixga oid asarlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yuqotgan emas. U ayni paytda juda kup tillarni mukammal bilgan va shu tillarda bitilgan asarlarni chuqur mutoala qila bilgan. Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib er kurrasini qo'lbola nusxasi- globusni yaratadi. Kopernikdan 500 yil oldin YErning quyosh atrofida aylanishini doxiyona zukkolik bilan bashorat qiladi. Beruniyning tarixga oid asarlari ichida «Osorul boqiya» (" O'tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar") yunonlar, rimliklar, forslar, sug'diylar, xorazmiylar va boshqa qabila va xalqlarning adabiyoti, madaniyati, yil xisobi, bayrami, urf-odat va boshqalar haqida himmatli ma'lumot va faktlar beradi. " Hindiston" asarida hind falsafasi, tarix fani, jug'rofiyasi, aholining etnik tarkibi, uning urf- odatlari, rasm-rusumlari, diniy e'tiqodlari haqida ma'lumotlar to'plangan. Beruniyning "Aholi turar joylari oralig'idagi masofani aniqlash" nomli ajoyib

asari hozir qisqacha "Geodeziya " deb ataladi va unda geodeziya, geofizika, jug'rofiyaga oid ma'lumotlar bor. " Kitob al- jamoxir fi ma'rifat al javohir" ("Qimmatbaho toshlarni bilib olish buyicha ma'lumotlar to'plami") asari xozir qisqacha "Mineralogiya" deb atalib, unda ko'pgina minerallarning aniqlash usullari, konlari, xislatlari haqida ma'lumotlar berilib, katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilgan olimlardan tashqari, o'sha davrda tarixchi va adabiyotshunos Abdulloh ibn Muslim Marvaziy Dinovariy («Kitob-ul-maorif», Kitob-ush-she'r va sh-shuaro»), tarixchilar Abusand Gardiziy («Xabarlar ko'rki»), Narshahiy («Buxoro tarixi») Majididdin Muhammad ibn Adnon («Turkiston mamlakati tarixi»). Tarixchi Mekkaveyh, tabiblardan Ibn Xammor, Najmiddin Samarqandiy, riyoziyun Abdulmajid Xujandi, falakshunos Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Marg'iloniy, tilshunoslardan Abulqosim Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalar ilm fanning turli sohalarini rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

IX-XII asrlar O'rta Osiyoda adabiyot va san'at sohasida ham muhim bir davr bo'ldi. Bu davrda xalq og'zaki ijodining boy va xilma-xil yangi asarlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, bu davrda uyg'ur, tojik, eski o'zbek adabiy tillari shakllanib, bu tillarda yozma adabiyot vujudga keldi, iste'dodli so'z sohiblari etishdi va o'lmas badiiy asarlar yaratildi. Abu Abdulla Rudakiy tojik adabiy tili va adabiyotining asoschisi, dunyo adabiyotining yirik nomoyondalaridan biridir.

XI asr shoiri Ustodi Rashidiyning yozishicha, Rudakiyning bir million uch yuz ming bayt she'ri borlig'ini hisoblab chiqqan. Rudakiy "Kalila va Dimna" va bir qancha dostonlar, "Sindbodnoma", «Nodir g'unchalar» va boshqa ko'plab asarlar yaratdi. Afsuski, bizgacha uning she'riyatining ozgina qismi va asarlardan parchalar etib kelgan, xolos.

Jaxon adabiyotining eng yirik eposlaridan biri "Shoxnoma"ni yaratishda Firdavsiy (940-1020) 35 yil mehnat qildi. Bu asar 60 ming baytdan iborat. Unda O'rta Osiyo, Eron va boshqa o'lkalarning bir necha asrlik ma'naviy madaniyatiga yakun yasalgan va bir necha yuz personajlarning paxlavonlari, shoxlar, olimlar, hunarmandlar va boshqa obrazlar yaratilgan.

X-XII asrlar turkiy adabiy tillarning, jumladan eski o'zbek adabiy tilining ravnaq topishida katta bir bosqich bo'ldi. Bunda mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning 1069 yilda yozgan "Devonu lug'ati turk" ("Turkiy so'zlar devoni"), bolosogunlik Yusuf Xos Xojibning 1069-1070 yillarda ezgan "Kutadgu bilik" ("Saodatga boshlovchi bilim") hamda Ahmad Yugnakiyning " Xibatul- haqoyiq" ("Haqiqatlar sovg'asi") asarlari muhim o'rin tutadi. Turkiy tillar tarixini, ulardagi shevalar va laxjalarni, og'zaki adabiyot yodgorliklarini o'rganishda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asari benixoyat katta ahamiyatga egadir.

Masalan, asarda quyidagi ahloqiy –ta'limiy she'rlar va xalq maqollari bor: «Ikki bo'g'ar ichamur, o'tra ko'kagun yangilur – ikki er hayovon olishadi, orada pashsha engiladi. Bu maqolda ma'nosi – ikki kuchlilar urushganda, kuchsizlar yangiladilar; «Qarg'a qozog'a o'tkunga butun sinur –qarg'a uchishda o'zini g'ozg'a o'xshatsa, butun sinadi. Bu maqoldi ma'nosi - o'z holiga qarab ishga undosh lozim.

Yusuf Xos Xojib (Yusuf Bolosog'unliy) XI asrning 20 yillarida tavallud topgan va bizga ajoyib turk yozuvi yodgorligi bo'lmish «Qutadg'u bilik» («Saodatga boshlovchi bilim») asarni qoldirgan.

Bu asar uchun unga «xos hojib» degan faqarli unvon berilgan, ya'ni «Muqarram» yoki bizdagi akademikka o'xshagan unvon Bu asarning qimmatli shundaki, u eski turkiy tilda yozilgan Kitob 73 bobdan iborat bo'lib, ularto'rt bosh qahramonning asosan ahloqiy –tarbiyaviy, ezgulik, adolatparvarlik va xalqparvalik masalalariga oid suhbatlardan tashkil topgan. Undan tashqari asarda falakiyot, riyoziyun, tibbiyotga oid bir qator ma'lumotlar ham bor. Yusuf hos Hojib o'z asarida juda ko'p xalq maqollarini va hikmatli so'zlarini ishlatadi. Masalan:

Yo'la ul uqush, ko'r, qarog'uqa ko'z,

O'luk tanga jon ul, og'in tilga so'z.

(Aql mash'aldir, qara u ko'rga – ko'z, o'lik tanga – jon, saqovga tildir) Hozirgi kunda bu so'zlar «Ilm-aql chirog'i» kabi maqolga aylangan.

«Qutatg'u bilik» XI asr qorahoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni o'rganishda ham bebaho bir manbadir.

XII asr ohirlarida ijod qilgan yana bir buyuk turk shoir Ahmad Yugnakiy. Buyuk adib bizga «Hibat-ul-haqoyiq» («Haqiqatlar sovg'asi») dostonini qoldirgan. Ahmad Yugnakiy to'g'risida nihoyatda oz ma'lumot saqlangan. Lekin adibning ism-shariflari vatanlari Yugnak ekani haqida ma'lumot beradi. Yugnak (Yug'noq) nomli Joy Farg'ona vodiysida ham, Turki ston atrofida ham bor. Ahmad Yugnakiy

235 baytdan iborat «Hibat-ul-haqoyiq» asarida ilm-ma'rifat, ahloq –odob, din va shariat masalalariga e'tibor qilgan va eski o'zbek hamda uyg'ur adabiy tili rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Ahmad Yugnakiy zamonasining progressiv donishmandi sifatida ahloq –odob masalalariga oid qimmatli fikrlar bayon etgan:

Ulug'liqqa tegsang, yangilma o'zung,
Qali kiysang atlas, unutma bo'zung.
Ulug'liqqa etsang, engiltak bo'lma,
Atlos kiysang agar, bo'zingni unutma.

3. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xududida dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom madaniyati ham rivojlandi va taraqqiy etdi. Islom madaniyatining Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan nodir manbalardan biri Hadislar, ya'ni Muhammad payg'ambar alayxissalomning diniy va axloqiy ko'rsatmalari, hikmatli so'zlaridir. Hadischilikning rivojlanishida musulmon olamida olti muxaddis mashxur bo'lsa, shulardan uchasi O'rta Osiyolikdir. Muxaddislar ichida eng obro'lisi va mashxuri Imom al-Buxoriydir (809-870). U Buxoroda tug'ilib, shu erda o'z davri ilmlarini, ayniqsa diniy bilimlarni har tomonlama o'rgandi. So'ng o'z bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Hijoz, Makka, Madina, Damashq, Qohira, Basra, Bag'dod, Kufa Nishopur kabi shaharlariga borgan. Zamondoshlaridan birining yozishicha, o'z ilmini oshirish maqsadida, Al-Buxoriy to'qsonta olimdan ta'lim oladi va o'z navbatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik qiladi. Manbalarda al-Buxoriyning 300 mingga yaqin Hadisni yod bilgani qayd qilingan, ja'mi esa 600 ming hadislarini to'plagan.

Imom al-Buxoriy yigirmadan ortiq asar yozgan. Olimning «Al-Adab al-Mufrad», At-ta'rix as-Sag'ir», «At-Ta'rix al-Kabiyr», «Kitob al-Ilal» va boshqa asarlari ichida eng mashxuri "Al-Jome' as-sahiyh" ("Ishonchli to'plam") dir. Asar to'rt jilddan iborat bo'lib, boshqa muxaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarlisi. Asarda faqat 7275 eng "sahiyh» hadislar kirgan. Ushbu asar yozilganiga taxminan 1200 yil bo'lsada, u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuksak baxolanib kelinmoqda. Imom al-Buxoriy «hadis ilmida amir al-mo'miniy» (Hadis ilmida musulmonlarning etakchisi) degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. Uning asarlarining diqqat markazida dinning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, tozaligi, donoligi, yaxshi va yomonni bir-biridan ajrata bilishi turadi. Buyuk muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Imom At-Termiziydir (824-892) u Termizga yaqin Bug' qishlog'ida tug'ilib, Sharqning juda ko'p shaharlarida bo'lib, o'z davrining diniy ilmlarini egallagan. Islomshunos olimlarimizdan yana biri At-Termiziy undan ortiq asarlar yozgan. Ular orasida "Al-Jomi' as-sayiyx" ("Ishonchli to'plam"), "Ali-Shamoyil an-nabiviya" ("Payg'ambarning alohida fazilatlarini") «At-Tarix», «Kitob az-Zuxd», «Sunan at-Termiziy» va boshqalar. Bu asarlarda hadislardan tashqari filologiya, tarixga oid masalalar ham qamrab olingan.

O'rta Osiyolik olimlar hadisshunoslik bilan birga islom huquqshunosligi - fiqh hamda Qur'onga tavsif yozish sohasida ham shuxrat qozonganlar. Vatandosh fikshunos olimlardan Abu Lays Samarqandiy, Abu Bakr Buxorii, Faxriddin Qozixon, Burhoniddin Marg'inoniy o'z davrida islom dunyosida mashxur bo'lganlar. Xususan, Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197) fiqhga oid qator asarlar muallifi. Ular orasida «Hidoya fi-l-furuz» (Shariat sohalariboyicha qo'llanma) o'ziga xos shariat kodeksi bo'lib, hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo'llanma sifatida hizmat qiladi. XI-XII asrlarda Movarounnaxrda diniy falsafiy oqimlaridan biri so'fizm tarqala boshlaydi. («suf» - arabcha so'z, ko'chma ma'noda janda kiyib yurgan kishilar so'fi, ularning maslagi so'fizm deb yuritilgan). O'rta Osiyoda XII asrda Yassaviya (asoschisi Ahmad Yassaviy), XIV asrda Naqshbandiya (asoschisi Bahovuddin Naqshband), XVI asrda Qalandariya (asoschisi Shayx Safo) va boshqalar vujudga keldi.

Xoja Ahmad Yassaviy (1103-1165) Turkistonning Yassi shahrida ruhoniylar shayx oilasida tavvalud topgan. Uning mashhur «Hikmat» kitobida bu dunyo bevafo, vaqtinchalik mehmonxona, xamma kelib ketaveradigan joy ekanligi, shunday ekan, xasis, ochko'z, noshukur bo'lishi kerak emas, insonning peshonasiga hamma narsa azaldan yozib qoyilgan, hamma voqea va hodisalarni norozi bo'lmasdan kutib olish, sabr-toqat bilan kun o'tkazish kerakligi da'vat etiladi. Bu asar o'sha zamonning fan, madaniyat, diniy, ijtimoiy iqtisodiy hayot jabhalarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda shakllangan yana bir sufiylik oqimi-kubraviyadir. Uning asoschisi Najmiddin Kubro (1145-1221). Kubraviya tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog'lanib ketgan. Unda kishilarning diniy e'tiqodi, xudoga bo'lgan ishonchi, halollik, odamiylik, molu dunyoga hirs qoymaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba qilish singari axloqiy g'oyaviy talablar bir-biri bog'lanib ketgan.

Tasavvuf XIV asrda naqshbandiya ta'limotida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband (1318-1389) asos soldi. Naqshbandiya tariqatining asosida toat- ibodat va mehnat bilan kamol topib, Oloh visoliga etishish, ma'naviy-ahloqiy kamolotga erishish yo'llari yotadi. U insonlarni halol pok bo'lishiga, o'z mehnati bilan kun ko'rishga, muhtojlarga yordam berishga, kamtar va sofdil bo'lishga da'vat qiladi. U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasini olg'a surgan, insonlarni faqirlikka, undaydi, faqat o'z mehnati bilan yashashni yoqlaydi. Uning «Dil ba yoru, dast ba kor» («Oloh dilda, qo'l ishda») shiori, naqshbandiya tariqatining asosiy mohiyatini ifodalaydi.

So'fizm musulmon mamlakatlari hayotida muhim ijtimoiy-mafkuraviy va madaniy rol oynadi. U badiiy adabiyot, falsafa, musiqa, maorif, ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatdi.

XIII asrda mugullar istilosi okibatida kupgina shaxarlar, ayniqsa Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch kabi shaharlar vayron bo'ldi. Mo'g'ullar bosqini tasviriy san'atga ham, me'morchilik, amaliy-bezak san'atiga, adabiyot va ilm-fan rivojiga katta to'sqinlik qildi.

4. X-XII asrlarda Markaziy Osiyo me'morchiligi va san'atida yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi. Islom dinini o'sha davrda hukmron mafkuraga aylanishi me'morchilik va san'atga katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgand, Turki ston, Marv kabi shaharlarida ko'plab saroy, masjid, xonaqoh, madrasa, minora, tim, sardoba va boshqa binolar qurildi. Avvaliga qurilayotgan binolarda an'analar saqlanib qolgan edi. O'sha davrda paxsa, pishiq va xom g'isht, yog'och ganch kabi ashyolar keng qo'llanilgan. XII asrdan boshlab me'morlikda oyma terrakotadan, sirlangan g'ishtdan foydalanildi, monumental binolarning devor, gumbazlari koshin bilan qoplab bezatildi, bino intererlari ganch oymakorligi, boyama naqshlar bilan ham jozibadorlantirilgan edi. (Termizshohlar saroyi). X-XII asrlarda binolarda arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi.

Somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan binolar me'morlik san'atining yuksak darajaga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi buning yorqin dalili bo'ladi. Kub (10,80m x10,70m) shaklidagi bu maqbaraning tomi gumbaz qilib yopilgan, gumbazning o'rtasiga minoracha qilingan. G'ishtlarning turlicha maqom va shakllarda terilishi binoning tashqi va ichki bezagini ta'minlaydi. Bu to'rt tomonli inshoot bo'lib, uning to'rtala tomoni ham old hisoblanadi. Unga bir tomondan kirilsa-da, to'rtala tomoni bir xil bezatilgan.

Qoraxoniylar davrida qurilgan binolardan biri Buxoro viloyyatida Hazora qishlog'idagi XI asrga mansub Dehgaron masjididir. Uning engil g'ishtdan ishlangan to'qqizta gumbazi bor. Bu masjid yaqinida «Raboti Malik» degan katta va go'zal karvonsaroy bor.

X-XII asrlarda shaharga o'zgacha ulug'vorlik va ko'rk bag'ishlab turuvchi minoralar qurish keng rasm bo'lgan edi.

Buxoro binokorligining eng yaxshi yodgorliklaridan biri Masjidi jomening minorasidir. Bu minora 1127 yilda Arslonxonning hukmronligi davrida qurilgan. Uning balandligi 46,5 metr bo'lib fundamenti 10m chuqurilishi, ustida peshtoqli «Chirog'i» bor. 1102-1130 yillarda Minorai Kalon yoki Katta Buxoro minorasi tepaga tomon ingichka tortib boruvchi o'ltan doiraviy ustundan iborat bo'lib qurilgan, bu minora jinoyatchi mahbuslarni tepasidan tashlashgani uchun xalq orasida «Ajal minorasi» deb atalgan. XII asrning oxirida esa Vobkentda balandligi 25 m bo'lgan ko'rkam minora qurilgan. 1108 yilda Jarqurg'onda (Surxandaryo) ham jimjimador gullar solinib, g'oyat aniq reja asosida pishiq qilib minora qurilgan.

Buxorodagi Namozgoh va Mag'oki Attoriy masjidi Arabota maqbarasi, Urganchdagi Fahriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar saljuqiy maqbarasi va boshqalar o'sha zamon me'morchiligining durdonalari hisoblanadi.

Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, 10 asrdan shahar tarkibida qurildi. Masalan, Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda shahristonda. Saroy me'morchiligida yog'och konstruksiyalardan ko'p foydalanilgan.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda me'morchilik bilan bir qatorda naqqoshlik va tasviriy san'at katta rivoj topdi. Islomdan ilgarigi davrda Sug'diyonada tilla, kumush, bronza va loydan odam va hayvon haykalchalarini yasashgan. Islom dini har qanday tirik mavjudotni tasvirlashni qat'iy man etgan bo'lsa-da, lekin O'rta Osiyoda uni butunlay yo'qota olmadi. Masalan, Varaxsha, Tuproqqal'a, Panjakent, Afrosiyobdagi devoriy rasmlar bundan dalolat beradi. X asrda Samarqandga kelgan arab sayyohi Ibn Havkal bunday yozadi: «Sarv daraxtidan otlar, buqalar, tuyalar va yovvoyi echkilarning ajoyib tasvirlari oyib ishlangan, ular bir-birlarining qarshisida turadilar, goyo bir-birlariga qaraydilar va jang qilmoqchi yoki kurashmoqchi bo'ladilar».

Yog'och yoki ganch hamda loydan turli mavjudotlarning shaklini yasashdan tashqari, unday shakllar devorlarga va xilma-xil idish-tovoqlarga ham tushirilgan.

XIII asrda mug'ullar istilosi oqibatida ko'pgina shaharlar, ayniqsa Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch kabi, vayron bo'ldi. Mug'ullar bosqini tasviriy san'atga ham, me'morlik, amaliy bezak san'atiga, adabiyot va ilm-fan rivojiga ham katta to'sqinlik qildi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida madaniyat, fan, adabiyot va san'at tanazzulga uchradi. Ko'plab fozil kishilar, olimlar, shoirlar mo'g'ul –tatar galalariga qarshi kurashda halok bo'ldi. Masalan, manbalardan ma'lum bo'lishicha,

Takrorlash uchun savollar:

1. Uyg'onish davri tushunchasini tavsiflang.
2. Madaniy yuksalishni ta'minlagan asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Nima uchun ajdodlarimiz tomonidan arab tilini, islom nazariyasi va shariat axkomlarini, islomning huquqiy asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi misli ko'rilmagan darajada kuchayib ketdi?
4. IX-XII asrlarda O'zbekiston xududida amal qilgan ilmiy-ma'rifiy markazlar?
5. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Arab dunyosi va jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi.
6. IX-XII asrlarda ilm-fan, adabiyot va san'atning gullab yashnashi.
7. IX-XII asrlarda me'morchilikning yuksalishi.
8. Markaziy Osiyo zaminidan etishib chiqqan madaniyat arboblari to'g'risida so'zlab bering.

6-Mavzu: Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr)

Reja:

1. XIV asrning 2 chi yarmi –XV asrda madaniyatning rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Amir Temur madaniyat xomiysi.
2. Ilm –fan va adabiyot ravnaqi.
3. Me'morchilik, tasviriy san'at va amaliy san'at
4. Temuriylar davrida diniy munosabatlarning rivojlanishi.

Adabiyotlar:

1,5,14,15,26,29,30,31,36

Tayanch tushunchalar:

Temur va temuriylar davlatining madaniy taraqqiyoti, temuriylar davri me'morchiligi, miniatyura san'ati, xattotlik san'ati, badiiy Hunarmandchilik, turk, o'zbek tilining takomillashuvi, o'zbek mumtoz adabiyoti, Naqshbandiya ta'limoti.

1. Mug'ullar hukmronligi davrida madaniyat, fan, adabiyot va san'at tanazzulga uchradi, ko'plab fozil kishilar, olimlar, shoirlar mug'ul-tatar galalariga qarshi kurashda xalok bo'ldi. Garchi mug'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlarining madaniyatida erishgan tajriba va an'alarini emirib tashlay olmasa-da, lekin mug'ullar qilgan yaxshiliklar natijasida o'zining qadimiy madaniyati bilan mashxur o'lkaga salbiy ta'sir ko'rsatdi. XIU asr o'rtalaridan -XU1 asrgacha bo'lgan davr O'rta Osiyo madaniyati, san'ati va adabiyoti taraqqiy topishda yangi va sarmaxsul davrdir. X111 asrdagi mug'ullar istilosi O'rta Osiyoga uning ishlab chiqarish kuchlariga kuchli zarba berdi, madaniyat va hunarmandchilik markazlarini vayron etdi. Mug'ul bosqinchilariga qarshi kurash Amir Temur boshchiligidagi yirik feodal davlatning tashkil topish bilan yakunlandi. Tabiiyki, mustaqil davlat feodal ishlab chiqarishning rivojlanishiga, hunarmandchilik, shaharlar qurilishiga va umuman madaniyatining yuksalishiga olib keldi. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlari ilm-fan, me'morchilik, naqqoshlik, muzika, tasviriy san'at, adabiyot va boshqa sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ulug'bek, Ali Qushchi, Koshiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Behzod kabi bir qancha olim, shoir va san'atkorlar ijod qilib, madaniyatga katta hissa qo'shdilar.

Temur Movarounnahrda o'zaro ichki urushlarga va feodal tarqoqliklarga chek qoydi. Temur bosib olingan o'lkalarning boyliklarini sarflagan holda davlatning iqtisodiy va madaniy ravnaqiga ahamiyat berdi. Shaharlarda masjid, madrasa va madaniy-maishiy binolar barpo etildi. Ayniqsa

Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kabi shaharlar o'sdi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topdi. Movarounnahrning Xitoy, Hindiston, Arabiston va hatto uzoq Ispaniya, Italiya, Fransiya, Angliya va boshqa YEvropa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari kengaydi.

Ispan qurolining Temur saroyiga tashrif buyurgan elchisi Ryun Gonzales de Klavixoning yozishicha, o'sha davrda Samarqand bozorlarida dunyoning barcha tomonlaridan kelgan, turli tillarda so'zlashuvchi, turli dinga mansub savdogarlarni va ularning anvoyi mollarini har qadamda uchratish mumkin bo'lgan. Shubhasiz, Amir Temur davrida Movarounnahr Buyuk Ipak yo'lining eng serqatnov, serdaromad va gavjum qismi hisoblangan.

Amir Temur davri madaniyati haqida gap yuritar ekanmiz, shubhasiz buyuk davlat arbobi, sarkarda va madaniyat homiysi Temurning roli bu sohada juda yuksakdir. U buyuk imoratlar barpo etdi va ularni o'lgan bog'u- rog'lar bilan uradi, shahar va qishloqlarni tikladi va buzilganlarni tuzatdi. Temurning ijodkorlik faoliyati kishini hayratda qoldiradi. Musulmon me'morchiligidagi eng yaxshi davr Temur va uning avlodlari bilan bog'liq. Amir Temurning muhtasham osmono'par inshootlar qurdirgani, o'sha davrning eng boy kutubxonagasiga ega bo'lganini ta'kidlash kerak. Temur ziyo ahlining gullab, fan va madaniyat yuksalishida qadimiy mahalliy an'analardan foydalanib olimu hunarmandlarga ijod uchun sharoit yaratib bergan edi. Chetdan keltirilgan ustalar qurilishda ishlaganlari rost, ammo asosiy ishboshi va bosh me'morlar mahalliy ajdodlarimizdan bo'lgan. Darhaqiqat, Samarqand, Shaxrisabz, Buxoro va boshqa shaharlarda qurilgan binolar, bu erda ming yillardan buyon davom etib kelayotgan an'analarda asosida barpo etilganini ko'rsatadi. Temur shaxsi haqida ko'p bahs-munozaralar bo'lib o'tdi: birovlar Temur savodsiz bo'lgan, deyishsa, boshqalar bunaqa bo'lishi mumkin emas, chunki turk va fors tillarini yaxshi bilgan, turklar, arablar, forslar tarihidan xabardor bo'lgan, tibbiyot, riyoziyot, jo'g'rofiya, munajjimlik, she'riyat va me'morchilikni qadrlab bilgan, o'z avlodlariga «Temur tuzuklarini» qoldirgan kishi savodsiz bo'lishi mumkin emas. Darhaqiqat, Temur ilm-fan, me'morchilik va san'atdan habardor bo'lgan kishi edi. U ma'rifatparvar edi. Iqtidorli davlat arbobi.

2. Amir Temur davlatni yuksaltirishda ilm- fanning ahamiyati beqiyosligini yaxshi bilgan va olimu- ulamolarga katta izzat ikrom ko'rsatgan. L.Lyanglening ta'kidlashicha: "U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda bilimdon bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki Temur bu sohalarga g'amhurlik qilishga muhim e'tibor berar edi. Uning saroyida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, astronom Badriddin Ahmad, tabib Xusomiddin Ibrohimshox Kermoniy, Nu'monuddin Xorazmiy, Xoja Muhammad al-Buxoriy, xadishi Alouddin at-Tabriziy, va'xon va xatib mavlono Ahmad Ibn Shams ul-Aimma va boshqalar xizmat qilar edilar. Odatda Amir Temur tibbiyot, riyoziyot, tarix va munajjimlik fanlari vakillari, adabiyot, shuningdek diniy va falsafiy bilimlarga ega bo'lgan mashhur odamlar bilan aloqada bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» sida yozilishicha; Amir Temur olimlar bilan o'tkazgan bir uchrashuvda shunday nutq so'zlagan: «Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan qadimda podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishingiz bilan ko'maklashingiz kerak». Ko'rinib turibdiki, Temur davlatni boshqarish ishlarida bilimdon odamlar, olimlar bilan maslahat qilgan. Temurning nevarasi Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay, 1394-1449) davrida Samarqand O'rta Osiyoni yirik madaniy uchog'iga aylandi, madrasalarda diniy fanlardan tashqari, dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Tabiiy fanlar sohasida, ayniqsa, riyoziyot va munajjimlik yuksaldi. Buyuk olim va davlat boshlig'i Mirzo Ulug'bek Samarqand falakiyot maktabiga asos solib, o'sha davrdagi falakiyot ilmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Ulug'bek bilan birga Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Abduali Birjandiy, Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy va boshqa olimlar riyoziyot va falakiyot sohasida samarali ish olib bordilar.

Ulug'bek Samarqandda rasadxona- observatoriya qurdirdi. Bu rasadxonaning asbobi sekstant-radiusi 46 metrni tashkil etgan va aniqligi bilan XU asrgacha bo'lgan barcha rasadxonalarning asboblari ustun turar edi. Bu rasadxonada bizning davrimizgacha o'z ilmiy qimmatini saqlab kelayotgan Ulug'bekning " Ziji Kuragoniy" deb atalgan «Yulduzlar jadvali» yaratildi. Bu jadvalda 1018 ta yulduzlarning o'rni o'sha davr taraqqiyoti uchun mo'ljaviy aniqlik bilan ko'rsatilgan ilm-fanning rivojlanishi uchun juda ko'p qo'lyozma va kitoblar zarur bo'lgani aniq. Ulug'bek boy kutubxona tashkil etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, unda 15000 jild kitob saqlangan.

XIU-XU1 asr boshlarida gumanitar fanlardan tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va boshqalar yuksaldi. Tarix fani sohasida Sharofuddin Ali Yazdiy ("Zafarnoma"), Hofizi Abru ("Tarixlar qaymog'i"), Abdurazzoq Samarqandiy ("Ikki baxtning boshlanmasi"), Mirxond ("Soflik bog'i"), Xondamir ("Xabarlar xulosasi", "Yaxshi xislatlar" "Yaxshi xulklar"), Zayniddin Vosifi ("Go'zal voqealar"), Zaxiriddin Bobur ("Boburnoma") va boshqalar yaratilib, bu asarlarda o'tmish va zamondoshlarga oid bo'lgan tarixiy voqealar yoritilgan.

Temur va Temuriylar davri o'zbek adabiyoti va tili taraqqiyotida yangi va juda sermaxsul davr bo'ldi. Bu davrda eski o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni asosan tugallandi, adabiyotda real xayotiy voqea - xodisalarni, ijtimoiy o'zgarishlarni tasvirlashga e'tibor berila boshlandi. Xorazmiy, Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Amiriy, Bobur, Abduraxmon Jomiy va o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy kabi shoirlarning asarlari dunyoviy adabiyotni yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitdi. Navoiy «malik –ul-kalom» («so'z podshosi») deb atalgan Lutfiy o'zbek adabiyotida katta o'rin tutadi. U ajoyib lirik va epik asarlar yaratdi. Lutfiy o'z ijodida halq og'zaki adabiyotidan ijodiy foydalanib yaratgan «Gul va Navro'z» dostoni juda mashhur. Shoir Sakkokiy g'azallar va qasidalar bitib, ularda adolatli podsho uchun kurash g'oyasini suradi. Bu davrning eng buyuk mutaffakiri va ulug' shoir Alisher Navoiydir (1441-1501). U butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt -saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, mamlakatlar farovonligiga, feodal urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishlandi. Alisher Navoiy ilm-fan, san'at va adabiyot ahllarining buyuk homiysi va sarvari edi. Zahiriddin Bobur yozishicha: «Hazrat Navoiy tufayli qancha kishilar adabiyot, san'at borasida tarbiya oldilar va o'z qobiliyatini mustahkamladilar. Kishilar uningdek homiy va tarbiya beruvchi zotni boshqa uchratmadilar».

Navoiy bizga o'lgan adabiy va ilmiy meros koldirdi. Uning daxoligi Sharq klassik adabiyotida an'anaviy bo'lgan Xamsachilikda yaqqol namoyon bo'ldi. Navoiyning «Xamsa» si 5 dostonidan iborat bo'lib: «Xayratul-Abror» 1483 yilda, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» 1484 yilda, «Saddi Iskandariy» 1485 yilda yozilgan.

Navoiy 1491-1492 yillarda yozgan «Majalisun-nafois» («Nafis majlislar») asarida o'ziga zamondosh bo'lgan va undan oldin yashagan 459 shoir, tarixchi, fan sohiblari haqida qiziqarli ma'lumotlar bergan.

Navoiyning buyuk xizmatlaridan biri o'zbek milliy tilini rivojlantirishga qo'shgan hissasidir. Shoir "Muhokamatul-lug'atayn", "Xamsa", "Maxbub-ul- qulub", "Xazoyin-ul-maoniy",

"Lison-ut-tayr" va boshqa adabiy hamda ilmiy asarlarida o'zbek tilining boyligi, har qanday nozik va rang-barang ma'nolarni ifodalashga qodir ekanini isbotladi va o'z ona tilida "turk eliga dog'i baxra bo'lgay" degan niyatda ijod qildi. Navoiy o'z asarlarida insonni ulug'lab, uning hayotining mohiyati qisqa va uzunligi bilan emas balki mazmuni va sifati bilan belgilanishini ta'kidlaydi:

Bu gulshan ichra yo'qtur baqo
guliga sabot
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq
bila ot

Bu soatlar inson dunyodan o'tib ketsa ham, el –yurtga yaxshilik kishining oti boqiyliqi ifodalaydi.

O'zbek lirikasini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan Alisher Navoiy ozarbayjon, tojik, turkman, turk va boshqa xalqlar adabiyoti taraqqiyotiga ham samarali ta'sir etdi.

Temuriylar davrida tasviriy san'at ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. O'rta Osiyoda tasviriy san'at ikki yo'nalishda-me'morchilik bilan bog'liq bo'lgan monumental san'at hamda qo'lyozma yoki kitoblarga nafis suratlar solish ya'ni minatyura san'ati tarzda rivoj topdi. Bu davrda Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Mahmud Muzahhib, Xoja Muhammad Naqqosh, Qosim Ali, Shoh Muzaffar kabi iste'dodli rassomlar etishdi. Tasviriy san'at asarlarining mavzulari va ob'ektlari xilma-xil edi: hayotiy lavhalar, peyzaj, portretlar, binolarga solingan suratlar, badiiy asarlarga ishlangan rasmlar va boshqalar.

Bizgacha saqlanib qolgan portreytlar orasida Jomiy, Navoiy, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqa madaniyat hamda davlat arboblari suratini ko'ramiz. Masalan, Qosim Ali yoki Navoiy portretini, Mahmud Muzaxxiy keksa Navoiy portretini, Behzod Navoiy, Xusan Boyqaro, Shayboniyxon va o'zining portretlarini chizib qoldirdilar. O'sha davrning minatyura san'atining ulug' namoyondasi, Sharq Rafaeli deb nom olgan Kamoliddin Behzod (1455-1536) edi. U rassomlikda Xirot maktabi deb atalgan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'lgan edi. Behzod juda ko'p asarlar, portretlar, hayot va tabiat lavxalari, badiiy asarlarga illyustrasiyalar yaratgan. Ularda ranglar oynoqligi, kompozisiya

mukammalligi, boyoqlar yorqinligi, mazmun teranligi, haqqoniyat bilan tasvirlanishi, inson ruhiy holatini ifoda etilishi suvratlarni betakror sehrli bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, u Bibixonim madrasasi qurilishini o'z miniatyuralari orqali haqqoniy ko'rsatib bergan.

L.I. Rempel yozishicha: «Sharq miniatyurasi milliy hayotning mahsuli sifatida rivoj topdi. Bu unga o'z davrining butun jismoniy va ma'naviy dunyosini qamrab oluvchi o'zining xususiy poetik shaklini ishlab chiqishga imkon berdi».

XIV-XV asrlarda nafis kitob yaratish va xattotlik (kalligrafiya) san'ati ayniqsa yuqori bosqichga ko'tarildi. Kitob o'z mazmuni bilangina emas, balki shakli va bezalishi bilan ham kitobxonaga manzur bo'lishi, unga ma'lum estetik zavq bag'ishlashi kerak edi. Bu davrda Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Tabriziy, Rafiqiy va boshqa hattotlar etishib chiqdi. Mashhur hattot Sulton Ali Mashhadiy, Nizomiy, Attor, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Xusayn Boyqaro va boshqa shoirlarning asarlarini ko'chirgan. Bizgacha Sulton Ali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ortiq kitob etib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Vatanimiz sivilizasiyasi va madaniyati taraqqiyotida Uyg'onish davri yorqin bosqichlardan hisoblanadi. Bu davrda dunyoviy ilmlarga intilishning kuchayishi, turli xalqlarning ma'naviy-madaniy merosi (arab, yunon, eron madaniyati boyliklari), o'tmish madaniy qadriyatlar foydalanish, insonparvarlik g'oyalari tarqalishi, diniy ta'limotlar rivojida axloqiy mavzuning ustunligiga e'tibor berilishi madaniy yuksalishga imkon yaratdi.

3. Amir Temur o'z oldiga Samarqandni obod va ko'rkam, betimsol shaharga aylantirishni maqsad qilib qo'ygani edi. U Samarqand atrofida qishloqlar barpo ettirdi va o'sha davrning o'lgan shaharlari hisoblangan Bag'dod, Damashq, Misr (Qoxira), Sheroz, Madrid kabi shaharlar nomini bergan. Undan tashqari, u Samarqand atrofida Bog'i-Chinor, Bog'i-Nav, Bog'i-Shamol, Bog'i-Dilkusho, Bog'i-Naqshi Jaxon, Bog'i-Bexisht, Bog'i-Baland kabi bir-biridan go'zal bog'lar barpo ettirib, ularning ichida muxtasham saroylar, favvoralar sarxovuzlar qurdirdi. Samarqandda insoniyatni hozirga qadar hayratga solib kelayotgan obidalarining barpo bo'lishida Amir Temurning bevosita xizmatlari beqiyos bo'lgan. Bular – Shoxi-Zinda guruhidagi maqbara, Bibixonim masjidi, Go'ri-Amir maqbarasi, Samarqanddan tashqari boshqa shaharlarda ham Amir Temur go'zal va muxtasham binolar qurdirgan. Ular ichida Shaxrisabzdagi _Oqsaroy, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Dor us-siyosat (Hazrat imom masjidi) Turkistonda –Ahmad Yassaviy maqbarasi va boshqalar.

Temur o'z vatani Shahrizabzda qurdirgan Oqsaroy go'zallikda ham, ulug'vorlikda ham misli yo'q saroy bo'lishi kerak edi. Haqiqatan ham me'morlar ajoyib, muhtasham saroy bunyod etdilar. Vayrona holida 38 m taxminan bu binoning balandligi 70 m ya'ni 20-qavatli bino bilan teng bo'lgan, ya'ni 50 m Rivoyatlarga ko'ra dastlabki g'ishlar uchun aralashma oltin qum qo'shilgan bezagi «kufi» shaklidagi yozuv. Temur Oqsaroyga «Min shakka fi valoyatino va karomatino faizur ilo imoratino» ya'ni «Agar bizning quvvat va shavqatimizga shubhang bo'lsa, imoratimizga qara» so'zlarini oydirib yozdirgan edi. Undan tashqari Temur ko'pgina shaharlarga karvonsaroylar, xilxonalar, bozorlar, hammomlar va ko'priklar qurdirgan. Amir Temur davrida hunarmandchilik, musavvirlik, naqqoshlik, zargarlik kulolchilik, to'qimachilik yuksak darajada yashnagan. Ahmad Yassaviy maqbarasida saqlangan qozon (1390) bezaklari, oyib naqshlangan eshik (1397), kumush qadab nafis naqshlangan shamdan va hakoza o'sha davr amaliy-bezak san'ati mahsulining nodir namunalaridir. Temur tomonidan barpo etilgan bog'lardagi saroylar ko'pgina devoriy tasvirlar bilan bezatilgan edi. Unda, Temur zamondoshlari ta'kidlashlaricha, sohibqironning Eronda, Dashti-Qipchoqda va Hindistonda qilgan yurishlari bazm va vayronalar tasvirlangan. Vengr sayyohi Xerman Vamberi "Buxoro tarixi" kitobining XI bobida shunday yozadi: "Temurning O'rta Osiyo tarixidagi alohida o'rnini shundan ham bilsa bo'ladiki, u o'z hokimligi bilan yangi dinastiyani va balkim, ko'proq turk madaniyati deb atalishi mumkin bo'lgan O'rta Osiyo madaniyatining yangi davrini boshlab berdi.

Ulug'bek davrida Temur hokimiyati vaqtida qurila boshlangan Bibixonim masjidi, Go'ri-Amir maqbarasi binolari ko'rib bitkazildi. Ulug'bek "Chil ustun" ("Qirq ustun"), "Bog'i maydon" kabi bog'lar barpo etdi. Buxoro, Samarqand, G'ijduvon va boshqa joylarda madrasalar, Shahrizabzda Ko'k-Gumbaz maschitini qurdirdi. Samarqanddagi madrasa Registon maydoniga asos soldi. Bu madrasa 1417-1420 yillar ichida qurilgan. Bu go'zal bino ikki qavatli bo'lib, to'rt gumbaz va to'rt minora bilan bezatilgan, uning peshtog'ida yulduzlar olami aks ettirgan. Bu madrasada Ulug'bekning o'zi ham ma'ruzalar qilgan. 1417 yilda Buxoro madrasasini qurdirib, uning peshtog'iga quyidagi yozuvlar berilgan: "Ilm olmoqqa intilmoq

har bir musulim va musulima uchun qariz ham farzdir». Shaxrisabzdagi Ko'k-Gumbaz masjidini 1435 yili qurilgan va o'z monumentalligi bilan hamon ham diqqatga sazovordir.

Takrorlash uchun savollar:

1. XIV-XV asrlarda Movarounnaxrda madaniyat ravnaqini ta'minlagan omillar va shart sharoitlarni tushuntirib bering.
2. XIV-XV asr Movarounnaxrdagi madaniy yuksalishning asosiy belgilari.
3. Temur va temuriylar davrida me'morchilikning yuksak darajada rivojlanganligini misollar bilan tushuntirib bering.
4. Tasviriy san'atning rivojlanishida Kamoliddin Behzod ijodining ahamiyati to'g'risida tushuntirib bering.
5. O'zbek adabiyotining rivojiga hissa qo'shgan A.Navoiy va Zahridin Muhammad Bobir ijodi haqida so'zlab bering.
6. Ulug'bek Akademiyasi qerda tashkil etildi va uning yutuqlari nimada?
7. Temur va temuriylar davri ma'naviy hayotida diniy falsafaning o'rni to'g'risida so'zlab bering.
8. Temur va temuriylar davri madaniyatning hozirgi sharoitdagi ahamiyatini tushuntiring.

7–Mavzu: Xonliklar va Rossiya istilosi davrida, kamda mustabid sho'rolar davlati davrida O'zbekiston madaniyati

Reja:

1. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoning ijtimoiy-madaniy holati. Ma'naviy madaniyat va diniy mutaassiblik. Dunyoviy bilimlarning qadrsizlanishi. Ilmiy dunyoqa-rashning cheklanganligi.
2. Moddiy madaniyat. Xonliklardagi o'ziga xoslik.
3. Rossiya mustamlakachiligining milliy madaniyatga ta'siri.
4. Ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik va ijtimoiy madaniy ko'tarilish.
5. Milliy madaniy merosga sho'rolar tuzumi ma'muriy
6. Buyruqbozlik tizimining ta'siri.
7. Madaniyat va kommunistik mafkura.

Adabiyot

1,13,14,15,38,39,40,41,42

Tayanch tushunchalar:

Quyida maktab, qorixona, otinoyi maktablari, madrasa, xonliklarda adabiyot taraqqiyoti, shaxarsozlik, oymakorlik, naqqoshlik san'ati, miniatyura san'ati, musiqa san'ati.

1. XVI-asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar, ya'ni temuriylar imperiasining inqirozi, ko'chmanchi o'zbeklarni Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrni bosib olishi, Buxoro va Xiva xonliklarining vujudga kelishi va ular o'rtasidagi nizolar, madaniy hayotda ham o'zining chuqur izini qoldirdi.

Biroq o'zaro feodal urushlar, istilochilik va bosqinchilik harakatlari musulmon ruhoniylarning ta'qibi kuchayishi bari bir ilm-fan, adabiyot va san'atdagi ilg'or an'analarni butunlay yo'q qilib yubora olmadi, inson tafakkuri va dahosining taraqqiyotini bug'ishga qudrati etmadi.

XVI asrda mamlakat hayotida hunar va savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi, ilm ahllarining doirasining kengayishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

O'sha davrda maorif keng rivojlanadi. Ma'lum doiralarda, asosan o'ziga to'q tabaqalarda, xonaki muallimlar bilan ta'lim berish ancha keng tarqalgan. Odatda, bunday o'qituvchilar shoir, yozuvchi yoki biron diniy boshqarma hodimi bo'lar edi. Undan tashqari shahar va qishloqlarda maktablar mavjud bo'lgan. Bolalar olti yoshdan maktabga beriladi: ular alifboni, harflarning yozilishini o'rganishardi. Bunday maktablarda odatda masjid imomi saboq beradi. O'quvchilar maktabdan madrasaga o'tib, din

asoslaridan ta'lim olishardi. Hisob - kitob, she'r o'qish san'ati, musiqa kabi mahsus ilmlar madrasadan tashqarida o'qitilgan. Madrasa o'quvchilari uch guruhga - qoyi, o'rta va yuqori - bo'linib, har bir guruhda 8 yil o'qishardi. Madrasalarda islom dini ruhoniylari tayyorlar edi: eshonlar, mullalar va boshqalar.

O'sha davrda fanning bir qator tarmoqlari keng rivojlanadi. Masalan, tibbiyot sohasida katta siljishlar ro'y beradi. 1541 yilda Muhammad Husayin ibn al Mironi as- Samarqandiy tibbiy dorishunoslik risolasi yozib, unda shifobaxsh o'simliklar, dori tayyorlash va saqlash sirlarini suratlar bilan ko'rsatib beradi. XVI asrning ya'na bir tabibi Sultonali Xujandiy «Dasturu -liloj» degan asar yozgan va unda kasalliklarni davolash tug'risida maslahatlar berilgan. Bu davrda Yusuf Tabibiyning «Jome al – favoid» («Foydali ma'lumotlar to'plami») degan asari ham keng tarqalgan edi. Tibbiyotning rivojlanishi yirik shaharlarda shifonalar (darushshifo), Subxonkulixon davrida esa mahsus shifoxona madrasasi va tibbiyot kutubxonasi paydo bo'lishiga imkon yaratdi.

XVI asr mashhur olimi Amin Ahmad Roziy bizgacha etib kelgan «Haft iqlim» («Yetti iqlim») nomli jo'g'rofiy - biografik asarni (1594y) yozgan. U shahar va mamlakatlarni tavsif qilganda ularning jo'g'rofiy o'rni, diqqatga sazavor joylari, xalqi va uning hayoti, mashg'uloti va urf odati, iqtisodiyotiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiradi.

XVII asr yirik ensiklopedist olim Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohasini: tarix, jo'g'rofiya, astronomiya, mineralogiya va hokazolarni qamrab olgan «Baxrul- asror fi manoqib ul-ahyor» («Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi») nomli asar muallifidir. Biroq shuni ta'kidlash joizki, XVI-XVII asrlarda dunyoviy fanlar o'rnini musulmon diniy aqidalari egalladi. Aniq va tabiiy fan namoyandalari ta'qib qilinadi. Matematika, astronomiya kabi fanlar O'rta Osiyo xalqlari o'tmishida muhim o'rinni egallagan bo'lsa, bu davrga kelib bu fanlardan ayrim amaliy vazifalarni hal qilishdagina foydalaniladi.

XVI- XVIII asrlarda ilg'or ijtimoiy falsafiy fikr Davvoniy, Qorabog'iy, Mashrab, Turdi, Bedil asarlarida namoyan bo'ladi.

Mirzo Abulqodir Bedil (1644-1720yy) asarlari xalq orasida katta shuhrat qozongan edi. Bedil tabiatni abadiy deb bilib, materiya, ruh va ilohiy substansiyaning o'zviy birligi haqidagi fikrni rivojlantirdi. Bedil o'zining «Chor unsur» asarida mavjudotning asosi havo deb, «Ifron» asarida uni «mavjudu mavjud», ya'ni mavjudotning yaratuvchisi deb bilgan. Bedil o'z asarlarida hunarmandchilik, dehqonchilik, hurfikrlik va ilmni kuylagan. Uning falsafiy ta'minoti butun XVIII –XIX asr faylasuflariga amaliy yo'nalish berdi.

XVI asrning birinchi yarimida yashab o'tgan buxorolik Navkabiylar musiqa ilmiga oid ajoyib asar yozgan edi. Darveshali Samarqandiy tomonidan musiqa fani to'g'risida 12 maqomdan iborat «Risolai musiqiy» asarining yozilishi ham XVI – XVII asrlarga tug'ri keladi. Bu asarda musiqa, kuy, cholg'u asboblari, musiqa san'atiga doir asarlar yozgan olimlar va shoirlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

XVI- XVII asrlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu davrda Movarounnahrda ko'plab abadiy va tarixiy asarlar yaratildi.

Ayniqsa o'sha davrda tarixshunoslik keng rivoj topdi. XVI asrda Ruzbehxon, Isfahoniy, Binoiy, Muxammad Solix, Bobur, Xofiz Tanish Buxoriy va boshqalar eski o'zbek va fors-tojik tillarda asar ma'ruzalar yozishgan.

Tarixiy asarlar ichida muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorix-i guzide, nusratnoma» alohida o'rin tutadi. Bu asar 1502-1505 yillar orasida yozilgan bo'lib, unda qadimgi turklar, Chingizxon va uning avlodi tarixidan boshlab, to Shayboniyxon tomonidan O'rta Osiyoni istilo qilishigacha tarixi bayon etilgan.

Undan tashqari Shayboniyxonning hayoti va u olib borgan urushlar haqida hikoya qiluvchi she'riy asar bu Muhammad Solihning «Shayboniynoma» sidir. Bu asarda Shayboniy qo'shinlarining yovuzliklari, Qorako'l, Qarshi va G'uzorda Shayboniylarga qarshi xalq qo'zg'olonlari va umuman jo'g'rofiya va etnografiyaga doir ma'lumotlar bor.

Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarida o'zbek va qozoqlarning ilk tarixi yoritilgan.

XVI asrning yirik tarixchi olimi, iste'dodli shoiri, sarkardasi temuriylar hukmronlarining nomoyandalaridan biri Zahriddin Muhammad Bobur (1483-1530) edi. U Farg'ona hokimi Temurning nabirasi Umar Shayx Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 12 yoshda taxtga o'tirgan edi. Bobur juda murakkab hayot, kurash va ijodiy faoliyat yo'lini kechib o'tdi. U inqirozga yuz tutgan temuriylar davlatini saqlab qolish va mustahkamlash, O'rta Osiyoda markazlashgan yirik feodal davlat vujudga keltirish uchun uzoq vaqt qattiq kurash olib bordi. Ammo 1504 yili Shayboniyxon uni O'rta Osiyodan chiqib ketishiga majbur qilgan. O'sha yili Bobur Qobulni egallagan. U 1514-1526 yillar orasida Shimoliy Hindistonga, uni

buysundirish maqsadida besh marta qo'shin tortadi va 1526 yilda bu mamlakatni bosib olib, tarixda Boburiylar (g'arbda - Buyuk mug'ullar) imperiyasi nomi bilan mashhur bo'lgan davlatga asos soldi. Bu imperiya to 1858 yilgacha ya'ni Hindistonning ingliz mustamlakalari bosib olgunga qadar davom etdi. Bobur shoh bo'lishi bilan birga ko'p qirrali iste'dod sohibi edi. Boburning she'rlaridan bizgacha 100 dan ortiq g'azal va 200 ga yaqin ruboiysi etib kelgan. Bu she'rlarda shoir Vatanga muhabbat, ona diyorga sog'inch, dildagi g'am – hasratlarni ifoda etish katta o'rin egallaydi.

Boburning eng yirik va eng ajoyib asari, uni butun dunyoga tanitgan «Boburnoma»dir. Bu asar tarixiy manba bo'lishi bilan birga, o'zbek prozasining qimmatli yodgorligi hisoblanadi. «Boburnoma» tarix, jo'g'rofiya, etnografiya, tabiiyot, xalq tibbiyoti va boshqa ilmiy sohalar buyicha ham qimmatli ma'lumotlar beruvchi asardir. Undan tashqari Bobur huquqshunoslikka oid «Mubayyin» («Bayon etilgan»), aruz vazni va qofiya masalalari haqida «Mufassal», musiqa bo'yicha «Musiqiy ilmi», harbiy ish to'g'risida «Harb ishi» degan va boshqa asarlar ham yozgan. Arab alifbosining o'zbek tili va talaffuziga uncha muvofiq emasligini ko'rib Bobur «Xatti Boburiy» asarida bu alifboni isloh kiladi. Ammo bu alifbo hayotga tatbiq qilinmagan bo'lsa ham, alifboni tilga muvofiqlashtirish g'oyasining vujudga kelishi katta ahamiyat kasb etdi. Lekin, afsuski, Boburning ayrim asarlari bizgacha etib kelmagan yoki hanuzgacha topilmagan. Undan tashqari Bobur mohir tarjimon ham edi. U 1528 yili Xo'ja Axrorning «Volidiya» risolasini forschadan o'zbek tiliga she'riy usul bilan tarjima qilgan.

Bobur 1530 yilning 26 dekabrda Agrada vafot etdi. Keyinchalik chevarasi Shohi –Jahon uning xokini Qobulga ko'chirib, makbara qurdirdi. «Boburnoma» ni ingliz tiliga tarjima qilgan Ersin Boburni qoydagicha ta'riflangan edi: ...saxovatligi, mardligi, tantiligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda Osiyodagi podshohlar ichida Boburga teng keladigan birona ham podshoh topolmaymiz».

Biz o'rganayotgan davrda boshqa ko'pgina tarixiy asarlar ham yozilgandir. Buxoro, Xiva va Quqon xonliklari tarixini yoritishda Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» Muhammad Yoqubning «Gulshan – ul – muluk», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Muhammad Mir Olimning «Tarixi amir Nasrullo», Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflarining «Tarixi amir Haydar», Muhammad Hakimxon Turaning «Muntaxabub tavorix», Zaynuddin Vosifiyning «Badoe ul – vaqoe» («Nodir voqealar»), Mulla Avaz Muhammadning «Tarixi jahonnumoyi», Mulla Niyoz Muhammadning «Tarixi Shohruhi», Muhammad Solihxo'janing «Toshkentni yangi tarixi» kabi asarlar muhim o'rin egallaydi.

Qayd qilib o'tgan tarixiy asarlar faqatgina tarix yodgorligi bo'lib qolmasdan, balki o'zbek va tojik adabiyotining namunalari. Masalan, yuqorida aytib o'tgan Muhammad Solihning «Shoyboniynoma» asari she'riy formada yozilib, uning nafis lirikasi O'rta Osiyo xalqlarining adabiyotiga doir dong taratgan manbadir. XIX asr ohiri XX asr boshlarida maorif tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shilganga qadar hozirgi O'zbekiston xududida diniy musulmon o'quv yurtlari (eski maktab, madrasa, qorixona va boshqalar), ayniqsa boshlang'ich ma'lumot beruvchi eski maktablar keng tarqalgan. XX asr boshida Turkiston o'lkasida taxminan 5 mingga yaqin eski maktab mavjud edi, lekin ayrim maktablarda 10 tagacha o'quvchi bor edi. Bu maktablarda jismoniy kuch keng ishlatilar edi. T.Koriniyozov bu soxada shunday deb yozgan edi: “Odatda bolani maktabga ettib, domullaga topshirguncha, ota quydagi an'anaviy gaplarni aytar edi: “Go'shti -sizdan, suyagi-bizdan “va shu bilan domulloga o'quvchini o'rishga ijozat bergan edi”. Dehqonlarning va Hunarmandlarning bolalari odatda arab alifbesini o'rganib va Xaftiyakni (Qur'ondagi ayrim suralar tuplami) yodlagandan sung maktabni tashlashar edi. Madrasalarda odatda arab va fors tillarida boshlang'ish ilohiyot va shariat asoslari, ba'zan dunyoviy fanlar: arifmetika, jug'rofiya, keyinchalik hatto rus tili ham o'qitilgan. Qorixonalarda asosan Qur'on curalari yodlatilib, qorilar tayorlangan.

XIX asr oxirida ilm-fan sohasiga qo'shgan beqiyos hissasi buyicha Ahmad Donish (1827-1897) alohida o'rin tutadi. U bizga ilohiyot, astronomiya, jo'g'rofiya, adabiyot va tarixga oid 20ga yaqin asar yozib qoldirdilar. Ular ichida tarixga oid “Navodir ul-vaqoe” (“Nodir voqealar”) asarida jamiyatni mavjud qonun va davlat tartibini takomillashtirish yo'li bilan, odil va donishmand podshohning qo'li bilan qaytadan ko'rish mumkin, deb hisoblagan. Bu asarning «O'g'illarga nasihat» bobida Donish, xalqqa xizmat qilish uchun inson bilimli bo'lishga harakat qilish kerak, yoshlar mamlakat va xalq farovonligi uchun bilimli bo'lib etishuvlari lozim, deydi: «Biz dunyoni gullatib yashnatish uchun, dengizlar kezib o'rganish uchun, er osti boyliklarini topish uchun, YErning hamma qit'olari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz» Bu davrda ijod qilgan yana bir mashhur buxorolik tarixshunos olim va shoir

Mirzo Abduazim Somiy (1838-1914) edi. Somiy bir necha adabiy va tarixiy asar yozib qoldirgan, shu jumladan “Tuhfayi shoxiy” (“Podshohning tuhfasi”), “Tarixi salotini Mang’itiya” (“Mang’it hukimdorlari tarixi”), Ohirgi asarda Buxoro xonligining O’rta Osiyoning Rossiya tarafidagi bosib olinishi arafasidagi ahvoli yoritilgan.

Toshkentlik yirik olim Muhammad Solih Toshkendi turli ilmlardan: tarix jo’g’rofiya, tibbiyot, adabiyotlardan xabardor bo’lgan keng ma’lumotli kishi edi, lekin ko’pincha tarixga qiziqqan. Uning yirik tarixiy asarlari “Tarixi jadidayi Toshkent” (“Toshkentning yangi tarixi”) deb atalib, unda qadim zamonlardan to XIX asrning 80 yillarigacha bo’lgan O’rta Osiyoning ijtimoiy siyosiy tarixi bayon qilingan. Undan tashqari Samarqandlik Mirzo Abdulla arxeologiya va numizmatikaga oid juda katta material to’pladi, Toshkentlik Akrom polvon Asqarov qadimgi moddiy yodgorliklar kolleksiyasini to’pladi (15 ming dona tanga). Buxorolik Muhammad Vafo eski gilam, qulyozma va sopol buyumlar kolleksiyasini to’plangan edi. Olimxo’ja Yunusov va Mirza Hakimlar jug’rofiya ishqibozlari edi, xo’jandlik Mulla Sangin ko’pgina mineral boyliklar, ko’rg’oshin va qimmatbaho toshlar konlarini ochgan edi.

O’lkada fanni rivojlantirishda 1867 yilda Toshkentda meteorologiya stansiyasi, 1868 yili statistika ko’mitasi, 1870 yilda kimyo laboratoriyasi, 1895 yilda Rossiya geografiya jamiyatining Turkiston bo’limi, 1897 yili Turkiston o’lkasi er ishlari va davlat mulki boshqarmasi, gidrometriya stansiyasi, seysmik stansiyalari 1892 yilda Turkiston qishlok xo’jalik jamiyati, Farg’ona medisina jamiyati, 1870 yilda O’rta Osiyo ilmiy jamiyati, 1908 yilda Turkiston o’lkasi tabiatshunoslar va vrachlar jamiyati va h. tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb qildi.

2. Bu davrning adabiyoti to’g’risida gap yuritar ekanmiz, shuni aytib o’tish joizki XVII- XVIII asrlar ijtimoiy hayotdagi jarayonlar badiiy adabiyotda ham o’z aksini topdi. She’riyat juda ravnaq topgan edi. Masalan, shayboniylar davri to’g’risida Hasan Buxoriy Nisoriy va Mutribiy tazkirlarida 250 ga yaqin shoir va olim tilga olinadi. Bu davrda ma’rifatni, fan va madaniyatni targ’ib qilib, xalqparvarlikni kuylab, balki shuning uchun ham adabiyot uslubi badiiy shakli xalq ijodiga yaqin bo’lgan adabiyot va hajviy janr keng rivojlangan edi. Turdi, Nasafiy, Mushfiqiy, Mashrab, Huvaydo, Shavqiy, Kattaqurg’oniy, Nishoniy, Munis Xorazmiy, Nodira, Gulxaniy, Maxmud, Ogahiy, Uvaysiy va boshqa ko’plab shoirlar ijodida bu o’z ifodasini topdi.

Abdurahmon Mushfiqiy (1538-1588) o’zbek adabiyotida saroy shoiri sifatida tanilgan, lekin o’zining g’azallari, qasidaları va dostonlarida feodal tartiblarini, boy amaldorlarni, hatto ruhoniylarni tanqid qilgan. O’rta Osiyoda o’zi ham «Mulla Mushfiqiy» nomi bilan latifalar qahramoni bo’lib qolgan. Shoir Sayyido Nasafiy (1687-1710) o’z ijodida mehnatkash xalqni ulug’lagan. O’sha davrning buyuk siymolaridan biri Boborahim Mashrab (1640-1711) edi. U Andijonda to’g’ilgan va Namanganda yashagan. Uning g’azal, dostoni, mustazod, musaddas va boshqa she’riy asarlari davrlar sinovidan o’tib kelmoqda. Balh hokimi Mahmudni tanqid qilib yozgan bir she’ri uchun Mashrab dorga osib o’ldiriladi. Uning she’rlari jo’shqin hissiyotlarga boy, musiqiy:

Ko’rsat jamoling mastonalarga,
Ishqingda kuygan parvonalariga,
Mendin duodir, sendin ijobat,
Jonim tasadduq jononlariga.

XVII asr o’zbek she’riyatining eng ko’zga ko’ringan namoyandalardan biri Farg’oniy taxallusi bilan ijod qilgan shoir Turdi. Uning o’zbek urug’larini o’zaro kelishmovchiliklarga barham berib birlashishga undovchi quyidagi satirlari e’tiborga sazovordir:

Tor ko’ngillik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To’qson ikki buli o’zbek yurtidir, tenglik qiling.
Birni qipchoqu xitoyu birni yuz, nayman demang,
Qirqu yuz ming son bo’lub bir xon oyinlik qiling.

Bu davr adabiy hayotining muhim jihatlardan biri ayollar ichidan Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi iste’dodli shoiralarning etishishi. Nodiraning (1792-1842) asl ism Mohlaroyim. Bu o’zbek shoirasining boshqa taxalluslar Kamila va Maknuna edi. Shuni ham ta’kidlab o’tish lozimki, taqdir Nodiraga Qo’qon xoni Umarxondek ham shoh, ham shoir bilan umr kechirishni nasib etgan edi. Umarxon Amiriy taxallusi bilan she’r bitgan. Nodira o’zbek va fors-tojik tillarida ijod qilib, 10 ming misraga yaqin she’rlar bitgan. Uning ijodining asosiy mavzusi ayollarning iztiroblari, oliyjanoblighi, vafodorligi, jaholatga kurash. 1842

yili Buxoro amiri Nasrullo Quqonga bostirib kirib, Nodirani qatl qildi. O'sha davrning buyuk shoirlaridan yana biri marg'ulonlik Jahon Otin (1779-1845) «Uvaysiy» tahallusi, bilan ijod qildi. Shoir she'rlarinig mavzusi unga zamondosh Nodira va Mahzuna she'riyati bilan ham hamohangdir. U o'z asarlarida inson muhabbatining ziynati bo'lgan vafo, sadoqatni, fidoyilikni chuqur va o'tkir ichki kechinmalari orqali ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, umuman XVIII asrda Quqon xonligi she'riyat madaniy markaziga aylangan edi. XVIII asrning oxirida quqonlik shoir Mahmur ijod qilgan. Mahmur o'zining qator satirik asarlarida o'z davrining ziddiyatlarini, ayrim amaldorlar va din ahllarining yaramasliklarini fosh qildi. Uning «It boqar qozi», «Xoji Niyoz», «Hapalak», Karimqul mehtar» kabi hajviyalari shular jumlasidandir.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Gulxaniy (asl ismi Muhammad Sharif) kabi atoqli yozuvchi ijod qilgan. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari saroydagi ma'naviy tuban hayotga qarshi qaratilgan kuchli hajviya edi va xalq og'zaki ijodida asosida yaratilgandir.

XIX asr boshida ijod qilgan xorazmlik Ogahiy - o'zbek klassik adabiyotinig ulkan namoyondalaridan biri. Ogahiy o'z zamonasida iste'dodli shoir, usta tarjimon, yirik muarrix tarixchi olim sifatida shuhrat qozondi. U bizga 20 ming misradan oshiq she'riy meros qoldirdi. Dehlaviy, Nizomiy, Jomiylarning asarlarini va «Qobusnoma» ni ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilgan.

XVII- XVIII asrlarida o'zbek xalq og'zaki ijodida bir muncha taraqqiyotga erishdi. Xalq dostonlari «Yusuf va Zulayho», «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf va Ahmad» va «Guro'g'li», «Alpomish» kabi og'zaki dostonlar xalq orasida turli variantlarda keng tarqaldi. Xalq baxshilari, o'lanchilari, shoirlari hikoyalar, masallar, matallarni keng targ'ib qildilar. Boshqa xalqlarniki singari o'zbek xalqining og'zaki adabiy ijodi uning ijtimoiy qarashlari, ahloqiy va estetik fikrlarini aks ettiradi. Ular yozma adabiyot tili va badiiy tasvir vositalari rivojiga samarali ta'sir etdi. Xalq ijodi ta'sirida Sayqaliy «Bahrom va Gulandom», «Qissai Hamroh va Hurliqo» dostonlarini, shoir Sayyodiy «Tohir va Zuhra» dostonini yaratdilar. Xalq ijodi to'g'risida gap borar ekan, o'sha davrda qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar, oyinchi san'atkorlarini ijodini aytib o'tish joyiz. Ular shahar maydonlarida xalq hayoti to'g'risida tomosha ko'rsatishar edi. XIX asrning ohirida yangi ijtimoiy fikr taraqqiyoti o'z navbatida adabiyot sohasida ham yutuqlarga sabab bo'ladi. O'zbek xalqining atoqli shoiri ma'rifatparvari birinchi o'zbek publisisti Zokirjon Furqatdir (1858- 1909). U fan va madaniyatni o'z xalqi istiqboli uchun katta ahamiyatga ega ekanligini anglab etgan edi. U o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi «Gimnaziya», «Ilm xosiyati», «Teatr haqida manzuma», «Vistavka xususida», «Safarnoma», va boshqa asarlarida bir tomondan qoloqlikni, madaniyatsizlikni qoralaydi, ikkinchi tomondan ilmga, taraqqiyotga intilish zarurligini ta'kidlaydi:

Ko'rar ko'zlarni (ng) nuri ilmdandur

Kerak har ilmdin bo'lmok xabardor,

Bular har qaysi o'z vaqtida darkor...

Ilg'or qarashlarning rivojlanishida Qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdimurod Berdaq (1827-1900) xizmatlari kattadir. Shoir o'z she'rlarida va ayniksa «Ahmoq podshoh» dostonida Xiva xonliging hukmronlarini tanqid kilib, xalqning huquqlari va erkinliklari bo'g'ib qoyilganligini ko'rsatgan edi. Berdaq inson uchun eng oliy baxt Vatanga, xalqqa xizmat qilish deb xisoblagan:

Ishni ishla, tug'ilgan el uchun,

Joningni ayama, elda er uchun,

Kindik qoni tomgan aziz er uchun,

O'lib ketguningcha xizmat yaxshiroq...

O'zbek xalqining yana bir mashhur shoiri Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir (1850-1903).U o'zining «Sayoxatnoma», «Tanobchilar», «Moskovchi boy», «Choy furush», va boshqa asarlarida xalqining og'ir ahvolini, ikki tomonlama zulm chekayotganini ifoda etib , mavjud tartibga qarshi kurashga chorlaydi.

Ma'rifatparvar, xalqparvar shoirlar Ubaydullo Solih Zavqiy (1853-19921), xivalik Avaz O'tar o'g'li (1884-1919) o'z she'rlarida jaholatga qarshi kurashga da'vat etdilar. Xalq ichidan chiqqan, butun

umrini xalqqa xizmat qilishga bag'ishlagan Zavqiy o'z asarlarida mehnatkash xalqining og'ir ahvolda yashashidan qayg'uradi va bir hovuch tekinxur, nodonlarning rohatli hayotini fosh qiladi:

Bevayu bechora, kosiblarga hurmat qolmadi,

O'g'rilar atlas kiyib, boy bo'ldi ko'p to'rt ko'zlar...

Avaz o'zining «Ajab ermak» she'rida kelajakda baxtli hayot qurilishiga, zolimlar hukmronligining abadiy yo'qolajagiga kat'iy ishonch bildiradi. Avaz ham, boshqa tillarni, fanni, texnikani o'rganishni targ'ib kiladi:

Har tilni bilu emdi boshi odama jondur,

Til vositai robidan olami yondur...

Lozim sizga har tilni bilu ona tilidek,

Bilmakka ani g'ayrat eting, foydali kondur.

Bu davrda atoqli mutafakkirlar bilan bir qatorda o'zbek xotin-qizlari ichidagi ham mashhur mutafakkira olimalar etishib chiqdi.

Shulardan, Toshkentlik shoira Nozima Xonim va Quqonlik Anbarnisolar diqqatga sazovordir. Nozima Xonim o'zbek xotin-qizlaridan birinchi bo'lib sosial va milliy zulmga qarshi kurashga qushildi. Uning ijodida ma'rifatni, xotin-qizlar ozodligi va teng huquqligini targ'ib qilish asosiy o'rinni egallaydi.

«Ayo mahkumalar» she'rida Nozima Xonim shunday deb yozdi.

YEtar, baskim biza bexad balo sangi

nasib o'ldi,

«Zaifu notavonlar»deb bizga qo'llik

nasib o'ldi,

Ki ul zulmatni timsoli chodir-chimmat

nasib o'ldi...

Ochib yuz ma'rifat sari, eting

barbod xurofotni.

Shoira Anbarniso ham jaholatga qarshi nafrat bilan bitilgan she'rlar yozadi va ayollar hayoti haqida zavq hamda achinish bilan gapiradi: «Ona Aristotel va Platonni, Ulug'bek va Jomiyni, Uvaysiy Sa'diy va Uvaysiy Firdavsiyni, va ko'pgina buyuk kishilarni dunyoga keltirdi, ularga hayot berdi, lekin onaning o'ziga esa hech qanday hurmat yo'q».

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu davr adabiyotining muhim g'oyaviy asoslari ma'rifatparvarlik, hurriyat, xalq ommasining ma'rifatini yoqlash g'oyalari keng targ'ib topdi.

Shunday qilib, barcha tazyiqu qatog'onlarga qaramasdan o'zbek adabiyoti va xalq ijodi saqlanib, keng rivoj topdi.

3. XVI-XVII asrlarda qo'l yozma kitoblar tuzish, xattotlik, muqovasozlik san'ati ham ayniqsa rivoj topdi. Buxoro va Samarqandda O'rta Osiyo miniatyurasi maktablari shakllandi. Jaloliddin Yusuf, Mahmud Muzahhib, Keldi Muhammad, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa iste'dodli musavvirlar o'sha davrda samarali ijro qildilar. Ko'pgina miniatyuralar o'zining nafosati va ijodi san'atidagi nazokati bilan kishini lol qoldiradi. Ular O'rta Osiyo moddiy madaniyati darajasini aks ettirib, musavvirlarning voqelikni realistik tasvirlashga intilishlarini ko'rsatadi. 1621 yilda Samarqandda «Zafarnoma» ga bajarilgan miniatyuralar buning namunasidir. Lekin 17 asr boshlarida avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar, Eronning Xivaga qilgan hujumi ko'pgina musavvirlarni O'rta Osiyodan Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur qildi. Masalan, Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir shular jumlasidan. XVIII asr oxirlaridan bu san'at yana rivojlana boshladi.

Bu davrda me'morchilik sohasida yirik xashamatli saroylar, madrasalar, ko'plab jamoat binolari va inshootlari, usti berk bozorlar, rastalar, mehmonxonalar, ko'priklar, hammomlar, sardobalar qurildi. Bularda bezak, nafislik, ulug'vorlik oldingi davrning dabdabali qurilishlardan farq qilsada, monumental

binolarining tarhi, qiyofasiga o'zgarishlar kiritildi. Buxoroga kelgan rus elchisi Jekinson: «Buxoroda hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, bunaqa hammom dunyoda yo'q» deb yozgan edi.

Buxoro shahri qalin, balandligi 10-metrgacha bo'lgan devor bilan o'ralib, shaxar darvozalari qurildi.

Bu davrda qurilgan uylar har bir xonlikda bir -biridan bezaklari bilan farqlanib turadi. Masalan Buxoro va Samarqand uylari ustunli ayvon, islimiy naqshlar va ganch uymakorligi bilan bezatilgan, Farg'ona uylari kengqovul va ayvonli bo'lib, guldor tokchali, uyma ganchli bo'lgan, Xiva uylari esa ayvoni ichkariga qaratilgan, ustunlarga uyma naqshlar, gullar bilan bezalgan. Ammo oddiy xalq pahaslik uylarda yashashgan.

Buxoroda qurilgan yirik binolar – Mir Arab (1535-1536) madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi, Masjidi Kalon (1540-1541) Qo'qaltosh madrasasi, Bolohovuz (1712) masjidi, Chor minor (1807) madrasasi va boshqalar. Masalan, Masjidi Kalon kattaligi jihatidan Samarqandni Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi va badiiy bezaklar bilan temuriylar davrining an'alarini aks ettiradi. Masjidning umumiy maydoni bir gektar keladi (127 x 78 metr) va unga 10 mingga yaqin kishi sig'adi.

Buxoro shahrining eng qadimgi me'morchilik yodgorligi Arkning hozirgi qiyofasi XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida shakllangan. Unda shahar hokimlari yashagan. Ark devorlaridan biriga osib qoyilgan katta qamchi amir hukmdorligining ramzi bulgan. Rivoyatlarga qaraganda, bu qamchi afsonaviy xalq pahlavoni Rustamniki emish. Arkdagi binolar XVII-XX asrlarga, ya'ni ashtarxoniyalar va mangitlar sulolalariga doir. Arkdan shahar va uning yaqin afrof manzaralari va tepalliklari yaqqol ko'rinib turadi.

Toshkentda Baroqxon va Kukaldosh madrasalari bu davrda bunyod etildi.

Samarqand Registoni ham shu davrda to'la shakillanadi. Sherdor (1619) madrasasi bu erda savlat to'kib turibdi, uning peshtoqida sherlarning surati solingan, shuning uchun ham Sherdor deb nom berilgan. Registon maydonining uchinchi tomonida «Tillaqori» (1646) madrasasi solingan. Uning devorlaridagi kitoba va naqshlar zarhal bezaklar («tilla bilan bezalgan») hali- ham kishini lol qoldiradi.

XVIII asr ohiri – XIX asr boshlarida O'rta Osiyo me'morchilik san'atida birinchi o'rinni Xorazm ustalari egallay boshladilar. Bu davrda Xivada va Xiva xonligining boshqa shaharlarda ko'pgina binolar qurildi – saroylar, machitlar, madrasalar, karvonsaroylar va timlar. Bizgacha etib kelgan yodgorliklaridan - Xorazmdagi Rahmonqul-inok saroyi, Xivadagi Olloqulihon karvon saroyi va timi, toshhovli va Nurullaboy saroyi, Olloqulihon (1832) va Muhammad – Aminxon (1825-1853) madrasalari. Ular Buxoro va Samarqandning hashamatli binolaridan o'zlarining me'morchilik formalarining kambag'aligi bilan ajralib tursada, binobarin go'zal o'ziga xos yog'och uymakorligi va islimiy naqshlari xorazm ustalarining buyuk san'atidan dalolat beradi.

XIX asr ohiri – XX asr boshlarida O'zbekiston territoriyasining Rossiyaga qushib olinishi mahalliy me'morchilikka rus shaharsozligi prinsiplari ta'sirini ko'chaytirdi: asosan turar joylar, cherkovlar, savdo rastalari, vokzal va boshqa binolar qurilishida. Bu davrda me'morchilikda, turar joylar arxitekturasida Buxoro, Xiva, Qo'kon xonliklarida mahalliy uslublar shakllandi. Farg'ona vodiysida hovlilar ishkomli, buyama naqshlar bilan bezatilgan mehmonxona va ayvonli bo'lgan, Samarqand va Buxoroda hovlilar imorat va paha devor bilan o'ralib, bir necha qismga bo'lingan, darvoza qarshisida hovuz, chorbog' bo'lishiga ahamiyat berilardi. Xorazmda hovlilar baland paxsa devor bilan o'ralib, uylar baland qilib qurilardi va uyma naqshlar bilan bezatilar edi. O'sha zamon mashhur me'morlar Buxoroda usta Obloqul va Ibrohim Hofizov, Muminjon, Majid Solixonov, Qurbon Xasanjonov, Shirin Murodov, Kattaqo'rg'onda Jamoliddin va Kamoliddin, Samarqandda Abduqodir Boqiev, Sa'dulla Yunus, Mahmud, Xivada - Odil Muhammad-Murod, Nurmuhammad, Abdujabbor, Sufimuhammad Niyoz, Farg'onada - Muhammad Musa, Isohon, Yusufali, Xoliqnazar, Muhammad Aminhuja va boshqa ustolar ijod qilganlar.

O'sha davrning me'moriy yodgorliklaridan biri Buxoro shahrining shimolida joylashgan Sitorai Mohi Xosa saroylari. Birinchi saroy buxoro amiri Ahad tomonidan qurdirilgan bo'lib uning badiiy ishlanishida qadimiy o'zbek milliy uslubi sezilib turibdi. Saroy devorlari elim sir bilan bezatilgan va ganchga oyilib yasalgan naqshlar kishilarni hayratda qoldiradi. Ikkinchi saroy Buxoroning ohirgi amiri Said Olimxon tomonidan "G" xarfi shaklida qurdirilgan, bir qavatli binodir. Uning o'rtasida fontanli hovli bor. Saroyning tashqi devoriga bo'rtma ganch naqshlar solingan, tom cheti naqshinkor gullar bilan bezatilgan kungirali panjara quyilgan. Saroyning ichki xonalari orasida rang –barang darchali xona, devorlari ikki yoqqa suriladigan oshxona, vazirlar qabul qiladigan xona bor. Ayniqsa xalq me'mori usta

Shirin Murodov tomonidan ishlangan ko'rkam katta oq zal o'zining oynali devorlari va ganch naqshlari bilan diqqatga sazovordir. Amir saroyini bezatirishda YEropa arxitekturasiga taqlid qilingan. Bu binoni va bog'ni planlashtrishda, bezatishda, shiyon, ayvon va boshqalarda ochiq ko'rinib turibdi.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida Turkistonga kelgan, yoki kelib ketgan rus rassomlari o'z asarlarida mahalliy hayotni aks ettirgan. Ular ichida V.V.Veragin, K.Korovin, L.Benua, R.Zommer, S.Svyatoslavskiy, M.Mikeshin kabi musavvirlar tarixiy etnografik, badiiy tasviriy asarlar yaratib, o'zbek xalqining turmushini, xujalik hayotini, Turkiston manzaralarini va o'lkani bosib olish jarayonida jang ko'rinishlarini ifodalaganlar. Rus rassomlari ta'sirida mahalliy yoshlardan rassom va haykaltaroshlar etishdi. Masalan, Farg'ona mehmonxonalarida devorlarga ishlangan manzaralari, Sitorai Mohi Xosa saroyida sherlar haykallari, xovuzlarga ajdarning boshi aks ettirilgan marmar novlar (Hovuzi Xo'ja Zayniddin, Hovuzi Rashid) shular jumlasidan. Undan tashqari naqqoshlikda qush va hayvonlar tasvirlari ko'paydi. YEropadan foto san'ati kirib keldi.

XX asr boshlariga qadar o'lkada birorta musiqa bilim yurti bo'lmasada, lekin istedodli musiqachilar, xalq qushiqlarini ijro etuvchi ashulachilar bor edi. Mulla Tuychi Toshmuhammedov, Og'a Jalol Nosirov, Domulla Halim Ibodov, Abdulaziz Rasulov kabi ashulachilar, doirachi Olim Komilov, surnaychi Ahmadjon Umrzokov, naychi Abduqodir Ismoilov va boshqa ko'pgina ijrochilar xalq orasida katta shuhrat qozongan edilar.

Bu davrda masxarabozlar, qiziqchilar qug'irchoq oynatuvchilar, musiqashunoslar o'zlarining mahsus kasb jamiyatlariga birlashib xalq sayillarida, toylarda, tantanalarga ochiq maydonlarda tomoshalar ko'rsatishar edi. Ayniqsa dorbozlik keng rivoj topgan edi. 1902 yilda rus sirk ta'sirida o'zbek artistlari mustaqil o'z gruppalarini tuzdilar. Birinchi professional sirk gruppasi Mullaboy Mansurov boshchiligida 1904 yilda tashkil etilgan. Shakarjonov, G'oipov, Karim Zaripov, Abdurahmon Rahmonov kabi artistlar xalq orasida shuhrat qozondi. Shuningdek, XX asr boshlarida ilg'or o'zbek ziyolilari orasida YEropa tipidagi o'zbek teatrini tashkil etish fikri tug'ildi. Toshkentda 1914 yilda ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniy gruppasi tashkil etdi va "Tuy", "Pinak", "Ikki muhabbat" p'esalar yozgan edi. 1915 yilda Hamza Qo'qonda havaskor teatr gruppasini to'zib, unda o'zining birinchi dramasi «Zaharli hayot», va Gogolning «Uylanish» komediyasini saxnalashtirildi.

Uch xonlik san'ati haqida yakun yasar ekanmiz, shuni aytish joizki, bu davrda tuqimachilik ya'ni adras, atlas, shoyi, qalami kabi matolar to'qish va ularni boyash, duppido'zlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, gilam to'qish, kiyiz bosish, charmga bosma naqsh ishlash, misgarlik, zargarlik uymakorlikda turli uslublar shakllandi. O'zbek xonliklarining amaliy - badiiy san'at buyumlari boshqa mamlakatlarda ham dong taratgan edi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xonliklar davrida O'rta Osiyo ijtimoiy - siyosiy hayotda yuz bergan tushkunlikka qaramay, madaniyat, adabiyot, sa'nat va me'morchilik ancha rivojlandi.

Takrorlash uchun savollar:

1. XVI-XVII asrlarda Movorounnaxrdagi madaniy jarayon qanday edi?
2. O'zbek xonliklarida ta'limning asosiy yo'nalishlari to'g'risida so'zlab bering.
3. O'zbek xonliklari davrida yaratilgan qanday san'at asarlarini bilasiz.
4. Xonliklar davrida me'morchilik, tasviriy san'at va musiqa san'ati qanday ko'rinishida bo'lgan?
5. O'zbek xonliklarining YEropadagi ilg'or mamlakatlardan texnikaviy jihatdan orqada qolish sabablarini tushuntiring.
6. XVIII-XIX asrlarda adabiyot va san'atga oid qanday yirik asarlar yaratilgan?
7. Jadidchilik harakatining o'lkamiz ma'naviy hayotidagi o'rnini tavsiflang.

8-Mavzu: MUSTAQILLIK VA MADANIY TARAQQIYOT

Reja:

1. Milliy istiqlol va ma'naviyat. Milliy uyg'onish va milliy ong. Madaniy muassasalar faoliyatining yangicha tashkil etilishi va milliy madaniy vorislik muammolari.
2. Madaniyat sohasidagi islohotlar va unda davlatning tutgan o'rnini va vazifalari.
3. Hozirgi sharoitda adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik, teatr, kino va televidenie rivojlanishidagi o'ziga xoslik.

4. O'zbekistonda ta'lim va fanning rivojlanishi va ularning mamlakat madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.
5. Milliy madaniyat ravnaqida milliy-madaniy markazlar. Respublika «Baynalmilal milliy markazi», uning milliy madaniyatlarni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati.
6. Xalqaro madaniy aloqalarning o'rni va ahamiyati.

Adabiyotlar:

1,6,7,8,32,33,34,35,36,37

Tayanch tushunchalar:

Ma'naviy meros, madaniy taraqqiyot, buyuk allomalar, buyuk siymolarning tavalludini nishonlash, milliy qadriyatlarining tiklanishi, Ta'lim islohotlari, illiy g'oya, fan taraqqiyoti, me'morchilikda yo'nalishlar, adabiy jarayon, san'atda an'anaviylik va zamonaviylik.

1. Mustaqillik sharofati ila O'zbekiston ma'naviy hayoti, madaniy taraqqiyoti uchun yangi davr boshlandi. Istiqloq tufayli xalqimiz ma'naviyat zug'umlaridan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy hayotdagi tub sifat o'zgarishlar xalqimiz ma'naviy salohiyatini mamlakatimizning ertangi porloq istiqboli uchun, milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi uchun va qolaversa milliy ongi va g'ururi, uyg'oq vatanparvar insonni tarbiyalash uchun qaratilgan. Prezidentimiz Karimov I.A. ta'kidlaganidek: "Davlatimizning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvat ado etishi, dunyo hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi, avvalombor, xalqimiz ma'naviy saviyasi, g'ururi va faxri nechog'liq yuksak bo'lishiga bog'liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda yangi jamiyat barpo etmoqchi bo'lib, eng asosiy yo'nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasini qoydik". Darhaqiqat, mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq xalqimizning ko'p asrlar mobaynida yaratgan g'oyat o'lgan bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa sifatida qaralib, keng ko'lamlı jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi tarixiy ishlarning amalga oshirilishi yangi jamiyatimiz ma'naviyati binosining qad rostlashiga muhim omil bo'lmoqda. Natijada respublikamizda madaniyat, ma'naviyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Ta'lim markazi", "O'zbekkino", "O'zbeknavo", "O'zbekraks", "O'zbekteatr", "O'zbekmuzei", Badiiy akademiya, O'zbek amaliy san'at markazi, Milliy madaniy markazlar, O'rta Osiyo madaniyat xodimlari assosiasiyasi kabi madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va ko'plab jamg'armalarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining tarkib topishi va rivojlanishiga zamin bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq dunyo taraqqiyotiga, jaxon sivilizasiyasiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz - buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari ma'naviy merosini va hayotini o'rganish avj oldi. Jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Baxovuddin Naqshband, Burxonuddin Rabg'uziy qabilarning asarlari chop etilishi milliy qadriyatlarimizni tiklashda katta yutuq bo'ldi. Vatanimiz ozodligi yo'lida shaxid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa allomalarimizning hurmati o'z joyiga qoyildi va ma'naviy meroslari xalqimizga qaytarildi. Buyuk ajdodlarimiz tavalludlarining yirik sanalarini nishonlash ham xalqimizning ulug'vor an'alariga aylanmoqda. Jumladan, istiqloq yillarida Alisher Navoiy (1991), Zaxiriddin Bobur (1993), Baxovuddin Naqshband (1993), Abduxoliq G'ijduvoni (1993), Feruz (1995) kabi buyuk ajdodlarimizning tavallud kunlari, shuningdek, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik (1994), Najmiddin Kubroning 850 yillik (1995), Amir Temurning 660 yillik (1996), Imom Buxoriyning 1225 yillik (1998) va Ahmad Farg'oniyning 1200 yillik (1998) Jalolliddin Manguberdining 800 yillik (1999), Kamoliddin Behzodning 545 yillik (2000) yubileylariga bog'liq tadbirlar nafaqat o'lkamizda, balki YuNESKO orqali xalqaro doiralarda nishonlanishi vatandoshlarimizda milliy faxr tuyg'ularini yuksaltirdi. Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Fayzulla Xo'jaev, Jalolliddin Manguberdi va boshqa arboblarning yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlar bo'ldi. Yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashda "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini (1999), «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligini (2001) nishonlash ham o'z hissasini qo'shdi.

Respublika raxbariyati, eng avvalo xalqimizning ehtiyoji, orzu istaqlarini hisobga olib, azaliy milliy bayramlarni tiklashga yangi istiqlol bayramlarini xalqning qadimiy an'alariga monand xolda shakllantirishga katta e'tibor berdi. Masalan, Prezident farmonlari asosida "Navruz", "Ramazon hayit", "Qurbon hayit"lar qonuniy nishonlana boshlandi. Undan tashqari, istiqlol sharofati bilan "Mustaqillik kuni", "Konstitutsiya kuni" va "Murabbiylar kuni" bayramlari joriy etildi. Davlat tili haqidagi qonun chiqqan kun - 21 oktabr tabiiy ravishda "Til bayrami"ga aylandi. Tilimizga Davlat maqomining amalda qaytarilishi, o'zbek tilida rasmiy idoraviy ish yuritish, boy adabiy-tarixiy merosimizni o'qib o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklash va izchil davom ettirish imkoniyatini berdi. Shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining joriy etilishi mamlakatning har tomonlama kamol topishi va jahon kommunikasiyasi tizimiga kirish uchun ancha qulay shart-sharoit yaratib berdi.

Ma'naviy-madaniy merosimizni tiklashda katta ahamiyatga molik yana bir tadbirlardan biri olamshumul tarixiy me'morchilik inshootlarining keng ko'lamda ta'mirlanishi, jumladan Buxoro, Samarqand, Xiva, Shaxrisabz kabi shaharlarda hamda Kuva, Chelak tumanlarida tarixiy me'moriy yodgorliklarning tiklanishi, Buxoro, Xiva, Termiz (2001) kabi qadimiy shaharlarining 2500 yilligini Shahrisabzning 2700 yilligini nishonlanish tantanalari, "Buyuk ipak yo'li"ni tiklash borasidagi amaliy ishlar.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq dinga munosabat tubdan o'zgarib, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qoyishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston dunyoviy davlat, binobarin diniy tashkilotlar davlat va maktabdan ajratilgan. Din, shu jumladan islom dini ham xalqning dunyoqarashi va ma'naviy olamning mazmunini tashkil etadi. "Biz, - deydi I.A. Karimov, - o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz". Diniy qadriyatlarning tiklanishi, eski machit va madrasalarning ta'mirlanishi, yangilarning barpo etilishi, diniy adabiyotlarning nashr etilishi, musulmonlarning Haj va Umra amallarini ado etishi uchun davlat tomonidan imkoniyatlarning yaratilishi va boshqa chora-tadbirlar respublikamizda vijdon erkinligini ta'minlamogda. Qur'oni Karimning va Hadislar to'plamining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr qilinishi ham katta voqea bo'ldi. Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy va madaniy merosini chuqur tadqiq etish maqsadida 1995 yil Toshkentda Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etilib, unga ilmiy tekshirish instituti maqomi berildi. 1999 yilda dinshunoslik asoslari, yo'nalishlarini, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni o'zlashtirgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi. Umuman olganda, hozir O'zbekistonda 15 ortiq diniy konfessiyalar mavjud bo'lib, turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'zaro tinch-totuv yashamoqdalar. Buning zamirida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi tamoyillar katta ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) dindorlarni diniy tuyg'ularini ximoya qilish; 2) diniy e'tiqodlarni fuqorolarning yoki ular uyushmalarining hususiy ishi deb tan olish; 3) diniy qarashlarga amal qiluvchilar va qilmaydiganlarning huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qoymaslik; 4) dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qoyib bermasligini e'tirof etish; 5) diniy davlatlar bilan hokimiyat uchun kurashga siyosat, iqtisodiyot, qonunchilikka aralashishga yo'l qoymaslik; 6) ma'naviy tiklanish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishda diniy uyushmalar bilan hamkorlik qilish.

Lekin, shuni ham e'tirof etishimiz kerakki, so'nggi paytlardan dinimizdan g'arazli maqsadlari uchun foydalanuvchilar paydo bo'la boshladi. Ular xorijdan yurtimizga kirib kelgan turli xil buzg'unchi oqimlar, din niqobi ostida o'z shaxsiy manfaatini ko'zlovchi kimsalardir. Bizning fuqorolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz "haqiqiy" va "soxta" dindorlik nima ekanligini aniq tasavvur qilishlari lozim. O'zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchi deb hisoblaydigan vahhobiylar, xizbut taxrircilar xalqimizga mudxish tasavvurlarni qabul qilishni istaydigan terrorchilarni, jangarilarni vujudga keltirishga urinadilar. Ba'zi ekstremistik guruhlarining jinoiy harakatlarini yuqori ko'rinishi bo'lganligini - 1999 -2004 yillarda Toshkentda, Surxandaryoga Buxoro viloyatlarida ruy bergan voqealar misolida ko'rish mumkin. Aqidaparastlarning tinch hayotimizga solishi mumkin bo'lgan taxdidlarni oldini olish uchun mafkuraviy, madaniy, ma'rifiy tarbiyaviy ishlarni izchil ravishda olib borish zamon talabi bo'lmoqda. Din siyosat emas, balki imon, e'tiqod ekanligini unutmagan holda, diniy axloqiy qadriyatlardan, islom dinida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan mustaqilligimizni mustahkamlashda oqilona ijodiy foydalanish, turli

madaniyatlarning yonma-yon tinch yashash, ekstremizm, fundamentalizm xavfini oldini olish uchun respublikamizda zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2. O'zbekiston mustaqillika erishgan kundan boshlab milliy g'oya, milliy istiqloq mafkurasi masalalarini haqiqiy ilmiy nazardan ishlash, tadqiq etish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Milliy mafkura yaratishni taqozo etuvchi sabablar - bu, bir tomondan, shuro zamonida totalitar tuzum manfaatlarini himoya qiladigan kommunistik mafkuradan butunlay voz kechishi va shuro davridan meros qolgan bir qolipda fikrlash illatidan tezroq xalos bo'lish, odamlar tafakkur tarzi va dunyoqarashni kommunistik aqidalar kishanidan ozod qilish demokratik tamoyillar, qonunning ustuvorligiga hurmat tuyg'usini kamol toptirish: Ikkinchi tomondan mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qoymaslik, millat sifatida o'zligimizni anglash, yakdil va hamjihatligimizni ta'minlash shuningdek, bu hamjihatlikka qarshi qaratilgan har qanday yot mafkuraviy tazyiqlarning oldini olish, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish. Uchinchi tomondan, mustaqilligimizning ahamiyati va mohiyati mafkuraviy vositalar orqali xalqning ongiga etkazish, oliy bir maqsad ulug'vor g'oyalar sari xalqni yakdillika, fidoyilikka, yaratuvchilikka safarbar qilish.

Milliy mafkuramizning mazmun-mohiyati, uflari, uning asosiy tamoyillari davlatimiz raxbari asarlarida mukammal ifoda etilgan. Dastlab 1993 yil aprel oyida Prezident I.A.Karimov bir gurux adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqloq g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. O'tgan davr mobaynida milliy mafkuraning hayotimizdagi o'rnini belgilash, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqish, shu asosda jamiyatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirishda bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Biroq bu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida mafkura yaratish masalasi naqadar keng qamrovli ekanligini ko'rsatdi. Darhaqiqat, bu vazifa bir-ikki yillik emas, balki millat butun umri davrida hal qiluvchi, yangi zamonaviy talablarni inobatga olib, takomillashib va boyib borishni taqozo etuvchi jarayondir. Shu bois 2000 yil aprel oyida davlat raxbarimizning bir gurux olim va adiblar bilan navbatdagi uchrashuvda va "Fidokor" gazetasi muxbirining savollariga javoblarida (2000 y, iyun) endi milliy mafkuraning asosiy konsepsiyasini ishlab chiqarishga, nazariyadan amaliyotga o'tish kerakligiga alohida e'tibor berildi.

Milliy mafkura eng avvalo millatning yaqin va uzoq davriga mo'ljallangan maqsadini amalga oshirishda inson va jamiyatni harakatga keltiruvchi millatning yaratuvchilik salohiyatining g'oyaviy mazmuni bo'lgan, inson va jamiyat hayotining axloqiy-falsafiy nizomini tartibga soluvchi, milliy turmush tarzi va davlatchilik negizlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan g'oyaviy asoslardan iboratdir. Prezidentimiz milliy mafkuramiz ikki asosiga, birinchi navbatda, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning dunyo qarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkorligini ta'kidladi.

Milliy mafkura kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'ururning o'sishi va rivojlanishga muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy mafkura faqat o'zbek millatiga tegishli emas, balki respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat vakillarini mustaqillikni mustahkamlash, O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirish, inson haq-huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to'la qaror toptirish, jaxon hamjamiyatida o'zimizga munosib obru-e'tibor topishimiz, maqsadlarga yo'naltirilgan yagona bayroq, yagona birlashtiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Ma'lumki, bizning davlatimizda hech bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Milliy mafkura jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, g'oyalar xilma-xilligini saqlagan holda, ularni bir-biri bilan kurashishga, baxslashuviga, har qanday partiya, harakat, har qaysi inson, fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etish va uni himoya qilishga ziyon va tazyiq ko'rsatmasligiga yo'naltirilgan. Albatta, hozirgi kunda milliy mafkuramiz yaratilishining boshlang'ich davrini shohidi bo'lyapmiz, ammo, eng asosiysi, odamlarning fikri, tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarib, milliy iftixor tuyg'usi shakllanmoqda. Binobarin, eng qiyin ish inson mafkurasini o'zgartirish. Milliy mafkura yoki g'oya qudrati ishontirish bilan belgilanadi. Shu bois kun tartibiga milliy mafkurani yaxlit ilmiy konsepsiyaga solib, jamoatchilikka mos sodda, ommabop shaklda etkazishdan iborat.

Mafkuraviy ishlarni amalda oshirishda ta'lim-tarbiya muassasalari, ommaviy axborot vositalari, "Maxalla", "Kamolot", "Oila" kabi qator jamoatchilik tashkilotlarni, ma'naviy-madaniy markazlarning

ahamiyati juda katta. Ayniqsa ta'lim muassasalari ishi va ularda qo'llaniladigan darsliklar, qo'llanmalar mazmun-mohiyati milliy g'oya ruxi bilan sug'orilsa uning ta'sir doirasi kengayib boradi.

3. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o'quv yurtlarning maqomi, dasturlari va ta'lim uslublari butunlay o'zgartirildi. Zamonaviy, shu paytgacha bo'lmagan eng zarur ixtisosliklar boyicha aloxida universitet va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshidagi xarbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Ichki ishlar akademiyasi, Bank moliya akademiyasi, Jaxon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviasiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti kabi o'nlab yangi o'quv muassasalari tashkil etildi. Abiturient va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baxolashning ilgor usullari joriy etildi. Ilg'or mamlakatlarning tajribalari asosida yangi tipdagi lisey va gimnaziyalar ochildi. O'zbekistonda gimnaziyadan tortib akademiya gacha bo'lgan zamonaviy, yangi ta'lim tizimi vujudga keltirildi.

1997 yil ta'lim tizimida katta burilish yuz berdi. Oliy Majlisning IX sessiyasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va u asosida "Kadrlar tayyorlash dasturi"ni qabul qildi. Bular mamlakatimiz ravnaqi va kelajagini belgilab beruvchi hujjatlar bo'lib, milliy tiklanishning ma'naviy asosini tashkil qiladi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga milliy g'oyaning bir qismi deb qaraladi. Chunonchi, kadrlar tayyorlash milliy modeliga asos solindi. Shaxs, davlat va jamiyat, shuningdek fan va ishlab chiqarish o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishiga imkon tug'ildi. Bu xujjatlar asosida O'zbekistonda 9 yillik umum ta'limdan so'ng, 3 yillik akademik lisey yoki kasb-hunar kollejlari ixtiyoriy-majburiy ta'lim joriy etildi. Ta'lim isloxtlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda:

1 bosqich - 1997-2000 yillarni o'z ichiga olib, unda ta'limning huqukiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moddiy shart-sharoitlari yaratilmogda. Hozirgi kunga kelib uzluksiz ta'limning tamomila yangi huqukiy-me'yoriy negizi yaratildi, islohotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida monitoring tizimi joriy qilindi, davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, dastur va darsliklarning yangi avlodi ishlab chiqilmogda, pedagogik kadrlarni, ta'lim muassasalarni atstatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish asoslari ishlab chiqildi va x k .

2 bosqichda-2001-2005 yillarda milliy dasturni to'liq amalga oshirish ko'zda tutilmogda.

3 bosqichda - 2005 yilda undan keyingi yillarda to'plangan tajribalar asosida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ko'zda tutilgan

Yosh avlodni tarbiyalash masalasi ustivor yo'nalish sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, davlatimiz o'z ichki iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda uni dastavval moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash maqsadida tadbirlar ishlab chiqilmogda.

Ta'lim tizimiga qilinayotgan sarf-harajatlar darajasi boyicha O'zbekiston jahonning etuk mamlakatlariga yaqinlashib bormogda. Davlat tomonidan 1998 yilda ta'lim sohasiga yalpi ichki maxsulotning 7,8 foizi miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, 1999 yilda-8,1 foiz mablag' sarflandi. Bu esa faqatgina ikki yil mobaynida turli viloyatlarda 250 ta yangi tizimdagi akademik lisey va kasb-hunar kollejlarni tashkil etishga imkon berdi. Yoshlar xayoti bilan bog'liq muammolarga ham alohida e'tibor berilmogda. Ularning intellektual salohiyatini oshirish, ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash, iste'dodli va iqtidorlilarni rag'batlantirish maqsadida bir qancha jamg'armalar tashkil etildi. Jumladan, "Iste'dod", "Ulug'bek", "Kamolot", "Umid". Jumladan, «Iste'dod» jamg'armasining asosiy vazifasi iste'dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o'quv yurtlarida ta'lim oldirish. Xorijiy mamlakatlarga o'qish uchun nomzodlarni tanlashda dunyodagi mashhur tashkilotlar, jumladan, AKSYELS, AYRYEKS, Britaniya Kengashi, DAAD, TISIS ishtirok etadilar.

O'zbekistonning ilmiy potentsiali umuminsoniy sivilizasiyaning ajralmas qismidir. Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyoning yirik ilmiy markazi hisoblanadi. Vatanimizda 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlar, 140 dan oshiq ilmiy tadqiqot institutlarida 20 mingdan ortiq ilm-fan zahmatkashlari faoliyat ko'rsatmogdalar. O'zbekistonda fundamental va amaliy tadqiqotlarning markazi Respublikamiz Fanlar Akademiyasidir. Bu ilm maskanida 43 ilmiy-tadqiqot instituti va birlashma, 8 yordamchi tashkilot va 3 muzey faoliyat olib bormogda. Vanlar Akademiyasida 7 ming kishi, shu jumladan 2,5 ming ilmiy hodim, 144 akademik, 400 dan ortiq fan doktorlari, 1000 dan ortiq fan nomzodlari fanning turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib bormogdalar FA faoliyati jamiyat taraqqiyotini ustunvor muammolarini echishga qaratilgan bo'lib, paxtachilik kompleksini rivojlantirish, mineral zahiralardan oqilona foydalanish va

boshqa ko'pgina muammolarni tadqiq etishga qaratilgan. Yadro fizikasi, elektronika, matematika, kibernetika, geologiya, arxeologiya va boshqa ilm sohalarida o'zbekistonlik olimlarining ilmiy izlanishlari mashhurdir. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ko'pgina xalqaro ilmiy tashkilotlar a'zosi bo'ldi. O'zbekistonlik olimlar chet ellik olimlar bilan samarali hamkorlik qilmoqdalar. Faqatgina 1994 yilda O'zR FA ning 26 ilmiy tashkilotlari 82 ilmiy mavzularda chet ellek olimlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. O'zbekistonda halqaro nazariy-ilmiy va amaliy konferensiyalarni o'tkazish tobora an'anaviy tus olib bormoqda. Mamlakatimizda fundamental fanni rivojlantirish maqsadlariga xizmat qiluvchi «Akademiya fondi» va Respublika fundamental fanlar jamg'armasi tashkil etildi.

O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashda adabiyot va badiiy ijodning o'rni beqiyosdir. O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi zamonaviy adabiyot va san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining keng qatlamlarini tiklash g'oyalari, yangilanish tamoyillari adabiyot, tasviriy va amaliy san'at, musiqa, me'morchilik va badiiy ijodiyotning yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda milliy mustaqillik, milliy tiklanish va o'zlikni anglash, barkamol insonni tarbiyalash g'oyasi adabiy jarayondagi etakchi va bosh mavzudir. Bu she'riyatda ham, prozada ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu borada Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, R.Parfi, M.Yusuf, M.Qoriev, Erkin A'zam, Xurshid Dustmuhammad, Omon Matchon, Omon Muxtor, A.Suyun, Abbas Said, Ne'mat Arslon va boshqalarning ijodi yorqin namunadir. O'tmish tariximizni badiiy obrazlarda mohirona aks ettirish orqali adiblarimiz milliy qadriyatlarni tiklashga, xalqni his-tuyg'usi va g'ururini uyg'otishga qaratilgan asarlar yaratishmoqdalar. Jumladan, A.Oripovning «Sohibqiron» dramatik asari, B.Ahmedovning «Amir Temur» tarixiy romani, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» xotira-romani, T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani va boshqalar o'zbek adabiyotida muhim voqea bo'ldi. Jumladan, taniqli yozuvchi Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olindi va katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Mazkur asar otashin vatanparvarlik ruhida yozilgan va u mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zbek adabiyotida realistik o'ziga xos yo'nalish paydo bo'lganligini ko'rsatadi. So'z ustasi Tohir Malikning to'rt qismdan iborat «Shaytanat» asari mafiya olami hayotini aks ettirgan bo'lsa-da, mohir adib yomonlik ildizi va sababini mustamlakachilikka, haqsizlik va adolatsizlikka asoslangan sho'rolar tuzumidan, uning o'ziga xos tabiatidan izlaydi va topadi.

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romani falsafiy g'oyalar talqinida sayqallangan asardir, unda adib g'oyat kuchli oy, mushohoda, tafakkur san'atini namoyish etadi. Mohir adib o'z asarining bosh qahramoni Rustam taqdirida mustamlakachi qizil saltanat zo'rvonlik siyosatini, qolaversa, maxsus uyushtirilgan «o'zbeklar ishi» degan kulfatning xalqimizga keltirgan hisobsiz tashvishlari, og'ir kulfatlari, g'am-alamlarini qalamga oladi. O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» xotira-romani ham 30-50 yillardagi qizil saltanat davridagi qatag'onliklar dahshatini va asoratlarini badiiy buyoqlarda aks ettirdi. Vatanimiz mustaqilligi adabiyot ijodkorlarining ruhlantirib adolatli demokratik jamiyat qurish, odil va adolatli yo'l boshchiga ergashishi, o'z millati va tarixi ulug'lash, milliy tafakkurni kengaytirishga qaratilgan, milliy an'ana va mumtoz adabiyot tajribalarini e'tiborga olib yangi asarlar yaratishni davom ettirmoqdalar.

Mustaqillik yillarida o'zbek musiqa san'ati qadimiy va rang-barang, ayni paytda yangi zamon an'anelarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda, hamda jahon saxnalarida yutuqlarga erishmoqda. Bu borada M.Bafoevning «Zardushtiylar marosimi» balet –oratoriyasi, «Buxoroi- sharif» operasi, I.Akbarovning «Ibtido xatosi» opera – oratoriyasi, F. Olimovning «Nodirbegim», «Fotima va Zuhra», «Devona», Soyibxo'ja operasiyasi», «Super qaynona», «Checha» musiqali darma va komediyalari, A.Ikromovning «Buyuk Temur» zong-operasi, X.Raximovning «Ona qalbi» operasi, M.Tojievning T.Qurbonovning simfoniyalari va boshqa ko'plab asarlarda milliy –badiiy tafakkur aks ettirilgan. Milliy strada musiqasini rivojlanishiga ham barcha imkoniyatlar yaratildi. Bu davrda o'zbek estradasi yulduzlari darajasiga ko'tarilgan Yulduz Usmonova. Kozim Qayumov, Nasiba Abdullaeva, Nuriddin Xaydarov, Ravshan Nomozov, Azim Mullaxonov, Mavluda Asalxo'jaeva va boshqa o'nlab xonandalar A.Ikromov, D.Omonullaeva, A.Rasulov, S.Qoziev kabi bastakorlar bilan hamkorlikda ijod qilishmoqda. O'zbekiston qadim-qadimdan jahon me'morchiligi rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelgan. Istiqloq tufayli bu sohadagi ishlar ko'lami misli ko'rilmagan darajada tez sur'atlar bilan

rivojlanish sari yuz tutdi. Yangi qurilishlar silsilasida O'zbekistonning me'moriy amaliyotida shakllangan ikki asosiy tamoyillar ko'zga tashlanadi. Ulardan biri Temuriylar muzeyi, Oliy Majlis, Toshkent shahar hokimiyati binolarida yorqin aks etgan sharqona me'moriyatning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etish bo'lsa, ikkinchisi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan o'rin olishga bo'lgan intilishini namoyish etuvchi jahon me'orchiligining eng yangi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'ladi (Interkontinental, Sheraton, Afrosiyob mehmonxonalari, «Toshkent – plaza» va «NBI» osmono'par binolari) 90-yillarda mahobatli va landshaftli haykaltaroshlik, devoriy rang tasvir va vitraj, mozaika va me'morlik bilan uzviy bog'liq mahobatli –bezak san'atining boshqa turlari turar-joy muhiti estetikasi shakllanishiga salmoqli hissasini qo'shdi. Jumladan Toshkentdagi Turki ston saroyi (devoriy suratlar, vitraj, bezakli haykaltaroshlik, sopolli pannolar), Biznessentr va Interkontinental (devoriy suratlar, bezakli plastika), Meridian va Sheraton mehmonxonalari (devoriy suratlar, koshinlar va bezakli plastika), Temuriylar muzeyi (devoriy suratlar, badiiy shisha, sopol plitkalar) va boshqa inshootlarda buni guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bu davrda mahobatli haykaltaroshlik milliy mustaqillik g'oyalariga ham-ohang rivojlandi. Toshkentdagi Amir Temurning o'tliq haykali (I.Jabborov, K.Jabborov), Samarqand va Shaxrisabzdagi sohibqiron haykallari (I.Jabborov, K.Jabborov) mustaqillik yillaridagi ilk yodgorliklar bo'lgan bo'lsa, keyingi ishlarga buyuk allomalarimiz timsoli muhrlangan qator yodgorliklar qad ko'tardi. Ular orasida al-Farg'oniya Farg'ona va Quva shaharlarida (I.Jabborov), Jaloliddin Manguberdiga Xorazmda (I.Jabborov, Q.Jabborov), al-Buxoriyga Samarqandda, Toshkentning Mustaqillik maydonida «Motamsaro ona» majmuasi, «Shahidlar xotirasi» me'moriy yodgorliklari, Termezda «Alpomish» haykaltaroshlik majmua-kompozitsiyasi A.Raxmatullaev, Q. Norxo'razov, U.Mardiev, T.Podosinnikov) qad ko'tardi. Tarixiy shaxslarning qiyofasini aks ettirish borasida haykaltarosh R.Mirtojiev asarlari muhim o'ringa ega. Haykaltarosh Andijondagi «Zahriddin Bobur», «Cho'lpon» Toshkentdagi «Abdulla Qodiriy», Jizzaxdagi «Ona» kabi bir qator badiiy nuqtai nazardan yirik yodgorliklarni, «Temur Malik», «Behzod», «Sayyoh Bobur» kabi asarlarni yaratgan.

Dastgohli haykaltaroshlik san'atining namoyondalaridan J.Quttimurodov o'z ijodida qoraqalpoq ahanglarini aks etiradi. Uning «Ayol», «O'tirmoliddin Behzod», «Mevali naytyurmort», «Malika», «Madina», S.Raxmetov (Yunus Rajabiy portreti), «GFR ning O'zbekistondagi elchisi G.Kun portreti»), E.Masharipov («Alpomish»), Q.Basharov («Spitamen»), A.Aliqulov («Asov ot», «Dor», «Mashshoqlar»), Milliy romantiklik yo'nalishida O.Qozoqov («Kanizaklar»), I. Mansurov («Navruz», «Katta Navruz», «Tush», «Bahor»), A.Mirzaev («O'tmishdan ertaklar», «So'qoqda», «Qizil tog' etagidagi uchrashuv»), R.Shodiev («Manzara», «Bayram», «Dashtda tong») va boshqalar milliy o'ziga hoslikni talqin etishiga intildilar. Rassom V.Oxunovning «Amudaryo», «Oqqush», «Qiziltoj taqqan qiz», «Shohli Iskandar», «Anaxita» asarlarida ijodkorning tabiatini idrok etish mumkin.

90-yillar rang-tasvir san'ati o'tish davriga xos bo'lgan turli-tuman uslublar ko'lamining kengligi bilan farqlanadi. Bunda akademik realizm, dekorativizm va milliy romantizm (ko'p hollarda miniatyura talqini ohanglarida), qiyofasiz rangtasvir, instaliyasiya echimi tarzidagi avangardizm yonma-yon mavjuddir. Bu ko'p jihatdan ijodiy dunyoqarashning teranlashuvi va kengayishi, qoliplar chegarasidan chiqishga intilishlar bilan izohlanadi.

Akademik realizm yo'nalish sermahsul ijod qilayotgan an'anaviy tarzda keksa va o'rta avlod rassomlar ijodiga mansub deyish mumkin. Ular orasida R. Ahmedov, M.Nabiev (Amir Temur, Bobur portretlari), R.Choriev («Boysunlik qariya», «Sayroblik go'zal», «Mening zamondoshim» polotnolari.) A.Abdullaev (avtoportret, portretlar, A.Navoiy polotnosi), A.Ikromjonov («Karida Mavhumiy-bezakdor mavzular, chuqur falsafiy g'oya aks ettirilgan. («Sharqona qiyofalar, «Inkrustasiya», «Buddaning tongi sayri», «Meditasiya», loyixali instaliyasiyalari). Umuman olganda mustaqillik yillarida rangtasvirdagi badiiy-uslubiy manzara yangi xususiyatlarga ega bo'ldi va boyidi. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida ma'naviyat va madaniyatning yuksalishi, boyishi o'zligimizni anglab olishga, milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlantirishga yordam bermoqda. Boz ustiga, ma'naviy o'zgarishlar millatni yagona bayroq ostida birlashtirishga xizmat qilishi bilan bugun jahonda e'tirof etilayotgan "o'zbek modeli"ning haraktlantiruvchi kuchlardan biriga aylanmoqda. Chunki Islom Karimov asarlarida asoslangandek "o'zbek modeli" boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati va faqat iqtisodiyot rivojlanishni emas, balki keng ma'noda milliy tiklanishni, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotni ham o'z ichiga oladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash yo'lida amalga oshirilgan tadbirlar haqida so'zlab bering.
2. Diniy qadriyatlarimizga berilayotgan e'tibor nimalarda o'z ifodasini topdi?
3. Din va davlat o'rtasidagi munosabatlarni taxlil qiling.
4. Milliy istiqloq mafkurasining vazifalari nima deb oylaysiz?
5. Milliy istiqloq mafkurasining mohiyatini tushuntiring.
6. Ta'lim islohotlarida qanday tamoyillar asos qilib olindi?
7. Mustaqillik yillarida me'morchilik rivoji to'g'risida gapirib bering.
8. Milliy adabiyot sohasida qanday o'zgarishlar ruy berdi?
9. Milliy san'at rivojidadagi o'zgarishlar nimalarda o'z ifodasini topmoqda?

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A.– Tarixiy xotirasiz kelajak yuk.T.1998 y.
2. Karimov I.A.– Uzbekiston XXI asrga intilmokdaT.1999 y.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari., «O'zbekiston», 1998.
5. Karimov I.A «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» T: «O'zbekiston» 1994 y.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T., «O'zbekiston», 1997.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston» 1998.
8. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. II «Fidokor»., 2000., 8 iyun.
9. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «O'zbekiston», 1997.
10. Gafurov B.T. – Tadjiki – Dushanbe. 1989 y.
11. Drevnie sivilizatsii – M 1989 y.
12. Y.Erasov B.S.– *kultura,religiya i sivilizatsiya na vostokeye. M.1979 y.*
13. Sa'dullaev A. «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda» T., 1996y.
14. Soatov G'., Bozorov S., Do'stmurodov J. «Madaniyatshunoslik» - Q. 2000 y.
15. Gulmetov E. Qobiljonova T. Ernazarov Sh.Mavrulov A. «Madaniyatshunoslik». T.2000 y.
16. Drevnie sivilizatsii – M 1989 y.
17. Y.Erasov B.S.– *kultura,religiya i sivilizatsiya na vostokeye. M.1979 y.*
18. Sulaymonova F – *Shark va Garb. T. 1997 y.*
19. Semyonov V.F. – Urta asrlar tarixi. T. 1973 y.
20. Baxtin M. – Tvorchestvo F. Foble i narodnoye kultura srednovekovoye Renessansa. № 1990.
21. Vsemirnaya istoriya tom. 3-4. M. 1957
22. *Problem istorii i kultur narodov Sredney Azii i stran zarubejnogo Vostoka. T. 1991 y.*
23. Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik» T. 1957y.
24. Rahmon. N. «Turk hoqonligi» - T., 1976.
25. Vatan tuyg'usi T., «O'zbekiston», 1996.
26. O'zbekiston tarixi (1-qism) T., «Universitet», 1997.
27. O'zbekiston tarixi (Darslik) – T., 2003, 7-20 betlar.
28. O'zbekiston tarixi (o'quv qo'llanma) 1-kism – T., 2002, 6-21 betlar.
29. Abduraxmonov A. Ulug'bek va uning rasadxonasi. T: 1996y.
30. Temur va Ulug'bek davri tarixi T. 1996y.
31. A.Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. T.1996y.
32. Milliy mafkura-kelajak poydevori. T., 2000.
33. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili: T., 1999.
34. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E., Mustaqil O'zbekiston. T., «Mexnat», 1999.
35. O'zbekiston tarixi (Milliy istiqloq davri). T., 1998.
36. O'zbekiston tarixi (Qisqacha ma'lumotnoma), T., «Sharq» 2000.
37. O'zbekiston tarixi (Darslik), T., «Yangi asr avlodi» 2003.

38. O'zbekiston tarixi 1 tom « O'zbekiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» T. 2000 y.
39. Bayoniy M. «Shajarai Xorazmshohiy» T.1994 y.
40. Bobojonov X.N. Qo'qon tarixi T. Fan 1994 y.
41. O'zbekiston tarixi va madaniyati. (ma'ruzalar to'plami). T. 1992y.
42. O'zbekiston tarixi T. 1994 y.

XORIJIY MANBALAR

1. Дэвид Битэм, Кевин Бойл. Демократия: 80 саволга 80 жавоб. – Т.: 2001.
2. Левитин Л., Карлайл С. Ислом Каримов – янги О'збекистон президенти. – Т.: О'збекистон. 1996.
3. Основы политической науки. Под. Ред. В. И. Пугачева. Учебное пособие для вузов. Часть II. – М.: МГУ, 1996. Социальный мониторинг 2003. Экономический рост и бедность. Внешний государственный долг. Аналитический материал. ЮНИСЕФ, 2003.
4. Фромм Э. Бегство от свободы. Перев. англ./ Общ. Ред. И послесл. П. С. Гуревича. – М.: Прогресс, 1989.
5. Яковлев А. Н. Қайтадан кашф этилган мамлакат. (Со'збоши о'рнида). «Халқ со'зи», 2001 йил 9 февраль.
6. Boguslovskaya S.M. Mexanizm kulturnoy prieemstvennosti. M., 1989 g.
7. Bromley Yu. Sozdano chelovechestvom. M., 1984 g.
8. Vostok i Zapad M, 1988 g.
9. Drevniy Vostok i mirovaya kultura. M., 1981 g.
10. Drevnie sivilizatsii M, 1987 g.
11. Yerasov V.S. Kultura, religiya i sivilizatsiya na Vastoke M, 1990 g.
12. Xuk S. F. Mifologiya Blijnego Vostoka. M., 1992 g.

Internet saytlari:

1. [Uzbekistan. uzpak. uz.- buyuk ipak yuli davridan mustakillik davriga kadar bulgan Uzbekiston tarixida oid sayt.](#)
2. [zamin. freenet. uz – Uzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat kurilishi Akamediyasi saytida Respublika Yangi tarixida oid materiallar mavjud.](#)
3. [www. uzbekiston.uz – Kelajakka intilmokda intilgan Uzbekiston](#)
4. [www.mfa.uz- Uzbekiston Respublikasi Tashki ishlar sayti Xalkaro xamkorlikka oid materiallar.](#)
5. [www. press-service.uz.- Uzbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. Mazkur saytda Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari jamlangan.](#)
6. [www. gov. uz.- Uzbekiston Respublikasi xukumati axboroti.](#)
7. [www.natlib.uz \turk\ -Turkiston tuplami.](#)
8. [history. uzsci.net. – Tarix instituti «Uzbekiston tarixi» jurnali](#)
9. [ula.uzci.net – «Uzbekiston fan va ta'limi» jurnali](#)
10. [www. xonatlas.uz - Uzbekiston madaniyati.](#)
11. Pravitelstvenny portal. htr: gov.uz.rambler
12. [http. // www. Natech.info/.](#)
13. [http // jahon. mta. uz / modules. php.](#)
14. [www. infoXS.Uz - “Xalq so'zi” gazetasi](#)
15. [www.turkistonsarkor.uz – «Туркистон» газетаси.](#)
16. [www.ma'rifat-inform.uz – «Маърифат» журналі.](#)
17. [www.rzultacademyfreenet.uz – «Жамият ва бошқарув» журналі.](#)
18. [www.mfa.uz – Ташқи ишлар вазирлиги.](#)
19. [www.ziynet.uz - Зиёнет](#)

MUNDARIJA

Kirish	
<p>1-mavzu. Madaniyatshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Madaniyatshunoslik kursining maqsadi va vazifasi. 2. «Madaniyat» tushunchasi va uning mohiyati. 3. Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari. 4. Dunyo madaniyatshunosligida nazariy muammolarning echimi: <ul style="list-style-type: none"> • axborot sohasidagi globallashuvning dunyo xalqlarini madaniy boyliklarni o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratayotganligi; • sivilizasiya va hozirgi zamon.; • ochiq jamiyat va madaniyat tushunchalari; • dunyo madaniyati, madaniyat va siyosat. 5. Madaniy va ma'na-viy meros. Musta-qillik sharoitida o'z-bek milliy mada-niyatini rivojlanti-rishning nazariy asoslri 	
<p>2-Mavzu: Jahon madaniyati bosqichlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ibtidoiy madaniyatda olam haqidagi bilimlarning marosimlarda aks etishi. Diniy tasavvurlar va marosimlar. 2. Ibtidoiy san'at rivoji. 3. An'anaviy madaniyat. Qadimgi Sharq madaniyatining tarixiy va davriy chegaralari. 4. Qadimgi Messopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoy madaniyati. 5. Antik madaniyatning jahon madaniyatidagi o'rni. Qadimgi Yunon sivilizasiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. 6. Qadim Lotin madaniyati. Respublika va imperiya davri madaniyati. Ellinistik madaniyatning qadimgi Lotin madaniyatiga ta'siri. Sharqdagi ellinistik markazlar. 	
<p>3-Mavzu: Madaniyatshunoslik va diniy madaniyat. Texnogen madaniyat: uning mohiyati.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'rta asrlardagi «Dunyo qiyofasi». Yevropa va Sharq madaniyatining xristian va islom dini aqidalarida namoyon bo'lishi. 2. Islomiy madaniyatning shakllanishi va uning asosiy yo'nalishlari. 3. O'rta asarlarda Yevropa xalqlari madaniyati-ning shakllanishi.Yevropa va Sharq madaniyati munosabatlari. 4. Uyg'onish davri Yevropa madaniyatining shakllanishi. Gumanizm. Adabiyot va san'at rivoji. 5. XVIII asr – Yevropa ma'rifatparvarligi asri. Adabiyot va teatr, musiqa san'atining yuksalishi. XIX asr 6. Yevropasida madaniyat so'kasida yuz bergan o'zgarishlar. 7. Sanoat inqilobi va ilmiy texnika yutuqlari. <p>XX asrda madaniyat rivojidadagi yangi yo'nalishlar. San'atning yangi turlari. Ilmiy texnologiya inqilobi va XX asr sivilizasiyasining agrar industrial hamda zamonaviy axborot- kompyuter bosqichlari.</p>	
<p>4-Mavzu: Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davr va ilk o'rta asrlar (V-VIII asrlar) madaniyati.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Markaziy Osiyoda ibtidoiy davr madaniyati. 1. Ellin madaniyatining Sharqqa kirib kelishi. 2. Kushonlar davrida Baqtriya madaniyati. Buddizm yodgorliklari. Amaliy san'at. Qadimgi Xorazm madaniyati. 3. Ilk o'rta asrlarda mamlakatimizda tarkib topgan ijtimoiy-madaniy munosabatlar. Yangi uslubdagi shahar-qal'alarning yuzaga kelishi va madaniy hayot. 	

<p>5. Turk xoqonligi davri madaniyati 6. Arab istilosi davrida madaniy kayot.</p>	
<p>5-Mavzu: Sharq Uyg'onish davri madaniyati</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Markaziy Osiyo Renessansi. IX-XII asrlarda madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlar 2. Tabiiy, falsafiy-axloqiy va diniy-tasavvufiy fanlarning rivojlanishi (Markaziy Osiyolik buyuk fan arboblari va mutaffakirlarining qarashlari va ularning jahon ilm-fanida tutgan o'rni). 3. Ma'mun akademiyasi. 4. Me'morchilik va monumental tasviriy san'atning rivojlanishi . 5. IX-XII asrlar me'moriy yodgorliklari. 6. Amaliy san'at: kulolchilik, to'quvchilik. 	
<p>6-Mavzu: Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 1 XIV asrning 2 chi yarmi –XV asrda madaniyatning rivojlanishidagi shartsharoitlar. Amir Temur madaniyat xomiysi. 2. Ilm-fan va adabiyot ravnaqi. 3. Me'morchilik, tasviriy san'at va amaliy san'at 4. Temuriylar davrida diniy munosabatlarning rivojlanishi. 	
<p>7-Mavzu: Xonliklar va Rossiya istilosi davrida, kamda mustabid sho'rolar davlati davrida O'zbekiston madaniyati</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoning ijtimoiy-madaniy holati. Ma'naviy madaniyat va diniy mutaassiblik. Dunyoviy bilimlarning qadsizlanishi. Ilmiy dunyoqa-rashning cheklanganligi. 2. Moddiy madaniyat. Xonliklardagi o'ziga xoslik. 3. Rossiya mustamlakachiligining milliy madaniyatga ta'siri. 4. Ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik va ijtimoiy madaniy ko'tarilish. 5. Milliy madaniy merosga sho'rolar tuzumi ma'muriy 6. buyruqbozlik tizimining ta'siri. 7. Madaniyat va kommunistik mafkura. 	
<p>8-Mavzu: Mustaqillik va madaniy taraqqiyot</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy istiqlol va ma'naviyat. Milliy uyg'onish va milliy ong. Madaniy muassasalar faoliyatining yangicha tashkil etilishi va milliy madaniy vorislik muammolari. 2. Madaniyat sohasidagi islohotlar va unda davlatning tutgan o'rni va vazifalari. 3. Hozirgi sharoitda adabiyot, tasviriy san'at, me'morchilik, teatr, kino va televidenie rivojlanishidagi o'ziga xoslik. 4. O'zbekistonda ta'lim va fanning rivojlanishi va ularning mamlakat madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati. 5. Milliy madaniyat ravnaqida milliy-madaniy markazlar. Respublika «Baynalmilal milliy markazi», uning milliy madaniyatlarni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati. 6. Xalqaro madaniy aloqalarning o'rni va ahamiyati. 	1.
<p>Adabiyotlar ruyxati:</p>	

MAJMUA MUALLIFLARI:



Ergasheva Yulduz Alimovna - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida mudiri, tarix fanlari doktori, professor. O‘zbekiston tarixi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 200 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. 10 dan ortiq shogirdlarga ustozlik qilib kelmoqda. Asosiy ilmiy faoliyati doirasi: O‘zbekiston tarixi, madaniy jarayonlar, yoshlar ta’lim-tarbiyasi muammosi, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va O‘zbekiston Respublikasi davlatchiligi tarixi.



Vasiyeva Dilorom Ibragimovna—“O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti. O‘zbekiston tarixi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 100 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Ilmiy faoliyati doirasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim va madaniyat tarixi.



Safarova Zilola Safarovna—“O‘zbekiston tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi. O‘zbekiston tarixi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 30 yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Ilmiy faoliyati doirasi: O‘zbekiston madaniyati tarixi.



Ochilov Farhod Eshonovich - “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida tarix fanlari nomzodi. O‘zbekiston tarixi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 30 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Ilmiy faoliyati doirasi: O‘zbekiston tarixi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlatchilik tarixi.



Murtozova Sahodat Bo'riyevna - "O'zbekiston tarixi" kafedrasida katta o'qituvchisi. Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 30 yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Ilmiy faoliyati doirasi: O'zbekiston madaniyati tarixi.



Boqiyev Bahrom O'ktamovich - "O'zbekiston tarixi" kafedrasida assistenti. Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Madaniyatshunoslik fanlaridan dars beradi. 10 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlari chop etilgan. Ilmiy faoliyati doirasi: O'zbekiston madaniyati tarixi.

**Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti
Safarova Zilola tomonidan “ZiyoNet” saytiga joylashtirilgan “Madaniyatshunoslik”
fanidan ma’ruzalar matniga**

TAQRIZ

Mustaqillik sharofati bilan Madaniyatshunoslik fanini o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Oliy o‘quv yurtlarining ikkinchi bosqichi bo‘lmish - bakalavriatda “Madaniyatshunoslik” fanining muhim muammolari o‘rganilmoqda.

Ushbu ma’ruzalar matni amaldagi dasturlar asosida tayyorlanib, barcha ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Unda ta’lim texnologiyaga tayangan holda ta’lim maqsadlari, mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan muammollar mustaqil bajarishi zarur bo‘lgan topshiriqlar keltirilgan.

Madaniyatshunoslik fanidan yaratilgan ma’ruzalar matni fanning o‘quv meyyoriy hujjatlari (fanning namunaviy dasturi, darslik va o‘quv qo‘lanmalari) asosida tayyorlangan. ma’ruzalar matni Oliy ta’lim vazirligi ma’ruzalar matnlarga qo‘yayotgan talablarga javob beradi. Unda talabaning fanni o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarining barchasi bor. Ma’ruza darslari yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o‘tilishi uchun zarur materiallar berilgan.

Ma’ruza matni fanning namunaviy dasturidagi mavzular mazmunini to‘liq o‘zida aks ettiradi, ravon tilda bayon qilingan.

Ma’ruza matni Joriy, Oraliq va Yakuniy nazorat savollari aniq va puxta tuzilgan bo‘lib, ular tayyorgarligi bor talabaga javob berishda hech qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Ma’ruza seminar darslarini o‘zlashtirishda ham talabaga ko‘maklashadi. Ular mavzuning mazmuniga mos tanlangan.

Ma’ruza matnlarida madaniyat nazariyasi va tarixi muammolari, tarixiy madaniy jarayonning o‘ziga xos qonuniyatlari, Sharq va G‘arb mamlakatlari madaniy taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta’siri, Vatanimiz madaniyat rivojining jaxon madaniyat tarixida o‘rni va roli muammolari aks ettirilgan.

Umuman olganda ushbu ma’ruzalar matnida mavzular bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlar berilgan muallif tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar yetarli darajada. Ushbu ma’ruzalar matnini “ZiyoNet” tarmog‘iga joylashtirish uchun taklif etish mumkin deb hisoblayman.

**Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrası
dotsenti Safarova Zilola tomonidan “ZiyoNet” saytiga joylashtirilgan
“Madaniyatshunoslik” fanidan ma’ruzalar matniga
TAQRIZ**

Madaniyatshunoslik fani Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligi tizimida o‘qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi eng yosh fandır. Mustaqillik sharofati bilan Madaniyatshunoslik fanini o‘rganish va o‘qitish Oliy o‘quv yurtlari o‘quv jarayoniga kiritildi. Mazkur fan madaniyat nazariyasi va tarixiga oid masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflash bilan cheklanib qolmaydi, balki talabalarning madaniyatning mohiyatini aniqlab olishlari va to‘g‘ri anglay olishlariga, malaka va ko‘nikma hosil qilishlariga hamda ijodkorlik mayillari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Undan tashshqari xalqimizning ming yillar davomida yaratilgan milliy qadriyatlari, an‘analari, diniy e’tiqodi, tili, dunyoqarashi va tafakkuridan iborat ma’naviy madaniyat va merosini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish asosida milliy istiqloq g‘oyasining tamoyillarini yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyish qilish, vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish ma’naviyat vohasi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning shu jumladan «Madaniyatshunoslik» predmetining, asosiy vazifalari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Mustaqillik sharofati bilan Madaniyatshunoslik fanini o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Oliy o‘quv yurtlarining ikkinchi bosqichi bo‘lmish - bakalavriatda “ Madaniyatshunoslik “ fanining muhim muammolari o‘rganilmoqda.

Ushbu ma’ruzalar matni amaldagi dasturlar asosida tayyorlanib, barcha ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Unda ta’lim texnologiyaga tayangan holda ta’lim maqsadlari, mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan muammolar mustaqil bajarishi zarur bo‘lgan topshiriqlar keltirilgan. .

Madaniyatshunoslik fanidan yaratilgan ma’ruzalar matni fanning o‘quv meyyoriy hujjatlari (fanning namunaviy dasturi, darslik va o‘quv qo‘lanmalari) asosida tayyorlangan. ma’ruzalar matni Oliy ta’lim vazirligi ma’ruzalar matnlarga qo‘yayotgan talablarga javob beradi. Unda talabaning fanni o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarining barchasi bor. Ma’ruza darslari yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o‘tilishi uchun zarur materiallar berilgan.

Ma’ruza matni fanning namunaviy dasturidagi mavzular mazmunini to‘liq o‘zida aks ettiradi, ravon tilda bayon qilingan.

Ma’ruza matni Joriy, Oraliq va Yakuniy nazorat savollari aniq va puxta tuzilgan bo‘lib, ular tayyorgarligi bor talabaga javob berishda hech qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Ma’ruza seminar darslarini o‘zlashtitishda ham talabaga ko‘maklashadi. Ular mavzuning mazmuniga mos tanlangan.

Umuman olganda ushbu ma’ruzalar matnida mavzular bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlar berilgan muallif tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar yetarli darajada. Ushbu ma’ruzalar matnini “ZiyoNet” tarmog‘iga joylashtirish uchun taklif etish mumkin deb hisoblayman.

**“Ijtimoiy fanlar”
kafedrası mudiri f.f.n**

J.SH. Shonazarov

